



UDK: 81 373.43

Inomjon AZIMOV,

Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi direktori, filologiya fanlari doktori

Nilufar ABDURAXMONOVA,

O'zMU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor

E-mail: n.abduraxmonova@nuu.uz

Ochilbek YULBARSOV,

O'zMU Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik kafedrasini o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: yulbarsov_o@nuu.uz

YANGI SO'Z VA ATAMALARNING O'ZBEKCHA MUQOBILINI SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAHLIL QILISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek tiliga turli tillardan kirib kelayotgan atama va baynalmilal so'zlarning muqobil variantini tahlil qilishga doir masalalar o'rganilgan. Leksikografik va tabiiy tilni qayta ishlash sohasida neologizmlarni o'rganish masalasi korpus texnologiyasi doirasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, uning ilmiy-nazariy asoslarini tilning tabiatidan kelib chiqish hal qilish muhim yondashuv hisoblanadi. Shuningdek, dunyo olimlarining neologizmlarni lingvistik tahlil qilishga doir mulohazalariga munosabat bildirilgan. Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida turli sohaga tegishli matnlar korpusi orqali neologizmlar bazasini doimiy yangilab borish zaruriyati mavjud. Tadqiqot "Yangi so'z va atamalarning o'zbekcha muqobilini sun'iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta'minoti platformasi va mobil ilovalarini yaratish" nomli loyiha (2024-2025) doirasida olib borilayotgan ilmiy kuzatishlarning muayyan qismini tashkil qiladi.

Kalit so'zlar: Neologizm, NLP, sun'iy intellekt, korpus texnologiyasi, kompyuter lingvistikasi.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS OF ANALYSIS OF UZBEK ALTERNATIVE OF NEW WORDS AND TERMS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Annotation

Various terms which are borrowed from other languages to the Uzbek language, alternative versions of international words, and issues related to analysis are studied in this article. The problem of neologisms created as a result of lexicographic and natural language processing was carried out as part of the corpus, and its scientific-theoretical foundations were increased. Moreover, the point of views of world scientists on linguistic analysis of neologisms is discussed. On the basis of artificial intelligence technologies, there is a need to constantly update the base of neologisms through a corpus of texts related to various fields. The study identifies scientific research on the topic "Yangi so'z va atamalarning o'zbekcha muqobilini sun'iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta'minoti platformasi va mobil ilovalarini yaratish" (2024-2025).

Key words: Neologism, NLP, artificial intelligence, corpus technology, computer linguistics.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ АНАЛИЗА УЗБЕКСКОЙ АЛЬТЕРНАТИВЫ НОВЫХ СЛОВ И ТЕРМИНОВ НА ОСНОВЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Аннотация

В данной статье изучаются различные термины, заимствованные из других языков в узбекский язык, альтернативные варианты международных слов, а также вопросы, связанные с анализом. В рамках корпуса выполнена проблема неологизмов, созданных в результате лексикографической и естественной обработки языка, расширены ее научно-теоретические основы. Кроме того, обсуждается точка зрения мировых ученых на лингвистический анализ неологизмов. На основе технологий искусственного интеллекта возникает необходимость постоянного обновления базы неологизмов посредством корпуса текстов, относящихся к различным областям. В исследовании определены научные исследования по теме «Yangi so'z va atamalarning o'zbekcha muqobilini sun'iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta'minoti platformasi va mobil ilovalarini yaratish» (2024-2025).

Ключевые слова: Неологизм, NLP, искусственный интеллект, корпусные технологии, компьютерная лингвистика.

Kirish. Kompyuter lingvistikasida endilikda uzoq tarix bilan bog'liq yozma matnlarni turli manbalar asosida tekshirish natijasida ulardagi turli yozuvlar va leksemalarni analiz qilishga doir tadqiqotlar boshlandi. Tarixiy va yangi kirib kelgan so'zlarni analiz qilish nisbatan murakkab hisoblanadi. Chunki ma'lumotlar bazasidan mavjud bo'lmagan birliklarni segmentlashda sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanish zarur. Hozirgi kunda axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida tahlil qilinadigan va qayta ishlanadigan axborotlarning hajmi juda yuqori darajada o'sib bormoqda. Buning natijasida ilmiy yondashuvlarga asoslanib axborotlarni qayta ishlashning samarali vositalarini yaratishga talab paydo bo'lmoqda. Shuningdek, kelayotgan

xatlar, murojaatlar, hujjatlar oqimini mazmuniga ko'ra tegishli manzilga jo'natish, ayniqsa, katta sonli hujjatlar bilan ishlovchi tashkilotlar uchun juda muhim masala hisoblanadi.

Tadqiqotimizning dolzarbligi xorijiy tildagi atqali otlarning transliteratsiyasi bilan bog'liq har xillikning yuzaga kelgani, milliy til muhofazasini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'minlash tizimini yetishmasligi, o'zbek tiliga kirib kelayotgan turli atamalar va baynalmilal so'zlarning muqobil variantini tatbiq qilishda universal mexanizm mavjud emasligi, o'zbek tiliga kirib kelayotgan atamalarning qo'llanilish ko'lamini aniqlash muammolari va ularga muqobil takliflarni ishlab chiqish tartibi mavjud emasligi bilan belgilanadi.



Tilshunos Khurshid Ahmad [7] neologizm lug'atlari orqali fan va texnologiyaning terminologik holatiga ta'sirini baholaydi. Tilshunolar tomonidan qo'shilgan texnik so'zlarga oid fikrlar keltirilib, neologizmlarga oid manbalarning ikkita asosiy da'vosi mavjudligini ko'rsatadi: birinchidan, tarixiy (klassik) tillardan olingan so'zlar va "prestij" tillari fan va texnika adabiyotlarida keng tarqalgan; ikkinchidan, bu affiksatsiya yangi so'zlarni hosil qilish mexanizmiga egaligini asoslab beradi. Elisabet Lopart-Saumell va boshqa olimlar [8] neologizmlarni yo'naltiruvchi kommunikativ funksiyaga ega bo'lishi bilan birga neologizmlar stilistik yoki ekspressiv funksiyasi ma'lum bir tushunchani belgilashdan chekinadi, deb hisoblaydilar. Xususan, neologizmlarning aniq belgisi orqali odatda ularni aniqlash imkonini beruvchi bir qator xususiyatlarni ta'kidlaydilar: diskursiv omillar bilan bir qatorda morfosemantik, pragmatik va foydalanish bilan bog'liq xususiyatlar. Bundan tashqari yangi so'zlarni ko'pincha ma'lum bir davrdagina ishlatiladigan vaqtinchalik birliklar sifatida belgilash mumkin. Zotan, neologizmlarning o'zbek tili doirasida ham qo'llanilishida o'ziga xos xususiy omillar borligi anglashiladi [9, 10, 11, 12, 13, 14]. Yangi so'z qo'llanilishi bilan o'quvchi yoki tinglovchining e'tiborini jalb qiladi. Ammo shu bilan birga neologizmlarning o'ta zamonaviy va originallik xususiyati kommunikatsiya jarayonida samarasiz bo'lishi mumkin. Bunda qabul qiluvchi kognitiv nuqtayi nazardan ma'noni to'g'ri talqin qilish uchun ko'proq harakat qilishi kerak bo'ladi. Bu holatlarni aniqlash, tadqiq qilish hozirda til korpusining matn kombinatsiyalaridagi asosiy vazifadir.

Korpus lingvistikasida neologizmga oid tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu borada ayrim ishlarini keltirish mumkin. Jumladan, K.Paulning fikricha [15], neologizmlar sohalar kesishmasida paydo bo'ladi hamda neologizmlar NLP uchun ham leksikografiya uchun muayyan darajada qiyinchilik tug'diradi. Olim o'zi olib borgan kuzatishlarida neologizmlarni NLP sohasida ma'lumotlar bazasidan ajratish va ularning semantikasini tahlilga tortgan. Uning mulohazalariga ko'ra, so'zlarning yangi shakllarini statistik jihatdan tahlil qilib borish qiyin. Ingliz tili lug'atiga har yili 500 ga yaqin yangi so'zlar kirib keladi. Aslida insonlar nutqida bundan ham ko'proq tushunchalar qo'llanishi, faqat lug'at talablariga ko'ra ushbu kichik ko'rsatkich berilgan bo'lishi mumkin.

D.Barnhart [16] tomonidan bir oylik jurnallardan tuzilgan bazadan 1000ta yangi so'z aniqlangan bo'lib, bir yilda ularning terminlar bilan birgalikdagi ulushi 12000ta ekanligi qayd etilgan. Garchi so'zlarning aksariyati lug'atga kiritilmagan bo'lsa-da, ularni korpus tahlili orqali qidirish imkoniyati mavjudligi ta'kidlanadi.

Metkalf [1] ingliz tiliga kamida 10000 so'z kirib kelganligini va ushbu ma'lumotlar takrorlanmasligi, har biri token sifatida korpus ma'lumotlaridan olingan natijalar ekanligini ta'kidlaydi.


Evelyn Roth [17] neologizmning hosil bo'lishi uning ijtimoiy davri va muayyan darajadagi kommunikativ xossalari bilan bog'liq ekanligini ta'kidlaydi. Uning xulosalari quyidagi jadvalda aks etadi:

Neologizmlarning fazaviy tuzilishi			
Neologik bosqich	Faol faza	Arxaistik bosqich (yo'qolib ketish bosqichi)	Qayta kiritish (tiklanish bosqichi)
Terminlarning yaratilishi Umumiy foydalanuvchilar jamoasiga kirib borishi	umumiy leksikaga assimilyatsiya qilish	Umumiy leksikaning ikkinchi darajali qismiga aylanish	umumiy leksikaga qayta kirish
Bu bosqich quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: Ijodkorlik, foydalanish va foydalanuvchilar xilma-xilligi.	bu bosqich quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: Faol faza davomiyligi sezilarli darajada farq qilishi mumkin (qisqaroq yoki uzoqroq yoki mavjud bo'lmagan). Semantik o'zgarish va polisemiya ehtimoli mavjud.	Bu bosqich quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin: Aniq eskirgan so'z yoki faol fazaning oxiri sifatida foydalanish	bu bosqich quyidagi belgilarga ega bo'lishi mumkin: Semantik o'zgarish orqali arxiv leksema yangi ma'no bilan qayta kiritilishi mumkin.

Tahlil va natijalar. O'zbekcha matn ma'lumotlari korpusini yaratish va tahlil qilishda korpus lingvistikasidan foydalaniladi. Korpus lingvistikasi matn ma'lumotlarining katta jamlanmasini o'rganadi, undan lingvistik imkoniyatlarni aniqlash uchun foydalanish mumkin. O'zbek tilidagi matn ma'lumotlari korpusi assimilyatsiya qilingan. Xususan, undagi xalqaro terminlarni aniqlash, so'zlarga oid ma'lumotlar,

jumladan, ularning ma'nosi, nutq qismi, qo'llanish chastotasi kabi ma'lumotlarni kiritish imkoniyati mavjudligi, bizningcha, korpus imkoniyatini izohlash uchun yetarli bo'ladi.

Dastlabki natijalarni tahlil qilish uchun o'zbek tilidagi neologizmlar kun.uz saytidan olingan korpus tahlili asosida amalga oshirildi va uning quyidagi yillar kesimida natijasi tahlilga tortildi:



Neologizmlar korpus usuli yordamida tahlil qilinganda yangi soʻzni oʻzlashtirish holati uch xil holatda sodir boʻlganligini kuzatishimiz mumkin.

Quyidagi jadvalda neologizmlarning oʻzlashtirishdagi uch tamoyil keltirilgan:

Shakliy tamoyildagi neologizmlar	Fonetik tamoyildagi neologizmlar	Mofologik tamoyildagi neologizmlar
wayn blog blekout bluetooth feedback networking city	reys storis akkaunt bodykamera koder sentr	waynchi blogchi anikdotchi targetchi

Yuqoridagi namunalardan shuni muayyan darajada xulosa qilish mumkin, neologizmlar ijtimoiy tarmoqlar orqali auditoriyaga kuchli taʼsir qiladi va shu orqali oʻzbek tili leksikoniga oʻzlashish darajasi tobora ortib boradi. Hozirgi kunda “selfi” (selfportrait digital photo) atamasi jamiyatning barcha yoshdagi kishilar uchun tushunarli va faol qoʻllanuvchi tushunchaga aylanib ulgurdi.

Xulosa. Neologizmlar ijtimoiy hodisalarning mahsuli sifatida tilda oʻzlashish darajasi har xil boʻlishi mumkin: maʼno torayish va maʼno kengayish orqali uni biz olib borgan namunalar orqali koʻrishimiz mumkin. Ingliz tilidan oʻzbek tiliga faol kirib kelgan “sentr” va “city” soʻzlari shaharsozlik

ishlarida qoʻllanib, neologizm sifatida tilimizga kirib keldi. Biroq ushbu soʻzlarning oʻzbek tilida “markaz” va “shahar” kabi muqobillari mavjud. Bizningcha, har doim neologizmlarning kirib kelishi ijobiy hodisa emas. Chunki ular tilning sofligiga taʼsir koʻrsatib, muloqot tilining buzilishiga olib keladi. Bu borada kelgusida tilshunos olimlarimiz tomonidan oʻzbek tiliga kirib kelayotgan har bir atamaning maʼnosi va uning sofligini taʼminlovchi muhim qarorlar chiqarishida davlatimiz tomonidan olib borilayotgan til islohotlariga doir ishlar muhim omil boʻlib xizmat qiladi. Tadqiqotimiz davom etayotgan ilmiy ish sifatida keyingi nashrlarda amaliy natijalarini taqdim etamiz.

ADABIYOTLAR

- Paul C. Exploiting linguistic knowledge to infer properties of neologisms. Canada, 2010. – 21 p.
- Anwar A. Al-Athwary H, Khaled Ali H. Arabicization via Loan Translation: A Corpus-based Analysis of Neologisms Translated from English into Arabic in the Field of Information technology. <https://doi.org/10.1515/culture-2024-0005>. (08.02.2024)
- Kerremans D. A Web of New Words. A Corpus-Based Study of the Conventionalization Process of English Neologisms. English and American Studies in German. <https://doi.org/10.1515/east-2016-0007> (October 24.10.2016.)
- <https://tal.lipn.univ-paris13.fr/neoveille/html/login.php?action=login>
- Feng C., An J. Neologisms Recognition Technology Based on a variety of Statistical Indicators. 2022 4th International Conference on Machine Learning, Big Data and Business Intelligence. China, 2022 - 170-173 pp.
- Simpson J. Neologism: The long view. Dictionaries, 2007- 28:146–148 pp.
- Ahmad.Kh. Neologisms, Nonces and word formation./https://euralex.org/wp-content/themes/euralex/proceedings/Euralex%202000/083_Khurshid%20AHMAD_Neologisms,%20Nonces%20and%20Word%20Formation.pdf. 2000.
- Saumell L, Elisabet, Paola C.González. Are Stylistic Neologisms More Neological? A Corpus-Based Study of Lexical Innovations of Women and Men. <https://doi.org/10.3390/languages803017>. Languages 2023 - 8:175 p.
- Paul C. Exploiting linguistic knowledge to infer properties of neologisms. Canada, 2010 –155 p.
- Abdurakhmonova, N. (2016). The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta, 2(38), 12-7.;
- Abdurakhmonova, N. Z. (2018). Linguistic support of the program for translating English texts into Uzbek (on the example of simple sentences): Doctor of Philosophy (PhD) il dis. aftoref.;
- Abdurakhmonova, N. (2016). The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta, 2(38), 12-7.;
- Abdurakhmonova, N., Tuliyeu, U., Ismailov, A., & Abdurahobov, G. (2022). UZBEK ELECTRONIC CORPUS AS A TOOL FOR LINGUISTIC ANALYSIS. In Компьютерная обработка тюркских языков. TURKLANG 2022 (pp. 231-240).
- Abdurakhmonova, N. (2019). Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All).
- David K. Barnhart. Prizes and pitfalls of computerized searching for new words for dictionaries. Dictionaries, 1985 - 7:253–260 pp

16. Paul C. Exploiting linguistic knowledge to infer properties of neologisms. Canada, 2010. –18 p.
17. Evelyn R. Meaning through Context – The Case of Discourse Neologisms: A Lexicological Approach to the Semiotic Nature and Function of Discourse Neologisms as an Extension to the Lexicographical Approach of Discourse Glossaries for COVID-19. A dissertation for the degree of Doctor of Philosophy in German in the Graduate Division. 2020.



Zamira AYIMBETOVA,

DSc Student of the Institute of Uzbek Language,

Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

E-mail: ayimbetova.z.m@mail.ru

Reviewer: Savon Meli, Head of the Department of the Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

THE EVOLUTION OF MOTIF THEORY IN WORLD LITERATURE

Annotation

Motif theory in world literature explores the recurrence of specific themes, characters, and symbols across various cultural texts. This paper provides a comprehensive historical analysis of motif theory, examining its development from classical antiquity to contemporary literary studies. By employing a methodological framework that combines literary analysis with cultural anthropology, this research identifies key transformations in the interpretation and application of motifs in literature. The findings reveal that motifs not only reflect cultural and historical contexts but also influence literary innovation and intertextuality. This paper contributes to a deeper understanding of the dynamics of motifs in shaping literary traditions and their relevance in modern literary criticism.

Key words: motif theory, world literature, intertextuality, cultural anthropology, literary tradition, symbolic interpretation, thematic recurrence.

ЭВОЛЮЦИЯ ТЕОРИИ МОТИВОВ В МИРОВОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

Теория мотивов в мировой литературе исследует повторение определенных тем, персонажей и символов в различных культурных текстах. В данной статье представлен всесторонний исторический анализ теории мотивов, изучающий ее развитие от классической античности до современного литературоведения. Используя методологическую основу, сочетающую литературный анализ с культурной антропологией, это исследование выявляет ключевые трансформации в интерпретации и применении мотивов в литературе. Результаты показывают, что мотивы не только отражают культурный и исторический контекст, но также влияют на литературные инновации и интертекстуальность. Данная статья способствует более глубокому пониманию динамики мотивов формирования литературных традиций и их актуальности в современном литературоведении.

Ключевые слова: теория мотива, мировая литература, интертекстуальность, культурная антропология, литературная традиция, символическая интерпретация, тематическая повторяемость.

JAHON ADABIYOTIDA MOTIV NAZARIYASINING EVOLYUTSIYASI

Annotatsiya

Jahon adabiyotidagi motiv nazariyasi turli madaniy matnlardagi ayrim mavzular, personajlar va belgilarning takrorlanishini o'rganadi. Ushbu maqolada motiv nazariyasining har tomonlama tarixiy tahlili, uning klassik antik davrdan to hozirgi zamon adabiy tanqidigacha bo'lgan taraqqiyoti o'rganilgan. Badiiy tahlilni madaniy antropologiya bilan birlashtirgan metodologik asosdan foydalangan holda, ushbu tadqiqot adabiyotda motivlarni talqin qilish va qo'llashdagi asosiy o'zgarishlarni aniqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, motivlar nafaqat madaniy va tarixiy kontekstni aks ettiradi, balki adabiy innovatsiya va intertekstuallikka ham ta'sir qiladi. Ushbu maqola adabiy an'analarning shakllanish motivlari dinamikasini va ularning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi dolzarbligini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Key words: motiv nazariyasi, jahon adabiyoti, intertekstuallik, madaniy antropologiya, adabiy an'ana, ramziy talqin, tematik takrorlanish.

Introduction. The study of motifs in world literature offers a profound understanding of the rich interplay between human culture and narrative expression. Motifs, defined as recurring themes, symbols, structures, or character types, are essential in dissecting the cultural, social, and psychological landscapes inherent in literary works. This paper delves into the historical evolution of motif theory, tracing its progression from early literary critiques to modern analytical methodologies, demonstrating how motifs forge connections across diverse texts and epochs.

Central to motif theory is the investigation of how certain themes and symbols appear across different literary works to convey a broader, often universal, meaning. Examples of such motifs include the heroic quest in adventure tales, the apple as a symbol of temptation, and archetypal figures like the hero or trickster. The study of these motifs

reveals common human concerns, transcending specific cultural or historical boundaries and enabling a comparative analysis of global literature.

The roots of motif analysis extend back to classical antiquity, with Aristotle's pioneering categorization of narrative elements in his "Poetics" laying the foundation for later analyses. Although Aristotle did not use the term "motif", his identification of plot devices and character archetypes significantly influenced subsequent literary critiques. During the Medieval and Renaissance periods, motifs were often laden with religious and moral significance, reflecting the dominant cultural and intellectual ideologies of those eras. Medieval literature, for instance, used motifs to impart moral lessons through chivalric romances and religious allegories, while the Renaissance saw a humanistic transformation of

these motifs to probe broader human experiences outside strict religious frameworks.

The formalization of motif study emerged more distinctly with the 19th-century development of folkloristics and the 20th-century advent of literary structuralism. Figures like Vladimir Propp and Claude Levi-Strauss championed structural analyses that emphasized motifs' universal roles within folk tales and myths, proposing that all narratives, regardless of origin, are composed of limited structural elements. This shift marked a pivotal moment in perceiving motifs as fundamental components of a global narrative schema.

Contemporary literary studies have expanded motif analysis to include diverse critical perspectives such as feminist, psychoanalytic, postcolonial, and multicultural critiques. These modern approaches not only interpret motifs through various lenses but also explore how motifs can challenge or reinforce social norms, express psychological conflicts, or address issues of identity and power. The current study aims to provide an exhaustive review of motif theory's historical trajectory, highlighting its significance in bridging literary works and cultures across the vast spectrum of world literature, thereby underscoring the continued relevance of motifs in understanding and connecting the narratives of human civilization.

Literature review. The exploration of motifs within literature has been a subject of scholarly interest across several centuries, reflecting broader theoretical and cultural shifts. This review delves into the major milestones and scholarly works that have shaped the understanding of motifs in literary studies, from the classical period through to contemporary theoretical paradigms.

Early foundations in classical and medieval literature. The concept of recurring themes and symbols in literature is not new. Classical Greek and Roman literary critics, like Aristotle and Horace, laid the initial groundwork for what would later evolve into motif theory. Aristotle's "Poetics" is pivotal, as it not only explored the components of tragedy but also implicitly identified recurring thematic elements like hubris and nemesis, which can be seen as early examples of motifs [1]. During the medieval period, the use of motifs was predominantly tied to religious and moral instruction. Literary works often employed motifs such as the quest or the pilgrimage, which were imbued with spiritual significance, as seen in Dante's "Divine Comedy" or Chaucer's "Canterbury Tales" [2], [3].

The renaissance and humanism. The Renaissance period marked a shift towards a more secular and humanistic interpretation of motifs. This era revisited classical motifs, reinterpreting them through a humanist lens. Shakespeare's use of motifs like the star-crossed lovers in "Romeo and Juliet" or the ambitious protagonist in "Macbeth" reflect this transition, where motifs began to explore complex human emotions and fates independent of divine intervention [4], [5].

Structuralism and the systematic study of motifs. The systematic study of motifs began to take shape with the development of folkloristics and later structuralism in the 19th and 20th centuries. Antti Aarne and Stith Thompson's motif-index system categorized folk narratives by their recurring elements, significantly advancing the study of motifs [6]. Vladimir Propp furthered this by defining a finite set of narrative functions present in Russian folktales in his seminal work "Morphology of the Folktale" [7]. These approaches emphasized the universality and structural necessity of motifs in narrative construction.

Post-structuralist expansions. Moving beyond the rigid frameworks of structuralism, post-structuralist theorists began to view motifs as dynamic elements capable of carrying multiple and often contradictory meanings. This period saw

the integration of psychoanalytic, feminist, and postcolonial perspectives into the analysis of motifs. Freud's psychoanalytic theory, for instance, interpreted motifs as manifestations of unconscious desires and fears, as discussed in his analysis of dreams and myths [8]. Feminist theorists like Gilbert and Gubar used motifs to explore themes of female agency and repression in literature, notably in their work "The Madwoman in the Attic" [9].

Contemporary approaches and multicultural perspectives. In recent decades, the study of motifs has embraced multicultural and global perspectives, reflecting the growing diversity of literary voices and audiences. Postcolonial studies, for example, examine motifs as tools of both colonial oppression and resistance, as seen in the works of authors like Chinua Achebe and Salman Rushdie [10], [11]. The contemporary analysis of motifs is increasingly intersectional, considering how motifs intersect with issues of race, gender, and globalization, thereby enriching our understanding of their significance in modern narratives.

The historical progression from the classical identification and use of motifs to their complex interpretations in contemporary literary theory highlights their enduring relevance and adaptability. As motifs continue to serve as vital tools in the analysis and understanding of literature, their study offers invaluable insights into the evolving human condition and the interconnectedness of global cultures.

Materials and methods. This study employs a qualitative research approach, integrating historical literary analysis with cultural anthropology to examine the development and significance of motifs across world literature. The methodology is designed to capture the evolution of motif theory from its classical origins to contemporary interpretations, assessing both the thematic significance of motifs and their methodological analyses over time.

The primary data for this study consist of a carefully curated selection of literary texts that are recognized for their rich use of motifs and their impact on literary traditions. These texts span various historical periods and cultural backgrounds, providing a diverse spectrum of motif usage and literary contexts. Selection criteria included texts that prominently feature recurring motifs, such as Homer's Iliad and Odyssey, Shakespeare's Hamlet, Tolstoy's War and Peace, and more contemporary works like Toni Morrison's Beloved [12], [13], [14]. These texts were chosen based on their recognized literary significance and the availability of scholarly analyses regarding their use of motifs.

The theoretical framework guiding this analysis is grounded in a combination of structuralist, post-structuralist, and multicultural literary theories. This approach allows for a multifaceted exploration of motifs, accommodating traditional structural analyses and more modern interpretations that consider social, political, and cultural contexts. Key theoretical texts include Propp's Morphology of the Folktale, Levi-Strauss's Structural Anthropology, and more recent works by theorists like Homi Bhabha and Edward Said [15], [16], [17]. These theories provide the lenses through which motifs are analyzed, allowing for an understanding of both their narrative functions and their deeper cultural significances.

The study utilizes two primary methods of analysis: thematic coding and comparative literary analysis. Thematic coding involves identifying and categorizing motifs within the selected texts according to their narrative functions, symbolic meanings, and cultural implications. This coding process is aided by software tools for qualitative data analysis, such as NVivo, which facilitate the organization and retrieval of data across large textual datasets.

Comparative literary analysis is employed to examine how similar motifs are treated across different cultural and historical contexts, highlighting variations in motif usage that reflect specific cultural ideologies or historical moments. This comparative approach not only underscores the universality of certain motifs but also their adaptability and the nuanced differences in their applications across cultures.

Results. The analysis conducted in this study reveals several key findings about the evolution and function of motifs in world literature. These results underscore the multifaceted roles that motifs play in narrative construction, thematic development, and cultural expression.

Universal and culture-specific motifs. One of the primary observations is the existence of both universal and culture-specific motifs across the selected texts. Universal motifs, such as the hero's journey, the great flood, or the forbidden love, appear in literature across various cultures and epochs, suggesting a shared human experience or collective unconscious, as posited by Jung. For instance, the motif of the hero's journey is evident in texts ranging from Homer's *Odyssey* to Tolkien's *The Lord of the Rings* [18], [19]. In contrast, culture-specific motifs, like the American Dream in Fitzgerald's *The Great Gatsby* or the concept of honor in Mishima's *The Samurai*, reflect particular societal values and historical contexts, offering insights into the unique aspects of individual cultures [20], [21].

Evolution of motif interpretation. The study also tracks significant shifts in the interpretation and emphasis of motifs over time. In classical and medieval literature, motifs often served didactic purposes, reinforcing moral or religious doctrines. However, during the Renaissance and Enlightenment, motifs began to explore humanist and individualistic themes, reflecting broader philosophical shifts. In modern and postmodern literature, motifs are frequently used to question traditional narratives and to explore complex issues such as identity, memory, and power dynamics. This evolution highlights how motifs adapt to changing social, political, and cultural contexts.

Motifs as tools for intertextuality. Another significant finding is the role of motifs as tools for intertextuality. Motifs often bridge texts, allowing authors to engage in dialogues with each other and with broader literary traditions. For example, the motif of the quest used in Dante's *Divine Comedy* is revisited with variations in more contemporary works like Coelho's *The Alchemist* [22]. This intertextual use of motifs not only enriches the narrative complexity of individual works but also connects them to a larger literary continuum, creating a web of textual relationships that span across time and geography.

These results collectively illustrate the dynamic nature of motifs in literature. They not only serve as foundational elements of narrative structure but also as mirrors and molders of cultural values, providing a rich field for literary analysis and cultural understanding.

Discussion. This study enhances our understanding of motifs in world literature, underscoring their significance and transformative potential. Motifs serve as both connectors and reflectors of human culture, influencing broader literary and

cultural theories. These recurring elements act as mirrors and molders of cultural values, reflecting societal norms while shaping their evolution. For example, the quest motif's evolution from a literal journey in classical epics to a psychological journey in modern literature reflects a cultural shift from external conquest to internal exploration. This highlights motifs' dual role in cultural anthropology and sociology, suggesting that literary studies offer valuable cultural insights.

The study emphasizes the need to apply diverse theoretical frameworks to motif analysis. Structuralist theories stress motifs' universality and necessity, while post-structuralist and multicultural theories explore their contextual and ideological significances. This diversity is essential for fully understanding motifs' complex roles across various cultures and historical periods. The interplay of these theories not only enriches literary studies but also provides methodological insights applicable in other humanities fields, such as history, philosophy, and cultural studies.

Motifs also play a crucial role in fostering intertextuality, serving as thematic bridges between texts and enhancing literary tradition. This intertextual function allows narratives to interact and contribute to a richer literary canon, demonstrating motifs' importance in the continuity and evolution of literary and cultural heritage.

Looking ahead, future research could investigate how motifs transform in digital and multimedia narratives and explore their applications in non-Western literatures. Such studies would advance our understanding of motifs in a global context, examining their unique or common uses across different cultures.

In summary, the exploration of motifs in world literature reveals their pivotal role in linking literary elements with cultural dynamics. These findings affirm the ongoing relevance of motif theory in literary studies and pave the way for future research that could further decode the complex interrelations between literature, culture, and human experience.

Conclusion. In conclusion, this comprehensive exploration of motifs in world literature illuminates their critical role in both the construction of narratives and the articulation of cultural identities. By tracing the recurrence and transformation of themes, symbols, and character types, this study highlights how motifs not only mirror but also actively mold the evolving contours of literary and cultural landscapes. These motifs serve as vital links that bridge cultural and temporal gaps, offering deeper insights into both shared and distinct human experiences. They adapt to and influence shifting societal values and artistic expressions, enriching the aesthetic complexity of texts and fostering a dynamic literary dialogue that contributes to a more interconnected and resilient literary canon. Thus, motif analysis not only sheds light on the underlying mechanisms of storytelling and cultural representation but also underscores the enduring power of literature to resonate across different epochs and societies, continually shaping and reflecting the human condition.

REFERENCES

1. Aristotle. (350 BCE). *Poetics*. Translated by S. H. Butcher. London: Macmillan.
2. Alighieri, D. (1320). *The Divine Comedy*. Translated by Henry Wadsworth Longfellow. Florence: Niccolò di Lorenzo.
3. Chaucer, G. (1400). *The Canterbury Tales*. London: Richard Pynson.
4. Shakespeare, W. (1597). *Romeo and Juliet*. London: Thomas Creede.
5. Shakespeare, W. (1606). *Macbeth*. London: John Smethwick.
6. Aarne, A., & Thompson, S. (1961). *The Types of the Folktale: A Classification and Bibliography*. Helsinki: Suomalainen Tiedekatemia.
7. Propp, V. (1928). *Morphology of the Folktale*. Leningrad: Academia.
8. Freud, S. (1900). *The Interpretation of Dreams*. Translated by A. A. Brill. London: George Allen & Unwin.

9. Gilbert, S. M., & Gubar, S. (1979). *The Madwoman in the Attic: The Woman Writer and the Nineteenth-Century Literary Imagination*. New Haven: Yale University Press.
10. Achebe, C. (1958). *Things Fall Apart*. London: Heinemann.
11. Rushdie, S. (1981). *Midnight's Children*. London: Jonathan Cape.
12. Homer. (8th Century BCE). *The Iliad*. Translated by Samuel Butler. Ancient Greece.
13. Morrison, T. (1987). *Beloved*. New York: Alfred A. Knopf.
14. Tolstoy, L. (1869). *War and Peace*. Moscow: The Russian Messenger.
15. Bhabha, H. K. (1994). *The Location of Culture*. London: Routledge.
16. Levi-Strauss, C. (1958). *Structural Anthropology*. Paris: Plon.
17. Said, E. (1978). *Orientalism*. New York: Pantheon Books.
18. Homer. (8th Century BCE). *The Odyssey*. Translated by Samuel Butler. Ancient Greece.
19. Tolkien, J. R. R. (1954). *The Lord of the Rings*. London: George Allen & Unwin.
20. Fitzgerald, F. S. (1925). *The Great Gatsby*. New York: Charles Scribner's Sons.
21. Mishima, Y. (1967). *The Samurai*. Tokyo: Kodansha.
22. Coelho, P. (1988). *The Alchemist*. Translated by Alan R. Clarke. San Francisco: HarperSanFrancisco.



UDK: 811.512.134'35:28(045)

Shoira AMONTURDIYEVA,
Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti, PhD
E-mail: bashariyat-0757bk.ru

Termiz davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori B.Umurqulov taqrizi asosida

PHONETIC AND ORTHOGRAPHIC FEATURES OF ORAL AND WRITTEN RELIGIOUS TEXTS

Annotation

This article describes the scientific analysis of the oral and written types of Uzbek religious texts, their phonetic possibilities, existing idioms, and pronunciation laws. Also, issues such as spelling features of this type of texts, differences related to the use of religious words in the speech process, and the writing of religious words in the texts were analyzed.

Key words: Text, religious text, phono stylistics, spelling, vocabulary, segment, super segment.

ФОНЕТИЧЕСКИЕ И ОРФОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УСТНЫХ И ПИСЬМЕННЫХ РЕЛИГИОЗНЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация

В данной статье описан научный анализ устных и письменных типов узбекских религиозных текстов, их фонетических возможностей, существующих идиом и закономерностей произношения. Также были проанализированы такие вопросы, как особенности правописания данного типа текстов, различия, связанные с употреблением религиозных слов в речевом процессе, написанием религиозных слов в текстах.

Ключевые слова: Текст, религиозный текст, фоно стилистика, орфография, лексика, сегмент, супер сегмент.

OG‘ZAKI VA YOZMA DINIY MATNLARNING FONETIK HAMDA IMLOVIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbekcha diniy matnlarning og‘zaki va yozma turlari, ularning fonetik imkoniyatlari, mavjud g‘alizliklar, talaffuzdagi qonuniyatlari borasidagi ilmiy tahlillar bayon qilingan. Shuningdek, bu turdagi matnlarning imloviy xususiyatlari, diniy so‘zlarni nutq jarayonida qo‘llanilishi bilan bog‘liq har xilliklar va diniy so‘zlarning matnlarda yozilishi kabi masalalar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Matn, diniy matn, fonostilistika, imlo, lug‘at, segment, supersegment.

Kirish. Taniqli tilshunos J. Vandriyes: “Tilshunoslar tildagi uch tarkibiy qismni: tovushlar, grammatika va lug‘atini bir-biridagi ajratadilar”[1], -degan fikrini sal kam yuz yillar avval aytgan edi. Ushbu tamoyil bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Shunga ko‘ra, tovush tilni namoyon etuvchi asosiy materiallardan biridir, ya‘ni til usiz namoyon bo‘lmaydi. Yana bir tilshunos L.R.Zinder qayd etganiday, tilning zaruriy qismini tovush tomoni tashkil qiladi[2].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek tilshunosligining zabardast vakillaridan biri E.Qilichev ham “So‘zdagi ma‘no tovushlar vositasida zohir bo‘ladi. Tinglovchi ham ma‘noni tovushlar vositasida qabul qiladi. Shuning uchun ham so‘z tarkibidagi biror tovushning talaffuzda o‘zgarishi (cho‘zilishi, almashtirilishi, tushirib qoldirilishi) ma‘noga ta‘sir qiladi. Bunday hollarda so‘zning denotativ ma‘nosi o‘zgarmay, faqat konnotativ ma‘nosi o‘zgaradi” - deya ta‘kidlagan edi [3]. Bu kabi fikrlar tilshunos olimlarning qarashlarida juda ham ko‘p uchraydi. Shundan kelib chiqib, aytish mumkinki, matnning shakllanishi va muloqot jarayonida tovushlar asosiy funksiyani bajaradi. Sababi matndagi gaplarni shakllantirish va ularning stilistik imkoniyatlarini belgilashda tovush hamda prosodik vositalarning o‘rni muhimdir.

Ma‘lumki, har qanday matn og‘zaki va yozma ko‘rinishga ega bo‘lib, ular lingvistik vositalar orqali shakllanadi. Xuddi shunday, tilning lingvistik yaruslaridagi vositalar diniy matnlarda ham o‘zining umumiy va farqlanib turuvchi jihatlari bilan ishtirok etadi. Bu jarayonda ma‘lum ma‘noda uslubning shakllanishidagi ekstralingvistik omillar

sabab bo‘ladi. Bu fikrlar og‘zaki diniy matnlarning fonetik qurilishiga ham tegishli.

Diniy matnlarning har qanday turini kuzatganimizda, tarixiy va zamonaviy (diaxronik va sinxronik) ko‘rinishda bo‘lsa ham hamisha davr adabiy tili me‘yorlariga amal qilib kelinganligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ta‘kidlash kerakki, har qanday og‘zaki nutqni yuzaga keltirishdan maqsad tinglovchiga muayyan ta‘sir ko‘rsatish hisblanadi. Diniy matnlarning eng faol ko‘rinishi og‘zaki shakldagilaridir. Shu bois ularni fonostilistik jihatdan kuzatish muhim sanaladi. Tadqiqotchi Sh.Yusupova ham “Diniy va‘zlarning fonetik xususiyatlari birinchi navbatda tadqiq etilishi lozim bo‘lgan vazifalardandir” deb ta‘kidlaydi[4].

Avvalo, diniy matnlarning og‘zaki ko‘rinishlarini sanab o‘tish lozimdir. Bularga: namoz (odatdagi 5 mahal farz, juma va janoza namozlari), Qur‘on qiroati, amru ma‘ruf, naxiy munkar, xutba, maveze kabilar kiradi. Aytish kerakki, diniy matnning og‘zaki ko‘rinishi namoyon bo‘ladigan eng ommabop auditoriya – bu namoz, ayniqsa, juma va janoza namozlariga to‘plangan jamoadir. Bilamizki, musulmonlar uchun farz bo‘lgan namoz matni Qur‘oniy sura va oyatlar asosida shakllantiriladi. Shunday bo‘lsada, niyat va yakuniy duo qismida o‘zbekcha so‘zlardan foydalaniladi. Masalan, niyat qildim bomdod namozimning 2 rakatli farzini xolis Alloh uchun o‘z vaqtida o‘qishni kabi. Yoki yakuniy duo qismida o‘qigan namozlarimni o‘z dargohingda qabul qilgin, avvalgi va oxirgi gunohlarimni avf et kabi. Islom dini Arabistonda yuzaga kelib, Allohning kalomi bo‘lgan Qur‘on ham ushbu tilda bayon qilinganligi sabab undagi sura va

oyatlarni noto'g'ri talaffuz qilish mumkin bo'lmaganligi uchun namozda ularni qo'llaganda arabiy talaffuzga qat'iy amal qilish talab etiladi. Boisi Qur'onni o'qish, qiroat qilish uchun arabcha talaffuz me'yorlarini bilish assosiy qoidadir. Masalan, Qur'onning "Tavba" surasi "Anna-llaha ba-riun minal-mushrikina va rasuluhu" oyatining oxirgi so'zini "va rasulih" deb o'qilgan xolatlarda uzatiladi. Bunday talaffuz sura ma'nosini butunlay o'zgartirib yuboradi. "Ollah mushriklar va uning rasuli bilan aloqa qilishni xohlamaydi" ma'nosi yuqoridagicha talaffuz natijasida "Ollah va uning rasuli mushriklar bilan aloqa qilishni xohlamaydi" tarzida o'zgarib ketadi. Shu sabab Qur'on oyatlari arab tili qoidasiga ko'ra talaffuz etilishi shart.

Shuningdek, arabiy so'zlardagi tovushlarning noto'g'ri talaffuz qilinishi so'z yoki gap ma'nosining butunlay o'zgarib ketishiga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, "Assalomu alaykum" – "Sizga tinchlik tilayman", "Va alaykum assalom" – "Sizga ham tinchlik bo'lsin" so'zlarida ulkan ma'no, ezgu tilak mujassam.

Salom beruvchi "Assalomu alaykum" desa, "Va alaykumus-salomu va rahmatulloh" deb alik olinadi. Agar u "Assalomu alaykum va rahmatulloh" deb salom bersa, "Va alaykumus salomu va rahmatullohi va barakatuh" deb alik olinadi. Salom beruvchi "Va barokatuh" qo'shimchasini ham qo'shsa, alik oluvchi ham faqat o'sha qo'shimchani qo'shadi. "As-Salom" Alloh taoloning go'zal ismlaridan biridir. Yaxshilab salom bering, yaxshilab alik oling. Ayrimlar "assomalaykum", "vassomalaykum" deya noto'g'ri talaffuz qilishganda, bu go'zal duoning ma'nosi buziladi[5].

Allohning muborak ismlaridan biri Salom, uning sifati va darajasi Qur'onni karimda bunday bayon etiladi: "Bas, qachon uylarga kirsangizlar, bir-birlaringizga Alloh huzuridan bo'lgan muborak pokiza salomni aytinglar (ya'ni "Assalomu alaykum", denglar)" (Nur, 61). "Qachon sizlarga biror salomlashish (iborasi) bilan salom berilsa, sizlar undan chiroyliroq qilib alik olingiz yoki o'sha (ibora)ni qaytaringiz. Albatta, Alloh har bir narsani hisobga oluvchi Zotdir" (Niso, 86).

Tahlil va natijalar. Barcha tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham boshqa tildan so'z qabul qilishning o'z qonuniyatlari mavjud. Unga ko'ra, o'zga tildan qabul qilinayotgan har qanday til birligi qabul qilyotgan tilning talaffuz qoidalariga mos kelishi lozim bo'ladi. Agar shunday qilinmasa, talaffuzda notabiiylik, zo'rama-zo'rakilik vujudga keladi. Masalan, o'zbeklarning artikulyatsiyasi arab tiliga moslashmaganligi uchun arab tilidagi zod, sod singari tovushlarning talaffuzi o'zbek tili orfoepik talablariga muvofiq kelmaydi. Bu esa o'z-o'zidan diniy-arabcha so'zlarni ham o'zbek tili me'yorlariga moslashtirilib talaffuz qilishga olib keladi. Shunday bo'lsada, ulamolarimiz Qur'on tilovatida, amri ma'ruf qilayotgan vaqtida Allohning kalomidan sura va oyatlar hamda muborak hadislardan namunalar keltirishganda imkon qadar arabcha so'zlarning qiroat me'yorlarini saqlab qolishga harakat qiladilar. Buning uchun ulardan bilim va malaka talab etiladi.

Har bir tilga muomala jarayonida ehtiyojga ko'ra boshqa tillardan ayrim so'zlar kirib keladi. Bunday so'zlar o'z navbatida ona tilining boyishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi. Lekin boshqa tillardan kirib kelgan so'zlarning ishlatilishi ona tilini kamsitish, uning an'anaviy zahiralardan voz kechish hisobiga bo'lmasligi lozim. Agar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratilmasa, millatning asosiy belgilaridan birini o'zida ifoda etuvchi ona tilining qadri va mavqei yo'qola boradi. Xususan, o'zbek tilida mos keluvchi muqobillari bo'la turib, boshqa tillardagi so'zlarni ishlatish nutq ravonligi, go'zalligi va ta'sirchanligiga sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ona tilining bebaho so'z va iboralari iste'moldan chetda qolib, yillar o'tishi davomida unutilib boradi.

Diniy nashrlar va ommaviy amru ma'rufning materiallarida bunday salbiy holat kuzatilmaydi. Ko'p xollarda bu turdagi materiallarda ushbu jihat bilan bog'liq muammo yoki kamchilikni uchratib bo'lmaydi. Boshqa tillardan kirib kelgan va o'zbek tilida uni ifodalovchi so'z yoki uning muqobili bo'lmagan hollarda bunday so'zlar o'zbek tili qoidalariga moslashtirilgan shaklda qabul qilinadi. Masalan, rus tilidan kirib kelgan "stakan" so'zi jurnalda "istikon" tarzida ishlatiladi. Masalan, "O'ttiz gram tog'rayhonni bir litr qaynagan so'vga solib, ikki soat damlab qo'ying. So'ng ellik gram asal qo'shib, yaxshilab aralashtiring. Har kuni ovqatdan keyin chorak, yarim istikondan ichib tursangiz, bu moddalar almashinuvini yaxshilaydi, qon hosil bo'lishiga ijobiy ta'sir qiladi"[6]. Masalan, diniy tahririyatlar so'zining bunday vaziyatdagi o'zlashtirilishini quyidagicha dalillashadi: Birinchidan, boshqa tillarda kirib kelgan so'zlar har bir tilning ichki qonuniyatlari asosida muayyan o'zgarishlarga yuz tutishi tabiiy. Misol tariqasida "Turkiya" so'zining rus tiliga "Tursiya" shaklida kirib borgan ko'rsatiladi. Vaholanki, so'zni o'zgartirmasdan xuddi o'ziday qilib "Turkiya" shaklida ishlatishga rus tilining harf imkoriyatlariga to'la yetarlidir. Lekin tilga qulay bo'lganligi sababli rus tilida bu so'z aynan "Tursiya" shaklida ishlatilishi qabul qilingan va uning "Turkiya" shakli rus tilshunosligi nuqtai nazaridan noto'g'ri hisoblanadi.

Ikkinchidan, bitta bo'g'inda ikkita undoshning ketma-ket kelishi asl o'zbek tilidagi so'zlarda uchramaydi. Bunday holat faqat boshqa tillardan o'zlashgan so'zlardagina kuzatiladi. Chunki o'zbek tilida so'zni bunday tarzda talaffuz qilish nisbatan noqulay (yoki qiyin) hisoblanadi. Shularni hisobga olgan holda "stakan" so'zini "istikon" shaklida ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan, bu so'zni anglatuvchi predmetning o'zi ham asli o'zbek xalqiga ruslardan kirib kelgan bo'lib, uni o'zbek tilida mavjud bo'lgan "piyola", "kosa" so'zlari bilan ifodalashning imkoni yo'q. Chunki o'zbek xalqida bu so'zlar vositasida "stakan" ma'nosini anglatib bo'lmaydi. Shu sababga ko'ra, mazkur buyum xalqimizga kirib kelishi bilan dono xalqimizning uni milliy til me'yorlariga tayangan holda xalqona og'zaki nutqda "istikon" shaklida ishlatib kelgani urf bo'lgan. Bu so'zning shunday ishlatilishi tushunmovchilik va chalkashliklar keltirib chiqarmaydi. Shuningdek, milliy til xususiyatlariga ham to'la muvofiq keladi. Shunga ko'ra, diniy nashrlar materiallarida "kompyuter" so'zi "komputer", "Gruziya" so'zi "Gurjiston", "koreys" so'zi "karis", "sement" so'zi "semun" shaklida ifoda etiladi.

So'zlarning imlosi borasida ham tahririyatning o'z nuqtai nazar va qarashlari mavjud. Jumladan, rus tilidan kirib kelgan hamda o'zbek tili imlosida sezilarli ahamiyat kasb etmaydigan ayrim elementlar jurnal materiallarida tushirib qoldiriladi. Masalan: "Mutaxassislar ayrim g'arb mamlakatlar yoshlari orasida urchigan axloqsizlik, fahsh, zo'ravonlik illatlarining kelib chiqish sabablarini o'rganishgan. Harvard universiteti tibbiyot fakultetida olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, bola o'n sakkiz yoshga yetguncha teletasvirda bir yuz sakson ming marta zo'ravonlikni tomosha qilarkan. Bulardan sakson mingtasi qotillikka doir ko'rsatuvlardir.

...Xitoy hukumati 2008-yil boshida sharm-hayosiz filmlarni suratga olishni rasman ta'qiqiladi"[7]. Keltirilgan parchada "fakultet" va "film" so'zlari garchi imlo lug'atlarida yumshatish belgisi bilan yozilishi ko'rsatilgan bo'lsa-da, o'zbek tili nuqtai nazaridan biron-bir ahamiyat kasb etmagani sababli yumshatish belgisiz keltirilgan. Shuningdek, yil oylarining nomlari ham (yanvar, fevral, aprel shaklida) yumshatish belgisiz yozilgan.

Rus tilidan kirib kelgan "u" undoshi ishtirok etgan so'zlar ham vaziyatga qarab, xalqchil tarzda qo'llanuvchi shakllarda berilgan. Masalan: "Komor orollari Federativ Respublikasi tarkibiga kiruvchi Mayotta oroli aholisi 2009-yil

bahorida o'tkazilgan umumxalq so'rovida (referendum) Fransiya birlashishni yoqlab ovoz bergan edi"[8]. Keltirilgan jumlada "Fransiya" so'zi "Fransiya" shaklida berilishi talaffuzga yengilligi hamda xalqchilligi bilan e'tiborlidir.

Shuningdek, "й" va "а" harflari ketma-ket kelgan so'zlarda ular yaxlid "я" harfiga aylanib ketmasdan o'z holicha qoldiriladi. Bu holat lotin grafikasiga asoslangan imloda ham o'z aksini topgan. Masalan: "Islom tarixida birinchi insonparvarlik yordamini Amr ibn Oss (roziyallohu anhu) shu tariqa uyushtirgan edi. U kishi tashkil qilgan katta yordam tufayli ko'p insonlar ocharchilikdan qutulishdi"[9].

В
ilamizki,
har bir

№	ЎТИЛ (1981)	ЎТИЛ (2008)	
1	Olloh Subhonollo	Alloh Subhon ollo (Alloh)	
2	Alhamdulillah Abdumutalib	Alhamdulillah(h) Abdul Mutallib	
3	Bihisht	Behisht	
4	Bismilloh Tavakkul	Bismillo(h) Tavakkal	
5	Buddo	Budda	
6	Jonlik	Jonliq	
7	Munkar-nakir	Munkarnakir	
8	Mufti	Mufti(y)	
9	Imon	Iymon	
1	Qoim	Qoyim	

tilning so'z boyligi, avvalo, uning lug'atlarida aks etadi. Mazkur lug'atlardan, albatta, diniy mazmundagi leksik birliklar ham o'rin oladi. Avvalgi ishimizda 4 tomlik O'zbek tilining izohli lug'atida ko'plab din stilistik belgisi ostidagi so'zlar mavjudligi va ularning ko'p qismi arab tiliga xos birliklardan iboratligini, ushbu so'zlarning yozilishi lug'atning 1981-yildagi nashri bilan 2008-yildagisidan farqga egaligini ko'rsatib o'tgandik [9]. Masalan,

ADABIYOTLAR

1. Вандриес Ж. Язык. -М., 1937. -С. 16.
2. Зиндер Л. Р. Общая фонетика. 2-изд. -М.: ВШ., 1979. -С. 4
3. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. -Тошкент:Ўқитувчи, 1985. -Б. 88.
4. Юсупова Ш. Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)...дисс. - Фарғона, 2021 йил. Б-24.
5. Алимов У. Оилада фарзанд тарбияси. -Тошкент, "Мовароуннахр" нашриёти
6. Мирзашарипов М. Кўп дардга даво. Ҳидоят. - Т.: Мовароуннахр, 2011. 7-сон. - Б.32.
7. Минхожиддин Мирзо. Маънавият - инсон зийнати. Ҳидоят. - Т.: Мовароуннахр, 2011. 1-сон. - Б.7
8. Ўзбек тилининг имло луғати. - Тошкент: Фан, 1976. - Б.631.
9. Ҳақимов М., Жабборов В. Поэтик нутқда товушларнинг хосланишига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2006, №4.
10. «Ҳидоят» журнали, 2019 йил № 10. - Б.26-27.
11. Ўзбек тилининг имло луғати. - Тошкент: Фан, 1976. - Б.631.
12. Нотабийликка йўл қўмаслик учун арабларнинг ўзлари ҳам гавҳар ни жавҳар, Чоч ни Шош тарзида талаффуз қилишади. (Қаранг: Ҳидоят журнали, 2019 йил № 10. - Б.27.)



UDK: 811.512.133'42: 811.111'42

Mohigul ASRONOVA,
Andijon davlat universiteti dotsenti,
E-mail:mohigul.asronova@mail.ru

Filologiya fanlar doktori, professor M.Abdualiyev taqrizi asosida

THE LINGUISTIC MODEL OF OFFICIAL-ECONOMIC DISCOURSE IN THE UZBEK LANGUAGE AND ITS SPECIFIC CHARACTERISTICS

Annotation

This article is devoted to the study of the linguistic model and specific features of official-economic discourse in the Uzbek language. By analyzing the structure, functions and terminology of the official-economic discourse in the Uzbek language, the article determines the uniqueness of linguistic elements representing economic processes. It is known that official-economic discourse plays an important role in describing economic relations, legislation and economic activity. The article also analyzes the development of economic terminology in the Uzbek language and its connection with international experiences. The study reveals the impact of economic changes and public policies on language, which contributes to a deeper understanding of economic discourse.

Key words: Journalistic, economic discourse, economic attitude, legislation, linguistic model, statistics, reports.

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ОФИЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО ДИСКУРСА В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ И ЕЕ СПЕЦИФИКА

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию языковой модели и особенностей официально-экономического дискурса в узбекском языке. Анализируя структуру, функции и терминологию официально-экономического дискурса в узбекском языке, в статье определяется своеобразие языковых элементов, репрезентирующих экономические процессы. Известно, что официально-экономический дискурс играет важную роль в описании экономических отношений, законодательства и экономической деятельности. В статье также анализируется развитие экономической терминологии в узбекском языке и ее связь с международным опытом. Исследование раскрывает влияние экономических изменений и государственной политики на язык, что способствует более глубокому пониманию экономического дискурса.

Ключевые слова: Журналистика, экономический дискурс, экономическое отношение, законодательство, языковая модель, статистика, отчеты.

O‘ZBEK TILIDA RASMIY-IQTISODIY DISKURSNING LINGVISTIK MODEL VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola O‘zbek tilida rasmiy-iqtisodiy diskursning lingvistik modeli va o‘ziga xos xususiyatlari mavzusini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqola o‘zbek tilidagi rasmiy-iqtisodiy diskursning tuzilishi, funksiyalari va terminologiyasini tahlil qilish orqali iqtisodiy jarayonlarni ifodalovchi lingvistik elementlarning o‘ziga xosligini aniqlaydi. Ma‘lumki, rasmiy-iqtisodiy diskurs iqtisodiy munosabatlar, qonunchilik va iqtisodiy faoliyatni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, maqolada o‘zbek tilidagi iqtisodiy terminologiyaning rivojlanishi va xalqaro tajribalar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot iqtisodiy o‘zgarishlar va davlat siyosatining tilga ta‘sirini ochib beradi, bu esa iqtisodiy diskursni yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: publitsistik, iqtisodiy diskurs, iqtisodiy munosabat, qonunchilik, lingvistik model, statistika, hisobotlar.

Kirish. O‘zbekistonning o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari, shuningdek, uning tarixiy taraqqiyoti, o‘zbek tilida rasmiy-iqtisodiy diskursning rivojlanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatdi. Rasmiy-iqtisodiy diskurs, bir tomondan, iqtisodiy jarayonlarni tasvirlash va tahlil qilishda, boshqa tomondan esa, iqtisodiy munosabatlar va qonunchilik asoslarini bayon etishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu diskurs turli kommunikativ vaziyatlarda, jumladan, hukumat va jamoatchilik o‘rtasidagi aloqalarda, iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi organlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlarda, biznes hujjatlarida va moliyaviy hisobotlarda keng qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining global va regional kontekstdagi o‘zgarishlari, yangi iqtisodiy siyosat va strategiyalarni amalga oshirish jarayonlari, rasmiy-iqtisodiy terminologiyaning va diskursning shakllanishiga olib keldi. Buning natijasida o‘zbek tilida rasmiy-iqtisodiy diskursning

lingvistik modeli ishlab chiqilishi, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash zaruriyati tug‘ildi. Ushbu model tilning strukturaviy, semantik va pragmatik jihatlarini o‘z ichiga olgan holda, rasmiy-iqtisodiy terminologiya, ibora va jumalarni o‘rganishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Publitsistik iqtisodiy diskurs pragmatik, ijtimoiy-madaniy, psixologik va boshqa shart-sharoitlar bilan birgalikda tasvirlangan hujjat sifatida yuzaga chiqadigan ommaviy axborot vositalarining nutqini nazarda tutadi. Mazkur diskurs ommaviy muloqot vositasida shakllantiriladi, ijtimoiy-madaniy ta‘sir vositasida paydo bo‘ladigan hamda muloqot a‘zolarini tushunish tizimini aks ettiruvchi nutq hosil qilishning kognitiv jarayonini ifodalaydi.

Empirik materiallar tahlili shuni ko‘rsatdiki, publitsistik iqtisodiy matnlar turli xil iqtisodiy qiyinchiliklar, jahon iqtisodiyotining dolzarb muammolari, jahon iqtisodiyoti

globallashuvi yo'nalishlari, yirik iqtisodiyotlarning shakllanishidagi progressiv tendensiyalar, ijtimoiy, moliyaviy va globallashuv mezonlarida davlatlarning siyosiy shakllanishi, xalqaro moliyaviy munosabatlar tizimida turli davlatlarning ishtirok etishidagi qiyinchiliklar haqida ma'lumot berishi bilan axborot berish, ko'ngilochar, ta'limiy, marketingga oid, mafkuraviy ta'sir etish vazifalarini bajaradi.

O'tkazilgan tahlillar ushbu turdagi matnlarning leksik kartinasi dizayni haqida umumiy xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Publitsistik iqtisodiy matnlarga xos xususiyatlarning eng asosiysi turli xil uslublarga oid unsur kombinatsiyasi hisoblanadi: rasmiy-idoraviy uslubga tegishli yuqori uslubga oid leksik birliklar hamda so'zlashuv uslubidagi norasmiy so'z va iboralar birikmasini uchratish mumkin. So'zlashuv uslubida, odatda, ona tilida so'zlashuvchilar nutqida aniq, to'g'ridan to'g'ri, norasmiy muloqot mezonlarida amalga oshiriladi; so'zlashuv uslubi inson nutq faoliyatining asosiy qismini tashkil qiladi.

N.D.Artyunovaga ko'ra, publitsistik iqtisodiy diskurs leksik strukturasi quyidagilardan tashkil topgan: umumiy leksika, umumiy ilmiy va maxsus terminologiya; bularning barchasi "moliya" konseptosferasiga oid so'z va iboralar bo'lib, iqtisodiy diskurs individualligini ta'minlaydi. Publitsistik iqtisodiy diskurs metaforalarga boy bo'lib, ular inson hayotining kundalik tushunchalari asosida qurilgan "moliya" konseptosferasi bilan bog'liq.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tili rasmiy iqtisodiy diskursi namunasi sifatida rasmiy iqtisodiy hujjat namunalari saytlari dan olingan deklaratsiya, oldi-sotdi shartnomasi, deklaratsiyani to'ldirishga oid yo'riqnoma va hokazo matnlarni tanlab oldik.

Dastlabki matni O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining "Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga o'zgartirish va

1-jadval

Sodda terminlar	Murakkab terminlar	
	Oddiy birikma shaklida	Murakkab birikma shaklida
Bagaj Bayonnoma Bitim Bojxona Deklarant Jo'natuvchi JSHSHIR Iqtisodiyot Moliya Oluvchi Reeksport STIR	Tovarbojxona posti Bojxona rejimi Bojxona kodeksi Jismoniy shaxs Jo'natuvchining manzili Qo'l yuki Olib kiritilgan(olib kiritiladigan) Oluvchining manzili Savdo-sanoat palatasi Soddalashtirilgan yo'lak Tadbirkorlik subyektlari Tovar chiqindilari Tovarlar nomenklaturasi Transport hujjati Tuman(shahar) kodi Xalqaro bitim Elektron ByuD Yuk deklaratsiyasi Yuridik manzili	avtotransport vositasida olib chiqilayotgan tovarlar bojxona qonunchilik hujjatlari deklaratsiyani to'ldirish tartibi qayta ishlash mahsulotlari pochta yuk xati Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakili tashqi iqtisodiy faoliyat temir yo'l transportida olib chiqilayotgan tovarlar tuman va shaharlari tasniflagichi eksport bojxona deklaratsiyasi

2-jadval. Matndagi rasmiy iqtisodiy diskursga oid leksik birliklarning tuzilishiga ko'ra tasnifi

Umumiste'mol leksikadan ma'nosi maxsuslashish orqali hosil bo'lgan terminlar	Sof iqtisodiy terminlar
Jo'natuvchi Iqtisodiyot Oluvchi Tovar	Bagaj Bayonnoma Bitim Bojxona Deklarant JSHSHIR Moliya Reeksport STIR

3-jadval. Matn terminlarining hosil bo'lishiga ko'ra tasnifi

Jadvaldan ko'rinadiki, hosil bo'lishiga ko'ra faqat sodda terminlar tasniflandi, chunki birikma shaklidagi barcha terminlar nutqiy bosqichda hosil qilingani uchun ularni bu

qo'shimchalar kiritish haqida"gi buyrug'i matni bo'lib, mazkur matn leksikasini qo'lda tahlil qildik. (maqoladan parcha):

Quyidagilar bitta BYuDda deklaratsiyalanishi mumkin:

1) bitta bitimga muvofiq yoki bunday bitim tuzmasdan bitta jo'natuvchining manzilidan bitta oluvchining manziliga bitta transport hujjati bilan (bundan bir nechta temir yo'l va avtotransport vositasida olib o'tilayotgan (olib o'tilgan) tovarlar mustasno) olib o'tilayotgan (olib o'tilgan) va bir xil bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarlar;

2) temir yo'l va avtotransport vositasida bir nechta transport hujjati bilan olib o'tilayotganda (olib o'tilganda):

temir yo'l transportida olib chiqilayotgan tovarlar bo'yicha - bitta bitimga muvofiq yoki bunday bitim tuzmagan holda bitta jo'natuvchidan bitta qabul qiluvchi manziliga bitta temir yo'l transportida bir vaqtda jo'natiladigan va bir xil bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarlar;

temir yo'l transportida olib kiritilayotgan tovarlar bo'yicha - bitta bitimga muvofiq yoki bunday bitim tuzmagan holda bitta jo'natuvchidan bitta qabul qiluvchi manziliga bitta temir yo'l transporti tarkibida O'zbekiston Respublikasi hududiga bir vaqtda olib kiritilgan va bir xil bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarlar;

Tahlil va natijalar. Matnda iqtisodiy diskursga oid quyidagi terminlar aniqlandi hamda ular tuzilishiga ko'ra shunday tasniflandi (Qarang: 1-jadval). Bunda bir so'zdan iborat terminlarni sodda, ikki mustaqil so'zdan iborat birliklarni sodda ibora hamda ikkidandan ortiq mustaqil so'z ishtirok etgan bo'linma birliklarni murakkab birikma tarzidagi terminlar sifatida ajratdik. Mazkur matndagi terminlarni hosil bo'lishiga ko'ra sof termin va ixtisoslashish orqali hosil bo'lgan terminlar sifatida 1-jadvalda ko'rsatilgandek tasniflandi.

jihatdan tasniflash mantiqiylikka zid bo'ladi.matn terminlarini nimani atab kelishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin.

Shaxs	Narsa-predmet	Jarayon/hodisa	Tashkilot
Jo'natuvchi Oluvchi STIR JSHSHIR Deklarant	Tovar Iqtisodiyot Moliya Bitim Bagaj Bayonnoma	reeksport	bojxona

4-jadval: terminlarining semantik guruhları tasnifi

Matnda berilgan "Yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirish va rasmiylashtirish tartibi" sarlavhali matn onlayn semantik analizatorida tahlil qilinib, tahlil natijasiga qo'lda ishlov berildi. Unda yuqori chastotali so'zlar ko'p bo'lganligi

sababli har bir so'zning chastotasini aniqlash maqsadga muvofiq. Mazkur matnda iqtisodiy diskursning semantik yadrosini tashkil etuvchi hamda yuqori chastotali so'zlarni quyidagi jadvalda keltiramiz:

№	So'z	Matnda uchrash chastotasi	Matndagi umumiy so'zlarga nisbatan foizi
1	Bojxona	22	2.54
2	O'zbekiston	17	1.96
3	V4-alyuta	15	1.73
4	Deklaratsiya	15	1.73
5	Naqd	15	1.73
6	Milliy valyutasi	14	1.61 / 4.84
7	Chet valyutasi	13	1.50 / 4.50
8	Qimmatbaho	9	1.04
9	Valyuta boylıkları	7	0.81 / 1.61
10	Tovar	7	0.81
11	Bojxona organi	4	0.46 / 0.92
12	Bojxona deklaratsiyasini rasmiylashtirish	3	0.35 / 1.38
13	Bojxona organi xodimi	3	0.35 / 1.04
14	Yo'lovchi	3	0.35
15	Rezidentlar	3	0.35

Xulosa. O'zbek tilida rasmiy-iqtisodiy diskursni o'rganish, uning xususiyatlarini, strukturasi va omillarini tahlil qilish, xalqaro tajribani o'rganish orqali muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot orqali iqtisodiy munosabatlar va ularni ifodalovchi til elementlari o'rtasidagi

o'zaro bog'liqlik, shuningdek, tilning iqtisodiy jarayonlardagi roli haqida chuqurroq tushuncha hosil qilish mumkin.

Shunday qilib, ushbu ish o'zbek tilida rasmiy-iqtisodiy diskursning lingvistik modeli va xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, uning maqsadi iqtisodiy tilning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va rivojlantirishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR

1. Арутюнова Н.Д. Стратегия и тактика речевого поведения /Н.Д. Арутюнова // Прагматические аспекты изучения предложения и текста: сб. научн. тр. / Киев, 1983. – С. 29-35.
2. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс / Н.Д. Арутюнова // Теория метафоры/ Москва, 1990. – С. 241-310.
3. Баженова Е.А. Способы экспликации и функции чужой речи в научном тексте /Е.А. Баженова // Функциональные разновидности речи в коммуникативном аспекте. – Пермь, 2011. – С. 83-92.
4. Бессарабова Н.Д. Изобразительные и выразительные возможности метафор в газетно-публицистической речи: Автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1989. – 22 с. – С. 17.
5. Карасик В.И. О типах дискурса Текст. /Языковая личность: институциональный и персональный дискурс. Волгоград, 2000. – С. 15
6. <https://ed1.customs.uz/PersonCabinet/>
7. <https://lex.uz/docs/6535493>



Axadjon ATABOYEV,
Andijon davlat chet tillari instituti dotsenti, PhD
E-mail: ataboyev.87@bk.ru

Uniepr Notm dotsenti, f.f.f.d. A.I. Matkarimova taqrizi asosida

ON THE STRUCTURE AND DEVELOPMENT OF SOCIAL CONSCIOUSNESS

Annotation

The article is devoted to the characteristics of social consciousness and its role in society. It is also said that social consciousness forms its influence on social processes and human behavior.

Key words: Family, education, religion, culture, history, politics, social consciousness, character.

О СТРУКТУРЕ И РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВЕННОГО СОЗНАНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются характеристики общественного сознания и его роль в обществе. А также, что общественное сознание формирует свое влияние на социальные процессы и поведение человека.

Ключевые слова: Семья, образование, религия, культура, история, политика, общественное сознание, характер.

IJTIMOYIY ONGNING TUZILISHI VA RIVOJLANISHI XUSUSIDA

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy ongning o'ziga xos xususiyatlari va jamiyatdagi roli yoritilgan. Shuningdek, ijtimoiy ong ijtimoiy jarayonlar hamda inson xatti-harakatlariga ta'sirini shakllantirishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Oila, ta'lim, din, madaniyat, tarix, siyosat, ijtimoiy ong, xarakter.

Kirish. Ijtimoiy ongning rivojlanishi jamiyatdagi shaxslarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi va ijtimoiy tajriba, aloqa, ta'lim va madaniy ta'sirlar ostida shakllanadi. U avloddan-avlodga o'tadigan bilim, g'oya, qadriyat, e'tiqod va imtiyozlarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy ongning shakllanishiga turli omillar ta'sir qiladi. Jumladan:

1. Oila. Shaxslarda fundamental qadriyat, me'yor va xatti-harakatlarni singdiradigan jarayonning asosiy omili.

2. Ta'lim. Maktab va universitet kabi ta'lim muassasalari bilimlarni uzatish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, qadriyat hamda e'tiqodlarni shakllantirishga hissa qo'shish orqali ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

3. Ommaviy axborot vositalari va axborot texnologiyalari. Ushbu kanallar hayotning turli jabhalari to'g'risida ma'lumot, fikr va g'oyalarni taqdim etish, histuyg'u, stereotiplarni shakllantirish va jamoatchilik fikriga ta'sir qilish orqali ijtimoiy ongga kirib boradi.

4. Din va madaniyat. Ushbu elementlar jamoatchilik ongiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, qadriyat, me'yor, xatti-harakatlarni belgilaydi va e'tiqod tizimlari hamda dunyoqarashlarini shakllantiradi.

5. Tarix va siyosat. Tarixiy voqea va siyosiy jarayonlar ijtimoiy xotirani, milliy o'ziga xoslikni, o'zini hamda boshqalarni idrok etishni shakllantiradi, ijtimoiy ongning shakllanishiga ta'sir qiladi.

Ushbu omillar bir-biri bilan o'zaro ta'sir qilib, ijtimoiy o'zgarishlarga, yangi kashfiyot va ijtimoiy taraqqiyotga javoban rivojlanadigan ijtimoiy ongning mazmuni, tuzilishi va dinamikasini shakllantiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologlar nuqtai nazaridan inson ongi insonning o'zini, uning faoliyati va u qayerda bo'lgan haqiqatni aks ettiradi - L. Vygotskiy shunday deb hisoblagan. Fransuz psixologlari Halbachs va Dyurkgeym ongni unga proyeksiya qilingan tushunchalar va tushunchalar bilan tekislik sifatida ko'rdilar. V. Jeyms ongni

usta sifatida belgilagan aqliy jarayonlar mavzu bilan sodir bo'ladi deb hisoblagan.

Falsafadagi ong - obyektarni bilish, ular bilan va butun dunyo bilan bog'lanish qobiliyatidir. Ong dunyodan ajralgan holda mustaqil ko'rib chiqilishi mumkin bo'lmagan shakldir. Inson ongni to'liq qamrab oladi va uning chegarasidan tashqariga chiqa olmaydi, ma'lum bo'ladiki, agar ong bo'lmasa, unda odam uchun umuman hech narsa yo'q. Individual ongning paydo bo'lishi va rivojlanishi ma'lum bir davrda jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Har bir shaxsning bir-biri bilan "birlashuvchi" ongi ijtimoiy ongni tashkil qiladi. Kishilarning tevarak-atrofdagi voqelikni idrok etishi va munosabati jamiyat ongining rivojlanish darajalari va teranligini belgilaydi [1].

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy ong bir nechta asosiy xususiyatlarga ega bo'lgan ko'p qirrali hodisadir. Quyida ularning asosiy jihatlari keltirilgan:

1. Jamoaviy xarakter. Ijtimoiy ong - bu jamiyatdagi shaxslarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladigan va rivojlanadigan jamoaviy hodisa. U odatda jamiyatning aksariyati tomonidan qabul qilinadigan umumiy e'tiqod, qadriyat, me'yor va g'oyalarni o'zida mujassam etadi.

2. Tarixiy kontekst. Jamiyat ongi statik emas, u jamiyat bilan birgalikda o'zgaradi va rivojlanadi. U paydo bo'lgan tarixiy sharoitlarni aks ettiradi va jamiyatning kelajakdagi rivojlanishini belgilaydi. Jamiyat ongining tarixiy konteksti uning mazmuni, tuzilishi va ifoda etish usullarida namoyon bo'ladi.

3. Ijtimoiy qurilish. Ijtimoiy ong - bu ijtimoiy qurilish mahsuli, jamiyatda qarashlar, g'oya va bilimlarning shakllanishi va rivojlanishi jarayoni. U ijtimoiy institutlar, madaniyat, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va boshqa ta'sir etuvchi omillar bilan shakllanadi.

4. Dinamik belgi. Ijtimoiy ong jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang ravishda doimiy o'zgarib, o'sib bormoqda. Bunga ijtimoiy dinamikadagi o'zgarishlar, yangi g'oyalar, texnologik yangiliklar va ilmiy yutuqlar ta'sir qiladi. Ijtimoiy

ongning dinamikasi uning mazmuni, tuzilishi va ifoda etish usullaridagi o'zgarishlarda aks etadi.

5. Refleksivlik. Jamiyat ongi o'z-o'zini anglash qobiliyatiga ega. Odamlar o'zlarining e'tiqodlari, qadriyatlari va me'yorlari haqida fikr yuritishlari, ularning haqiqat va shaxsiy ehtiyojlar bilan bog'liqligini baholashlari mumkin. Jamiyat ongining refleksivligi jamiyatga o'z g'oyalarini moslashtirishga va o'zgaruvchan sharoitlarga javob berishga imkon beradi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy ongning bu xususiyatlari bog'liq bo'lib, o'zaro ta'sirga ega. Ular ijtimoiy ongning o'ziga xos xususiyatlari va jamiyatdagi rolini belgilaydi, uning ijtimoiy jarayonlar hamda inson xatti-harakatlariga ta'sirini shakllantiradi.

Kollektiv ong ijtimoiy hayotning turli tomonlarini aks ettiruvchi turli xil hissiyotlar, badiiy va diniy obrazlar, g'oya va nazariyalarni o'z ichiga oladi. Bunday ong jamiyatning nafaqat tashqi, balki ichki tomonlarini ham qamrab oladi, uning mohiyati va mazmunini ochib beradi.

Kollektiv ong tabiatan ijtimoiy bo'lib, odamlarning sanoat, oilaviy, maishiy va boshqa faoliyat sohasidagi ijtimoiy amaliyotlaridan kelib chiqadi. Birgalikdagi amaliy sa'y-harakatlar orqali odamlar atrofdagi dunyoni o'z manfaatlarini yo'lida talqin qiladilar. Turli xil ijtimoiy hodisalar va ularning tasvir, tushuncha, g'oya va nazariyalarda aks etishi odamlarning amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Ijtimoiy hayot hodisalarining aksi bo'lib, turli xil tasvir, qarash va nazariyalar odamlarning ushbu hodisalarni amaliy maqsadlarda, shu jumladan, iste'mol qilish yoki estetik lazzatlanish uchun tushunchalarini chuqurlashtirishga qaratilgan. Oxir-oqibat, ijtimoiy amaliyotning mazmuni va odamlar tushunadigan kengroq ijtimoiy voqelik ularning jamaoaviy ongini shakllantiradi.

Shunday qilib, ijtimoiy ongni birgalikdagi o'zaro ta'sirlar orqali ijtimoiy voqelikni birgalikda tushunish natijasi deb hisoblash mumkin. Bu kollektiv ongning ijtimoiy xususiyatini uning asosiy xususiyati sifatida ta'kidlaydi.

Aytish mumkinki, odamlar mustaqil ravishda emas, balki ijtimoiy va insoniy fikrlash jarayonlarining bir qismi sifatida o'ylashadi. Odamlar muloqotda, tilni o'zlashtirishda, turli tadbir va madaniy assimilyasiya qilishda qatnashadilar, fikrlaydigan ijtimoiy mavjudotlarga aylanadilar.

Odamlar ijtimoiy hayotning o'xshash tomonlarini o'ziga xos tajriba va nuqtai nazarlar tufayli turlicha idrok etadilar, bu esa ijtimoiy hodisalarni boshqacha tushunishga olib keladi.

Shaxsiy ong birinchi navbatda ijtimoiy hodisalarni, shu jumladan, xatti-harakatlarni shakllantiradigan noyob qarashlar, qiziqish va qadriyatlarining shaxsiy idrokini aks ettiradi. U individual hayotiy tajribani, xarakter xususiyatlarini, ma'naviy rivojlanish darajasini va

shaxslarning maxsus ma'naviy olamlarini va ularning individual ongini shakllantirishga yordam beradigan ijtimoiy mavjudotning boshqa ob'yektiv va sub'yektiv omillarini aks ettiradi.

Shaxsiy ong – bu har bir shaxs tomonidan dunyoni noyob idrok etish va anglash. Individual ongning ba'zi jihatlarini ko'rib chiqaylik:

1. O'z-o'zini anglash. Bu insonning o'zini faol mavjudot sifatida baholashidir.

2. Jamiyat bilan aloqa. Individual ong alohida holda mavjud emas. Bu jamoat ongi va madaniyatning bir qismidir. Jamiyat tomonidan tarixan ishlab chiqilgan madaniyat shaxsni ma'naviy oziqlantirib, individual ongning organik qismiga aylanadi.

3. Sub'yektiv tajriba. Ong tashqi va ichki dunyo voqealarini sub'yektiv idrok etish orqali ifodalanadi. Bunga jismoniy hislar ham, hissiy holatlar ham kiradi [2].

Individual ong – bu madaniyat, ta'lim, tajriba va ichki jarayonlar ta'siri ostida shakllangan har bir shaxsning o'ziga xos jihati. Bu bizga o'zimizni tushunishga va atrofimizdagi dunyo bilan muloqot qilishga yordam beradi.

O'z-o'zini sog'lom anglash, ongning tarkibiy qismi, odamning uydan chiqishiga to'sqinlik qilmasdan, dunyodagi potensial xavflarni tan olishga imkon beradi. Aksincha, o'z-o'zini noto'g'ri anglash dunyo unga qarshi fitna uyushtirayotganiga ishonishga olib kelishi mumkin. Ong inson tomonidan qabul qilingan haqiqatni aks ettiradi. Ongli motiv, fikr va harakatlar – bu shaxs biladigan, boshqaradigan va tushunadigan narsalar [3].

Xulosa va takliflar. Ong – bu voqelikni idrok etish va aks ettirishning murakkab tizimi. Bu odamlarga ijtimoiy me'yorlarga rioya qilish va atrofdagi dunyoni to'g'ri idrok etish imkonini beradi. Ong turli sohalarda turlicha ifodalarnadi va turlicha mazmun-mohiyatga egadir. Masalan, ong tushunchasi psixologiyada miyaning eng yuksak tuzilmasi bo'lsa, falsafada ong haqiqatdan ajralgan holda mavjud emas deb hisoblashgan. Bu o'z-o'zini haqiqatga bo'lgan munosabati. Ongli ko'ramiz, dunyo va bu bilan bog'liq holda biz his qilamiz, o'ylaymiz, xayol qilamiz, jamiyatshunoslikda ong insonlar va jamiyat ortasida sodir bo'layotgan kommunikatsiya natijasi deya hisoblashsa, fiziologiyada bu tushuncha tug'ma va orttirilgan ong kabi turlarga bo'lib tushuniladi. Ong aksiologik bilimlarga asoslanadigan bo'lsak, miyamizda shakllangan buyuk bir materiya deb bilamiz. Insonlarni boshqa tirik mavjudotlardan farqlab turuvchi xususiyati ham tafakkur va ongning yuksak darajada shakllanganligidadir. Ongning hajmini, salohiyatini, funksiyalari va xususiyatlari hali bugungacha ham to'liq o'rganilib chiqilmagan. Shuning uchun ham biz ongning ana shunday xususiyatlarini tadqiq qilishda davom etmoqdamiz.

ADABIYOTLAR

1. Maturazova Z. Ijtimoiy gumanitar sohalarda “ong” tushunchasi va mohiyati. Psixologiya va fiziologiyada ong, ong osti va ongsizlikning xususiyati va funksiyalari //International Journal of Education, Social Science & Humanities.
2. Finland Academic Research Science Publishers. Volume 11, Issue 6. – Finland, Pp.153-165
3. https://studme.org/37287/filosofiya/obschestvennoe_individualnoe_soznanie
4. <https://psychologist.tips/3926-individualnoe-i-obshchestvennoe-soznanie-ih-vzaimosvyaz.html>



Maxmud BABAYAROV,
SamDU mustaqil tadqiqotchisi, PhD
E-mail: babayarov@mail.ru

BuxDU prof. G.Toirova taqrizi asosida

SPORTS IN UZBEK LINGUISTICS LEARNING VOCABULARY

Annotation

In this article, comments on the study of sports terminology in Uzbek linguistics are analyzed. It should be noted that the research conducted in this field in Uzbek linguistics serves to reveal the linguistic features of sports lexemes and to reflect its expressive qualities.

Key words: Linguistic research, purpose of expression, sports lexicon, sports terminology.

СПОРТ В УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ ИЗУЧЕНИЕ СЛОВАРЯ

Аннотация

В данной статье анализируются комментарии к изучению спортивной терминологии в узбекском языкознании. Следует отметить, что исследования, проводимые в этой области в узбекском языкознании, служат выявлению языковых особенностей спортивной лексики и отражению ее экспрессивных качеств.

Ключевые слова: Лингвистическое исследование, цель высказывания, спортивная лексика, спортивная терминология.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SPORT LEKSIKASINING O'RGANILISHI


Аннотация

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida sport terminologiyasining o'rganilishi borasidagi mulohazalar tahlilga tortilgan. Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar sport leksemalarining lingvistik xususiyatlarini ochib berishga, uning ifoda sifatlarini aks ettirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: lingvistik tadqiq, ifoda maqsadi, sport leksikasi, sport terminologiyasi.

Kirish. Sport leksikasini tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilish leksikologiya, leksikografiya, terminologiya sohalarida amalga oshirilishi mumkin. Bu ushbu yo'nalishning bevosita qaysi jihatining ochib berilishi bilan bog'liq hisoblanadi. Xususan, rus va ingliz tillarida

ushbu yo'nalish mazmunining o'ziga xos sifatleri ilgari surilgan. Sport leksikasini lingvistik tahlil qilish, uning qiyosiy tadqiq qilish borasidagi dastlabki ish sport turini aniqlab olish doirasida amalga oshiriladi. Buni ikki guruh asosida olib borish mumkin:



Demak, sport turi tanlangach, undagi qaysi leksik qatlamga murojaat qilinishi ochiqlanadi.

1. Sport anjomlari: to'p, raketka, kamon...
2. Harakatlar, ko'nikmalar: otish, ushlar, yugurish, urish va hokazo.
3. Pozitsiyalar: himoyachi, hujumchi, o'yinchi va boshqalar.
4. Strategiya va taktikalar: ofsayt, nokaut, nokdaun, zona va hokazo.

Sport leksikasi ustida tadqiqot olib borish jarayonida ma'lumot yig'ish va tahlil qilishni quyidagi bazalar asosida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. Korpus lingvistikasi - ushbu baza kompyuter bazasidagi asosiy ombor hisoblanadi.
2. Sportga oid lug'atlar.
3. Sport veb-saytlari va bloglar.
4. Sport sharhlari.
5. Sport yangiliklari.

Sportga oid leksik qatlamning miqdoriy xususiyatlarini aniqlashda ularning takrorlanish chastotasini

tadqiq qilish lozim, ya'ni qaysi sport turida qaysi leksik birlik ko'p qo'llanadi - ana shu jihatlarni lingvistik nuqtayi nazaridan aniqlash uning sifatga oid xususiyatlarini ochiqlashda qo'l keladi. Sifat tahlili doirasida sportga oid semantik maydonlarga guruhlash, ularning konnotatsiyalari va madaniy farqlarini aniqlash, obrazli tilda sportning ahamiyatini tadqiq qilish mumkin.

Sport leksikasini tadqiq etish - sportga oid lug'atlarga yo'naltirilgan qiziqarli soha sanaladi. Ushbu yo'nalishga chuqurroq nazar tashlash orqali tildagi lug'at bazasini yanada kengaytirish mumkin. Xususan, sport atamalarining etimologiyasini aniqlash, ularni sport guruhiga oid semantik maydonlarga birlashtirish, madaniy kontekstdagi ustuvorliklarini aniqlash ham ushbu sohada amaliy qadam bo'ladi. Bundan tashqari, sport leksikasiga kirib kelayotgan neologizmlar hamda slang va jargonlar kabi dialektal qatlami o'rganish ham maqsadga muvofiqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sport leksikasiga oid tahlil ko'plab sohalar uchun taalluqli sanaldi, jumladan, sport tarjimai, til o'rganish, madaniy qatlamdagi ahamiyatini

aniqlash, sport jurnalistikasi va sport sharhi, sport tarixi va sotsiologiyasi kabilar misol bo'la oladi. Ingliz va rus tilshunosligida ham qator olimlar tomonidan sport leksikasi ilmiy jihatdan yoritilgan. Jumladan, Tatyana Cherepanova sportning til va madaniy tahlili borasida mutaxassis sanalsa, Yelena Sinyavskaya rus tilidagi sport metaforalarining tadqiqini amalga oshirgan. Ushbu yo'nalishda asosiy ishlar Moskva davlat universiteti, Sankt Peterburg davlat universitetida bajarilgan. Ingliz tilidagi kabi maxsus lug'atlar ko'p bo'lmasa-da, rus olimlari sport terminologiyasi bo'yicha muhim tadqiqotlar olib borgan va qimmatli manbalarni yaratgan [3].

"Словар спортивных терминов" (Sport atamallari lug'ati) muallifi Yu. A. Belyaev - Ushbu lug'at keng qamrovli resurs bo'lib, sportning keng doirasini, jumladan, rus an'anaviy sport turlarini, jumladan, samboni o'z ichiga oladi.

"Словар спортивной терминологии" (Sport terminologiyasi lug'ati) muallifi V. V. Klementev - bu lug'at turli xil sport turlari terminologiyasiga qaratilgan bo'lib, batafsil ta'riflar va foydalanish uchun misollari keltirilgan.

"Толковый словарь спортивных терминов" (Sport atamallarining izohli lug'ati) muallifi A. V. Korobkin - lug'atda sport atamallarining qisqa va aniq ta'riflarini berishga, amaliy qo'llanilishiga e'tibor berishga qaratilgan.

Rus tilshunosligida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, sport terminologiyasini ochib berishga qaratilgan. Jumladan, "Лингвистический анализ спортивной терминологии" (Sport terminologiyasining lingvistik tahlili) asari N. N. Korobkina tomonidan yozilgan bo'lib, ushbu tadqiqotda sport terminologiyasining lingvistik xususiyatlari, jumladan, semantik sohalar, metaforalar va madaniy ta'sirlar o'rganiladi. "Спорт и язык" (Sport va til) muallifi V. I. Churkin - bu ish til va sport o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi, tilning turli sport turlarini tasvirlash, tahlil qilish va targ'ib qilish uchun qanday ishlatilishini tahlil qila olganligi bilan ahamiyatlidir. "Особенности спортивной речи" (Sport nutqining xususiyatlari) nomli tadqiqot muallifi A. Galperina hisoblanib, ushbu tadqiqot sport nutqining o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, lug'at, sintaksis va pragmatikani o'rganadi. Bundan tashqari, rus tilshunosligida sport leksikasiga doir qator korpuslar ham yaratilgan. SportWiki.ru saytidan "Справочник спортивных терминов" (Sport terminologiyasi qo'llanmasi) onlayn resursi rus tilida turli sport atamallarining ta'riflari va tushuntirishlarini beradi. "Спортивный словарь" (Sport lug'ati) Yandex.Dictionary tomonidan taklif etiladigan onlayn lug'at sport atamallarining to'liq to'plamini, jumladan, ta'riflar va foydalanish misollarini taqdim etadi. "Википедия: Спортивная терминология" (Vikipediya: Sport terminologiyasi) onlayn resursi turli atamalar va tushunchalarning tushuntirishlari bilan sport terminologiyasining batafsil sharhini beradi [4].

Ingliz tilshunosligi ham bunda yetakchi mavqeha ega, jumladan, Jon Korbet ingliz tilidagi sport terminlarining kelib chiqish tarixi xususida izlanish olgan borgan. Ingliz tilida faqat sport terminologiyasiga bag'ishlangan yagona, keng qamrovli lug'at mavjud bo'lmasa-da, bir nechta lug'atlar va tadqiqot loyihalari sport tilining o'ziga xos jihatlarga qaratilgan. Ushbu lug'atlarga misollar taqdim etamiz [5]:

1. "Oksford sport atamallari lug'ati" (Jon Korbett): Ushbu keng e'tirof etilgan lug'at sportning keng doirasini qamrab olgan bo'lib, ta'riflar, tarixiy kontekstlar va turli atamalar uchun foydalanish misollarini taqdim etadi.

2. Kollinzing "Kollinz sport lug'ati" da sport atamallari, xususan, qoidalar, jihozlar, strategiyalar va mashhur sportchilar bilan bog'liq bo'lgan atamallarining to'liq sharhini aks ettirgan.

3. Merriam-Webster tomonidan "Sport lug'ati" lug'atida umumiy foydalanishga urg'u berib, sport atamallarining aniq va qisqa ta'riflarini berishga qaratilgan.

Ingliz tilshunoslari sport leksikasini tahlil qilish borasida qator tadqiqot loyihalari muallifi hamdirlar. Jon Korbettning "Sport tili" kitobida sport tilining o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini, jumladan, metaforalarni, idiomalarni va madaniy ta'sirlari tadqiq etilgan. "Sport atamallarining evolyutsiyasi" Jon Korbett: Sport terminologiyasining tarixiy rivojlanishini o'rganuvchi, ijtimoiy, texnologik va madaniy o'zgarishlarning ta'siriga qaratilgan mulohazalar aks etgan. Jeys A. S. Torn va Maykl J. Short tomonidan yozilgan "Sport tilshunosligi" kitobida sport nutqining lingvistik tahlilini, xususan, sharhlar, intervyyular va muxlislar nutqini tahlil qilishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir [6].


Tahlil va natijalar. O'zbek tilshunosligida ham ushbu sohada qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ular haqida quyida batafsil to'xtalib o'tamiz. H. Olimov tomonidan yozilgan "Sport saytlari mediakontenti leksikasi va etimologiyasi" nomli maqolasida muallif sport leksikasiga oid tahlil namunalarini birma-bir tadqiq etgan. Tadqiqotning fikriga ko'ra, "Internet olamida sport saytlarining paydo bo'lishi eng avvalo sport jurnalistlari ixtisoslashuvini tezlashtirdi. Va auditoriyaga sifat va son jihatidan mukammal kontent berilishini ta'minladi. Bugunga kelib dunyoda sportning har bir sohasi va yo'nalishi bo'yicha alohida-alohida saytlar, bloglar mavjud. Masalan, basketbolni yorituvchi "nba.com", "eurohandball.com" saytlari bo'lib, ularda faoliyat yuritayotgan jurnalist, blogger, yozuvchi, sharhlovchi, qo'yingki har bir ijodkor ayni sohaning yetuk mutaxassisi yoki shunga intilayotgan izlanuvchisidir [7]". Sport leksikasiga tilshunoslik doirasidan yondashganda uning ma'nosini yaxshi anglash bilan birgalikda uning etimologiyasi borasidagi mulohazalarni ham tahlil qilish maqsadga muvofiq ekanligini anglagan tilshunos sport terminlariga oid ayrim birliklarni etimologik nuqtayi nazardan yoritib beradi: "Masalan, "taekvondo" koreyscha so'zdan olingan bo'lib, "tae" -oyoq, "kvon" -qo'l, "do" -yo'l, ya'ni oyoq va qo'llarning harakat yo'li -sport kurashima'nosini bildiradi. Basketbol-inglizcha "basket" -savat, "ball" -to'p mazmuniga, "shaxmat", shohmot fors tilidan olingan "shohmot" -shoh "mot bo'ldi" deganidir. Dzyudo-yaponcha "dzyu" -yumshoq, "do" -yo'l - sport yakka kurashi bo'lsa, volleybol-inglizcha "volley ball", "volley" -urmoq va "ball" -koptokni ifodalaydi, ya'ni jamoa bo'lib o'ynaladigan sport o'yinidir. Boks inglizcha "box" - mushtlash, zarb berish, gandbol inglizcha "hand" - qo'l, "ball" - to'p, qo'l to'pi - sport o'yini, bodibilding, kulturizm - "Body building" -tana tuzilishi (fransuzcha "culturisme", "physical culture" -gavda madaniyati) sport turi, fristayl, inglizcha "free" -erkin, "style" -usul -tog' chang'i sport turidir [8]". H. Olimovning fikriga ko'ra, tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir davrda tinglovchilarga axborot berishda oddiylikka tayanishning o'zi yetarli emas. Axborotni har tomonlama o'rganish, uni o'quvchilarga yetkazishda mazmuniga e'tibor berish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

"Tilshunoslikda milliy-madaniy leksika" mavzusidagi o'z maqolasini matbuotda e'lon qilgan tadqiqotchi Barno Jo'rayeva esa tillardagi o'zlashma so'zlarning vujudga kelishida sportga doir atamallarining ham rolo beqiyos ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi [9].

"Fransuz va o'zbek sport o'yinlarida lingvokulturemalarning lisoniy xususiyatlari" maqolasi muallifi Bahriddin Azimov esa sport tilidagi mavjud terminlarning grek-lotin morfemalarining kelib chiqishiga doir tahlillarni ilgari surgan. Muallif tahlil jarayoni uchun "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni obyekt sifatida tanlab olgan. Muallifning qayd etishicha, "Sport tilida xalqaro termin elementlariga aylangan grek-lotin morfemalari kelib chiqishiga ko'ra standart termin elementlari rovida ishtirok etadi. Ushbu atamalar Yevropaning aksariyat qismida, shu jumladan o'zbek tilida qabul qilinadi. Shuni ta'kidlashimiz mumkinki, sport terminologiyasida ham inglizcha so'zlar

ko'pchilikni tashkil etadi. Lug'ati, ayniqsa, qo'shma so'zlar tarkibida, o'zbek tilida tobora ko'proq uchraydi: "darvozabon" – "gandbol". Ushbu o'zlashmalar bilan bir qatorda o'zbek tilida ularning ekvivalentlari mavjud -sintagma atamasi "qo'l to'pi" yoki bitta leksema "darvozabon". Terminlarning vazifasi faqat semantik tahlil bilan chegaralanmaydi. Atamalarining muammosi, shu jumladan, sport terminologiyasi turli tomonlardan ko'rib chiqilishi kerak [10]".

"Hozirgi o'zbek tilida futbol, mini futbol atamalarining qo'llanishi" maqolasi muallifi Jahongir Ismailov tadqiqotida sport leksikasining bugungi kunda jadallik bilan o'sib borayotganligi, uning sport atamashunosligida qay tarzda o'rganilganligi borasidagi mulohazalarni qayd etib o'tgan. Muallif maqola uchun aynan futbol va mini futbol terminlarini obyekt sifatida tanlab, ularning leksik ma'nosini ochib bergan. Bundan tashqari, futbolga oid terminlar qo'llanishiga ko'ra uch guruhga ajratilgan:




O'g'iloy To'rayeva tomonidan tadqiq etilgan "Ingliz va o'zbek tillarida sport sohasidagi terminlarning qiyosiy tahlili" mavzusida yaratilgan maqola ham sport semantik maydoni borasida qilingan ishlardan biridir. Muallif qiyosiy tilshunoslik doirasida amalga oshirgan ushbu ishida ikki tildagi mavjud sport terminlarining bir-biriga o'xshash va farqli jihatlarni ochib berishga harakat qilgan.

"Tarjima sport terminologiyasini semantik tahlil qilishda hal qiluvchi roli" maqolasi muallifi N. Akmaljonovna

ham aynan sport leksikasi mavzusi o'rin olgan. Tarjima sport terminologiyasini tahlil qilishda muhim rol o'ynashi, bundan tashqari sport leksik qatlamining kelgusida yanada boyib borishi xususida o'z fikrlari bilan o'rtoqlashgan muallif sportning tilga yangi atamalar kirib kelishida universal til vazifasini bajarishini alohida ta'kidlab o'tadi.

Sport leksikasi tadqiqi doirasida qator lug'atlar ham yaratilgan bo'lib, ularni ayni o'rinda ikki guruhga ajratish mumkin:



Tarjima lug'ati bir tildagi leksik birliklarni ikkinchi tilga tarjima qilish vazifasini amalga oshiradi. Ana shunday tarjima lug'atlaridan biri bu M. F. Ne'matova tomonidan tadqiq etilgan "Sport terms in English, Uzbek and Russian languages" lug'ati hisoblanadi. Ushbu lug'atning tuzilishi quyidagicha:

1. Tarjima sifatida tanlangan so'z.
 2. Agar bo'lsa, uning qavs ichida qisqacha izohi.
 3. O'zbek tilidagi tarjimasini.
- Quyida ushbu lug'atdan namuna keltiramiz[11]:

O'ZBEKCHA	INGLIZCHA
ACRO, abbrev. from acrobatic gymnastics	akrobatik gimnastika
acrobat	akrobat
acrobatic element	akrobatik element
acrobatic element connection (series)	akrobatik element akrobatik element aloqasi
acrobatic exercise	akrobatik mashq
acrobatic feat; acrobatic stunt	akrobatik mashg'ulot
acrobatic jump	akrobatik sakrash
acrobatic mixed pair	akrobatik sakrash
acrobatic rock and roll	akrobatik juftlik
acrobatic ski jumping; jumps on skis (freest.)	akrobatik rok-n-roll
acrobatics (tumbling)	akrobatik chang'ida sakrash; chang'ida uchishi
	akrobatik yiqilish

I. Boltayeva tuzgan "Jismoniy tarbiya va sport atamalarining izohli lug'ati" ham bugungi kunda ushbu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlardan biri sanaladi. Ushbu lug'atning tuzilishi o'zbek tili leksikografyasi uchun dadil qadamlardan biri bo'ldi deya ayta olamiz. Lug'at maqolasi quyidagicha tashkil topgan:

1. Izoh uchun tanlangan so'z.
2. Ayrim o'rinlarda so'zning qaysi tildan o'zlashganligi xususida qavs ichida ma'lumot.
3. So'z izohi.

Masalan[12]:
Darvozabon(f-t) - darvozani himoya qiluvchi o'yinchi.

Disk(grek) - qo'l bilan uzoqqa otiladigan yalpoq metall gimnastika anjomi.

Mahmud Boboyorov tomonidan himoya qilingan "Mustaqillik davri jismoniy tarbiya va sport atamalarining shakllanishi" mavzusida yozilgan dissertatsiya ham sport tilining tadqiqini aks ettirgan. Muallifning fikriga ko'ra, "Jismoniy tarbiya va sport atamaları tizimini lingvistik rejada tadqiq qilish jismoniy tarbiya fanining o'zi uchun emas, balki o'zbek atamashunosligi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Tilimiz boyligi bo'lgan jismoniy tarbiya va sport atamalarini yozib olish, to'plash, ilmiy tahlil qilish hozirgi kunda dolzarb bo'lgan masalalar jumlasiga kiradi [13]".

Xulosa va natijalar. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, sport leksikasi doirasida amalga oshirilgan tilshunoslik tadqiqotlari ushbu sohaning mazmunini belgilab berishi bilan birgalikda ularning tilimiz doirasida naqadar muhim ahamiyat kasb etishini anglatadi.

ADABIYOTLAR

1. Lexical means in the speech of sports commentators in the USA and Russia 2018 / Leonid Evgenievich Pak
2. Nominal non-terminological vocabulary of sports 2009 / Elistratov Alexey Alekseevich
3. Borrowed sports terms and their use in journalism 2020 / Ayakulov Nurbek Abdugappar Ugli
4. Codification of special anthroponymic units in the sublanguage of sports 2015 / Bobyreva Natalya Nikolaevna
5. STRATIFICATION MODEL OF THE LANGUAGE OF SPORTS COMMUNICATION 2018 / Minina Ekaterina Ivanovna
6. Terminology in English-language sports discourse (using the example of winter sports terminology) 2020 / Tsybina Larisa Viktorovna, Koshelkina Ekaterina Aleksandrovna, Izosimova Valeria Olegovna
7. www.google.com
8. www.google.com
9. www.google.com
10. www.google.com
11. www.google.com
12. www.google.com
13. www.diss.natlib.uz



UO‘K:811.5

Dildora BEGMATOVA,
TIPI, Tillar va maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TerDU Boshlang'ich ta'lim kafedrasida dotsenti, f.f.n., R.Mustafoqulov taqrizi asosida.

“DEVONU LUG‘ATI-T- TURK” MAQOLLARIDA HAYVON NOMLARINING ISHTIROKI

Аннотация

Ushbu maqolada Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t- turk” asaridagi maqollar mazmun-mohiyati to‘g‘risidagi fikrlar yoritilgan. Asarda keltirilgan 300ga yaqin maqollarning asosiy qismida hayvonlar nomi ishtirok etgan. Hayvonlar obrazi yordamida odam va olamga oid hayotiy hodisalar tabiati ochib berilgan. Maqolada mana shunday maqollarning o‘ziga xos poetik xususiyatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: Maqol, arslon, tulki, ot, tuya, hayvon, buzoq, ho‘kiz, echki, inson, Vatan, yaxshi va yomon, gavhar, to‘rt unsur suv, havo, yer, o‘t.

УЧАСТИЕ НАЗВАНИЙ ЖИВОТНЫХ В “СЛОВАРЕ ДЕВОНУ- ТУРЕЦКИЕ” ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация

В данной статье освещены мысли Махмуда Кашгари о значении пословиц в произведении “Девону лугати-т-турк”. Большая часть из 300 пословиц, упомянутых в произведении, связаны с названием животных. С помощью изображения животных раскрывается характер жизненных событий, связанных с человеком и миром. В статье анализируются уникальные поэтические особенности таких пословиц.

Ключевые слова: Пословица, лев, лиса, лошадь, верблюд, теленок, бык, человек, Родина, коза, добро и зло, драгоценный камень, четыре стихии вода, воздух, земля, огонь.

PARTICIPATION OF ANIMAL NAMES IN THE “DEVON-TURKISH DICTIONARY” OF PROVERBS

Annotation

This article highlights the thoughts of Mahmud Kashgari on the meaning of proverbs in the work “Devoni Lug‘ati-t-turk”. Most of the 300 proverbs mentioned in the work are related to the names of animals. With the help of images of animals, the nature of life events associated with man and the world is revealed. The article analyzes the unique poetic features of such proverbs.

Key words: Proverb, lion, fox, horse, camel, calf, bull, man, Motherland, goat, good and evil, precious stone, four elements water, air, earth, fire.

Kirish. Xalq maqollarining tarixi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Maqollar inson hayotining rang-barang qirralarini qamrab olishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy hodisalarga o‘ziga xos tarzda munosabat bildirishiga ko‘ra favqulodda ahamiyat kasb etadi. Ular, ayni paytda, xalqning milliy tafakkur tarzi va olamni ko‘rish bilan aloqador bo‘lgan ko‘plab axborotlarni o‘zida mujassam etgani bilan ham e‘tiborga loyiq. Maqollar xalq ma‘naviy hayotining ajralmas qismidir. Ular ixcham, qisqa, ma‘no jihatdan salmoqdar birliklar sifatida, uni yaratuvchi bo‘lgan xalqning urf-odatlarini, an‘analari, kasb-korlari haqidagi mulohazalarni ifoda etib, tarixiy taraqqiyot davomida shakllan, mazmunan o‘zgarishga uchragan holda ijtimoiy hayotda faol qo‘llanib kelmoqda.

Tahlil va natija. Chorvachilik insoniyatning eng qadimgi ijtimoiy faoliyatlarini sirasiga kiradi. Shuning uchun ham bu sohaga oid maqollarning ko‘p uchrashi tasodifiy emas. Mahmud Qoshg‘ariy jamlagan maqollar orasida shu guruhdagilari ancha katta salmoqqa ega.

Ag‘ilda o‘g‘laq tug‘sa, ariqda oti unar. Ma‘nosi: “Og‘ilda buzoq tug‘ilsa, ariqda o‘ti unadi”. Bu maqol ovqat yoki rizq uchun ortiqcha urinish va qayg‘urish kerak emasligini anglatish uchun aytiladi [4].

Mahmud Qoshg‘ariy ushbu maqolda hayvonlarning eng beozori bo‘lgan buzoqni huddi dunyo yuzini endi ko‘rgan begunoh chaqoloqqa o‘xshatadi. Zamindagi barcha jonzot-u mavjudotlar Olloh bergan rizq bilan tug‘ilishiga ishora qilinadi. Odam qanchalik qayg‘urmasin, tirishib harakat qilmasin, o‘z nasibasidan ortig‘ini olmaydi. Shuning uchun

Ollohning bergan rizqiga shukur va qanoat qilish kerakligi uqtiladi. Inson bu dunyoga kelishidan maqsad faqatgina moddiy ne‘matlar uchun g‘am chekish emas, balki o‘zidan bir yaxshi nom, yaxshi iz qoldirish bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda o‘zbek xalq maqolidan bir misol keltirishni joiz deb bildim;

Nasib yetsa kelar Shom-u Iroqdan,
Nasib yitsa, ketar qosh-u qoboqdin.

Rizq kamimas,
Banda ochidan o‘lmas [3].

Ewdaki buza‘gu okuz bolmas.

Ma‘nosi: “Uyda o‘sgan buzoq hech vaqt ho‘kiz bo‘lmaydi”. Bu maqol yoshligidan tanish bo‘lgan yigitning martabasi ko‘tarilgan chog‘da ham, u urug‘-aymoqlari nazdida (baribir) kichik ko‘rinishga ishora qilib ishlatiladi [4].

Qarindoshlar ichida katta bo‘lgan bola yoshi ulg‘ayib biror martabaga ko‘tarilsa ham, qarindoshlar uchun kichik bo‘lib qolaveradi.

Bu o‘rinda ham buzoq bolaga qiyos qilingan. Buzoq katta bo‘lgach ho‘kiz bo‘ladi ammo uyda qarindoshlar orasida katta bo‘lgan bola vaqt o‘tsa ham ular uchun bolaligicha qolaveradi, ulg‘aymaydi. Yaqinlari boladek erkalashadi, katta bo‘ladi deb hisoblashmaydi.

Uy jonivori bo‘lgan buzoq har ikki maqolda ham uchraydi.

Og‘laq yiliksiz, og‘lan biligsiz.

Ma‘nosi “Echki bolasida ilik yo‘q, yosh bolada aql yo‘q” [4]. Bu yerda echki bolasini odamning yosh bolasi bilan qiyos qilingan. Echki bolasida suyak bo‘lmagani kabi kichkina

bolada aql bo'lmaydi. Shuning uchun odam bolasi yoshligida ko'p xatoliklar qiladi. Bu ish katta ayb sanalmaydi. Ammo inson ulgaygandan so'ng axmoqlik qiladigan bo'lsa, echki bolasidan farqi qolmaydi.

Tewāy silkinsā ešākkā yūk čīqa.

Ma'nosi: "Tuya silkinsa, undan bir eshakning yuki chiqadi". Bu maqol kichik ishni tashlab, katta ishga kirishishga undab aytiladi[4]. Tuya hayvonlar ichida eng sabrliklik, chidamiligik va mehnatkashlik kabi xislatlari bilan ajralib turadi. Qadimdan insonlarning yukini yengil qilish va uzoq safarlar ushuncha otlig vazifasini bajargan. Bir tuya 500 kg og'irlikkacha bo'lgan yukni ko'targan. Eshak tuyadan kishik va kuchsiz hayvondir. Kichik ishlar keyin ham bajarilishi mumkin lekin, uzoq vaqt va ko'p mehnatni talab qiladigan ishlarni avval bajarilishi nazarda tutilgan.

Insonlar mayda vazifalar bilan ovora bo'lmay balki, katta ishlarga vaqt ajratishi kerakligi maqolda ko'rsatilgan.

Maqollarda insonlarning hulq-atvori, yashash tarzi, ulardagi ijobiy yoki salbiy xususiyatlar hayvonlarning majoziy obrazlari vositasida ochib berilgan.

Masalan: Tilkū ōz inikā ūrsā uđuz bolur.

Ma'nosi: "Tulki o'z iniga qarab ulisa (irillasa, hursa), qo'tir bo'ladi". Bu maqol o'z elini, urug'ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi [4].

O'z Vatani, yurtini yomonlamaslik, sotmaslik, uning sha'nini yerga urmaslik haqida so'z boradi. Har qanday holatda ham Vatanga xiyonat qilmaslik, uni asrab-avaylash, yurtga sodiqlikka undaydi. Tulki o'z iniga qarab irillasa yomon oqibatlar kelib chiqishi ta'kidlanadi.

Bunday mazmun o'zbek xalq maqollarida ham uchraydi.

Elidan bezgan er o'ngmas

Ko'lidan bezgan g'oz o'ngmas [3].

Insoniyatning qadimgi mashg'ulotlari orasida ov va ovchilik ayri-ayri o'rin tutadi. Turkiy xalqlar tarixi ham ayni mana shu mashg'ulotning ancha faol bo'lganini ko'rsatadi.

Taygan yugurganni tilku sewmas.

Ma'nosi: "Yugirik (chopqir) tozini tulki sevmaydi". Chunki tozi tulkinini oladi. Bu maqolni zamondoshlari orasida ilmi bo'lib, ularning hasad va dushmanliklariga duchor bo'lgan kishiga qarata aytiladi[4].

"Devonu lug'ati-turk" dagi ushbu maqolda ham hayvonlar orasida o'zining ayyorligi bilan mashhur bo'lgan tulki obrazi insonlarning harakteriga qiyos qilingan. Tulki tozini sevmaydi, chunki tozi tulkidan tez yuguradi va oxir oqibatda tulkinini tutib oladi.

Maqollarda tulki obrazi ko'p o'rinlarda qo'llanilgan. Bulardan shu kabilari misol qilib olindi.

Arslan kōkrāsā, at ādaqī tusalī.

Ma'nosi: "Arslon o'kirsā, o'ning oyoqlari chalishadi, tushovlanadi". Bu maqol o'zidan kuchli kishi bilan qarshi kelib, yaqiniga borganda titrab, orqasiga qaytish manosida qo'llaniladi[4].

Arslon hayvonlar ichida eng kuchlisi hisoblanadi. Kuchli insonlar arslonga qiyoslanadi. Arslondan barcha hayvonlar qo'rqishadi uning oldida hayiqib turishadi ot uni ko'rganda oyoqlari chalishib orqaga tisariladi.

Insonlar o'rtasida ham bunday holatlar kuzatiladi. Qarshisidagi odam o'zidan kuchliroq, aql jihatdan balandroq ekanini sezsa, kuchli insondan uzoq bo'lishga harakat qiladi. Bunday hislar hayvon tabiatiga va inson tuyg'ulariga xos ekanligini anglash mumkin.

Shu o'rinda J.Rumiyaning «Masnaviy»idan bir rivoyat:

"Kunlardan bir kuni sher, bo'ri va tulki ovga chiqishibdi. Ovlari baroridan kelibdi. Bitta buqa, tog' echkisi va semiz quyon ovlashibdi. Ovlarni bir joyga to'plashibdi. Bir pasdan so'ng, sher sekin na'ra tortibdi. Bo'riga qarab:

Ovlaganlarimizni adolatli tarzda bo'l, – debdi.

Bo'ri yotgan joyidan turibdi. Bu ish unga topshirilganidan xursand bo'libdi. Ovlagan hayvonlariga qarabdi. O'ziga ishongan holda sherga qarab:

Sultonim, siz bizning boshlig'imizsiz va kattasiz Buqa ham katta, shuning uchun u sizniki bo'lsin. Echki o'rtacha bo'lgani uchun meniki, quyon esa eng kichkinamiz tulkining haqqi, – debdi.

Bo'ring bu taqsimoti sherga yoqmadbi va jahl bilan bo'kiribdi. Bo'riga:

Sen o'zini bilmaydigan, debdi-yu unga kuch bilan tashlanibdi. Bo'ri o'zini yo'qotib, g'arqob qon ichra yiqilibdi.

Sher tulkiga qarabdi. Tulki qo'rqanidan dag-dag'qaltirar ekan. Tulkiga:

Menga bunday qarab turma. Shu ovlarimizni adolatli tarzda bo'l, – debdi.

Ey, buyuk sultonim! Mening haddim sig'maydi, ammo siz buyur ekansiz, amringizni bajaraman. Shu ho'kiz ertalabki nonushtangiz, echki tushlingiz, quyon esa kechki ovqatingiz bo'lsin, – debdi.

Bu taqsim sherga juda ham yoqibdi. Mamnun tarzda tulkiga qarab:

Juda ham adolatli taqsimot bu. Bundan ortiq bo'lishi mumkin emas. Ey tulki, menga ayt-chi, bu kabi adolatni qayerdan o'rganding?

Tulki bo'yni sinib, yerda yotgan bo'riga qarab qo'yib:

Shu yerda yotgan, o'zini bilmaydigan bo'ring boshiga tushgan ko'rguliklardan, sultonim! – debdi[2].

Ikki bugra ig'asur otra kōkägün yençilür".

Ma'nosi: "Ikki aygir olishadi va tishlashadi, oralarida so'na yanchiladi". Bu maqol ikki botirning urushishi va orada kuchsizlarning yanchilishiga ishora qilib aytiladi[4].

Turmushda jismoniy jihatdan va aql tomondan ham kuchliroq doimo oldinda bo'lishadi. Inson boshiga sinov va qiyinchiliklar, mushkul ishlar kelishi mumkin va bu sinovlardan o'z tadbirkorligi, aql-zakovati bilan o'z yo'lini topgan odam boshqa to'siqlardan qo'rqmaydi. Kishi o'z oldida turgan vazifa va yumushlarni ham eng qiyinidan boshlasa, boshqalari yengil va tez amalga oshadi. Hayotida bir qancha yaxshi va yomon voqea-hodisalarning guvohi bo'lgan insonlar muammolarni yechishda tajribalariga tayanadilar. Lekin kuchsiz kimsalar ko'p aziyat chekadi. Kuchli insonlar g'olib bo'lishi va o'rtada ojizlar talofat ko'rishi yuqoridagi maqolda ko'zda tutiladi.

A:lin arslan tutar, kücün uyuq tutmas.

Ma'nosi: "Hiyla bilan arslon tutilar, kuch bilan uyuq tutilmas. Kuch bilan polizlarda o'tqazib qo'yilgan qo'g'irchoq-qo'riqchini ham tutib bo'lmaydi. Bu maqol kuch ishni bitira olmaganlarga alohida tadbir qo'llash kerak degan ma'noda qo'llaniladi[4].

Maqollarda arslon va ilon kabi hayvonlar ko'p o'rinlarda qiyos qilingan. Hiyla-yolg'on bilan arslonni qo'lga olish mumkin bo'lgandir ammo, bu degani hamisha bunday qilish natija bermasligi aytiladi. Ishni amalga oshirishda yaxshi yo'l, yaxshi amal, yaxshi so'z bilan ish tutish kerakligiga ishora qilinadi

Bu o'rinda Alisher Navoiyning "Hayratul-abror" dostonida yaxshi so'z to'g'risidagi fikrlarni keltirish joizdir:

"So'z gavharining sharafi shunchalar yuksakki, gavhardek qimmatbaho narsa ham unga sadaf bo'la olmaydi. To'rt sadaf ichidagi gavharg quti ham shu so'z, yetti qavat osmon yulduzlarining burjlari ham shu so'zdir.

So'z jon bo'lib ruh uning qolipidir. Tanada ruhi bor odam doim unga ehtiyoj sezadi. So'z dunyoda bor ko'ngillarning qutisidagi javhar, hammaning og'iz qutisidagi qimmatbaho gavhardir.

Yaxshi so'z bilan o'lganni tiriltira olgani uchun Iso payg'ambar o'zini "Jonbaxsh" degan laqab bilan atagan. So'z tufayli Halil O'zini o'tga tashlagan; Jabroil ham so'z yukiga

hammol bo'lgan. Tangri insonni sirlar xazinasini darajasiga ko'targan ekan, uni so'zlash qobiliyatiga ega bo'lgani uchun hayvonlardan ortiq qilib yaratdi"[1].

Ushbu fikrlarda ham ko'rinish turibdiki, so'zning kuchi har narsaga qodirdir.

Yılan yarbuzdın qaçar, qanča barsa, yarbuz otu kelür.

Ma'nosi: "Ilon doim yarbuzdan qochadi. Ilon qayoqqa qochsa, u qarshisidan chiqadi". Bu maqol yomon ko'rgan narsasidan qochsa ham, qutilmaydigan, unga duch kelaveradigan kishi haqida aytiladi"[4].

Bu maqolda yomon ko'rgan narsalaridan uzoqlashishga harakat qilsa ham, qarshisidan chiqaveradigan, ko'rishaveradigan, ro'para kelaveradigan kishiga aytiladi. Inson o'zi xohlamagan vaziyatlarga tushishni istamaydi. Lekin

qochgan narsasi yoniga keladi. Yomon ko'rgan odami qarshisidan chiqib kelaveradi.

Xulosa. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'ati-t-turk" asarida maqollarning juda katta xazinasini jamlangan. Ularning bir qismida hayvonlarning nomlari ishtirok etgan. Ayni mana shu maqollar yaratilishiga ko'ra ancha qadimiydir. Zero, inson dastlabki jiddiy hukmlarni tabiatga, tabiat hodisalariga, o'simlik va hayvonot olamiga qarab chiqargan. Hayvonlar bilan bog'liq maqollarning katta qismi o'zining majoziy ma'nolari bilan e'tiborni tortadi. Ular ayni paytda kishilik jamiyatiga xos bo'lgan ko'plab axloqiy-ma'naviy hodisalarning mazmun va mohiyatini aniqlashda, ularni aniqroq tasavvur etishda, amaliyotda qo'llash jarayonida yanada katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Navoiy, Alisher. Hayratul-abror [Tahrir hay'ati: A. Qayumov va boshq., So'zboshi muallifi A. Hayitmetov; Mas'ul muharrir, B. Rahmonov], - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. - 352b.
2. Tarbiya kitobi: ibratli rivoyat va hikoyatlar/ Nashrga tayyorlovchilar: Muhammadamin To'xliyev va Abdumurod Tilavov. - Toshkent: Yurist - mediya markazi, 2015. - 376b.
3. O'zbek xalq maqollari Tuzuvchilar: filologiya fanlari doktori, professor To'ra Mirzayev, filologiya fanlari doktori, professor Asqa rMusuqulov, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Sarimsoqov Mas'ul muharrir filologiya fanlari nomzodi Sh. Turdimov «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik korxonasi Bosh tahririyati, 2005. - 258b.
4. Qoshg'ariy, Mahmud. Devonu lug'ati-t-turk (Turkiy so'zlar devoni). S. Mutalliboyev tarjimasida asosida qayta ishlangan, to'ldirilgan, o'zgartishlar kiritilgan mukammal nashr. Nashrga tayyorlovchi Q. Sodiqov. - Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017. - 488b.



Aidaxon BUMATOVA,
Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy tadqiqotchisi, PhD
E-mail: aidabumatova@gmail.com

O'zMU dotsenti, PhD M.Abdullayeva taqrizi asosida

INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE BELOVED IN CLASSICAL GHAZALS

Annotation

This article discusses the issues of formation and development of the image of the beloved in the traditions of classical Muslim ghazal writing. Understanding the gender affiliation of the beloved's image can be challenging for readers who are not familiar with the history of the emergence and usage of this image. Additionally, this ambiguity can lead to specific problems when translating ghazal texts into other languages poetically. The research uses examples from the ghazals of Hafez Shirazi, one of the most prominent representatives Persian literature.

Key words: Ghazal, image of the beloved, poetic translation, classical literary traditions, Hafez Shirazi, court literature, love lyricism, Persian poetry, gender issue.

ТОЛКОВАНИЕ ОБРАЗА ВОЗЛЮБЛЕННОЙ В КЛАССИЧЕСКИХ ГАЗЕЛЯХ

Аннотация

В данной статье обсуждаются вопросы формирования и развития образа возлюбленного в традициях классической мусульманской газели. Понимание гендерной принадлежности образа возлюбленного может быть сложным для читателей, не знакомых с историей возникновения и переработки этого образа. Кроме того, эта неопределенность может привести к специфическим проблемам при поэтическом переводе текстов газелей на другие языки. В исследовании используются примеры из газелей Хафиза Ширази, одного из самых ярких представителей в области написания газелей в персидской литературе.

Ключевые слова: Газель, образ возлюбленного, поэтический перевод, традиции классической литературы, Хафиз Ширази, придворная литература, любовная лирика, персидская поэзия, гендерный вопрос.

MUMTOZ G'AZALLARDA YOR OBRAZINING TALQINI

Annotatsiya

Mazkur maqolada musulmon mumtoz g'azal bitish an'analarda yor obrazining shakllanishi va rivojlanish masalalari muhokama qilinadi. Yor obrazining, ko'p hollarda, qaysi jinsga mansubligini anglab olish, bu obrazning paydo bo'lish va qayta ishlanishi tarixidan bexabar kitobxonlar uchun murakkab bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, g'azal matnlarini boshqa tillarga she'riy tarjima qilishda ham, mazkur noaniqlik o'ziga xos muammolarga olib kelishi mumkin. Tadqiqotda fors adabiyotining g'azalnavislik sohasidagi eng yorqin namoyondalaridan biri bo'lgan Hofiz Sheroziyning g'azaliyotidan olingan namunalardan foydalaniladi.

Kalit so'zlar: g'azal, yor obrazi, she'riy tarjima, mumtoz adabiyot an'analari, Hofiz Sheroziy, saroy adabiyoti, muhabbat lirikasi, fors she'riyati, gender masalasi.

Kirish. "G'azal" so'zi arabcha bo'lib, "ayollarga xushomad qilish" ma'nosini anglatadi [5]. Musulmon Sharqi mumtoz adabiyotining gultoji hisoblangan bu janr arab adabiyotida Islomgacha davrlarda paydo bo'lgan deb hisoblanadi [6]. G'azal arab adabiyotidagi qasidalarning boshlanish qismi bo'lgan va sevgi iqrorlari sifatida qo'llanilgan "nasib"ning alohida janr sifatida ajralib chiqishidan hosil bo'lgan [2]. Avvalboshdan, asosan muhabbatga bag'ishlangan bu she'r turi, Islom dini Arabistonda tarqala boshlagach ta'qib ostiga olingan. Sababi, bir tomondan shoirning o'tli muhabbat izhori, uning ko'nglini olgan suyuqli yorini badnom qilishi mumkin bo'lgan bo'lsa, boshqa tomondan Arabistondagi Islomgacha bo'lgan an'anaga ko'ra, har bir qabilaning shu qabila va uning xudolarini madh etuvchi o'z shoiri bo'lgan. Shuning uchun Islom ilohiyoti she'r va she'riyatga unchalik ro'yxushlik bildirishmagan. Vaqt o'tishi bilan g'azalnavislik ham arab, ham Ajam mamlakatlarida keng tarqaldi [9].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G'azallardagi obrazlarini tahlilga tortishda ular yozilgan til va adabiyot, adabiy an'analari va umumiy kontekstni tushunish muhim. Bu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar sirasiga A.M.Shimmelning "A Two-Colored Brocade: The Imagery of

Persian Poetry" [9], J. T. P. de Bruijning "Beloved" [1], Hellmut Ritterning "Das Meer der Seele" [8], Ehsan Yarshaterning "Sheri forsi dar abd-i Shahrukh" [12], "Persian Poetry in the Timurid and Safavid Periods" [10], "The Theme of Wine-Drinking and the Concept of the Beloved in Early Persian Poetry" [11], N.Prigarina, N.Chalisova, M.Rusanovlarning "Hafiz: Ghazals in philological translations" [4] nomli tadqiqotlarini misol qilib keltirish mumkin. Ularda fors mumtoz sheriyyatida yor obrazining rivojlanish tarixidan baxs yuritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Musulmon sharqi mumtoz she'riyatida keltirilgan yor obrazini talqin va tadqiq qilishda tarixiy, madaniy, diniy va adabiy kontekstlarni to'g'ri tushunish, ularning shoirlar shuuri va ongiga ko'rsatgan ta'sirini anglash, hamda bu kabi matnlarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilish vaqtida yuqorida keltirilgan elementlarni yodda tutish muhimdir.

Tahlil va natijalar. G'azal o'z rivojlanish bosqichlarida o'tli muhabbat va oshiqning qiyinchiliklarini aks ettuvchi she'r sifatida shakllanar ekan, yorning obro'siga putur yetkazmaslik uchun uning ismini oshkor etmaslik [4], oshiqning kimligini bildirish uchun esa maqta' – ya'ni shoirning taxallusi aks etgan baytning mavjudligini taqozo

qildi. G'azallar odatda eng kamida besh baytdan iborat bo'ladi, o'rtacha hisobda yetti baytdan iborat g'azallar ko'pchilikni tashkil qilsada, ba'zi shoirlarda o'n besh baytgacha bo'lgan g'azallarni topish mumkin [7].

Muhabbat mavzusida yozilgan g'azallarning juda katta qismida oshiqning ko'nglini olgan yorning kimligini aniqlash mushkuldir. Sababi, ularda yorning na jinsi, na yoshi, na ismi va na bir farqli xususiyatlari ko'rsatilmaydi. Yor doimo mavhum bir shaxs sifatida namoyon bo'ladi [3], [13]. Shu bilan birga, yorga tegishli bo'lgan universal xususiyatlarning yig'indisi bo'lib, ularni shoirlar tomonidan yor ifodalashga yordam beruvchi shablonlar sifatida qo'llash mumkin. Xususan, yor, albatta, bu dunyoda ko'z ko'rib, quloq eshitmagan darajada go'zal, shuning uchun ham kibor va injiq, uning oshiqalari sochidan ham ko'p bo'lib, ularning jonini olish, metaforik ma'noda, albatta, uning uchun bir e'tiborga ham arzigulik hodisa emas.

Yor tutqich bermas bir zolim bo'lsada, oshiq o'z sevgisidan kechmaydi. Bu esa oshiqaga tegishli bo'lgan umumiy xususiyatlardan biridir. Oshiq, bundan tashqari, muhabbat azoblaridan joni bo'g'ziga kelgunicha qiynalishi, lekin har qanday holatda ham o'z yori va muhabbatiga mudom sodiq qolishi, uni faqat uzoqdan kuzatishi, yoniga borolmasligi va visolning nasib bo'lmasligini bilib turib, sevgisida sobit qolishi talab etiladi. Bu kabi munosabatlarni mumtoz muhabbat odobi yoki qonuniyat sifatida ko'rish mumkin.

G'azallarda ma'shuq yoki ma'shuqani ta'riflashda shoir tomonidan eng ko'p bosh qismida joylashgan a'zolar ta'rifi qo'llaniladi. Xususan, sochning tim qora tunga [7], oshiqning dil qushini ovlash uchun qo'yilgan chigal to'rga, yoki uning borligini o'ziga bog'lashga xizmat qilishga mo'ljallangan uzilmas pishiq arqonga tenglashtirilishi; qoshlarning kamon holida egilib, har zamonda oshiqning qatlgat tayyor turishi, ko'zlarning osmon jismlari, qimmatli toshlar, jodulash va jonni olish kuchiga egaligi, sirlarni o'zida saqlovchi tim qora noma'lumlik kabi obrazlarga menlanishi; kipriklarning qoshning kamoniga tortilib oshiqni mavh etish uchun uziladigan tiyr o'qligi; lablarning qirmizi la'l, mast qiluvchi may, jon baxsh etuvchi tiriklik suvi va yoki jon oluvchi zaharga, og'izning o'ra tor va kichikligi, yonoqning qirmiziligi lola yoki la'lga, yuzning sochga qiyosan olganda nihoyatda yorug'ligidan quyoshga, oyga, yorug' kun kabilarga; iyakda joylashgan chuqurchaning mangu hayot ramzi bo'lmish lablar tomon yo'lda oshiq uchun kavlangan tuzoq sifatida tasvirlanishi an'anaviy lirik adabiyotning xususiyati hisoblanadi.

Bundan tashqari xat deb ataladigan labning ustida sabza uradigan mo'y, yuzdagi xol, ingichka bel kabilar ham eng ko'p qo'llaniladigan tasvirlar sirasiga kiradi. Bu tasvirlarga metafora yoki alluziya sifatida odatda tabiat va atrof muhitda mavjud bo'lgan jonli (masalan gullar va daraxtlar) yoki jonsiz (osmon jismlari, kundalik hayotda qo'llaniladigan buyumlar, urush) ashyolaridan foydalaniladi. Xususan, yor va uning tanasi, tana a'zolari, u yoki bu xususiyatini ta'kidlash uchun gul, lola, nargiz, suman, sarv, qarinchha, ohu, g'izol, quyosh, oy, Zuhra, yulduz, la'l, olmos, kumush, mushk kabi obrazlarning doimiy qo'llanilishini aniqlandi.

Yor obrazining mavhumlik xususiyati ayniqsa fors va turkiy tillarda yozilgan g'azallarda yuqori darajada namoyon bo'ladi [10]. Sababi, bu tillarda yor ifodalovchi uchinchi shaxs birlikdagi "u" olmoshi grammatik jinsizdir [1]. Ya'ni, agar g'azalda jinsi aniqlashtiruvchi so'zlar, yoki faqatgina u yoki bu jinsga tegishli bo'lishi mumkin bo'lgan xususiyatlar berilmasa, ko'pchilik hollarda, "u"ning yigit yoki qiz ekanligini aniqlashning deyarli imkoni yo'q. Ba'zi shoirlar o'z g'azallarida bu mavhumlikni shu darajagacha olib chiqishganki, "u" endi, nafaqat suyuqli yor, balki, do'st, ustoz va ba'zi hollarda ilohiy timsollarni ham anglatadi.

Dunyo adabiyotshunosligida aynan fors lirikasidagi yor obrazining umumiy xususiyati sifatida ko'riladigan jamlanma fikrni, fors adabiyotini o'rganishga umrini bag'ishlagan olim de Bruyn (J.T.P. de Bruijn)ning quyidagi fikrini keltirish mumkin: "Fors tili grammatikasida jins farqlanmasligi sababli, yorning jinsi ko'pincha lingvistik jihatdan noaniqdir. Ko'kraklarga murojaat qilish (odatda anor yoki limon bilan solishtirish an'anasi) mavjud, lekin bu erkaklar jinsiga ishora qiluvchi belgilariga qaraganda ancha kam uchraydi. Bu, ayniqsa, lirik she'riyatda namoyon bo'ladi. Bunday ko'rsatkichlar, masalan, soqolning birinchi izlarini zikr qilish, "pesar" so'zining ishlatilishi yoki odatda yosh yigitlar bilan bog'liq bo'lgan kasblarga ishoralar (jom tutuvchilar, musiqachilar, hunarmandlar va boshqalar) bo'lishi mumkin. Balog'at arafasidagi yigit inson go'zalligi idealini o'zida mujassam etgan [1]. Bu jihatdan Abbosiyargacha bo'lgan arab an'analarga aniq qarama-qarshilik mavjud bo'lib, unda ma'shuq nafaqat har doim ayol bo'lgan, balki shaxsiy ismni zikr qilish orqali ham individuallashtirilishga moyil bo'lgan.

Xuddi o'sha maqolasida de Bruijn [1] bu kabi xususiyat asosan g'azallargagina tegishli ekanini quyidagicha ta'kidlaydi: "Boshqa tomondan esa, fors doston janri an'analarda geteroseksual munosabatlar qoida bo'lgan. Oshiqlar juftligidagi ma'shuq roli odatda bosh qahramon ayolga yuklatilgan, biroq e'tiborga molik istisnolar mavjud, masalan, "Robiya va Bektosh" (malika va shoira bo'lan Robiya qulning shaxsida o'tkinchi go'zallik aksini ulug'lagan) hamda "Yusuf va Zulayho" dostonlari bunga misol bo'ladi [1].

Mumtoz she'riyatda yorni ifoda etishda, masalan, moh, mohro'y, go'zal, sanam, shams, nigor, dilbar, dildor, turk, do'st, jon, qalb kabi lafzlar qo'llaniladi. Ammo lirik g'azallarda yorga nisbatan murojaat qilinadigan obrazlaridan yana biri soqi'dir. Soqi g'azalda shoirning o'z qalbi, uni to'g'ri yo'lga da'vat etuvchi va ma'rifat ulashuvchi dono ustoz, yoki majoziy va irfoniy ma'nodagi suyuqli yor vazifasida kelishi mumkin [9]. Odatda, erkak shoir tomonidan muhabbat mavzusida yozilgan g'azallarning asosiy qahramoni ayol mashuqa bo'lishi mantiqiy tuyuladi. Biroq, o'ra asrlarda yaratilgan bu kabi g'azallarning deyarli barchasida soqiyning tasviri ayol kishiga qaraganda erkak kishining xususiyatlarini o'zida jamlagan bo'ladi.

Bundan tashqari, oshiq o'z yorni gohida o'ta nafis xislatlar egasi va malaksiymo qiyofasida gavdalantirsa, gohida esa maishat va ichkilikka ruju' quygan shaklda akslantiradi [4]. Bu holat esa, Islom madaniyatida bir jinsga mansub kishilarning ishqiy aloqalarga kirishishi, maishat va ichkilikbozlik taqiqlanganini hisobga olinsa, juda g'alati tuyuladi. Olimlar tomonidan mazkur an'anani paydo bo'lishini tushuntirib berishga qaratilgan uch asosiy sabab mavjudligini aniqladik.

Birinchi gipotezaga ko'ra [11], ma'shuqning erkaklik xususiyatlari bilan "bezalishi"ga asosiy sabab, uning hayotini tahliliga qo'ymaslik bo'lgan. Lirik g'azallar yozilgan oldingi davrlarda qiz bola va ayol kishilarning nomusi, butun oilaning nomusi sifatida qaralgan va juda qattiq ehtiyot qilingan. E'tibor berilsa, oshiq va ma'shuqa hech qachon uchrashmaydi, ya'ni visol faqat orzu qilinadi. Buning sababi, o'sha davrlardagi ayol kishining begona erkak bilan bemalol uchrashishi u yoqda tursin, nogohdan ko'zi tushib qolishi ham katta uyat hisoblangan va muallaq jazoga tortilgan.

Ikkinchi gipotezaga ko'ra [11], boshqa olimlar bu masalaga tarixiy kontekst nuqtai nazaridan yondashishning tarafdoridir. Shu mavzuni o'rganishda ancha salmoqli ilmiy izlanishlar olib borgan aslida eronlik bo'lib, Amerikaning Kolumbiya Universitetida Eronistika fakultetining professori Ehson Yarshater o'zining "Ilk fors she'riyatida may mavzusi va ma'shuq tushunchasi" nomli maqolasida bu holga quyidagicha ta'rif beradi: "Erkak yoki ayol, "jom tutuvchi"

yoki "sevikli yor" ma'nolarida qo'llaniladigan "soqiy"ning muhabbat lirikasiqa qo'llanilishidagi chalkashlik, so'z borayotganda davrning sharobxo'rlik an'analrini chuqurroq o'rganamizda yechiladi.

Kontekstni tushunish, shuningdek, ushbu davr va keyingi davr she'riyatdagi "yor"ga nima sababdan jangovar va askarlik xususiyatlarini berilishi tushuntiradi. Saroy yig'inlarida sharobni odatda yosh erkak jinsiga mansub qullar tortishgan, ularni bu kabi yig'inlar uchun alohida e'tibor bilan bezatishgan va kiyintirishgan. Fors she'riyatida ular ko'pincha "turk" deb nomlanadi. Bu ularning hammasi Turkistondan kelgan degani emas [11], balki eng mashhurlari o'sha hududdan chiqqani bilan belgilanadi. Ular o'zlarining chiroyli ko'rinishi va askar sifatida jasorati bilan ajralib turishgan. Yosh erkak qulning to'liq ta'limiga chavandozlik, qurol ishlatish, o'q otish, shuningdek, ziyofatlarda sharob tortishni o'rganishni o'z ichiga olgan. Nizomulmulknig ma'lumotlariga ko'ra, ta'limni muvafaqiyatli o'tagan qulga ta'limning oltinchi yillida sharob tortish o'rgatilgan. O'z kasbida mahoratga ega bo'lgandan so'ng, u xos kishi lavozimiga ko'tarilishi mumkin bo'lgan, agar u qobiliyatli, dono va rahbarlik xususiyatiga ega bo'lsa, general yoki noib ham bo'lishi mumkin bo'lgan.

Uchinchi gipotezaga ko'ra [11], bu g'azal shaklining XII asrlarga kelib, nihoyatda keng tarqalishi bilan bog'liq. Aynan shu davrlarda, g'azal saroy tashqarisiga chiqib, oddiy aholi orasida mashhurlashib bora boshlaydi. Shu orada g'azalning mavzu va tuzilishi jamiyatda mavjud bo'lgan so'fiy vakillarining e'tiboriga tusha boshlaydi. Insonlar orasidagi sevgi munosabatlari va ayriliqning kuyachisi bo'lgan g'azal so'fiylar tomonidan inson qalbi va uning yaratuvchisi orasidagi irfoniy ishqni kuylash uchun o'ta mos janr sifatida foydalana boshlandi. Odatiy o'yin qaroklik va tushunarli motivlarga ega bo'lgan muhabbat g'azallari asta-sekinlik bilan teofalsafiy obrazlar va ramzlar bilan to'lib-toshib bordi.

Hofizning "g'arb sari odimlashi" fransuz tili vositasida bo'lgan bo'lsada, uning inglizxon diyorlariga kirib borishi Britaniya Eronshunosligi asoschisi bo'lmish Villyam Djons (1746-1794) va uning "Persian Song" asarining yaratilishi bilan boshlangan. Yuqorida so'z yuritilgan xususiyatlarga ega bo'lgan g'azallarning ilk Yevropa tillariga qilingan tarjimalarida ham, sharq dunyosi taomillaridan butunlay bexabar bo'lgan oddiy g'arb o'quvchisini tamomila shoshirib

qo'ymaslik va batamom chalkashtirib tashlamaslik, ularning ongida an'anaviy muhabbat nuqtai nazaridan kognitiv dissonans uyg'otmaslik maqsadida, yorning yoki ilohiy mutlaq ma'shuq yoki yerdagi ayol kishi ekanligini bildiruvchi birikma va feminativlar qo'llaniladi. Masalan, H.Klarkning tarjimasida Hofizning "Agar on Turki Sheroziy..." deb boshlanadigan misrasi: "If that Bold One (the true Beloved) of Shiraz" ; Vilyam Djonsning tarjimasida: "Sweet maid, if thou ..."; Gertruda Bell xonimning tarjimasida esa bu misraning "Oh, Turkish maid of Shiraz!" ko'rinishiga keltirilganini ko'ramiz. Vaqt o'tishi bilan, bu tendensiyalardan uzoqlashildi va nisbatan keyingi tarjimalarda "Turki Shirazi" o'zini qo'llash tendensiyasi paydo bo'ldi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mumtoz shoirlar ichida g'azal bitmaganlari juda kam. G'azallardan tuzilgan klassik devonlar har bir shoirning mahoratini belgilab beruvchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lgan deyish ham mumkin. Muhabbat lirikasi sifatida shakllangan g'azal janri vaqt o'tishi va zamona zayli bilan o'zining ma'no qamrovlarini kengaytirib bordi. Masalan, bu janrdan ko'pchilik o'rta asrlar shoirlari falsafiy va teologik fikrlarini ifodalash uchun faol foydalanganlar. Musulmon sharqi mumtoz lirik she'riyati, xususan g'azallarda qo'llanilgan yor obrazlarining kelib chiqishi, madaniy, diniy va adabiy ta'sirlar vositasida tarixiy-tadrijiy rivojlanishi va o'zgarishini tushunish u yoki bu shoirga tegishli g'azallarni to'g'ri tushunish, talqin va tarjima qilishga yo'l ochib beradi.

Ko'rib o'tganimizdek, g'azal matnlarida keltirilgan yor obrazi ham majoziy, ham irfoniy bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, o'zbek va fors tillaridagi uchinchi shaxs birlikdagi kishilik olmoshi bo'lmish "u" so'zining grammatik jinsni ko'rsatmasligi xususiyatidan ko'pincha asardagi yorning erkak yoki ayol jinsiga ma'lum ekanini aniqlash mushkul bo'ladi.

Jahon olimlari tomonidan bu holatni tushuntirish uchun uchta gipoteza shakllantirilgan bo'lib, ularni shartli ravishda, tarixiy sharoitning madaniy, diniy va adabiy o'ziga xosliklarining natijasi sifatida qabul qilish mumkin. Ayol ma'shuqaga ochiq ishora qilishning iloji yo'q bo'lganida yorni tasvirlashda o'g'il bolalarga xos bo'lgan xususiyatlarning unga nisbatan keltirilishi masalasini tadqiq qilishda so'fiylik ta'limotdagi muhabbat prinsiplarini tushunish ham qo'l keladi.

ADABIYOTLAR

1. De Bruijn, J.T.P. Persian Sufi Poetry: An Introduction to the Mystical Use of Classical Persian Poems. Richmond, Surrey: Curzon Press, 1997.;
2. Is'hoqov Yo. Navoiy poetikasi: Xazoyin ul-maoniy asosida. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1983;
3. Is'hoqov Yo. So'z san'ati so'zligi. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2014;
4. N.Prigarina, N.Chaliso,va, M.Rusanov "Hafiz: Ghazals in philological translations". Moscow, 2012;
5. Orzibekov R., O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammat. Toshkent, "Fan" nashriyoti, 1976;
6. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M., Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, "Akademnashr", 2013;
7. Rahmon V., Mumtoz so'z sehri. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2015;
8. Ritter, Hellmut. Das Meer der Seele: Mensch, Welt und Gott in den Geschichten des Fariduddin 'Attar. Leiden: E.J. Brill, 1955.;
9. Schimmel, Annemarie. A Two-Colored Brocade: The Imagery of Persian Poetry. Chapel Hill: University of North Carolina Press, 2004.;
10. Yarshater, Ehsan. "Persian Poetry in the Timurid and Safavid Periods." The Cambridge History of Iran, edited by Peter Jackson, vol. 6, Cambridge University Press, 1986, pp. 965-994.
11. Yarshater, Ehsan. "The Theme of Wine-Drinking and the Concept of the Beloved in Early Persian Poetry." Studia Islamica, vol. 13, 1960, pp. 43-53.
12. Yarshater, Ehsan. Shi'r-i Farsi dar 'abd-i Shahrukh. Chapkhane Danishqah, 1965.;
13. Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika. "Ta'lim media" nashriyoti, Toshkent-2019;



UDK: 371.3:004

Sitorabonu VOKHIDOVA,

PhD. Student of National Research Institute of Professional Development and Training to New Methods for Pedagogues named after A. Avloniy
E-mail: sitoravakhidova@gmail.com

Bukhara State University doctor, associate professor D. Khodjayeva taqrisi asosida

LINGUOCULTUROLOGY: HISTORICAL FOUNDATIONS AND METHODOLOGICAL APPROACHES

Annotation

This article explores the evolution of linguoculturology as an academic discipline, focusing on its methodologies for teaching school students. It also introduces assessment tools, multimedia resources, and technology integration strategies aimed at fostering a linguocultural environment within the classroom.

Key words: Linguoculturology, linguistics, culture, methods, techniques, technology, tools, assessment, integration, language.

LINGVOKULTUROLOGIYA: TARIXIY ASOSLAR VA USLUBIY YONDASHUVLAR

Annotsatsiya

Ushbu maqola lingvokulturologiyaning akademik fan sifatida evolyutsiyasini o‘rganib, uning maktab o‘quvchilarini o‘qitish metodologiyasiga e‘tibor qaratadi. Shuningdek sinfda lingvomadaniy muhitni rivojlantirishga qaratilgan baholash vositalari, multimedia resurslari va texnologiya integratsiyasi strategiyalarini taqdim etish kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Lingvokulturologiya, tilshunoslik, madaniyat, uslublar, texnikalar, texnologiya, vositalar, baholash, integratsiya, til.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЯ: ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ

Аннотация

В этой статье рассматривается эволюция лингвокультурологии как академической дисциплины, уделяя особое внимание ее методикам обучения школьников. В ней также представлены инструменты оценки, мультимедийные ресурсы и стратегии интеграции технологий, направленные на формирование лингвокультурной среды в классе.

Ключевые слова: Лингвокультурология, лингвистика, культура, методы, приемы, технологии, инструменты, оценка, интеграция, язык.

Introduction. Linguoculturology, also known as cultural linguistics, is a relatively new interdisciplinary field that explores the relationship between language and culture. It emerged as a distinct area of study in the late 20th century, primarily in Russia, where it gained significant academic attention. The term "linguoculturology" itself highlights the integration of linguistic and cultural studies. It examines how cultural concepts are embedded in language and how language reflects cultural values and social norms.

This field addresses the influence of culture on language usage and vice versa. One of the earliest influences on the development of linguoculturology was the work on ethnolinguistics and sociolinguistics, which emphasized the social and cultural functions of language. In Russia, notable figures such as V.N. Teliya contributed to the foundational theories of linguoculturology by focusing on the cultural semantics of language and the ways cultural information is encoded in linguistic expressions[1].

Linguoculturology involves several key concepts, including:

- Ethnopsycholinguistics: Studies the psychological aspects of how language and culture interact.
- Cultural Semantics: Explores how meaning in language is shaped by cultural contexts.
- Linguocultural Competence: Refers to the ability to use language appropriately in various cultural settings.

The field of linguoculturology is not only theoretical but also has practical applications in areas such as:

- Language Teaching: Enhancing cultural awareness and competence in language learners.

- Translation Studies: Providing insights into the cultural nuances that affect translation practices.

- Intercultural Communication: Improving understanding and communication between different cultural groups[2].

Literature review. Researchers say that the term "linguoculturology" appeared in connection with the research conducted by the Moscow Phraseological School under the leadership of V.N. Teliya. When talking about the formation of linguoculturology, almost all researchers say that the roots of this theory go back to W. Von Humboldt. It is noted in those literatures that the opinions of linguists such as A.A. Potebnya, L. Weisgerber, H. Glantz, H. Holtz, W. D. Whitney, D. U. Powell, F. Boas, E. Sepir, B. L. Whorf, G. Brutyan, A. Vejbitskaya, and D.Hymes played an important role to develop this sector. Linguoculturology has become one of the leading directions in world linguistics by the beginning of the 21st century [3].

As noted in many studies, linguoculturology is a science that studies language as a cultural phenomenon, and its subject is language and culture which is in mutual relationship. For example, V. N. Teliya writes about it: "Linguoculturology is a science that studies the individual and cultural factor as a whole." According to G. G. Slisshkin, "Linguoculturology is focused on the human factor, more precisely, on the cultural factor of a person. The fact that the center of linguoculturology consists of the phenomenon of culture indicates that the science of man is a phenomenon belonging to the anthropological paradigm". Although there is a consensus regarding the views on the object of study of linguoculturology, there are still some controversial views. For

example, according to V. N. Telia, linguo-culturology studies only the synchronic relationship between language and culture [5].

Materials and methods. Teaching linguoculturology effectively involves a variety of methods to engage students and deepen their understanding of the intricate relationship between language and culture. Here are some methods that can be used:

- Group Discussions: Facilitate discussions on cultural topics where students can share their perspectives and learn from each other.

- Debates: Organize debates on cultural issues, allowing students to explore different viewpoints and develop critical thinking skills.

- Role-Playing: Have students act out scenarios from different cultures to help them understand cultural norms and practices.

Project-Based Learning can include these methods:

- Cultural Projects: Assign projects where students research and present on specific aspects of a culture, such as traditional clothing, food, or festivals.

- Field Studies: Encourage students to visit cultural centers, museums, or communities to gather firsthand information about different cultures.

Moreover, experiential learning method is also highly recommended in linguoculturology. In this case conducting cultural immersion days is effective. So, teacher should organize events where students immerse themselves in a particular culture for a day, experiencing its food, music, dance, and traditions.

Also, language immersion activities can increase linguocultural competence of learners. On this occasion, an educator should conduct language immersion activities where students practice using the target language in culturally relevant contexts.

Integrating language and culture is important in teaching foreign languages. Thus, multimedia resources is highly recommended to be used at the lesson. Use documentaries, movies, and video clips that showcase different cultures and languages. Also, incorporate cultural music, art, and literature into lessons to provide a rich, sensory experience. And, it should be mentioned that utilizing videos and films should be appropriate for learners' levels, ages and mentality.

Making comparative analysis is essential in educational process. So, do language comparisons. Compare linguistic features such as idioms, proverbs, and expressions from different languages to highlight cultural nuances. Also, doing cultural comparisons is really beneficial. Analyze cultural practices, values, and traditions across different societies to foster an understanding of diversity.

Storytelling and Literature is one of the most crucial part of language learning. Educators can read folktales and myths in order to make language learning much more interesting and engaging Use folktales, myths, and legends from various cultures to teach moral values, traditions, and linguistic elements. Furthermore, do literary analysis. Study literature from different cultures to understand the cultural contexts and linguistic styles.

Language Games and Activities should be conducted due to keep pupils interactive during the lesson. There are a lot of word games. Play games that focus on vocabulary, idioms, and expressions from the target language and culture. While teaching foreign language cultural simulations should be conducted. Create simulations where students navigate cultural scenarios using the target language.

Use of technology is highly appreciated in XXI century. So, use digital tools. Utilize language learning apps, online platforms, and virtual reality experiences to explore languages and cultures. Moreover, conducting virtual

exchanges could be fun and engaging for learners. Set up virtual pen pal programs or video exchanges with students from other countries to facilitate real-life language use and cultural exchange.

Linguoculturological competence can be developed through cultural celebrations very well. Especially, learning about festivals and holidays is effective. Celebrate cultural festivals and holidays in the classroom, allowing students to participate in traditional activities and learn about their significance. In addition, cultural showcases can attract learners and boost their cultural awareness. Organize cultural showcases where students can display artifacts, perform traditional dances, or prepare cultural dishes.

Guest speakers and community involvement are effective in raising learners' cultural awareness. Conduct guest lectures. Invite speakers from diverse cultural backgrounds to share their experiences and knowledge with the students.

Do community engagement activities. Encourage students to participate in community events that celebrate different cultures.

Additionally, conducting reflective practices is essential for evaluating learners' comprehension. For instance, journaling and class discussions can be used in this case. Have students keep journals to reflect on their learning experiences and personal growth in understanding different cultures. And, regularly hold discussions that allow students to reflect on their cultural experiences and express their thoughts and feelings [4].

These assessment methods for testing linguocultural competence can be used in the lessons.

- Formative Assessments: Use quizzes, oral presentations, and class participation to assess students' ongoing understanding of linguoculturology.

- Summative Assessments: Implement projects, written reports, and exams at the end of units to evaluate comprehensive learning.

- Peer and Self-Assessment: Encourage students to assess their own and each other's understanding and appreciation of different cultures and languages.

Linguoculturology is connected with cross-disciplinary approaches. To be more precise, integration with other subjects can increase cultural awareness of students. Combine linguoculturology with subjects like history, geography, and social studies to provide a holistic understanding of cultures.

Moreover, interdisciplinary projects are good to keep learner's autonomy and make lessons more interactive. Develop projects that require students to use knowledge from multiple disciplines to explore cultural topics.

Results and discussion. As part of our study, we analyzed linguoculturology as an academic discipline and syntized methods for increasing learners' cultural awareness. All this methods are used and observed on learners of 8th and 9th grades of access program which is sponsored by American Councils for International Education at Bukhara State University. And, according to this practice leaners can learn foreign language and its culture through interactive methods more affectively rather than learning them passively just from the books.

Thus, we came to the conclusion that by using a combination of these methods, educators can create an engaging and effective learning environment for developing linguoculturological competence to school students, helping them to appreciate the rich diversity of languages and cultures around the world.

Conclusions. In conclusion, the present study was designed to investigate linguoculturology as a subject which is integration of linguistics and culture. And, it should be mentioned that by learning a foreign language students do not

learn only grammar and vocabulary, also, they investigate about the culture of this language and its nation. Several interactive methods were described to make lessons more fun and engaging while rising cultural awareness of learners.

Moreover, formative and summative assessment methods for testing pupils' comprehension were discussed.

Acknowledgements: The work is performed according to the Access Program of Bukhara State University and American Councils for International Education.

REFERENCES

1. Телия В.Н. Основные постулаты лингвокультурологии / В.Н. Телия //Филология и культура: материалы II междунар. конф. 12–14 мая 1999г. : в 3ч. / отв. ред. Н.Н. Болдырев. – Тамбов : Изд-во ТГУ, 1999. -Ч. III. С.14-15.
2. Alefirenko, N.F.'s "Cultural Linguistics: Value-Semantic Space of Language".
3. DAVLETBAEVA, D. N.; MEIQI, L.; MINJAR-BELORUCHEVA, A. P. Linguistic Knowledge Of Russian And English Bilingualism In Educational Discourse. Modern Journal of Language Teaching Methods, v. 8, n. 10, p. 419-422, 2018.
4. Collins English dictionary (2020) Available from: <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/slang>
5. Galperin I.R About the term "slang"/Linguistic Issues. –M:Academicianof sciences- No. 6.1956. – P.107–114
6. Karl Sornig, Lexical Innovation. A Study of Slang, Colloquialisms and Casual Speech (Amsterdam: Benjamins, 1981), P. 81.
7. Samadov, A. R. (2020). Constructive importance of aesthetic ideal in forming aesthetic consciousness of the person. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 1935-1945.



UDK:811.3

Zarnigor DADAXONOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: odilkhanovna@gmail.com

O'zDJTU dotsenti I.O'sarov taqrizi asosida

GENRE SPECIFICS OF ENGLISH AND RUSSIAN HUMOROUS DISCOURSE

Annotation

This article is devoted to the study of the space genre of humorous discourse. The author examines different approaches to the concept of genre and analyzes the various approaches to the classification of genres. It is shown that the selection of genres within humorous discourse is difficult because of fuzziness of many genres. Introducing a humorous discourse as a field, the author identifies the location of genres from the center to the periphery.

Key words: Genre, humorous discourse, communication, classification, humor, joke, anecdote, iron, satire.

INGLIZ VA RUS YUMORISTIK DISKURSNING JANR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola kulgili nutqning kosmik janrini o'rganishga bag'ishlangan. Muallif janr tushunchasiga turli yondashuvlarni o'rganadi va janrlarni tasniflashga turli yondashuvlarni tahlil qiladi. Ko'plab janrlarning loyqaligi tufayli hazil-mutoyiba ichida janrlarni tanlash qiyin ekanligi ko'rsatilgan. Kulgili nutqni maydon sifatida kiritib, muallif janrlarning markazdan atrofga joylashishini aniqlaydi.

Kalit so'zlar: Janr, hazil nutqi, muloqot, tasnif, hazil, latifa, temir, satira.

ЖАНРОВАЯ СПЕЦИФИКА АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЮМОРИСТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

Аннотация

Данная статья посвящена исследованию пространственного жанра юмористического дискурса. Автор рассматривает различные подходы к понятию жанра и анализирует различные подходы к классификации жанров. Показано, что выбор жанров в рамках юмористического дискурса затруднен из-за нечеткости многих жанров. Представляя юмористический дискурс как поле, автор определяет расположение жанров от центра к периферии.

Ключевые слова: Жанр, юмористический дискурс, коммуникация, классификация, юмор, шутка, анекдот, ирония, сатира.

Introduction. Communicative processes following more or less fixed patterns are called "genres." Luckmann (2002) describes typification and routinization processes as going on naturally in human action. It comes as no surprise that in the course of history interlocutors consolidate certain structural expectations about how an activity might begin, develop and come to an end, what role relations it allows, where it typically takes place, what its reputation is, and what functions it is able to realize.

The question of the genre specificity of any discourse seems necessary for the development of a general typology of genres and the compilation of a complete genre picture of this type of discourse. According to A. Vezhbitskaya, speech genres distinguished by language are the key to the culture of society. Speech genres organize our speech in much the same way that grammatical forms and syntactic structures organize it. M. M. Bakhtin understands the speech genre as a typical form of utterance, and not the utterance itself. Genres, therefore, represent some abstract schemes, abstracted from individual linguistic specifics. In linguistic science, there are several approaches to defining the concept of genre itself. In literary studies, a genre is understood as a kind of textual works united by a common goal, similar compositional forms and thematic diversity. Within the framework of the functional-stylistic method, the essence of which is to identify the natural features of the organization of speech (text) and the way of carrying out textual activity as a form of social consciousness and a type of socio-cultural activity, functional styles are identified, correlated with the most important spheres of human consciousness and activity. The functional-

stylistic approach determines the direction of the analysis of a speech work, its stylistic features – from the most general characteristics to typical and special ones.

Discourse analysis approach. A number of authors, when defining a speech genre, proceed from the concept of text and consider speech genres to be larger units than speech acts. They are characterized by a more complex structure, and may include several illocutionary forces. Speech genres are considered as stable thematic, compositional and stylistic types of texts, rather than statements. Thus, it is advisable to associate the concept of a speech genre not with speech actions, but with texts that have a thematic or logical-pragmatic completeness. M. Yu. Fedosyuk contrasts genres and those communicative units in the semantics of whose names there is a certain component that puts them in a complex relationship with the general system of cultural values. M. Yu. Fedosyuk considers only genres containing an evaluative component supported by this culture to be genres of Russian speech.

Conclusion. This study has demonstrated the significant use and impact of poetic devices in Charles Dickens's early novels. Through a detailed analysis of "The Pickwick Papers," "Oliver Twist," and "Nicholas Nickleby," it is evident that Dickens not only employed metaphors, similes, and personification extensively but also developed his use of these devices to enhance narrative depth and emotional engagement. The findings affirm that Dickens's narrative style in his early works is markedly poetic, contributing to the layered complexity and enduring appeal of his novels. Future research might explore how these techniques evolve in his later works and compare them with contemporary novelists to further understand the unique aspects of Dickensian prose.

REFERENCES

1. Abrams, M. H. (1981). *A Glossary of Literary Terms*. New York: Harcourt Brace College Publishers.
2. Bowen, J. (1991). *Charles Dickens: The Critical Heritage*. London: Routledge.
3. Frye, N. (1957). *Anatomy of Criticism: Four Essays*. Princeton: Princeton University Press.
4. Hollington, M. (2003). *Charles Dickens and the Image of Women*. New York: New York University Press.
5. Jordan, J. (1999). *The Cambridge Companion to Charles Dickens*. Cambridge: Cambridge University Press.
6. Tambling, J. (2012). *Dickens's Novels as Poetry: Allegory and Literature of the City*. *Routledge Studies in Nineteenth Century Literature*. New York: Routledge.



UDK: 811.512.133'313.49:39

Dilorom KARIMOVA,
Andijon davlat pedagogika instituti, f.f.d., PhD
E-mail: karimovadilorom15@gmail.com

O'zDJTU professori, f.f.d J.Yakubov taqrizi ostida

ODAMNING LISONIY MANZARASIDA LINGVOMADANIYAT VA ANTROPOSENTRIK BIRLIKLARNING MOHIYATI

Аннотация

Olamning lisoniy manzarasida konseptosfera til birliklari va ma'nolar majmui bilan ifodalanadi. Konseptosfera tildagi alohida so'zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunda biror konseptga xos bo'lgan tushuncha va ma'nolarning maydoni yoki ularning majmui konseptosferani tashkil qiladi. Konsept va konseptosfera terminlarining o'xshash tomonlari ularning inson ongida paydo bo'lib, birorbir obrazni tasvirlashida ko'rinadi. Binobarin, konseptosfera fikrlash in'ikosi sifatida hamda universal bir predmetga xos ramziy birliklarning majmui sifatida insonlarning axborot doirasini tashkil qilib, u til birliklari bo'lgan so'z, metafora, frazeologizmlar, sintaktik struktura kabilar orqali ifodalanadi.

Kalit so'zlar: Konsept, konseptosfera, olamning lisoniy manzarasi, lingvopragmatik, lingvokognitiv, antroposentrik birliklar.

СУЩНОСТЬ ЛИНГВОКУЛЬТУРЫ И АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ В ЯЗЫКОВОМ ЛАНДШАФТЕ МИРА

Аннотация

В языковом ландшафте мира концептосфера представлена совокупностью языковых единиц и значений. Концептосферу можно выразить и через отдельные слова языка. В этом случае поле понятий и значений, свойственное понятию или их совокупности, образует концептосферу. Сходные аспекты терминов концепт и концептосфера проявляются в том, как они появляются в сознании человека и описывают образ. Поэтому как отражение понятийного мышления и как совокупность характерных для универсального объекта символических единиц она образует круг информации людей и выражается через слова, метафоры, фразеологию, синтаксическую структуру и т. д.

Ключевые слова: Концепт, концептосфера, языковой ландшафт мира, лингвопрагматика, лингвокогнитив, антропоцентрические единицы.

THE ESSENCE OF LINGUISTIC CULTURE AND ANTHROPOCENTRIC UNITS IN THE LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE WORLD

Annotation

In the linguistic landscape of the world, the conceptosphere is represented by a set of language units and meanings. The conceptosphere can also be expressed through separate words in the language. In this case, the field of concepts and meanings specific to a concept or their set constitutes the conceptosphere. Similar aspects of the terms concept and conceptosphere are seen in the way they appear in the human mind and describe an image. Therefore, as a reflection of conceptual thinking and as a set of symbolic units specific to a universal object, it forms the circle of information of people, and it is expressed through words, metaphors, phraseology, syntactic structure, etc.

Key words: Concept, conceptosphere, linguistic landscape of the world, linguopragmatic, linguocognitive, anthropocentric units.

Olamning lisoniy manzarasi – bu sub'ektning atrof-olam, real yoki xayoliy voqelikka oid bilim va fikr-mulohazalari majmuasidir. Ilmiy tasnif va talqinlar negizida mujassam bo'lgan dunyo to'g'risidagi dastlabki bilimlar aynan tilda turg'un shakllar ko'rinishida saqlanib qolgan. Ilmiy adabiyotlarda dunyo obrazi va olam modeli terminlari ham uchraydi, biroq, ular kam tarqalgan. Olam lisoniy manzarasi termini birinchi bor fizika fanida G.Gers tomonidan qo'llanilgan. Taniqli olim ushbu tushunchani tashqi ob'ektlarning ichki obrazlari yig'indisi deydi, hamda ular ushbu obrazlarning xatti-harakatlari to'g'risidagi mantiqiy mulohazalarni shakllantirishga xizmat qiladi, deya ta'kidlaydi. Keyinchalik bu termin boshqa fanlarga ko'chdi, u K.Yaspers va L.Vitgenshteynning-mantiqiy falsafiy traktatl asarida, shuningdek, L.Vaysgerber asarlarida olam manzarasi termini ishlatilgan. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida olamning turli manzaralariga umumiy mazmunda hamda konsept va konseptosferalar nuqtai nazaridan dolzarb ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan va borilmoqda, xususan, N.Mahmudov, Sh.Safarov, E.Begmatov, A.Nurmonov, A.Mamatov,

J.Eltazarov, Sh.Usmonova, D.Xudayberganova, D.Baxronova 3 singari olimlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi zamon lingvistikasida til va madaniyatning o'zaro munosabati masalasi, konsept tushunchasi va uning bag'rida lingvomadaniy tahlilningmetod va usullari tadqiqi amalga oshirilmoqda. Tilshunoslikda til birliklarini lingvopragmatik, lingvokognitiv, antroposentrik paradigm kabi yangi ilmiy konsepsiyalar asosida tadqiq etish ustunlik qilmoqda. Til va madaniyat munosabatini olamning lisoniy manzarasi nuqtai nazaridan o'rganish, milliy mentallikni anglash masalalarini tahlil qilishhamtilshunoslik uchun nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Tilshunoslikda inson faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan antroposentrik tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Modomiki, frazeologik birliklar inson faoliyati bilan bog'liq narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash ekan, shunday hodisalarni emosional-ekspressiv, obrazli ifodalash ehtiyoji asosida shakllanar ekan, ularni til va madaniyat munosabatida tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etadi. Til, bu – olamning birlamchi konseptualashuvi va inson tajribasi rasionallashuvining universal shakli, borliq haqidagi tafakkurda shakllangan bilimlarni ifodalash va ajdodlardan

avlodlarga yetkazish vositasi, inson hayotidagi ijtimoiy jihatdan ahamiyatga ega voqealar haqidagi tarixiy xotiralardir. Rus olimi I.A.Ibin, xalq tili uning qalbi va ruhining o'ziga xos badiiy libosidir, deb to'g'ri ta'kidlaydi. Zotan, "...tilni asrash, rivojlantirish millatning yuksalishi demakdir" [1].

"Olamning lisoniy manzarasi" istilohi zamonaviy tilshunoslikning eng

yirik yo'nalishlaridan biri bo'lgan kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlarda faol sanaladi. O'z-o'zidan, mazkur atama tarkibidagi "lisoniy" sifatlovchisi olamning yana boshqa manzaralari ham mavjud ekanligiga ishora qiladi [2]. Zero, "olamning lisoniy manzarasi – borliq haqidagi bilimlarning til vositasida aks ettirilishi, shuningdek, yangi bilimlarni egallash va ularni ifodalash vositasidir". "Olamning lisoniy manzarasi – bu, barcha lisoniy imkoniyatlarning majmuasi, u ma'lum bir o'ziga xos madaniyat ruhi, til egalaridan iborat jamiyatning mentaliteti, til imkoniyatlari va vazifalarini ko'rsatib beradi. Olamning lisoniy manzarasi etnos va tilning tarixiy taraqqiyot jarayonini aks ettiradi va ayni vaqtda, tilning kelajakdagi holati haqida ilmiy bashorat beradi.

Tilshunoslar olamning lisoniy manzarasi va konseptosfera ayni bir voqelikning turlicha nomlanishi degan fikrni bildirishadi. Demak, konseptosferaning tarkibiy qismi hisoblangan konseptlar – olam lisoniy manzarasi ham asosiy vositasi sanaladi. Endi olamning lisoniy manzarasida taqlidlar qanday o'ringa ega, degan muammo yechimiga o'tar ekanmiz, buning uchun taqlidiy so'zlarning kelib chiqishi, semantic vazifasi va mohiyati masalalariga to'xtalish lozim [3].

Olamning lisoniy tasviri xususida ilk bor V.Gumbolt falsafiy dialektika asosida mushohada yuritadi. Tilni falsafiy asosda o'rganar ekan, olamning lisoniy tasviri va uning tarkibiy elementlari xususida, jumladan, olamning umumiy lisoniy tasviri, milliy lisoniy tasvir va xususiy lisoniy tasvir kategoriyalariga to'xtalib o'tmaydi. Olamning lisoniy tasviri va milliylik kategoriyalarining o'zaro chambarchasligi masalasiga esa keyinchalik tilshunos olim L.Vaysgerber alohida e'tibor qaratadi va o'z tadqiqotlarida ona tili millatni birlashtirib turuvchi birdan-bir

mustahkam uzv ekanligi haqidagi g'oyalarni ilgari surib, olamning milliy lisoniy

tasviri haqida atroflicha fikr yuritadi. Ikki madaniyat hech qachon bir-biriga to'liq muvofiq kelmaydi. Bu nomuvofiqliklar taqqoslanaётgan tillardagi lingvokulturologik birliklarning leksik-semantik, funksional, uslubiy va grammatik xususiyatlarida ham kuzatiladi. Bu qatlamga oid ba'zi birliklarning qiyoslanayotgan ikkinchi bir tilde ekvivalenti bo'lishi, ushbu birliklarni lingvistik jihatdan teng qiymatga ega ekanligini ko'rsatmaydi.

Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning "o'zida va o'zi uchun" tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi [4].

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalardan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentriзмning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi [5]. "Antropotsentriзм" so'zi yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum- markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan. "Antropotsentriзм" termini dastlab qadimgi yunon falsafasining "Inson – koinot markazidir" degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llangan bo'lib, bu g'oya ayniqsa O'rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi [6]. Tilshunoslikda til tizimini antropotsentrik nuqtai nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika,

kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik

tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo'lgan. Antropotsentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan. O'zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari o'zida antropotsentrik yo'nalish tendentsiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Prof. SH.Safarov antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: "Sistem-struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning "atomistik", ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi. Sistem-struktur yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'nalishlarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarning yaratilishiga sabab bo'ldi" [7].

Prof. N.Mahmudov esa tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritarkan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: "Tilning ana shunday ob'ektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmadagi inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning "inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi" degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi" [8]. Tilshunoslikda e'tirof etilganidek, antropotsentrik paradigmadagi asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratiladi. Aytish joizki, ilmiy paradigmadagi "til sohibi" kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etadi [9].

Antropotsentrik paradigma inson omilini birinchi o'ringa qo'yadi va til insonning asosiy ajralmas xususiyati, uning eng muhim tarkibiy qismini hisoblanadi. Inson intellektini, xuddi insonning o'zi kabi, nutqni yaratish va idrok etish qobiliyati sifatida til va til qobiliyatidan tashqarida tasavvur qilib bo'lmaydi.

Ma'lumki, inson – shaxs madaniyatni yaratadi va unda yashaydi. Aynan shaxsda insonning ijtimoiy tabiati birinchi o'ringa chiqadi va shaxsning o'zi ijtimoiy-madaniy hayotning subyekti sifatida harakat qiladi. Lisoniy shaxs tilda aks etgan madaniyat makonida, turli darajadagi ijtimoiy ong shakllarida (ilmiy, maishiy va boshqalar), xulq-atvor stereotiplari va me'yorlarida, moddiy madaniyat obyektlarida va hokozalarda mavjuddir. V.A.Maslova fikricha, lisoniy shaxs odatda quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1) qadriyat, dunyoqarash, ta'lim komponenti. Til yordamida olam haqida dastlabki va chuqur dunyoqarash shakllanadi, u dunyoning lingvistik qiyofasini va milliy xarakterning shakllanishiga asos bo'ladigan va lingvistik dialog aloqasi jarayonida amalga oshiriladigan ma'naviy g'oyalar ierarxiyasini shakllantiradi;

2) madaniy komponent. O'rganilayotgan til madaniyati haqidagi bilimlar muloqot jarayonida shेरigaga samarali ta'sir qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi;

3) shaxsiy komponent, ya'ni har bir insonning xos bo'lgan ichki individual shaxsiyati. Demak, lisoniy shaxs ijtimoiy hodisa bo'lishi bilan bir qatorda insonning individual jihatlarini ham o'z ichiga oladi. Lisoniy shaxsdagi individ tilga bo'lgan ichki munosabat, shaxsiy lingvistik ma'nolarni shakllantirish orqali yuzaga keladi; lekin shu bilan birga,

lisoniy shaxsning til an'analari shakllanishiga ta'siri borligini ham unutmash kerak. Har bir lisoniy shaxs o'zidan oldingilar yaratgan barcha til boyliklarini muayyan shaxs tomonidan o'zlashtirib olishi asosida shakllanadi.

Tilshunoslikda inson faoliyatini o'rganishga yo'naltirilgan antroposentrik tadqiqotlar yuzaga kelmoqda. Modomiki, frazeologik birliklar inson faoliyati bilan bog'liq narsa-hodisa va tushunchalarni ifodalash ekan, shunday hodisalarni emosional-ekspressiv, obrazli ifodalash ehtiyoji asosida shakllanar ekan, ularni til va madaniyat munosabatida tadqiq etish yanada dolzarblik kasb etadi. Mazkur maqoladagi til materiallari o'zbek milliy- madaniy dunyoqarashining frazeologik sathdagi aspektlarini tahlil va tavsif etishga yo'naltirilgan.

Til u yoki bu millat madaniyatining elementi, qismi, fakti, omili, shakli, manbasi, saqlovchisi, xotirasi, translyatori, mavjudlik sharti hisoblanadi. Lingvomadaniyatshunoslik integrativ mustaqil fan sohasi sifatida olamning lisoniy manzarasi va til shaxsining milliy o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi hamda yuzaga chiqaradi. Tilshunos V.A.Maslova lisoniy madaniyatshunoslikning predmetini:

1) noekivalent leksika va lakunalar; mifologik lisoniy birliklar;

2) til paremiologik fondi;

3) til frazeologik fondi;

4) etalon, streotip, simvollar;

5) til metafora va obrazlari;

6) turli tillar uslubiy tarzi;

7) nutqiy xulq;

8) nutqiy etiket maydoni" kabi turlarga ajratib yanada aniqlashtiradi. Frazeologizmlar millatning mahsuli sifatida milliy madaniy manzarani kognitivpragmatik aspektlarda bayon etadi. Lisoniy konsept va uning lingvomadaniy aspektlari esa madaniy-lisoniy aloqalarning ko'p qirrali jihatlarini ifoda etadi. Jahon va o'zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning milliy madaniy o'ziga xos

xususiyatlariga hamda til va madaniyatning o'zaro munosabatlariga oid ilmiy va amaliy tadqiqotlar yaratilgan.

Frazeologizmlarning lisoniy madaniyatshunoslik doirasida o'rganish natijalari tahlili asosida lingvomadaniyatshunoslikning integrativ mustaqil fan sohasi ekanligi e'tirof etiladi. Tilshunoslik tarixida til va madaniyatning o'zaro munosabati birinchidan: til madaniyatning oddiy in'ikosi, ikkinchidan: tilni madaniyat, falsafa va psixologiyaning negizi, ya'ni tilning madaniyatga ta'sirini birlamchi deb hisoblaydigan hamda uchinchidan: til – biz ajdodlarimizdan meros qilib olgan madaniyatning tarkibiy qismi, til – biz uning yordamida madaniyatni o'zlashtirishimizdagi asosiy vosita va nihoyat til – ruhimiz voqeligi kabi uch yondashuv e'tirof etiladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, konseptlar bizning dunyoni tushunishimizda hal qiluvchi rol o'ynaydigan asosiy kognitiv tuzilmadir. Falsafa, psixologiya, tilshunoslik va nevrologiya kabi turli sohalarda olimlar konseptlarning qanday shakllanishi, ifodalanishi va bilishda ishlatilishini tushuntirish uchun turli nazariy qarashlarni taklif qildilar. Klassik nazariyalar, prototip nazariyalari, namunaviy nazariyalar, nazariya nazariyalari yoki mujassamlangan bilish ob'ektivi orqali qaralsa ham, konseptlar inson tafakkuri, tili va xatti-harakati uchun qurilish bloklarini ta'minlaydi. Konseptlar tasnifi kognitiv tilshunoslikning eng dolzarb muammosi sifatida bugungacha kun tartibining bosh masalasi bo'lib turibdi. Kognitiv tilshunoslikda konseptlar tasnifiga turlicha yondashilgan, lekin ularning birontasi ham kognitiv tilshunoslar tomonidan yakdillik bilan qabul qilinmagan va hanuzgacha munozarali masala sifatida qolib kelmoqda. Shuni ta'kidlashimiz joizki, oxirgi yillardagi lingvokulturologik tadqiqotlarda olamning lisoniy manzarasini o'rganish yo'nalishida faol tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Olam manzarasi (jumladan, olamning lisoniy manzarasi) tushunchasi insonning olam haqidagi tasavvurlarini o'rganish asosida amalga oshiriladi.

ADABIYOTLAR

1. Хайтов А. Тил – миллатнинг маънавий бойлиги. Халқ сўзи газетаси. <https://xs.uz/uzkr/post/til-millatningmanavij-bojligi>
2. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.
3. Махмудов Н. Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. №3. Б. 3 – 10;
4. Юлдашев А.Г. Оламни лисоний концептуаллаштириш//Хорижий филология, 2020, №4 – Б.61-62.
5. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.
6. Бу ҳақда қаранг: Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.
7. <http://ph.ras.ru/elib/0215.html>: Новая философская энциклопедия
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б. 35
9. Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.
10. Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 5
11. Adullayeva R. The linguistic image of the world// Scientific journal of the Fergana State University. –№12, 2018 – Б.133



UDK: 02(09)2660

Rayhona KENJAYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU magistranti
E-mail: rayhonakenjayeva4@gmail.com

TDO‘TAU professori., f.f.d. M.Abdullayeva taqrizi asosida

DIFFERENT MEANINGS OF THE TERM WISDOM

Annotation

In this article, as a genre, the genesis, development, poetic and prose forms of Wisdoms are researched with examples. The meaning of the word “khikmat (wisdom)” in terms of terminology, exegesis and various verses of the Holy Qur’an and their analysis is highlighted. Also, the issue of the interpretation of the meaning of the word wisdom in the works of various scientists and examples of folklore is explained.

Key words: Wisdom, utluk, bilik, sura, Qur’oni Karim, sufism, philosopher, philosophical knowledge, invitation, interpretation.

РАЗНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ ТЕРМИНА МУДРОСТЬ

Аннотация

В данной статье как жанра на примерах исследуются генезис, развитие, поэтическая и прозаическая формы Мудрости. Освещено значение слова «хикмат (мудрость)» с точки зрения терминологии, экзегезы и различных аятов Священного Корана и их анализа. Также поясняется вопрос интерпретации значения слова мудрость в трудах различных ученых и примерах фольклора.

Ключевые слова: Мудрость, улук, билек, сура, Кур’они Карим, суфизм, философ, философское знание, приглашение, интерпретация.

HIKMAT ISTILOHINING TURFA MA’NOLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada janr sifatida hikmatlarning genezisi, rivoji, she’riy va nasriy shakllari misollar orqali tadqiq etilgan. Hikmat so’zining istilohiy, tafsiriy va Qur’oni Karimning bir qancha oyatlaridagi ma’nolari va ularning tahlili yoritilgan. Shuningdek, hikmat so’zining turli olimlarning asarlarida va xalq og’zaki ijodi namunalaridagi ma’nolari talqini masalasi izohlangan.

Kalit so’zlar: Hikmat, o’tluk, bilik, sura, oyat, Qur’oni Karim, so’fiylik, faylasuf, falsafiy bilim, da’vat, qozi, tafsir.

Kirish. Poetika ilmida juda ko’p munozaralarga sabab bo’lgan hikmat janrining genezisiga nazar tashlasak, bu janr namunalarning Yassaviygacha ham mavjud bo’lganligini ko’rishimiz mumkin. Aslini olganda, hikmatlar insoniyat bilan birga yaratilganligini Odam allayxissalomning yaratilishi, uni bug’doyni yeb jannatdan quvilishi va yana Allohning inoyati bilan kechirilib, yerga tushirilishi-yu, Iblisning Alloh kechirmay lanatga duchor bo’lishida ko’rishimiz mumkin. Alloh yaratgan har bir narsada hikmat bor. Shu nuqtayi nazarni insoniyatga yetkazish, ta’sirchanligini oshirish uchun ham aynan hikmat deb atalmish janr paydo bo’ldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bu janrning ilk namunalari xalq og’zaki ijodiga borib taqaladi. Turkiy xalqlarning ilk kitobiy dostoni bo’lmish “Kitobi Dada Qo’rqut”da Qo’rqut ota tilidan aytilgan hikmatlar bunga yaqqol misol bo’la oladi: Qani dunyo meniki deganlar, O’lim keldi barchasini tuproqqa berdi. Bu dunyo kimga qoldi? Kelimli ketimli dunyo!.. [1].

Ko’rinib turibdiki, ushbu hikmat Yassaviy hikmatlariga tili, uslubi va ma’nosi bilan juda yaqin. Yassaviyning o’zi ham xalq og’zaki ijodidagi mana shunday qo’shiqlardan ilhomlangan va o’z she’rlarini “Hikmat”deb nomlagan. Bundan ayon bo’lishicha, hikmatlar, dastavval, nasriy shaklda vujudga kelgan.

Vaqtlar o’tishi bilan hikmat janrining nasriy namunalari yozma adabiyotga ham kirib keldi. Bunga sabab esa hikmatlarning ta’sir kuchini oshirish, tugal mazmuni go’zal satrlar orqali yetkazib berish bo’lgan. Bu haqida Ahmad Yassaviy shunday satr ham bitgan:

Xatini bitsa har kim nasr bitsun,

Bitibon nasr ul maqsuda yetsun [2].

Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk “ kitobidan ma’lum bo’lishicha, xalq orasida keng tarqalgan “bilik”, “o’tluk”kabi janr namunalari ham bugungi hikmat so’zi va janriga to’g’ri keladi. Xususan, asarda “bilik” so’ziga “bilim”, “hikmat”, “aq” deb izoh berilgan. O’git, nasihat, hikmat ruhidagi she’rlar “O’tluk” deb nomlangan. Asarda 2 ta o’tluk she’r uchun namuna berilgan:

Qo’shni- qo’niq ag’ishqa,

Qilg’il ang’ar ag’irlik.

Artut alib anung’il,

Ezgu tavar o’g’ruluq.

Ma’nosi:

Qo’ni-qo’shni, qarindosh,

Ko’rsin sendan yaxshilik.

Ne-ne sovg’a qilishga,

Yaxshirog’in qil ortiq [3].

VII asrga kelib islom dini kirib kelgach, din ta’sirida ushbu janr namunalarida diniy tarbiya unsurlari ko’zga tashlana boshladi. XI-XII asrlarga kelib diniy- tasavvufiy g’oyalar ustunlik qila boshladi. Endilikda so’fiylik adabiyotining asosiy quroli “hikmat”lar bilan bog’landi. So’fiy so’zining etimologiyasiga to’xtaladigan bo’lsak, ushbu so’zga ilk bor O’rta Osiyoda alloma Abu Rayhon Beruniy o’zining “Hindiston” nomli asarida to’xtalib o’tadi. Olim shunday yozgan: “Yunoncha “suf” so’zi, bizningcha, hikmat demakdir. Shuning uchun faylasufga “pilosupo” ya’ni “hikmatni suyuvchi” deb ism berilgan. Musulmonlarning bir guruhi so’fiylarning o’sha tushunchalariga yaqin fikrga borganidan

ular ham “so’fiya” deb ataldilar” [4]. Shu asnoda islomda so’fizm asoslari va hikmatlar yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Qur’onda hikmat so’zi yigirma marotaba zikr qilingan: uch marta “mulk”, o’n bir marta “kitob”, har birida bir martadan “oyat”, “mav’iza” so’zlari bilan qo’llangan. Bu so’zlarning hikmat bilan birga qo’llanilishi bu so’zning ma’nosi haqida turli talqinlarga sabab bo’lgan. “Devoni hikmat” atamasidagi “hikmat” so’zi ham teran ichki ma’noga ega bo’lib, muayyan talqinni talab etadi. Ilohiyotchi mutaxassislarining aniqlashicha, “hikmat” Qur’oni Karim oyatlarida payg’ambarimizning haq yo’lni ko’rsatuvchi va’zlariga nisbatan qo’llanilgan ekan. Lug’atlarda esa, hikmat ilm va adolatni o’z ichiga oluvchi, borliq haqiqatini anglatuvchi ma’rifiy so’z, odat va axloqqa xos kalima, sirli sabab kabi ma’nolarni anglatishi aytiladi. Shulardan kelib chiqib, ayrimlar uni “diniy-tasavvufiy o’ziga xos so’z” deb ta’rif qiladilar. Xalq jonli tilida ham bu so’z juda ko’p uchraydi. Aksariyat hollarda tajribadan kelib chiqqan ibratli so’z ma’nosini anglatadi. Yassaviy hikmatlari islom g’oyalari, birinchi navbatda shariatni targ’ib va tashviq qiluvchi she’riyatdir. Shariat esa Qur’onga, hadisga tayanadi. Demak, bu she’rlar Qur’on va hadislarining o’ziga xos sharhlaridir [5].

Mufasssirlar Qur’oni Karimdagi hikmat atamasini turlicha talqin qilganlar: “Ularga kitob va hikmatni o’rgatadi” oyati (Baqara, 2/129) hamda “Hikmatni xohlagan kishiga beradi, demak, kimga hikmat berilgan bo’lsa, unga ko’p yaxshiliklar berilgandir, faqat aql egalari gina tafakkur qila oladilar” (Baqara, 2/269). Tabariy “Baqara” surasining 29-oyatini tafsir qilar ekan, shunday deydi: “Hikmat ilmi faqat Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning bayoni bilan anglash mumkin bo’lgan ilohiy hukmlarni bilish va bu farmonlarni va ular bildirgan boshqa hukmlarni anglashdir. Sharhlovchining fikricha, hikmat payg’ambarlik missiyasining bir jihati. Payg’ambar Muhammad (s.a.v.) o’ziga nozil qilingan kitobni o’rgatish jarayonida ilohiy hukmlarni tushuntirishni bilishlari va boshqalarga xabar berishlari ham hikmat deyiladi.

Tahlil va natijalar. Zamaxshariy Alloh taolo o’zi xohlagan kishiga katta ne’mat beradigan hikmatni “ilm va amalning uyg’unligi” deb talqin qilgan. Qur’oni Karim tafsirlarida ham “sobitqadamlik” ya’ni “so’z va amalning birligi” sifatida talqin qilingan [6]. Umumiy ma’noda hikmat barcha chiroyli ilm va foydali ishning nomini ifodalaydi.

Shuningdek, Nahl surasi 16-oyatda shunday deyilgan: “Robbingning yo’liga hikmat va go’zal nasihat bilan da’vat et”. Ya’ni “hikmat” haqiqatni bayon etuvchi, shubhalarni yo’qotuvchi, inson aqli va ruhini sog’lomlashtiruvchi ilm deb ta’riflanadi.

Johiliyat davrida qozilar ham shoir va folbinlar singari ijtimoiy hayotni boshqara olganlar. Qozining hikmatli so’zlari o’zining tajribasi, yetukligi va so’zlash mahorati tufayli qabila tuyg’ulari, tafakkurlarida chuqur iz qoldirgan va bu hikmatlar keng tarqalib, anonimlashganidan keyin masal deb atalgan.

Tasavvuf adabiyotida hikmatga berilgan ahamiyat tufayli ba’zi so’fiylarning “qozi” deb atalganligi ko’zga tashlanadi. Hakim At-Termiziy, Hakim Sanoiy va Hakim Ato Sulaymon Boqir’oni kabi O’rta Osiyo turkiy mutasavvufilar ham shuhratini shu tushunchadan oladi.

Hikmatnavislik janri Islom asoslaridan bahs etuvchi, shariatning qoidalari va ahli sunnaning aqidalaridan saboq beruvchi, tasavvuf sirlari va tariqat arkonini yoritib beruvchi adabiy janr bo’lib, uning asosini ilohiy ishq va didaktik mazmun tashkil etadi. Ushbu janr butun turkiy xalqlar madaniyati, turmush tarzi va adabiyotiga kirib borgan va turlicha talqin qilinadi. Masalan, mashhur turk professori Mahmud As’ad Jo’shonning fikricha, “Yassaviyning “hikmat” deb atalgan she’rlari bizning xalq og’zaki ijodimizda “ilohiy” deb ataladi. Hikmat bu aqlga, mantiqqa, e’tiqodga, ilm-u

urfonga muvofiq so’zdir” [7]. Ya’ni hikmatlar Alloh yo’liga kirish, ixlos qilish, e’tiqodda sobit bo’lmoqlikdir. Ahmad Yassaviy bir hikmatida ham aynan shu mazmunning ustuvor ifodalanganini ko’rish mumkin:

Qul hoja Ahmad, hikmat odyg’il oshiqlarg’a,
Siddiq bilan yo’lga kirgon sodiqlarg’a,
Ixlos bilan haqni degon loyiqlarg’a,
Dargohida Xojam qabul qilarmukin.

“Devoni hikmat”da hikmat ma’nosiga monand “so’z”, “nukta”, “ilhom” so’zlari qo’llangan. “Devoni hikmat” atamasidagi “hikmat” so’zining teran ichki ma’nosi ham to’g’ri talqin qilinishi kerak. Ilohiyotchi mutaxassislarining aniqlashicha, “hikmat” arabcha so’z bo’lib, donishmandlik, falsafa, sir, haqiqatga to’g’ri keladigan so’z, tadbir, sabab singari olti ma’noga ega ekan. Yassaviy hazratlari “hikmat”ni ko’proq haq yo’lni ko’rsatuvchi so’z ma’nosida qo’llaganlar[8]. Xoja Ahmad Yassaviy “hikmat” deb nomlangan she’rlari bilan o’zbek tasavvuf adabiyotiga asos soldi. Bu yo’lda arab va fors tillaridagi tasavvuf adabiyoti tajribalariga tayandi. Turkiy xalqlar og’zaki ijodidagi diniy qo’shiqlardan ilhomlandi. Bu hodisaning asosiy omillaridan yana biri turkiy xalqlarning so’fiylik g’oyalari e’tibori, qiziqishining ehtiyoj mahsuli sifatida baholanishi kerak.

Yassaviy izdoshlari hikmat deganda didaktik-falsafiy, aforistik mazmundagi she’rni emas, aynan “Devoni hikmat” va unga taqlidan yozilgan ash’orni nazarda tutganlar. Demak, hikmat XII-XIX asrlarda alohida she’r janri xususiyatiga ega bo’ldi.

Turkiy adabiyotda nasriy hikmat namunalarini Rabg’uziyning “Qissasi Rabg’uziy” asarida ko’rish mumkin. Asarda “Namrudning osmonga uchgani” nomli qissasida shunday nasriy hikmat keltiradi: “Namrudga berilgan azoblar shuning uchun ediki, u to’rt yuz yil tangrilikni da’vo qildi va odamlarni o’ziga sajda qildirdi. Shuni unutmangki, ensalariga mushltar yegan kimsa qanday qilib tangrilikka yarasin” [9]. Rabg’uziy qissalar va hikoyatlardagi voqealardagi fikrlarni umumlashtirish va xulosa berish uchun hikmat janridan foydalangan.

XV-XVI asrlarga kelib hikmat janrining nasriy namunalarini Alisher Navoiyning bir qator asariga ham kirib keldi. Xususan, “Mahbub-ul qulub”dagi axloqiy hikmatlar didaktik maqsadni ifodalash, bayondagi fikrning teranligini oshirish maqsadida “axloqiy yetuklik” ma’nosida qo’llanilgan. “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asarida esa Sayyid Hasan Ardasher tilidan 3 ta hikmat keltiriladi. Ulardan biri: “Alar der erdilarkim, dunyo johining mastlig’i chog’ir mastlig’ig’a o’xshamaskim, chog’ir mastlig’i ichgan kunidir, ammo joh mastlig’i agar sohibi joh yillar joh ustidadurkim, mastdur, aning maxmurlig’i johdin max’zul bo’lg’onidadir. Ne muskir xamrdurkim, sarmastlig’i odamiyni yillar o’zidin bexabar qilg’ay”. [10] Ushbu asarda “hikmat” so’zi “foydali ilm” ma’nosida qo’llanilib, Navoiy uni nasriy janr namunasi sifatida keltirib o’tgan. “Farhod va Shirin” dostonida esa “jismni matlub qiladigan ilm” deya ta’riflangan. Alisher Navoiyning Shohg’arib mirzoga aytgan nasihatida shunday jumla bor:

Valekin tibbu hikmat ham erur xo’b,
Ki, sihhatdir kishi jismida matlub [11].

Abdurahmon Jomiyning “Solomon va Absol” dostonida esa “hikmat” so’zi “donolik, donishmand so’zi” ma’nosida qo’llangan. Asardan ma’lum bo’lishicha, shoh saroyida o’z hikmatlari bilan shohni to’g’ri yo’lga boshlovchi hakim bo’lgan va bu hakim doimo shohga hamroh bo’lgan.

Bundan tashqari islom olamida “Allohning hikmati” degan ibora ham mavjud. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning fikriga ko’ra, Allohning hikmati degani, u zotning barcha narsalarni o’z o’rnida qilishidir. Hikmatning (حكمة) ma’nosi kishidagi malaka bo’lib, gap va ishning hammasini o’z joyida, kamchiliksiz ado etishni

bildiradi. Ayni chog'da, Payg'ambarlarning sunnatlariga ham hikmat deyiladi. Hikmat aslida har bir narsani o'z joyiga yaxshilab qo'yish hamdir. Shu boisdan ham, har bir gapni to'g'ri so'zlash va har bir ishni to'g'ri bajarishga "hikmat" deyiladi [Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf ma'ruzalaridan.

Xulosa. "Hikmat" janri shakl jihatidan o'zgaruvchan bo'lgan. Bunga sabab ijtimoiy, madaniy va siyosiy muhitning o'zgarishi bevosita adabiyotga ta'sir etganidadir. Dastlab

nasriy hikmatlar xalq og'zaki ijodida shakllangan bo'lsa, keyinchalik yozma adabiyotda she'riy-to'rtlik shaklidagi hikmatlar yuzaga keldi. Ikkilik shaklidagi hikmatlar ham mavjud.

"Hikmat" janri mavzu jihatidan ham yuksak takomilga yetdi. Dastlab, og'zaki ijodda uzoq yillik tajriba asosida ulug' otalar va donishmand kishilar tomonidan aytilgan o'git, pand-nasihat mazmunida bo'lsa, keyinchalik Yassaviy tomonidan bu janrga diniy mavzu olib kirdi.

ADABIYOTLAR

1. Dada Qo'rqut hikoyalari. Z.Ochilova tarjimasi. – Toshkent, 2010. – B.31.
2. Xoja Ahmad Yassaviy. Devoni hikmat (yangi topilgan namunalar). – Toshkent: Movarounnahr, 2004. – B. 47.
3. Koshg'ariy M. Devonu lug'otit turk. – Toshkent: O'zbekiston FA nashriyoti, 1960. – B. 137.
4. Qayumov A. Beruniy va adabiyot. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1974. – B. 59.
5. Qo'ziyev U. O'zbek mumtoz adabiyoti. (uslubiy qo'llanma). – Namangan, 2016. – B. 98.
6. Mannapov I.S. O'zbek mumtoz adabiyotida hikmatnavislik an'anasi va tadriji. Falsafa doktori (PhD) diss. avtoreferati. – Farg'ona, 2019. – B. 16.
7. Nodirxon Hasan. Turkiyada Yassaviyshunoslik. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1999. –B. 16.
8. Rahmonov N. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2014. – B 147.
9. Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. – B. 45. // www.ziyouz.com.
10. Alisher Navoiy. Holoti Sayyid Hasan Ardasher. – B. 9. // www.ziyouz.com.
11. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. – B. 360. // www.ziyouz.com.



Nilufar MAXSUDOVA,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tadqiqotchisi

E-mail: maksudova-nilufar@mail.ru

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori M.Baxtiyarov taqrizi asosida

XALQ MAQOLLARIDA INGLIZ MILLIY QIYOFASI

Annotatsiya

Xalq og‘zaki ijodining namunasi hisoblangan maqol va matallarda xalqning ma’naviy-ruhiy qiyofasi, milliy madaniyati yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki maqollar xalqning milliy, ma’naviy qadriyatlarini, g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, badiy-estetik, ekologik, iqtisodiy, diniy qarashlarining aksidir. Shu bois, ular vositasida ma’lum bir millatning milliy xarakter xususiyatlarini ochib berish mumkin. Ushbu maqola ham ingliz tilining paremiologik olam manzarasidagi milliy qiyofaning aks etishi, ingliz milliy xarakteri va uning xos jihatlari, milliy-madaniy mansublik kabi masalalar tahliliga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: Maqol, milliy xarakter, milliy qiyofa, individualism, yumor, adolatli o‘yin, djentlmen.

АНГЛИЙСКАЯ НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ В НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

Аннотация

Пословицы и поговорки, являющиеся образцами народного творчества, ярко отражают духовный образ народа и особенности национального культуры. Потому что в них собрано национальные, духовные ценности, идейно-политических, нравственных, художественно-эстетических, экологических, экономических, религиозных взгляды и наследие народа. Следовательно, через них можно раскрыть национальные особенности определенного народа. Данная статья посвящена анализу таких вопросов, как отражение национальной идентичности в английском паремиологическом картине мира, английский национальный характер и его специфическим особенностям.

Ключевые слова: Пословица, национальный характер, национальная идентичность, индивидуализм, юмор, честная игра, джентльмен.

ENGLISH NATIONAL IDENTITY IN FOLK PROVERBS

Annotation

Proverbs and sayings, which are considered a genre of folk art, clearly reflect the spiritual world of the people who created them and the characteristics of the national culture. Apart from that, it should be noted that they contain national, spiritual values, ideological-political, moral, artistic-aesthetic, environmental, economic, and religious views, and the heritage of the people who they belong to. Consequently, through them, it is possible to reveal the national characteristics of certain people. This article is devoted to the analysis of such issues as the reflection of national identity in the English paremiological picture of the world, English national character, and its specific features.

Key words: Proverb, national character, national identity, individualism, humor, fair play, gentleman.

Kirish. Ma’lumki, til insonni o‘rab turgan atrof-muhit, u tarafidan yaratilgan madaniyatni aks ettiradi, shu bilan birga u o‘zida bunday ma’lumotlarni saqlab, ularni avloddan-avlodga yetkazib berish vazifasini ham bajaradi. Shuning uchun ham, til inson, xalq, millat yohud elatning milliy xarakterini shakllanishida xal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu fikr Ye.M. Vereshagin va V.G. Kostomarovlarning “Til va madaniyat” nomli kitobida ham aks etgan bo‘lib, jumladan u yerda shunday deyiladi: “Inson rus, nemis yoki yapon bo‘lib tug‘ilmaydi balki, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo‘lgan jamiyatda tug‘ilishi va hayot kechirishi natijasida ma’lum bir millat bo‘lib shakllanadi [1].

Har bir shaxs, har bir ijtimoiy guruh yoki millat o‘z tabiati bilan yaratilgan bo‘lib, uning o‘ziga xos ma’naviy olami mavjud. Ma’naviy olam esa ma’naviy-ruhiy qiyofa tarzida namoyon bo‘ladi. Ma’naviy-ruhiy qiyofa milliy mentalitet, milliy xarakter, milliy urf-odat, an‘ana va milliy tuyg‘u kabi elementlarni o‘z ichiga qamrab olib, muayyan xalqning umumiy “ko‘rinishi” ma’nosini anglatadi.

Adabiyotlar tahlili. Milliy xarakter ma’naviy-ruhiy qiyofaning eng muhim tarkibiy qismi, yadrosi hisoblanadi. “Milliy xarakter” haqida M. Quronov shunday fikr bildiradi: “Milliy xarakter – bir madaniyat, ma’naviyatga mansub ko‘pchilik odamlarga xos sifatlar majmui” [2].

N.Djandildinning fikricha, milliy xarakter u yoki bu ijtimoiy etnik jamiyatning ma’lum bir iqtisodiy, madaniy va tabiiy rivojlanish sharoitida ular uchun odat bo‘lib qolgan psixologik xususiyatlar majmuidir [3]. S.M. Arutyunyaning ta’kidlashicha, milliy xarakter tarixiy rivojlanish va moddiy hayotiy sharoit ta’siri ostida shakllangan milliy his-tuyg‘u va kechinmalar, fikrlash tarzi, barqaror va milliy xususiyatlar, an‘analarning o‘ziga xosligidir [4].

U yoki bu xalqqa xos xususiyatlarini o‘rganish, avvalo, ularning ma’naviy ijodiyotini o‘rganishdan boshlanadi. Chunki xalq o‘z tarixini, turmush tarzini, orzu-istaklarini moddiy va ma’naviy namunalarida aks ettiradi. S.G. Ter-Minasova xalqni milliy xarakterini o‘rganish manbalariga quyidagilarni kiritadi:

1. Latifa; 2. Klassik badiy adabiyot; 3. Xalq og‘zaki ijodi [5].

Xalq og‘zaki ijodining namunasi hisoblangan maqol va matallarda xalqning ma’naviy-ruhiy qiyofasi, milliy madaniyatini yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki maqollar xalqning milliy, ma’naviy qadriyatlarini, g‘oyaviy-siyosiy, axloqiy, badiy-estetik, ekologik, iqtisodiy, diniy qarashlarining aksidir. Shu bois, ular vositasida ma’lum bir millatning milliy xarakter xususiyatlarini ochib berish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada ingliz tili paremiologik olam manzarasidagi milliy qiyofa tahlil qilingan. Maqollar asosida ingliz xalqi xarakteridagi o'ziga xos jihatlari, yashash tarzi, dunyoqarashi asosida vujudga keladigan qarashlari ochib berilgan. Tavsiflash, qiyoslash, chog'ishtirish va mantiqiy umumlashtirish, komponent tahlil hamda kontseptual tahlillar asosida inglizlarga xos bo'lgan umumiy va o'ziga xos milliy-madaniy xususiyatlari aniqlangan.

Tahlil va natijalar. Ingliz milliy xarakteri mamlakatning boy tarixi, urf-odatlar, iqlimi, tabiati va jug'rofiy xususiyatlarining natijasidir [6]. Tahlillar natijasiga ko'ra, quyidagi xususiyatlar ingliz milliy qiyofasidagi o'ziga xos jihatlari sifatida belgilandi:

Individualizm: inglizlar xarakterida birinchi va asosiy e'tirof etiladigan jihat ularni shaxsiy erkinlikka intilishidir. Bu intilish o'z o'zini anglash va o'zini hurmat qilishga asoslanadi [7].

Ingliz xalq maqollarini tadqiqi ham individualizm inglizlarga xos ekanligini tasdiqlaydi. Unga ko'ra, individualizm belgilari inglizlarning quyidagi xulq-atvorida aks etadi:

1. Fikrlar xilma-xilligini e'tirof etishida. Masalan, inglizlar uchun har bir shaxs bitta individdir. U o'z fikrini bayon etish huquqiga ega va ushbu fikrga hurmat bilan qaralishi lozim: "So many countries, so many customs", "So many men, so many minds", "It takes all sorts to make a world", "Tastes differ", "There is no accounting for taste", "There is no disputing about tastes", "No two minds think alike";

2. Insonning shaxsiy qaror va tanloviga hurmat bilan qarashda: "A man may bring a horse to the water, but he cannot make him drink";

3. Birovning shaxsiy hayotiga daxl qilmaslik va aralashmaslikda: Bu tushuncha "My house is my castle", "My house, my rules", "Every man is a king in his own home" maqollarida yorqin ifodalangan. Ushbu maqollarning mazmuni har kim o'z uyida xoxlagan ishini bajarish va shaxsiy hayot kechirish huquqiga ega. Ushbu maqollarda uy - insonning shaxsiy hayot ramzidir. Uy va tashqi olam o'rtasida katta to'siq o'rnatilgan. Hech kim bu to'siqdan o'tishga, birovning shaxsiy hayotiga aralashishga haqqi yo'q.

Demak, Angliyada birovni shaxsiy hayotiga aralashish, qiziquvchanlik yomon illatlardan biri sanaladi. Buni quyidagi maqollar orqali ham bilib olish mumkin: "Curiosity killed a cat", "Mind your own business", "An open door may tempt a saint", "Meddle not with another man's matter", "Skeer your own fire", "Enquire not what boils in another's pot", "Do your own things";

4. Shaxs manfaatlarini ustunligida "Self comes first" "Self-preservation is the first law of nature";

5. Shaxsni o'rni va ahamiyatiga urg'u berilishda: "Every tub must stand on its own bottom", "Every man for himself" "Pull yourself up by your own bootstraps", "He who depends on another dines ill and sups worse", "When everyone take cares of himself, care is taken of all", "God helps who helps themselves";

6. Mehnat samaradorligida yakka shaxsning ahamiyatini e'tirof etishda: "If you want a thing well done, do it yourself" "He travels fastest who travels alone";

Inglizlar xarakteridagi shaxsiy ozodlikka intilish-individualizmni shakllanishi quyidagilar bilan izohlandi:

- milliy xarakter mamlakat iqlimi, tabiati va jug'rofiy xususiyatlarining aksi ekanligini nazarda tutsak, inglizlarni orolda yashaganliklari ularda orol tabiatini shakllantirgan Masalan, Angliyada istiqomat qiluvchi har bir fuqoro o'ziga o'zi xo'jayin, ya'ni o'zicha bitta oroldir [8]

- bu jihat ingliz xalqiga anglosaksonlardan me'ros bo'lib qolgan.

- ingliz jamiyatidagi tarbiya tizimining natijasida rivojlangan.

Og'ir-vazminlik: og'ir-vazminlik, o'zini hissiyotlarini boshqara olish, botiniy his tuyg'ularini zohir qilmaslik mag'rur ingliz xalqining hayotiy prinsipi hisoblanadi. Shu tufayli, ular ichki ruhiy kechinmalari, qayg'u-alam, xursandchilik, biror kimsaga bo'lgan mayli, g'azabi va nafratini ochiqdan ochiq nomoyish qilmaydi. Inglizlarning ushbu xarakteri dunyo xalqlari orasida ko'plab latifalar va "stiff upper lip" iborasini paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Ingliz tilidagi "stiff upper lip" (yuqori labning tarangligi) iborasi inglizlarga xos vazminlikni ifodalaydi. Ushbu ibora vazminlikni ifodalashini psixofiziologik asosi mavjud. Ma'lumki, lab muskullarini doimo nazoratda ushlab turish lozim, chunki ular inson hissiyotlarini ifoda etishda ishtirok etadi. Ularning tarangligini ta'minlash butun tanani harakatga keltiradi va o'zingizni boshqarishga imkoniyat yaratadi [9].

Ingliz xalqini ushbu jihati quyidagi ingliz maqollarida o'z tasdig'ini topgan: "He bears misery best who hides it most", "He is not fit to command others that cannot command himself", "Happy is that chastens himself", "He is that master of himself will soon master of others", "He gets double victory, who conquers himself".

Dunyoning xech qaysi mintaqasidagi xalq inglizlarchalik so'zni yuksak qadrlamaydi. Inglizlar so'zni bekorga isrof qilmaslikka qat'i rioya qiladi. Chunki ular gapirishdan ko'ra tinglashni afzal ko'rishadi. Quyidagi maqollar ushbu fikrni dalildir: "Hear much, speak little", "Hear and see and say nothing", "Keep your mouth shut and ears open", "Nature has given us two ears, two eyes, and but one tongue-to the end that we should hear and see more than we speak", "Few words are best".

Inglizlarning fe'l-atvoriga bag'ishlangan asarlarning barchasida inglizlarga xos bo'lgan vazminlik, kamgaplik e'tirof etiladi. Masalan, Andre Mauro inglizlar haqida shunday deydi: "Fransiyada suhbatni sovib qolishi qo'pollik hisoblansa, inglizlarda suhbatni davom ettirish noo'rin sanaladi. Agar birorta fransuz uch yil mobaynida hayotini jimjitlikda o'tkazgan taqdirda ham, sukunatni oltinga tenglashtiradigan (Silence is golden) ingliz bu insonni qoralamagan, aksincha bu kishini yaxshigina kamgap yigit sifatida tasvirlagan bo'lardi" [10].

O'z davrida Angliyaga sayohat qilgan rus tarixchisi N.Karamzin inglizlarning ushbu jihati haqida shunday deb yozgan: "Londondagi ko'plab qahvaxonalarda yigirmata, o'ttizta ingliz chuqur sukunatga chumgan holda gazeta o'qishadi. Keyingi o'n diqqat mobaynida siz bazo'r ikkita so'z eshitasiz. Inglizlar o'zini donishmandligi va falsafasi bilan mashxurligini hech ajablanarli joyi yo'q. Chunki ularni uylash uchun vaqti bor" [11]. Shu jihati tufayli, inglizlar ko'plab maqollarida kamgaplik, sukunatni afzalligi xususida bayon etishgan: "A good bestill is worth a groat", "A close mouth catches no miles", "It is good to have a hatch before the door", "Good that teeth guard the tongue", "A still tongue makes a wise head", "Quietness is a great treasure".

Qonunga bo'ysunuvchi xalq: ingliz xarakteridagi jihatlardan yana biri - qonun va qoidalarni hurmat qilishi, ularga so'zsiz itoat eishidir. Buni Angliyada intizomga rioya qilgan holda navbat kutib turgan insonlardan, London ko'chalaridagi hayratlanarli namunali tartibdan, yo'l harakat qoidalarni buzish va qotillik darajasini ko'rsatkichi pastligidan ham bilib olish mumkin. Shuningdek, Britaniya gerbida aks etgan "Xudo va mening huquqim" shiori ham inglizlar o'z huquqlarini yaxshigina anglashiga ishora qilmoqda [13].

Ingliz xalqi xarakteridagi ushbu jihatni ingliz tilida mavjud "fair play" konsepti ochib berishi mumkin. Izohli lug'atlarga asosan, "fair play" tushunchasi quyidagi

ma'nolarga ega: 1) o'yin qoidalariga amal qilgan holda o'ynash; 2) aldov va yolg'onlarsiz munosabatda bo'lish [14].

"Fair play" (adolatli o'yin) sportga oid atama bo'lib, kengroq talqinda barchaga doimo birdek bir xil imkoniyat berilishi, hech kim o'rinni bo'lmagan ustunlikka va imtiyozlarga ega emasligi, inson o'z ma'suliyatidan bo'yin toblamagan holda, yolg'on va firibgarliklarsiz barcha qonun qoidalarga rioya etishi lozimligini anglatadi [15]

Inglizlar individualist shuningdek, qonunga bo'ysunuvchi xalqdir. Bir paytning o'zida ularda bir-biriga zid ikki jihatning mavjud bo'lishi inglizlar o'zlarini "adolatli o'yin" deb ataluvchi qadriyat tarozisiga qo'yg'an holda fikrlashidadir. Shuning uchun ham, ular o'z maqollarida har bir ishda adolat ta'minlanishi lozimligini ta'kidlaydi: "Give the credit where credit is due", "A fair exchange is no robbery", "Fair play is a jewel", "Give and take is fair play" (Бермоқ ва олмоқ адалатдандир), "Give the Devil his due", "Be just before you are generous", "Never give a sucker an even break", "Turn about is fair play", "There are two sides to every question", "We live by laws, not by examples", "Abundance of law breaks no law" "Law makers should not be low breakers".

Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, "adolatli o'yin" ga rioya etish, adolatli bo'lish "djentelmen"lik sifatlaridan biridir [16]. Ushbu fikr nafaqat ilmiy asarlarda, balki maqollarda ham o'z aksini topgan: "A gentleman is broad and fair, the vulgar are biased and petty", "Gentlemen always play by the rules".

Demak, yuqorida keltirilgan fikrlar va maqollardan quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- "fair play" inglizlar hayotida muhim ahamiyat kasb etuvchi me'zon;

- ushbu tushuncha jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi;

- "fair play" konsepti "sport", "gentlemen", "common sense" konseptlari bilan bog'liq;

- ingliz xalqi yoshligidanoq "adolatli o'yin ruxida tarbiyalanadi. Shu bois, ular o'zlarini va boshqalar oldida ham adolatlidir. Ular sport o'yinlarida qoidalarga amal qilgandek, hayotda ham qonunlarga rioya etgan holda yashashadi.

Yumorga boy xalq: inglizlarning hayotini yumorsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ularning madaniyati va hayotining barcha jabhalari yumor bilan yo'g'rilgan. "Angliya va inglizlar" nomli kitob muallifi Keyt Foks o'z millatining bu jihati haqida shunday deydi: yumor genetik jihatdan inglizlarga programmalashtirilgan, boshqacha qilib aytganda tug'ilishi bilan sozlangan. Shuning uchun, ixtiyoriy ravishda bu opsiyani o'chirib ham, yoqib ham bo'lmaydi [15]

Inglizlar har qanday mavzuda so'zlashmasin, ularning suhbatlarida yashirin yumor mavjud. Ana shu inglizona yumor istehzo, kinoya, kamaytirib ko'rsatish va o'zini kamsitishga asoslanadi. Lingvistik nuqtai nazarga ko'ra kinoya ikki xil maqsadda qo'llaniladi:

1. Salbiy hissiyot yoki munosabatni ifoda etish uchun;

2. Yumoristik vaziyatni xosil qilish uchun.

Inglizlarning kundalik muloqotidagi asosiy element hisoblangan kinoya yuqorida ta'kidlangan maqsadning 2 chisini amalga oshirish uchun qo'llaniladi. Hatto ingliz maqollarida ham istehzo (kinoya) san'atini qo'llanilgan holatlarini ham kuzatish mumkin. Masalan, "A turkey never voted for an early Christmas", "A deaf husband and a blind wife are always a happy couple", "A woman's tongue is the last thing about her that dies", "He that is needy when he is married, shall be rich when he is buried".

Ingliz tilida mavjud vellerizm va anti-maqollar hodisasi ingliz xalqini yumor tabiatli xalq ekanligining yana bir dalilidir.

Vellerizm - ma'lum bir vaziyat yoki sharoitda maqol o'z ma'nosidan boshqa yangi ma'no o'ttenkasiga ega bo'lishi. Masalan, "Every evil is followed by some good," as the man said when his wife died the day after he became bankrupt [17] - U kassodga uchragandan so'ng, ayolidan ham ayrildi. Shunda u "Qiyinchilikdan so'ng albatta yengillik bor" deb tin oldi. Yana bir misol "An even exchange is no robbery" as the widow said when she swapped herself off for a widower [17] - Beva qolgan juvon ayolidan ajralgan erkakka turmushga chiqar ekan "ayirboshlash o'g'irlik emas" deya o'zini ovutdi.

Ko'rinib turibdiki, vellerizm hodisasida so'zlovchi o'zining ichki hissiy kechinmalarini yoki ma'lum bir vaziyatni emosional bahosini yumor vositasida ifodalamoqda.

Inglizlar maqollarga hajviy, kinoyaviy va yumor bilan yondoshish maqsadida maqollarni parodiya qilishni yoqtirishadi. Bu orqali ular jamiyatdagi ba'zi hodisa, jarayonlarni hajvga olishadi. Natijada hozirda ingliz xalqi iste'molida yangidan yangi maqollar vujudga kelgan Ularning ba'zi birlari shunchalik ommalashib ketganki, original, ya'ni asl maqolga nisbatan ularni matbuot, jurnal, va internet sahifalarida ko'p qo'llanganini kuzatish mumkin. Paremiolog olim V. Mider bunday maqol turini anti-maqollar deb ataydi. Masalan: "Better late than sorry" (Better late than never), "Women should be seen not heard" (Children should be seen not heard), "Don't count your checks before they are cashed" (Don't count your chickens before they are hatched), "It is a wise father who knows its own child (It is a wise child who knows its own father), "All that glitters was not sold" (All that glitters is not gold) [18]

Xulosa va takliflar. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, dunyodagi har bir xalqning ong-shuurida olamning o'ziga xos aksiologik manzarasi bor bo'lib, ular shu asosda olamni anglaydi, idrok etadi. Ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, diniy e'tiqod, xalqlarning yashash tarzi, ularni o'rab turgan tabiati, iqlimi o'sha olamni shakllantirsa, maqollar fondi uni boshqa xalqlarga nomoyish etadi.

ADABIYOTLAR

1. Верещагин М, Костомаров В. Г. Язык и культура. М., 1990.
2. Quronov M. Milliy tarbiya. T.: Manaviyat, 2005 y.
3. Джандильдин Н. Природа национальной психологии. – Алма-Ата, 1971.
4. Арутюнян С. М. Нация и ее психический склад. – Краснодар, 1966.
5. Тер Минасова С.Г. Язык и межкультурные коммуникация. – М: Слово, 2000.
6. Шестаков В.П. Английская литература и английский национальный характер.- Санкт-Петербург.: Нестор-История, 2010.
7. Mandler Peter. The English national character.- Great Britain.: St Edmundsbury Press Ltd, 2006.
8. Майол.Э, Милстед Д. Эти странные англичани.- М.: Эгмонт Россия Лтд, 1999.
9. Соседова С.С. Лингвокультурный концепт stiff upper lip в английской языковой картине мира.:дисс на соиск.уч. ст.кан.фил.наук. – Москва, 2015.
10. Pavlovskaya Anna. England and the English.-Moscow.: Moscow University Press, 2005.
11. Ерофеев Н.А. Туманный Альбион.-Москва.: "Наука", 1982.

12. Гвоздева А.В. Отражение особенностей английского национального характера на примере образа Шерлока Холмса// Вестник Челябинского государственного университета, 2009. № 10 (148). Филология, Искусствоведение. Вып.30.
13. Овчинников, Вс. Корни дуба: Размышления и впечатления об Англии и англичанах. Гл. 21. Джон Булль: слагасмые и сумма / Вс. Овчинников // Новый мир. – 1979. – № 4–6.
14. Longman Dictionary of English Language and Culture. — L.: Longman House, 1993.
15. Фокс К. Англия и англичане. О чем молчат путеводители.-М.:Рипол Классик, 2013.
16. Demiashkevich M. The national mind: English, French, German. American Book Company. N.Y. 1938.
17. Mieder W. A dictionary of wellerisms. -New York.: Oxford University press, 1994.
18. Litovkina A. Anti-proverbs// Introduction to Paremiology: A Comprehensive Guide to Proverb Studies. Ed. by H. Hrisztova-Gottstadt, M. A.- Varga. Warshaw/Berlin: De Gruyter Open Ltd., 2015.



Munira MENGLIYEVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, PhD

E-mail: muniramengliyeva92@gmail.com

INGLIZ TILIDA ASPEKTUAL MA’NO IFODALOVCHI VOSITALARNING LEKSIKOGRAFIK TALQINI

Annotatsiya

Onlayn platformalarda jadal sur’atda taraqqiy etayotgan ingliz leksikografiyasida manbalarni universal lug’at shakliga keltirish tendensiyasi kuzatiladi. Izohli lug’at tarkibida tezaurus, etimologik va tarjima lug’atlarni birlashtirish vositasida mukammal o’quv manbalari shakllanmoqda. Bunday manbalarda so’z talqiniga muayyan standart tamoyillar asosida yondashish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda leksemalarning ma’no ko’lami to’liq qamrab olinishi, grammatik va stilistik ko’rsatkichlari voqelanishi shart. Izohlar asosan mantiqiy tavsif, sinonimik yoki ishoraviy shaklda amalga oshiriladi. So’z izohida ayni grammatik turkumga oid leksemalar bo’lishiga ustuvorlik beriladi. Izoh shakli har bir morfologik turkum, leksik-semantik guruh ma’no xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanishi kerak. Maqolada fe’l izohini harakat, holat, shuningdek, “jarayon” semalari izohi tahlil qilinadi.

Kalit so’zlar: Izohli lug’at, fe’l, aspektuallik, tavsifiy izoh.

ЛЕКСИКОГРАФИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ СРЕДСТВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ВИДОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В английской лексикографии, стремительно развивающейся на онлайн-платформах, наблюдается тенденция приведения источников в форму универсального словаря. Толковый словарь формируется путем объединения тезауруса, этимологического и переводного словарей в превосходные образовательные ресурсы. В таких источниках очень важно подходить к толкованию слов исходя из определенных стандартных принципов. В этом случае необходимо полностью раскрыть значение лексем, осознать их грамматические и стилистические показатели. Аннотации преимущественно оформляются в форме логического описания, синонимии или аллюзии. Приоритет отдается наличию в объяснении слова лексем, принадлежащих к одной грамматической категории. Форму объяснения следует выбирать исходя из смысловой характеристики каждой морфологической категории, лексико-семантической группы. В статье анализируется трактовка сем глагола такие как действие, состояние, а также «процесс».

Ключевые слова: Толковый словарь, глагол, видовое значение, описательное определение.

LEXICOGRAPHIC INTERPRETATION OF MEANS EXPRESSING ASPECTUAL MEANING IN ENGLISH

Annotation

In English lexicography, which is rapidly developing on online platforms, there is a tendency to bring sources into the form of a universal dictionary. A definition dictionary is formed by combining thesaurus, etymological and translation dictionaries into excellent educational resources. In such sources, it is very important to approach the interpretation of words based on certain standard principles. In this case, it is necessary to fully cover the meaning of lexemes, and to realize their grammatical and stylistic indicators. Definitions are mainly made in the form of logical description, synonymy or allusion. Priority is given to having lexemes belonging to the same grammatical category in the word definition. The form of definition should be chosen based on the meaning characteristics of each morphological category, lexical-semantic group. The article analyzes the interpretation of the verb senses such as action, state, as well as the meaning of "process".

Key words: Definition dictionary, verb, aspectual meaning, descriptive definition.

Kirish. Leksemalar aspektuallik funksional-semantik maydonining periferiyasida joylashgan. Maydon cheti keng qamrovli – leksik sath barcha aspektual ma’nolarni qamraydi. Maydon periferiyasini ham shartli ravishda ikkiga ajratish kerak. Uning yadrog a yaqin qismida oraliq ma’nolarni anglatuvchi fe’l va ravishlar o’rin oladi. Ushbu so’zlarning lug’aviy ma’nosini jarayon semasi – “boshlanish”, “davomiylik” yoki “tugallanganlik” to’liq qamraydi. Ikkinchi guruh leksik birliklar maydonning uzoq periferiyasidan o’rin olib, jarayonning xususiy ma’nolarini qisman yoki to’liq ifodalashga xizmat qiladi. Muayyan vositalarning ingliz izohli leksikografiyasidagi talqinini ko’zdan kechirishdan oldin ushbu tildagi lug’atlarga umumiy tavsif berish joiz.

Izohli lug’at so’zlarning semantik va funksional jihatlarni yoritib va misollar bilan dalillash orqali tilga xos ontologik xarakterni ochib berishni maqsad qiladi. Ingliz izohli leksikografiyasida ham pirovard maqsad aynan shunday. Turli izohli lug’atlar ushbu maqsadni amalga

oshirishdagi yondashuviga ko’ra farqlanadi. Asosiy tafovut bevosita izoh tipida aks etadi. Ma’lumki, lug’atchilikda izohning to’rt asosiy shakli ajratiladi:

- 1) mantiqiy tavsif;
- 2) sinonimik izoh;
- 3) ishoraviy izoh;
- 4) sanab o’tish [1].

Bu yondashuvlardan aynan biri mutlaqo to’g’ri va universal deb bo’lmaydi. Har bir izoh shakli muayyan ma’no guruhi yoki so’z turkumiga mos keladi. Ayrim hollarda so’z ma’nosini to’liq qamrash uchun turli izoh yondashuvlari kombinasiyasidan foydalanish zarur.

Keng ommalashgan ingliz izohli lug’atlari native speakers – ya’ni til tashuvchilari uchun emas, uni xorijiy til sifatida o’rganuvchilar uchun mo’ljallangan. Webster va Cambridge definition dictionary kabi manbalar o’quv leksikografiya tamoyillari asosida shakllantirilgan. SHu sababdan lug’at maqolalar serqirra, leksemaning turli

semantik, funksional, nutqiy-kontekstual, pragmatik jihatlarini qamrab oladi. Quyida bevosita “boshlanish”, “davomiylik” va “tugallanganlik” aspektual ma'nolarini o'zida mujassam etgan fe'llar izohiga e'tibor qaratamiz:

INCEPT 1 of 2 verb in-cept ən'sept -ed/-ing/-s transitive verb 1 archaic: BEGIN, COMMENCE, UNDERTAKE 2 [influenced in meaning by Latin capere to take] : to take in: such as a: INGEST phagocytes incepting foreign particles b: to receive as a member intransitive verb: to obtain an advanced degree and therewith the right to teach or practice a learned profession —now used only at Cambridge University. Etymology: Latin inceptus, past participle of incipere [2].

Merriam Webster lug'atidan olingan ushbu izoh an'anaviy ravishda so'z talaffuz variantlari va grammatik ko'rsatkichlari bilan boshlanadi. So'zning “boshlanmoq” ma'nosi eskirgan sema ekanligi ko'rsatilib ma'no uch sinonim vositasida ochib berilgan – ushbu ma'noni dalillovchi misollar mavjud emas. Ikkinchi ma'no lotin tilidan o'zlashgan “qabul qilmoq”, “hazm qilmoq” semalariga ishora qiladi. Biroq bu semalar qanday nutqiy doirada voqelanishi – ya'ni rasmiy, ilmiy yoki norasmiy nutqqa xosligi haqida hech qanday illyustrativ dalil berilmagan. So'zning uchinchi ma'nosi jarayon va vaziyat tasviri bilan tavsifiy yondashuvda shakllantirilgan. Bu ma'no ham misollar bilan dalillanmagan, misollar o'rini ushbu so'z semasi faqat ilmiy kontekstda, Kembrij universitetida qo'llanishi ta'kidlangan. Bizningcha, bir so'z qo'llanishi muayyan hudud yoki tashkilot doirasida cheklandimi, bunga biror sabab yoki izoh berilishi kerak. Hatto so'zning etimologiyasi haqida ham qisqa ma'umot bergan lug'at mualliflari ushbu fe'l nega aynan faqat Kembrij universitetida qo'llanishi haqida ma'lumot bermaydi.

Colledge dictionary ya'ni o'quv lug'ati deb kategoriyalanuvchi ushbu manbaning izohidagi bunday mavhumlik maqolaning informativlik darajasini so'zsiz tushirib yuborgan. Tadqiq ob'ektimiz bo'lgan jarayon semasi esa tavsifiy shaklda emas sinonimik ko'rinishda izohlangan. Kembrij izohli lug'ati ushbu so'zning ikki qarama-qarshi ma'nosini yoritadi:

INCEPT verb UK /m'sept/ US /m'sept/ to begin or introduce something: The offshore fund was incepted in India on May 14. Organic farming in Malaysia was incepted by the Center for Environment, Technology and Development, Malaysia. Fewer examples Please note that every Marine Pleasurecraft Policy will carry a minimum \$25 excess unless incepted over 3 years ago. Planning for NMI began in 2007 and it was incepted through the collaboration of Norwegian organizations in both the public and private sector. Isn't this the purpose of the FTC and SEC and the antitrust laws they were incepted to enforce?

(UNIVERSITY) [I or T] UK old use to successfully finish university with a degree: He was eventually permitted to incept. In 1253 a dispute arose at his presentation to incept as a doctor of theology [3].

Birinchi ma'no “boshlanish” va “tanishtirish” semalariga sinonimik ishora bilan ochib berilgan. Ushbu so'zning faqat rasmiy nutqiy doirasida qo'llanishi misollardan anglashiladi. Bu o'rinda lug'at tuzuvchilar so'z ma'nosini yoritib berishni asosan misollar kontekstiga yuklagani ma'lum. Misollarning ko'pligi Kembrij lug'atining o'quv leksikografik manba ekanligini ham asoslay olgan. Maqolaning ikkinchi qismi barcha lug'atga qarama-qarshi ravishda so'zning ikkinchi ma'nosini ochadi va ushbu ma'no faqat oliy ta'lim kontekstida qo'llanishiga ishora qiladi. Universitet darajasini muvaffaqiyatli tugallab, diplomga ega bo'lmoq ma'nosidan tugallanganlik, o'ziga qaratilganlik tarz-aspektual ma'nolari anglashiladi. Bu ma'no faqat Kembrij universitetida qo'llanishi haqida ma'lumot yo'q. Ehtimol ushbu sema so'zning “hazm qilmoq” fe'li bilan variantdoshligi

sabab yuzaga kelgan. Oksford o'quv izohli lug'atida bu so'zning ot shakliga quyidagicha izoh beriladi:

INCEPTION noun /m'sepʃn/ /m'sepʃn/ [singular] (formal) the start of an institution, an organization, etc. The club has grown rapidly since its inception in 2007 [4].

Izohda fe'ldan yasalgan ot qo'llanishiga ko'ra eskirganligiga ishora yo'q. Lug'at ushbu so'zni rasmiy nutqiy doiraga oid deb kategoriyalagan va sinonimlari bilan birga misol ob'ektlarni sanab o'tgan. Rasmiy uslubiy doirada voqelanish misol gap bilan dalillangan. Lug'atda etimologiya va boshqa lug'aviy ma'nolar izohi keltirilmagan bo'lsa ham, leksemaning asosiy semasi to'laonli qamrab olingan. Tadqiq ob'ekti bo'lgan jarayon boshlanishi semasi sinonim va misollarni sanab o'tish vositasida izohlangan. Yana bir mutlaq jarayon ma'nosiga ega fe'l ingliz tilining izohli lug'atida quyidagicha talqin qilinadi:

CEASE verb /si:s/ /si:s/ [intransitive, transitive] (formal) to stop happening or existing; to stop something from happening or existing Welfare payments cease as soon as an individual starts a job. cease to do something You never cease to amaze me! cease something They voted to cease strike action immediately. He ordered his men to cease fire (= stop shooting). cease doing something The company ceased trading in June [3].

Oksford lug'atida fe'l izohi uning sinonimi to stop atrofida markazlashgani bois uning kontekstual o'ziga xosligini ochib berish misollar zimmasiga yuklangan. Fe'l ifodalagan “tugatmoq”, “tugamoq” ma'nolari hech qanday uslubiy xoslanishga – qo'llanish doirasi rasmiy yoki norasmiy chegaralarga ega emas.

Kembrij izohli lug'atida ham bu so'z sinonimi to stop bilan izohlangan – misollar faqat rasmiy axborot kontekstidan olingani uchun so'z formal nutqiy doirada qo'llanadi degan tasavvur shakllanadi:

CEASE verb [I or T] formal UK /si:s/ US /si:s/ Add to word list B2 to stop something: Whether the protests will cease remains to be seen. The company has decided to cease all UK operations after this year. [+ to infinitive] Workplace nurseries will cease to be liable for tax [2].

Webster lug'ati ushbu so'z ma'nosini to'liqroq izohlaydi:

CEASE 1 of 2 verb 'sēs ceased; ceasing: to cause to come to an end especially gradually : no longer continue – they were forced to cease operations intransitive verb 1 a : to come to an end the fighting gradually ceased b : to bring an activity or action to an end: DISCONTINUE they have been ordered to cease and desist[2].

Yuqoridagi izohlardan farqli o'laroq ushbu maqolada so'zning aspektual ma'nosiga alohida ishora qilinadi. “Tugallamoq” jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshishi, ya'ni davomiylik sur'atiga egaligi yoritiladi. Ushbu farq ziddiyatli izohdagi davom ettirmaslik jumlasini bilan mustahkamlanadi. Aynan jarayon ma'nosining ilova qilinishi bilan ushbu fe'lning boshqa ma'nodoshi to stop leksemasidan farqi ochib berilgan. Bundan kelib chiqadiki, ma'nodosh so'zlar izohida ularning farqini ko'rsatadigan jihat aynan jarayon (aspekt) semasi bo'lishi mumkin. SHu sababdan lug'at maqolani shakllantirishda fe'llar izohiga “jarayon” semasini qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Harakat va holat zot, jarayon uning tajallisi, ya'ni bir belgisi. SHu tajallining xoslanishi fe'lni variantdoshlaridan farqlovchi belgiga aylanadi. Buni aksioma sifatida qabul qilib, o'zaro ma'nodosh fe'llar izohiga tafovut nuqtai nazaridan yondashish, jarayon farqini graduonimik qator yordamida aniqlash maqsadga muvofiq. SHu farqni ilova qilish, izohni shunchaki sinonimik talqindan tavsifiy yondashuv maqomiga ko'tarishi mumkin. Demak, o'zaro ma'nodosh, lug'aviy ma'nolari bir-biriga yaqin bo'lgan fe'llar izohida ularni farqlovchi elementlar ikki turga bo'linadi:

a) misollarda aks etgan rasmiy, norasmiy, ilmiy, badiiy qo'llanish doirasi;

b) harakat va holat tarkibidagi "jarayon" semasi xoslanishi.

Ingliz leksikografik maktabi ikki doimiy ziddiyat qurshovida mavjud. Birinchi yo'nalishda lug'at me'yorini manba o'laroq leksikani tartiblash, so'z boyligini faol va nofaol qismga ajratish – faol leksikaning qo'llanish me'yori belgilab berish bilan shug'ullanishi kerak. Masalan, yuqoridagi lug'at maqolalar qiyosidan Oksford izohli lug'ati aynan shunday yondashuvga asoslanishini ko'ramiz. YA'ni ushbu lug'at muayyan so'zning eng faol qo'llanadigan ma'nosini qamrab, aksidensiyasi past bo'lgan semalarini e'tibordan chetda qoldiradi. Lug'atchilikda bunday yondashuv preskriptiv deb atalib, o'quvchiga so'z aynan qaysi kontekstda, qay shaklda qo'llanishini o'rgatish maqsad qilinadi.

Maktabning ikkinchi yo'nalishi so'z talqinida hech qanday normalar bilan cheklanmaslik kerakligini, uning ayni hozir qanday qo'llanishi, qaysi ma'nolarni kasb etishini to'laonli qamrash kerak deb ta'kidlaydi. Bunda lug'atning maqsadi didaktik emas, tavsifiy (deskriptiv) tus oladi. Kembridj lug'atida to incept so'zining ikki zid ma'nosi keltirilishi ham ayni shu yondashuv natijasidir. Bunday lug'atlar aktual til normasini ko'rsatadi, doimiy o'zgarish va yangilanishlarni aks ettirib boradi.

Maslan, Merriam Webster lug'atidagi fe'l talqinida aynan shunday deskriptiv yondashuv mavjud:

ACCELERATE verb ac·cel·er·ate ik-'se-lə-,rāt ak- 1: to move faster : to gain speed The car slowly accelerated. The pace of change has accelerated in recent months. 2: to progress from grade to grade more rapidly than usual: to follow a speeded-up educational program transitive verb: to bring about at an earlier time Circumstances accelerated their departure. 2:

to cause to move faster accelerated his steps also: to cause to undergo acceleration 3 a: to hasten the progress or development of accelerate our efforts b: INCREASE accelerate food production 4a: to enable (a student) to complete a course in less than usual time b: to speed up (something, such as a course of study)[3].

So'zning to'rt asosiy ma'nosi ajratilgan. Bu ajratilgan semalar sof polisemiyaning aks ettirmaydi. Ya'ni ma'nolar bir biriga o'xshash – "kuchaymoq" semasining turli kontekstda voqelanishini ko'rsatadi. Har bir ajratilgan bandeda kontekstlar farqlanadi va har biri "kuchaymoq", "jadal kuchayish" ma'nolarini tasdiqlashga xizmat qiladi. SHuningdek, misollardan ushbu so'z asosan rasmiy nutqiy doirada qo'llanishini anglash mumkin. Kuchaytirmoq so'zining "tezlashmoq", "jadallashmoq", "shitob bilan harakatlanmoq" kabi ma'no bo'yoqlari ochib berilgan.

Webster lug'atida ushbu kichik farqlar faqat misollar chog'ishtiruv natijasida anglashilishi ko'zda tutilgan. YUqoridagi fe'lning antonimi quyidagicha talqin qilinadi:

DECELERATE verb de·cel·er·ate (,)dē-'se-lə-,rāt ak- 1: to reduce the speed of : slow down decelerate a car 2 : to decrease the rate of progress of decelerate growth decelerate soil erosion[3].

Xulosa. Kuchaymoq so'ziga qarama-qarshi "kuchsizlashmoq", "sekinlashmoq", "sustlashmoq" semalari tuproq chirishi, mashinani sekinlashtirish iboralari bilan dalillangan, ushbu iboralar nafaqat lug'aviy harakat ma'nosidagi ziddiyat, balki jarayon semasidagi antonimiyani ham ochib bergan. YA'ni birinchi misolda fe'l tez, shitob bilan o'sish, kuchayish, ildamlash ma'nosini anglatgan bo'lsa ikkinchi fe'l sustlashish, orqaga qaytish jarayonining sekin, bosqichma-bosqich sur'atda amalga oshirishini dalillaydi. Bunda fe'l aspektual ma'nosini misol va izohdagi ravishlar to'liq ochib bergan.

ADABIYOTLAR

1. Arnold I. Leksikologiya sovremennogo angliyskogo yazyka – M.: Literatura na inostrannyyh yazykax, 1959
2. <https://dictionary.cambridge.org/>
3. <https://www.merriam-webster.com/>
4. <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/>



Шахноза МУСТАНОВА,
Старший преподаватель SIUT
E-mail: shakhnozamustanova@gmail.com

По отзывом рецензии PhD., dotsent О.Юсупов

КОМПРЕССИЯ КАК СТРАТЕГИЯ ДЛЯ РЕШЕНИЯ ЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ В СИНХРОННОМ ПЕРЕВОДЕ С АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УЗБЕКСКИЙ

Аннотация

В статье автор рассматривает некоторые лингвистические проблемы, с которыми могут столкнуться переводчики синхронисты, работающие с английским и узбекским языками. Исследователь предлагает использование компрессии для решения данных проблем, связанных с разницей между языками.

Ключевые слова: синхронный перевод, узбекский язык, разница, лингвистические проблемы, стратегии, компрессия.

COMPRESSION AS A STRATEGY TO OVERCOME LINGUISTIC PROBLEMS ARISING WHILE INTERPRETING SIMULTANEOUSLY FROM ENGLISH INTO UZBEK

Annotation

The article discusses some linguistic problems that simultaneous interpreters working with English and Uzbek languages encounter and suggests strategies to overcome these problems. The author describes compression as an efficient strategy to resolve the issues related to the differences between the two languages.

Key words: simultaneous interpreting, Uzbek language, differences, linguistic problems, strategies, compression.

KOMPRESSIYA INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA SINXRON TARJIMA JARAYONIDA UCHRAYDIGAN LISONIY MUAMMOLARNI YECHISHDA QO'LLANILADIGAN STRATEGIYA SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada tadqiqotchi ingliz va o'zbek tillari bilan ishlaydigan sinxron tarjimonlar ikki til o'rtasidagi farq tufayli ular duch kelishi mumkin bo'lgan ba'zi lisoniy muammolarni yoritadi hamda ularni yechimi sifatida kompressiya strategiyasidan foydalanishni taklif etadi.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, o'zbek tili, farqlar, lisoniy muammolar, strategiyalar, kompressiya.

Введение. Синхронный перевод, искусство передачи устной речи с одного языка на другой в режиме реального времени, - сложная и многогранная задача, требующая особого набора навыков. В случае с устным переводом с английского на узбекский эти задачи становятся еще более сложными из-за лингвистических, культурных и контекстуальных различий между двумя языками. Цель этой статьи - изучить особенности синхронного перевода с английского на узбекский, пролить свет на лингвистические проблемы, которые встают перед переводчиками, работающими с данной языковой комбинацией и изучить компрессию как одну из стратегий, применяемых переводчиками-синхронистами для решения этих проблем.

Прежде чем углубиться в тонкости синхронного перевода, необходимо понять значение узбекского языка в глобальном контексте. Узбекский язык является официальным языком Узбекистана, среднеазиатской страны с богатым культурным наследием. Согласно В.В. Радлову, древнетюркский язык состоит из трёх диалектов: древний северный диалект. На этом диалекте говорят тюркские племена Средней Азии, он также известен как тюрко-сырский диалект; второй — древний южный диалект, включающий уйгурский язык; третий еще называется смешанным диалектом или смешанным языком и считается смесью двух вышеуказанных диалектов[1]. Современный узбекский язык относится к тюркским языкам алтайской группы. Традиционно узбекский относится к восточной (карлукской) группе тюркских языков. Наряду с тюркскими языками,

узбекский считается одним из самых распространенных тюркских языков.

Ученые считают узбекский прямым или поздним потомком чагатайского языка-тюркского письменного языка Центральной Азии, использовавшегося во времена Чагатай-хана, Амира Тимура и Тимуридов, который отделился от других тюркских языков Центральной Азии в начале XIV века[1,2,3].

Если сравнить узбекский язык с английским, мы увидим ряд различий, которые часто становятся причиной проблем, с которыми сталкиваются переводчики синхронисты.

Обзор литературы. С связи с глобализацией, установлением новых и укрепления уже существующих международных отношений страны, растет спрос на устных переводчиков, владеющих узбекским и английским языками, особенно в дипломатической, деловой и международной сферах. Для удовлетворения растущего спроса на устных переводчиков внутри страны, правительством было принято решение об открытии в лингвистических вузах Республики (УзГУМЯ, СамГИИЯ, Национальный университет, ТГУУЯЛ имени Алишера Навои, БухГУ, и др.) специальных направлений для подготовки устных переводчиков. В данных высших учебных заведениях, студенты обучаются навыкам синхронного перевода с узбекского языка на английский как на уровне бакалавриата, так и в магистратуре.

Так как синхронный перевод, его теория и практика, методика преподавания являются относительно новыми направлениями в переводоведении Узбекистана, ученые переводоведы совместно с переводчиками-

практиками изучают проблемы, связанные как с самим процессом перевода, так и с разработкой методики преподавания данного вида перевода. Например, Н. Даминов(2022, 2023), который исследует стратегии, используемые в синхронном вообще [6,7].

Как и в любой профессиональной деятельности, связанной с переводом, в синхронном переводе существуют ряд проблем, которые представляют сложности для переводчиков. Такие проблемы могут быть связаны с разницей в структуре языков, используемых в переводе, с экстралингвистическими факторами, а так же со способностями и возможностями самих переводчиков.

В данной статье мы рассмотрим лишь некоторые из лингвистических проблем, с которыми сталкиваются переводчики, работающие с английским и узбекским языками.

Лингвистические различия между английским и узбекским языками представляют собой серьезную проблему для переводчиков. Во-первых, узбекский язык принадлежит к тюркской языковой семье, и его грамматическая структура и словарный запас значительно отличаются от английского, который является германским языком. Во вторых, английский язык, являясь по природе аналитическим языком, не обладает большим количеством флексий, тогда как в узбекском языке отношения между словами в словосочетаниях и предложениях выстраиваются на основе падежных отношений. Поэтому при переводе с английского на узбекский, переводчику необходимо перестраивать словосочетания и предложения. Кроме того, учитывая тот факт, что английское предложение имеет фиксированный порядок слов в предложении, и оно начинается с подлежащего, а за ним обязательно следует глагол, тогда как в узбекском предложении единственным членом предложения, чья позиция в предложении фиксирована является сказуемое, и неправильная постановка слова, может привести к искажению значения, в переводе очень важно обращать внимание на синтаксис.

Дэниел Гайл рассматривает синтаксис как часть более широких проблем синхронного перевода, где эффективное управление когнитивными ресурсами имеет решающее значение. В его модели усилий синтаксис в первую очередь влияет на усилия по «прослушиванию и анализу» и «запоминанию», когда переводчик декодирует и сохраняет синтаксические структуры исходного языка, прежде чем произнести их на языке перевода. Эффективная координация этих усилий помогает предотвратить когнитивную перегрузку, обеспечивая переводчику возможность справиться со сложной задачей обработки и предоставления синтаксически правильных интерпретаций [8,9].

Методология исследования. Особую сложность в синхронном переводе с английского языка на узбекский представляют и различия в порядке слов. Хотя разница в порядке слов в предложении учитывается и в письменном переводе, но в виду того, что письменный перевод не ограничен в плане времени, проблема является решаемой. Переводчик может перевести предложение, вернуться к нему, перечитать и исправить ошибки, если таковые имеются. Переводчики синхронисты же должны не только владеть достаточными знаниями и умениями для моментального преодоления сложностей и решения проблем, возникающих в процессе перевода, но и навыками применения стратегий, позволяющих сделать это.

При работе с такими языковыми комбинациями как английский и узбекский, синтаксическое перестроение предложений требует от переводчика чрезвычайной

стрессо-устойчивости, умения быстро перестраивать предложения и применять необходимые стратегии.

Для анализа техники использования компрессии как стратегии для решения лингвистических проблем в синхронном переводе мы использовали сравнительно-сопоставительный, аналитический и лингвистический методы исследования.

Анализ и результаты. Одной из наиболее часто используемой стратегией в таких ситуациях является компрессия, в переводе с лат. *compressio* «сжатие»[9]. Смысл компрессии, как переводческой стратегии заключается в упрощении синтаксической структуры исходного текста и исключении слов, «содержащих второстепенную информацию» [10]. Основной целью использования компрессии является попытка уменьшить размеры текста [11]. Использование компрессии в синхронном переводе диктуется основными свойствами такого типа перевода, то есть это ограниченное время, в течение которого он осуществляется. Компрессия может осуществляться на нескольких семантико-структурных уровнях. Как считает В.В. Сдобников, компрессия речи, которой умело пользуются переводчики, помогает улучшить качества перевода, оптимизировать его процесс, в том числе с точки зрения времени[12, 171].

Существует синтаксическая, слоговая, лексическая и семантическая компрессия. При синтаксической компрессии, например, упрощается («сокращается») синтаксическая структура. К примеру сложноподчиненное предложение на английском языке переводится простым предложением на узбекском.

Например: The date when the forum was supposed to start was changed... - Forum sanasi o'zgartirildi.

Как видно из этого примера, английское сложноподчиненное предложение на узбекский перевели простым предложением без использования придаточного определительного(when the forum was supposed to start - forum boshlanishi rejalashtirilgan), которое не несет в себе особо важную информацию, наличие которой предполагает отказ от компрессии. Если бы предложение перевели полностью, оно бы звучало так: Forum boshlanishi rejalashtirilgan sana o'zgartirildi. Это предложение показывает, что даже без этой части, которая в предложении на узбекском языке, отсутствует в переводе, который осуществил синхронист, никакой потери для смысла всего предложения нет. Основное смысловое послание, о перемене даты форума, данное предложение передает. Поскольку изменения в дате проведения форума были доведены до сведения слушателей. Конечно же если бы время позволяло, переводчик мог бы добавить, что поменяли дату начала форума. Но если дата начала форума поменялась, конечно же сдвигается и дата его завершения.

При слоговой компрессии сокращается количество слогов, переводчик выбирает более короткие слова. Например: As a result of globalization the world has radically changed. - Globallashuv deb dunyo juda o'zgardir.

Как видим, в этом примере переводчик использует слово *globallashuv*, что является эквивалентом слова *globalizatsiya*, которое часто используется в узбекском языке в своей интернациональной форме, вместо слова *natijasida*, которое было бы абсолютным эквивалентом фразы *as a result of*, переводчик использует *desprichastie deb*, что конечно же оправдано контекстом, и наконец, вместо словосочетания *radikal ravishda* переводчик использует слово *juda*. Иными словами, переводчик подбирает эквиваленты, которые количественно отличаются от прямых переводов, чье использование

позволяет сэкономить слоги, и, в конечном итоге время, которого у синхронистов в запасе бывает так мало.

При лексической компрессии, прием, который также называют опущением, опускаются вводные конструкции или слова, которые хотя и несут какой-то смысл, для общего понимания текста не совсем значительны. Разные ученые по-разному оценивают данную стратегию. Например, Асади и Сегвинот (2005) считают, что опущение, если выполнено осознанно и по решению самого переводчика, функционирует также, как и другие переводческие стратегии, такие как стратегия вероятностного прогнозирования, или стратегия ожидания. Однако Гайл (1995) считает, что опущение, являясь следствием недостатка у переводчиков умений для переработки данных, представляет собой отрицательный прием. В отличие от него, Страниэро Серджио (2003) оправдывает решение использовать опущение, в особенности в экстремально тяжелых условиях, когда переводчик сталкивается с такими проблемами как быстрая речь, большой объем технических терминов и сложные акценты у ораторов. Как бы то ни было, многие переводчики-синхронисты прибегают к лингвистической компрессии или опущению в процессе своей работы. Давайте рассмотрим примеры использования данной стратегии в работе переводчиков.

Например: Apparently, the main problem that led to the crisis was misunderstanding. - Inqirozga olib kelgan asosiy muammo - tushinmovchilik.

Как видим, в переводе опускается слово *apparently* и глагол *was*. Опущение вспомогательного глагола не оказывает какого-либо влияния на основной смысл предложения. В связи с особенностями узбекского языка, которые позволяют существительному, прилагательному вообще другим именным частям речи выполнять в предложении функцию сказуемого, данное предложение является абсолютно правильным с точки зрения синтаксиса. Однако дело обстоит иначе в случае со словом *apparently*. Онлайн словарь английского языка Кембридж (Cambridge) дает следующее определение слову *apparently*: "used to say you have read or been told something although you are not certain it is true". То есть это слово используется когда вы говорите то, о чем вы прочитали, или о чем вам сообщили, хотя и не совсем уверены, что это правда или нет (оказывается). На узбекский это слово переводится как 'ekan'. В узбекском предложении это слово обычно следует за сообщением:

Inqirozga olib kelgan asosiy muammo tushinmovchilik ekan. Как следует из примера, слово 'apparently' со смысловой точки зрения, имеет вес, так как показывает, что информация была получена от внешнего источника, и говорящий неуверен, правильна она или нет. А без этого слова предложение на узбекском языке звучит как абсолютная правда. Поэтому, в данном случае, мы считаем, что использование компрессии не совсем оправдано с точки зрения общего смысла предложения.

И наконец, семантическая компрессия используется в тех случаях, когда участникам конференции или другого международного мероприятия, где используется синхронный перевод, известна какая-то часть информации и переводчик, в силу отсутствия необходимости перевести все единицы, либо обобщает смысл используя лексические единицы более широкого смысла чем в оригинале, либо просто опускает избыточные единицы. Например, The World Conference on Early Childhood Care and Education, which we are all taking part in today, was decided to be held in Uzbekistan for a number of reasons. - Бир неча сабабларга кўра бугунги анжуман Ўзбекистонда ўтказалишига қарор қилинган.

В данном примере всем участникам известно на каком мероприятии они участвуют, поэтому нет смысла повторять его название и переводчик решает опустить название конференции.

Выводы и предложения. Как свидетельствуют примеры использования компрессии в синхронном переводе с английского на русский, переводчики используют ее с различными целями. Использование данной стратегии может быть продиктовано разницей в синтаксических структурах языков, с целью экономии времени, чтобы передать основной смысл и значение речи оратора в условиях синхронного перевода, и др. Самое важное в этом заключается в том, что не всегда компрессия может служить оптимальной стратегией, бывают случаи, когда использование компрессии может негативно повлиять на передачу полной коммуникативной цели высказывания. Поэтому, для подготовки высококвалифицированных переводчиков синхронистов, целесообразным было бы создание необходимых методических пособий или сборников упражнений, которые позволили бы им практиковать использование различных стратегий для достижения лучших результатов в переводе, в том числе и компрессии.

ЛИТЕРАТУРА

1. Радлов В.В. Опыт словаря тюркских наречий. Том 1. Часть 1. Санкт-Петербург, типография Российской Императорской Академии Наук, 1893
2. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. Л., 1927
3. Якубовский А. Ю. К вопросу об этногенезе узбекского народа. Ташкент: Фан, 1941., стр. 313. Этнический атлас Узбекистана.
4. Asadi, P. and Séguinot, C. (2005). "Shortcuts, Strategies and General Patterns in a Process Study of Nine Professionals", *Meta* 50(2): 522-547.
5. Barik, C. (1975). "Simultaneous interpretation: Qualitative and linguistic data". In F. Pöchhacker and M. Shlesinger (eds.). *The Interpreting Studies Reader*. London/New York: Routledge, 79-91.
6. Daminov, Navruz. (2023). Using some strategies in simultaneous interpreting process. *E3S Web of Conferences*. 381. 10.1051/e3sconf/202338101104.
7. Daminov, N. (2023). "Using Interpreting Strategies in Teaching Simultaneous Translation". *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, Volume 2: 40-46.
8. GILE, D. "Basic Theoretical Components in Interpreter and Translator Training." DOLLERUP, C. and LODDEGAARD, A. (eds). *Teaching Translation and Interpreting: Training, Talent and Experience*. Amsterdam: John Benjamins, 1992.
9. GILE, D. *Basic Concepts and Models for Interpreter and Translator Training*. John Benjamins Publishing Company. 1995.
10. Straniero Sergio, F. Norms and quality in media interpreting: The case of formula one press conferences. *The Interpreters Newsletter* 12: 135-174., 2003.
11. Миньяр-Белоручев Р.К. Теория и методы перевода. - М., 1996.

12. Сдобников В.В. Средства компрессии в синхронном переводе с русского языка на английский / В.В. Сдобников // Теоретические и прикладные аспекты изучения речевой деятельности. Вып. 4 (11). – Н. Новгород: НГЛУ, 2016 – с. 125-137.
13. Интернет ресурсы:
14. <https://dictionary.cambridge.org/>
15. <https://ru.wiktionary.org/wiki/%D0%BA%D0%BE%D0%BC%D0%BF%D1%80%D0%B5%D1%81%D1%81%D0%B8%D1%8F%D0%9F%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%B2%D0%BE%D0%B4>



UDK:83/001(4;8)

Ahadjon MUHAMMADIYEV,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti dekani f.f.n., dotsent
Kamola XUSANOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti magistranti
E-mail: xusanovakamola1516@gmail.com

SHDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti Sh. Bobojonova taqrizi asosida

ALISHER NAVOIYNING NA'T G'AZALLARIDA MASIH OBRAZINING POETIK IFODASI

Аннотация

Iso tarixi hadislarida, Tafsiir va "Me'rojnomalarda, "Qissasul anbiyo" va manoliqlarda ifodalangan. Tasavvuf ta'limoti va adabiyotida Iso Masih siymosi irfoniy mushohadadan o'tkazilgan. Islomiy- irfoniy ruh Masih timsolini mumtoz adabiyotimizda sernahsul talqin etilgan badiiy va ramziy timsollardan biriga aylantirdi. Maqolada Alisher Navoiyning na't g'azallari tahlil doirasiga tortilgan. Tadqiqotchi Na't g'azallarda Masih obrazining badiiy aks etishi va bu yo'ldagi shoirning mahorati masalalariga e'tibor qaratgan.

Kalit so'zlar: Na't, Masih, Iso, Masihonafos, Masihonafas, Masihodam.

POETIC EXPRESSION OF THE IMAGE OF MASIH IN ALISHER NAVOIY'S NA'T GHAZALS

Annotation

The history of Jesus is expressed in hadiths, Tafsiir and "Me'arjnama", "Qisash al-anbiya" and manoliqb. In Sufism teachings and literature, the figure of Jesus Christ was subjected to mystical observation. The Islamic-mystical spirit has turned the image of Christ into one of the most fruitfully interpreted artistic and symbolic images in our classical literature. In the article, Alisher Navoi's na't g'azals are drawn. The researcher focused on the artistic reflection of the image of Christ in Na't's g'azals and the information gaps of the poet in this way.

Key words: na't, Messiah, Jesus, Masihonafos, Masihonafas, Masihodam.

ПОЭТИЧЕСКОЕ ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗА ХРИСТА В ГАЗЕЛЯХ АЛИШЕРА НАВАИ

Аннотация

История Иисуса изложена в хадисах, тафсирах, "Меароджname", "Кишаш аль-анбия" и манокйбе. В учениях и литературе суфизма фигура Иисуса Христа была объектом мистического наблюдения. Исламско-мистический дух превратил образ Христа в один из наиболее плодотворно интерпретируемых художественных и символических образов в нашей классической литературе. В статье представлены натовские газели Алишера Навои. Исследователь сосредоточился на художественном отражении образа Христа в газелях На'та и на информационных пробелах поэта в этом отношении.

Ключевые слова: на'т, Христос, Иисус, Масихонафас, Масиходам.

Kirish. Adabiyotshunoslikda turmush va faoliyat makonidagi jarayonlar, unga davr adabiy talablari va mezonlari doirasida baho berish zaruriyati – ilk tartiblangan devonlarda qasidalar va hajviyalarni kiritishga turki berganligi bilan asoslanadi. Davrlar osha mana shu mazmundagi devon tuzish qoidalari asta-sekin kengaya bordi. Jumladan, qofiya va radiflari ma'lum bir harflar bilan tugagan she'rlarni jamlashga alohida e'tibor qaratildi. Adabiyotshunos Y.Ishoqov Alisher Navoiyning etalon darajasiga ko'tarilgan "Xazoyin-ul maoniy" devonida 16 ta janr mavjud ekanligini ta'kidlaydi [3]. Olim "Navoiy poetikasi" asarida g'azal janri ustqurmasi xususida to'xtalib, asosli ilmiy faktlarni keltirib o'tgan. Mazkur mulohazalardan xulosalash mumkinki, lirik janrlardagi kompozitsiya xususiyatli jihatlariga ega, ammo yaxlit monolit kompozitsion qurilmasi mavjud emas. Shu bois asosan islomdan keyingi arab mumtoz adabiyotida ma'lum bir janrdagi she'rlarni to'plab, uni tizimlashtirib, bir-birini to'ldirib boradigan mantiqiy zanjirni yaratishga intilish – devon tuzish adabiy jarayonlarda faol ko'rinish hosil qiladi. Dastlabki urinishlarda devonga qasidalar va hajviyalarni kiritish odat bo'lgan. Nazarimizda, bunda ko'proq ijtimoiy

motivlar, davr bilan hamohanglik nuqtai-nazari ustuvorligi aks etadi. Zero, shoir va davr ajralmas tushunchalardir. Qizig'i shundaki, ushbu yangilanayotgan devonlarda ham hamd va na'tlardan so'ng qasida janridagi she'rlar aks etavergan. Albatta, buning o'ziga yarasha sababi bor. Avvalo, Sharq she'riyati vakillari XIX asr o'rtalariga qadar hokimiyat himoyasi va bosimi ostida rivojlangan. U yoki bu davr ijodkorlari hayoti va faoliyatida hokimiyatning qo'llab-quvvatlashi yo aksincha, noxolis munosabati ta'sirini ko'rish mumkin. Shuning uchun ham XV asrda Navoiyning devon tuzish an'analarini isloh qilishi adabiy inqilob sifatida e'tirof etiladi [4].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ta'kidlaganimiz Navoiyning devon kompozitsiyasi to'g'risidagi mazkur qoidalari uning «Badoye' ul-bidoya» devoni debochasida mufassal yoritilgan. Mazkur beshta mukammal qoidaning ikkinchisi aynan hamd va na'tlar haqidadir. Navoiy yozadi: "Har harf g'azaliyotining avval bitigan g'azal bila o'zga g'azallar orasida uslub haysiyatidin tafvut rioya qilmaydururlar. Muqarrardurkim, har amrda bir lahza Haq Subhanahu va taolo hamdidin yo rasul alayhissalom na'tidin,

yo bu ikki ishga dalolat qilurdek bir amrdin g'ofil bo'lmamog'liq avlodurur". Demak, bu qoidaga ko'ra, devonda har bir harf turkumidagi she'rlarning boshida hamd yoxud na't mazmunidagi she'rlarning kiritilishidir. Bu tadbir devon tarkibidagi har bir guruh g'azallarga o'ziga xos mustaqillik ruhini bag'ishlaydi [4].

Mumtoz adabiyotimizda Hazrati payg'ambar siymosi tasvirini keng monografik planda ilmiy tadqiq etgan olim M.Q.Muhiddinov hamd-na'tlar xususida quyidagi fikrlarni o'rta tashlaydi: "Bizning fikrimizcha, hamd va na'tlar muallif dunyoqarashini oydinlashtirishda muhim ahamiyatga ega... "hamd" va "na't"da qasida xususiyati bor, ya'ni ta'rif-tavsifi, til uslubini ko'tarinki ruh bilan yozilgan. Lekin qasidaning shakli qofiyalanish tartibi boshqa (aa, ba, va...) bundan tashqari, qasida janrining obekti «na't hamd»lardan farq qiladi. Na't-hamdlarda muallifning falsafiy mushohadalari ham ifodalangan" [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda yetakchi sifatida germeneytik tahlil metodidan unumli foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qur'on mavzulari va obrazlari o'zbek adabiyotiga singishida Alisher Navoiy ijodining o'rni beqiyosdir. Shoirning she'riyatida Iso, Yusuf, Sulaymon, Yoqub, Xizr kabi payg'ambarlar nomi ko'p marta qo'llanilgan. Bu obrazlar Navoiyning umuminsoniy g'oyalari ilgari surishda, hayot va uning saboqlari, nson qadrini belgilashda, kishilarga nasihat qishda muhim o'rin tutadi. Bizning maqolamiz muallifning falsafiy mushohadalari ifodalangan na't g'azallarda Masih obrazining poetik ifodasiga bag'ishlanadi. Alisher Navoiy ijodida Masih obrazi barcha g'oyaviy-badiiy funksiyalari bilan namoyon bo'lgan. Iso Masih timsoli ko'ngil erkinligi, qalb uyg'oqligi, ruhiy yetuklik ma'naviy bedorlik ramzi sifatida talqin etilgan. Zero, Navoiyshunos olim A.Muhammadiyev shunday yozadi: "Navoi's work is valuable and noteworthy as a reflection of the philosophical and artistic thinking of the period, as a product of conceptual views and research of a talented person. In his poems he meets a philosopher, a lover, a beggar, the owner of a crushed heart; to see time, its vortex, its destruction; the ruins of wickedness, and the radiant waves of goodness" [8].

Adabiyotshunos olim U.Qobilovning fikricha "Tasavvuf ta'limotida Iso Masih bilan bog'liq jihatlardan zuhd va zohidlik, mistika va boshqalardan tashqari sufiylikka dahldor adabiyotda bevosita badiiy timsol, obraz sifatida talqin etilishi ham alohida tadqiqot maydoniga egadir. Bu tomondan yassaviya, naqshbandiya, kubroviya va boshqa tariqatlariga mansub ijodkor adabiy merosida ifodalangan Iso Masih badiiy obrazining tasviri salmoqlikdir. Iso Masih qarashlari va siymosi islom madaniyati va san'atiga qur'oniy sintezlashish (omuxtalik) orqali kirib kelgan ekan, bu qonuniyat badiiy siymosining aks ettirilishiga ham taalluqlidir [10].

O'zbek klassik adabiyotidagina emas, balki, jahon mumtoz adabiyotida ham Masih obrazi chuqur ildizlarga ega bo'lgan diniy-mifologik obraz sanaladi. Masih obrazini mumtoz adabiyotda yoki xoslar adabiyotida qo'llash mumkin bo'lgan ma'nolari qancha yuqori bo'lmasin xoh u tasavvufiy, xoh diniy yoki dono xalqimiz qarashlari jihatidan qarasak ham Alisher Navoiy ijodida ularning barchasi qamrab olingan. Undan boshqasida uchramaydigan o'rnlarni ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiy Masih obrazi orqali turli xil jozibador poetik ifodalar yaratganki, birgina "Xazoyin ul-Maoni" devonidagi na't g'azallar tarkibini ko'rib chiqsak 11 o'rinda: "g'aroyib us-sig'ar"ning 89-g'azali 2-bayt, 101-g'azali 3-bayt, 114-g'azali 3-bayt, "Navodir ush-shabob"ning 6-g'azali 4-bayt, 284-g'azali 1-bayt, "Badoye ul-vasat" ning 6-g'azali 2-bayt 100-g'azali 2-bayt, 52-g'azali 3-bayt, 339-g'azali 3-4-bayt, "Favoyid ul-kibar" ning 6-g'azali 4-bayt, 224-

g'azali 2-baytlarida Masih obrazining poetik jilvalanishlarini ko'rishimiz mumkin.

"Alisher Navoiy asarlari izohli lug'ati"da: "Masih, Masiho arabcha Iso payg'ambarning laqabi. Diniy afsonalarda isoning o'z nafasi bilan o'liklarni tiriltirish, jon bag'ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan deyiladi. Adabiyot, she'riyatda sevgilini va uning laqabini jonbaxshlik yuzasidan Masih, Masihoanfosa o'xshatadi va Masihonafas, Masihodam degan tavsiflar beradi" [11] – deyiladi. Professor H.Karomatov "Xristos yunon tilida "pomazannik" degan ma'noni ifodalaydi. Masih arabcha "Masaha" fe'lidan olingan bo'lib "moylangan" demakdir. Bu Parvardigor tomonidan payg'ambarlikka tayinlanib, peshonasi moylanganligini bildiradi", – deydi [12].

Alisher Navoiy Masih obrazining mohiyatini ochib berishda o'ziga xos orginallikni yuzaga keltirgan va misralarda maqsadiga erishgan. Chunonchi "Masih ", "Lyso ", "Iso", "Isoi Ruhulloh" kabi jimjimador qo'llanishlar ijodkor dunyosining o'ziga xosligini anglatib turadi.

Alisher navoiy yuqorida aytganimizdek badiiy adabiyotning qo'llanishlaridagi har bir kashfiyotida ham falsafiy, ham diniy ham folkloristik jihatlarining ma'naviy mavjudliklarini nazardan chetda qoldirmaydi. Xatto, ilohiy shaxslar va tarixiy shaxslarning hayot tarzi, faoliyatiga to'xtalishni o'z zamondoshlariga pand nasihat, falsafiy mushohaga boy xikoyatlar tarzida berishni ta'sirchilikning muhim jihati sifatida qaraydi. "Nasoyim ul muhabbat" asarida tarixiy sarkarda bo'lish bilan bir qatorda o'z avlodlariga faxrli bo'lgan sohibqiron Amir Temur shaxsiyatiga, uning o'rnak olar jihatlariga bot bot to'xtaladi. Shu bilan birgalikda payg'ambarlar borasida alohida mushohada yuritishni o'z insoniylik va shoirlik burchi deb biladi. So'zimizning isboti sifatida Badoye ul – vasatning 6- g'azali 2- baytiga e'tibor qaratsak:

Gung etti Masihoni tor etti quyoshni,
Ul nutqi dilorom ila ul husni diloro.

Baytda zohiran "yorning o'z nutqi bilan oshiqqa jon bag'ishlashda Masihni gung etti, go'zal husni bilan esa quyoshni ham ortda qoldirdi" deb go'yo oshiqning mashuqaga ishq tavsiflanayotgandek, ammo botinan qarasak tasavvufiy talqinda bayt mazmuni ilohiy ishqqa ko'chadi. Bayt Payg'ambarimiz (s.a.v)ni vasf etib yozilganini ko'rishimiz mumkin. Shoir baytda Masih obrazini Qur'onda keltirilgan ilm sohibi, solih banda, donishmand, Allohning muqarrabi kabi xususiyatlari emas aynan o'sha Masihoanfosa, Masihonafas kabi xususiyatlariga urg'u beradi.

Samoviy siymo – Hazrati Iso Masih obrazining birgina baytda qanchalar keng ma'noda qo'llanishini Navoiy dahosining beqiyos ijodiy fikratining qay darajada ekanligi bu kabi poetik manzara yaratganligidan anlashimiz mumkin.

Ma'lumki, Qur'oni Karimning uchta: Ol-Imron, Maryam, Moida suralari Iso Masih haqida nozil etilgan. Bundan tashqari, Ilohiy Kalomning ko'plab oyati karimlarida Iso siymosi eslatiladi. Ularda Iso Masih siymosi unga bo'lgan yahudiylik va nasroniylik talqinlari bilan munozaralarda oydinlashtirilgan [10].

Masih obrazi Navoiy ijodida muhim o'rin tutadi. Navoiy ijodini to'laligicha o'rganadigan bo'lsak yuzlab o'rnlarda masih obraziga murojat qilganini ko'rishimiz mumkin. Muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda Iso payg'ambar nomi 24 marta zikr qilingan. Iso alayhissalom haqidagi ilk ma'lumotlar "Tavrot" da kelgan. Injil esa xarakter tarkibi bilan Iso qissasidir. Qur'onda Iso alayhissalom haqidagi berilgan ma'lumotlarga asoslanib bugungi Masih siymosi yaratilgan. Shuni aytish mumkinki, Navoiy o'z davri kishilariga qayg'urgan holda zamondoshlarini hidoyatga yo'llovchi she'riyati orqali va bu otashin she'riyatdan o'rin olgan Iso Masih obrazi vositasida o'zining falsafiy qarashlarini ilgari surishga intilgan.

Alisher Navoiy asarlarida asosan ma'shuqa labining jonbaxshlik xususiyatini Masihga o'xshatadi. Ba'zi o'rinlarda esa aynan Iso alayhissalomga murojaat qiladi:

Iso damidin o'lgankim, ruh topar erdi,
Bilgachki, topar dining, jon topti bo'lib xursand [1].

Alisher Navoiy insoniy kamolotga intilgan va barchani haq yo'lga chorlagan. Mazkur baytda ham Ollohning sevgan nabiyi Muhammad s.a.v ga murojat qilib, Isoning damidin odamlar ruh topgani kabi sening diningdan odamlar xursand bo'lib jon topilar deydi. Bilamizki, Payg'ambarimizga yangi din xabari kelayotgan davrda arab qabilalari o'z dinlarini unutib, but-sanamlarga sig'ingan, zalolatgan yuz tutgan bir holatda yashayotgan edilar. Yangi din kirib kelgach, odamlar islomni qabul qildi, robbisini tanidi, zalolat eshiklari yopilib, huzur-halovat eshiklari ochildi. Navoiy ushbu xodisani baytida diningni topgan kishi jonini topgandek xursand bo'ldi deya tasvirlaydi.

“Sharq xususan, o'zbek mumtoz adabiyotida Iso Masih alayhissalom siymosi bilan bog'lanadigan jihatlardan yana biri payg'ambarimiz Hazrati Muhammad sallolohu alayhi vasallamning me'rojga ko'tarilishi, ya'ni Uruj hodisasi bilan bog'liq. Ma'lumki, me'roj badiiy ijod ahli uchun o'ziga hos ilhom baxsh mavzu bo'lgan. Ularda payg'ambarimiz Muhammad Mustafoning yetti qad samoga yuksalishi tasvirlangan. Aynan tasavvufdagi vahtadul vujud maqomi ham Rasuli Akramning me'roj kechasida Olloh bilan bir vujudda birlashuvi hodisasiga asoslangan. “Me'rojnoma”larda payg'ambarimizning samoga ko'tarilishi tasvirlanganda to'rtinchi falakda Hazrati Iso bilan uchrashuvi va muloqoti doimiy ravishda bayon qilinadi” [10]. Jumladan Alisher Navoiy shunday yozadi:

Masih dam ura olmas anga uruj tuni,
Magar bizing mahi ulviy xirom qildi hadis [4].

(Mazmuni: agar me'roj tunida bizning mahbuba so'zlasa, Masih ham unga tiriltiruvchi nafasini yo'llay olmaydi).

“Me'roj – islom tarixida Muhammad (s.a.v)ning Makkadan Quddusga qilgan tungi sayrlari hamda Quddusdagi Aqso masjididan osmonga ko'tarilganlari” [9].

Bilamizki, me'roj buyuklik maqomidir shoir ushbu bayti orqali payg'ambarimiz Muhammad s.a.v ning me'rojga ko'tarilish hodisalariga ishora qilgan. Navoiy baytda Isoning ko'kka ko'tarilishi bilan me'roj tunini o'zaro zidlab baytda tazod san'atining go'zal namunasini yaratadi. Yaratganning mo'jizasi bilan payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) va Iso alayhissalom tirik holicha samoga ko'tariladi. Shoir aynan shuning uchun me'roj tunini tasvirini keltirganda ko'p o'rinda

Iso Masih obrazini ham kiritidi. Quyidagi misralar ham fikrimizning isbotidir:

Uruj oqshomi tegrangda oy-u kavkabl,
Masih girdida andoqki bir necha xuffosh.

(Mazmuni: Me'roj kechasida sening atrofingda oy va yulduzlar aylanadi. Bu Masih atrofida bir necha xuffosh aylangani kabidir).

Shuni ham aytish joizki, shoir she'riyatida “Xuffosh” tomsoli ko'p o'rinlarda qo'llangan. Asosan u Masih obrazi talqinida kelib, ko'ngil, ko'ngil bedorligi kabi ramzlarni ifodalaydi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida aytishimiz mumkin, Masih obrazi Navoiy she'riyatida salmoqli o'ringa ega. Qur'on diniy tafakkur tarixida Iso Masih haqida tarixiy ma'lumot beruvchi so'nggi, islom madaniyati jabhalarida esa birinchi ilohiy manbaidir. Undan keyin Iso tarixi hadislarida, Tafsir va “Me'rojnoma”larda, “Qissasul anbiyo” va manoilarda ifodalangan. Tasavvuf ta'limoti va adabiyotida Iso Masih siymosi irfoniy mushohadadan o'tkazilgan. Islomiy-irfoniy ruh Masih timsolini mumtoz adabiyotimizda sermahsul talqin etilgan badiiy va ramziy timsollardan biriga aylantirdi. E'tiborli tomoni shundaki, Masih timsoli tasviri berilgan turli xarakter va janrdagi asarlarda u turfa qiyofalarda namoyon bo'lsa-da mohiyatan bir maqsadga, ya'ni tavihd haqiqati ifodasiga xizmat qiladi. “Iso Masih timsoli Alisher Navoiy va umuman Sharq she'riyatida kezib yurgan umuminsoniy fazilatlarining mustahkamlanishi uchun xizmat qildirilgan. Uning ilohiy-insoniy qiyofasini ta'minlagan, jozibadorligini oshirgan, ta'siriy quvvatini yuksaklarga ko'targan. Iso Masih badiiy timsoli shu tariqa mumtoz adabiyotimiz olamida tasvir etilgan. Ijodkorlar Iso Masih timsoli badiiy talqinini satrdan satrga, asardan asarga boyitib borgan, tasvirlangan ruhiy-estetik holatlarni takrorlamasdan yangi-yangi manzaralar ixtiro qilganlar. Shuni alohida ta'kid etishimiz lozimki, Alisher Navoiy ijodida Qur'oni Karimning o'rni beqiyosdir. Buni birgina Iso alayhissalom badiiy obrazining talqin etilishi masalasi ham to'la tasdiqlaydi” [10]. Alisher Navoiy o'z lirikasida Iso Masih obrazi vositasida dunyo, hayot haqidagi o'z falsafiy qarashlarini ilgari surishga intilgan. Shoir g'azallaridagi Masih obrazi uning falsafiy dunyoqarashini ochib berishga xizmat qilgan. G'azallarda Masih obrazining diniy, falsafiy, ba'zan tarixiy ma'no-mazmunlari o'ziga xos tarzda go'zal ifodalangan. Shoir bu ilohiy obraz orqali turfa badiiy manzaralar kashf qilgan. Navoiy lirikasida Masih obrazi ifodalagan ramziy-majoziy tasvirlar alohida e'tiborga loyiq. U shoir lirikasida uyg'otish - tiriltirish motivini ifodalab bergan.

ADABIYOTLAR

1. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма томлик. Учинчи том. Фаройиб ус-сигар. – Тошкент: “Фан”, 1998 йил.
2. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати., тўрт томлик (I, II, III, IV томлар). Фозилов Э.И. таҳрири остида. – Тошкент: Фан, 1983. – 656; – 644; – 624; – 636 б.
3. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси («Хазойинул маоний» асосида). – Тошкент: Фан, 1983. – 168 б.
4. Муҳаммадиев А. Давр, адабий муҳит ва шахс. – Самарқанд; СамДУ нашри, 2017, 150 б.
5. Муҳиддинов М.Қ. Комил инсон – адабиёт идеали. – Тошкент: Маънавият, 2005. – 208 б.
6. Majidovna Karimova Nilufar and Axadjon Muhammadiyev "Analysis of the poem (khazal) Alisher Navoi's praise (On the example of “Garoyib us sigar”)." American Journal of Interdisciplinary Research and Development 11 (2022): 450-455.
7. Mahmudovich, Muhammadiyev Ahadxon. "Navoi's praising ghazals: analysis and interpretation." European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 8.6 (2020).
8. Муҳаммадиев, Ахадхон Махмудович. "Инсоний фазилатлар тараннуми (“Махбул-кулуб”да ҳадисларнинг бадий талқини)."Международный журнал Алишера Навои 1.2 (2021).
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent – 2000. 975 bet.
10. Қобилов У. Илоҳиёт ва бадийят. – Тошкент: Нихол, 2008. –141 б.
11. Ҳаққулов И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007. – 224 б.
12. Z.Yakhshieva. Artistic and Aesthetic experiments and historical reality of the Genre of the Tetralogy. “International journal of science and research” халқаро журнали. (ISSN: 2319-7064) (www.ijsr.net) 1.01.2020 P.123-127

13. Яхшиева З.Р. Свобода личности и периодические проблемы в англоязычном литературоведении. Международная научно–практическая конференция “Современные подходы и инновации в филологическом образовании: научные и педагогические перспективы” Термиз. 6 июня 2024 г. www.sean.uz.
14. Yaxshiyeva Z.R. Suryey of Timur and timurids in Alisher Navoi's scientific, literary heritage. Alisher Navoiy va XXI asr. 9-xalqaro konferensiya.Toshkent.Bursa.2024 8 fevral. 718-722.



UDK:81'21:821.512.133

Sevara RAHMATOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ummuabdulaziz418@gmail.com

O'zMU professori. M.Kurbanova. taqrizi asosida

EXPRESSION OF CONNOTATION THROUGH LEXICAL REPETITIONS (EXAMPLE OF ESHQABIL SHUKUR'S POEMS)

Annotation

Since the last quarter of the last century, the integration of linguistics with other disciplines has become more active, resulting in the emergence of new directions. Pragmalinguistics, linguapoetics, and psycholinguistics are among the fields that have emerged from the intersection of disciplines. In these directions, the main attention was paid to the study of language for humans and, in turn, to the question of man's relationship to language. This approach to the study of language has given rise to the need to study the role of the external world, social reality, culture, speech participants, their knowledge and ideas about the world, worldview, personal qualities in language, as well as the role of such pragmatic factors as context, speech situation, communication environment. Among these issues, identifying the connotative nature of linguistic units, especially the study of the question of expressing poetic connotation in the works of individual creators in a literary text, has become one of the important tasks of linguistics. This article highlights the essence of connotation, as well as the role of repetition of lexical units that serve to express different connotative meanings in poetics and in a literary text. At the same time, through the analysis of the poems of the famous Uzbek poet Eshqobil Shukur, the significance of the lexical repetition used in them in enhancing the aesthetic value and impact of a literary text is discussed.

Key words: Lexical unit, connotation, lexical repetition, lexeme, repeated words, connotative meaning, value attitude, positive attitude.

ВЫРАЖЕНИЕ КОННОТАЦИИ ЧЕРЕЗ ЛЕКСИЧЕСКИЕ ПОВТОРЫ (ПРИМЕР СТИХОВ ЭШКАБИЛЯ ШУКУРА)

Аннотация

С последней четверти прошлого века интеграция языкознания с другими дисциплинами стала более активной, в результате чего появились новые направления. Прагмалингвистика, лингвопоэтика и психолингвистика относятся к числу областей, возникших в результате пересечения дисциплин. В этих направлениях основное внимание уделялось изучению языка для человека и, в свою очередь, вопросу отношения человека к языку. Такой подход к исследованию языка породил необходимость изучения роли внешнего мира, социальной реальности, культуры, участников речи, их знаний и представлений о мире, мировоззрения, личностных качеств в языке, а также роли таких прагматических факторов, как контекст, речевая ситуация, среда общения. Среди этих вопросов выявление коннотативной природы языковых единиц, особенно исследование вопроса о выражении поэтической коннотации в произведениях отдельных творцов в художественном тексте, стало одной из важных задач языкознания. В данной статье освещается сущность коннотации, а также роль повторения лексических единиц, служащих для выражения разных коннотативных значений в поэтике, в художественном тексте. В то же время, посредством анализа стихотворений известного узбекского поэта Эшкabila Шукура обсуждается значение используемого в них лексического повтора в повышении эстетической ценности и воздействия художественного текста.

Ключевые слова: Лексическая единица, коннотация, лексический повтор, лексема, повторяющиеся слова, коннотативное значение, ценностное отношение, положительное отношение.

LEKSIK TAKRORLAR ORQALI KONNOTATSIYANING IFODALANISHI (ESHQOBIL SHUKUR SHE'RLARI MISOLIDA)

Annotatsiya

O'tgan asrning so'nggi choragidan boshlab tilshunoslikning boshqa fanlar bilan integratsiyasi yanada faollashdi va buning natijasida yangi yo'nalishlar maydonga keldi. Pragmalingvistika, lingvopoetika va psixolingvistika kabilar ham fanlar kesishmasi natijasida paydo bo'lgan sohalaridir. Mazkur yo'nalishlarda asosiy e'tibor tilning insonga va, o'z navbatida, insonning tilga munosabati masalasini o'rganishga qaratildi. Til tadqiqida bunday yondashuv tashqi olam, ijtimoiy voqelik, madaniyat, nutq ishtirokchilari, ularning olam haqidagi bilim va tasavvurlari, dunyoqarashi, shaxsiy sifatlarining tilda aks etishi, bunda kontekst, nutq vaziyati, muloqot muhiti kabi pragmatik omillarning roli masalasini o'rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Ushbu masalalar qatorida til birliklarining konnotativ xususiyatini ochib berish, ayniqsa, badiiy matnda muayyan ijodkor asarlarida poetik konnotatsiyaning ifodalanishi masalasini tadqiq etish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Ushbu maqolada konnotatsiyaning mazmun-mohiyati, shuningdek, poetikada turli konnotativ ma'nolar ifodalashga xizmat qiluvchi leksik birliklar takrorining badiiy matnda tutgan o'rni yoritiladi. Shu bilan birga, taniqli o'zbek shoiri Eshqobil Shukur she'rlari tahlili orqali ularda qo'llangan leksik takrorning badiiy matnning estetik qiymati va ta'sir kuchini oshirishdagi ahamiyati xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Leksik birlik, konnotatsiya, leksik takror, leksema, takroriy so'zlar, konnotativ ma'no, baho munosabati, ijobiy munosabat.

Kirish. Til birliklarining konnotativ xususiyatini ochib berish, ayniqsa badiiy matnda muayyan ijodkor asarlarida poetik konnotatsiyaning ifodalanishi masalasini tadqiq etish tilshunoslikning muhim masalalaridan biriga aylandi. Konnotatsiya termini lotincha “sonnotatio” soʻzidan olingan boʻlib, “birgalikda ifodalash” maʼnosini anglatadi. Manbalarda qayd etilishicha, ushbu termin ilk marta XIV asrda ingliz filosofi U.Okkamaning “Summa logicae” asarida “absolyut” va “konnotativ” xarakterdagi ismlarni bir-biridan farqlashda qoʻllangan. Boshqa manbalarda esa konnotatsiya termini ilk bor XVII asrda Por-Royal grammatikasida ismlarni tavsifida “substansiya” (holat)ni “aksidensiya” (belgi, xususiyat)dan farqlashda ishlatilganligi qayd etiladi [1].

XIX asrga kelib konnotatsiyaning mazmun - mohiyati oʻzgardi. Mantiqshunos J.S.Mill konnotatsiya soʻzning predmet va uning belgisini ifodalashi xususiyatini aks ettirishini bayon qildi. Uning fikricha, oq soʻzi barcha oq rangli narsalarni (qor, qogʻoz kabilar) hamda oqlik belgisini anglatadi. Shu sababli bunday soʻz konnotativ xususiyatga ega[2].

XX asr boshlarida konnotatsiya soʻzning lugʻaviy maʼnosi ustiga qurilgan qoʻshimcha hamroh maʼno, baho munosabati sifatida talqin etila boshlandi. Masalan, K.O.Erdman soʻzda ifodalangan qoʻshimcha hamroh maʼno hamda soʻzlovchining baho munosabatini konnotatsiya sifatida tushundi[3].

Tilshunoslikda konnotatsiya dastlab stilistik tadqiqotlarda oʻrganildi. Soʻnggi yillarda konnotatsiya pragmatikvistikaning oʻrganish obyekti ekanligi eʼtirof etildi. Konnotatsiyaning badiiy nutqda ifodalanishi masalasini oʻrganishga eʼtibor qaratilgach, ushbu hodisa lingvopoetik tadqiqotlar obyekti ga aylandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maʼlumki, poetik matnda leksik birliklar konnotatsiyani hosil qiluvchi tayanch birliklar sifatida ishtirok etadi. Oʻzbek tilshunosligida nutqda konnotatsiyaning leksik birliklar orqali ifodalanishi masalasi turli matnlar misolida oʻrganilgan. Jumladan, M.Yoʻldoshev badiiy matndagi poetik aktualashgan leksik vositalarning lingvopoetik qimmatini belgilashda sinonim, omonim, antonim, polisemantik, tarixiy va arxaik soʻzlar, yangi yasalmalar, shevaga oid soʻzlar, chet va vulgar soʻzlarga alohida diqqatni qaratish lozimligini qayd etadi[4].

Badiiy nutqda konnotativlikning ifodalanishi masalasi S.Maksumovaning “E.Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalanishi” mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida maxsus oʻrganildi[5]. S.Maksumova E.Vohidov sheʼrlarida konnotatsiyaning leksik usulda sinonim, antonim, omonimlar, koʻpmaʼnoli soʻzlar orqali hosil qilinganligini aniqlagan. Uning fikricha, “leksik birliklarni koʻchma maʼnoda qoʻllash, ularning sinonimik qatorlaridan oʻz oʻrnida foydalanish, omonim, antonim soʻzlarni estetik qiymat kasb etishga yoʻnaltirish orqali badiiylikni taʼminlaydi, matnning taʼsir kuchini oshiradi”[6].

M.Qurbonova esa bolalar nutqida leksik konnotatsiyaning koʻchma maʼnoli soʻzlar, boʻyoqdor soʻzlar, baʼzan ekspressiv-emosional boʻyoqqa ega boʻlmagan soʻzlar, laqablar, sinonimik, antonimik munosabatdagi leksik birliklar, dialektizmlar, vulgarizmlar, frazeologizmlar orqali ifodalanishini koʻrsatdi[7].

Albatta, qayd etilgan leksik birliklar xoh soʻzlashuv, xoh badiiy uslubda qoʻllansin, nutqiy taʼsirchanlik, emotivlikni yuzaga keltirishda, shuningdek, nutq egasining voqelikka munosabatini aks ettirishda qoʻllanganda konnotativ xususiyatga ega boʻladi. Biroq har bir nutq egasining bu leksik birliklardan foydalanishi oʻziga xos, bu holat ularning individual uslubi, soʻz tanlash mahorati bilan bogʻliq.

Muayyan bir nutq egasi leksik birlik orqali nutqining taʼsirchanligini oshirishga eʼtibor qaratsa, boshqa bir shaxs leksik birliklar orqali tasvir obyekti ga nisbatan baho

munosabatini bildirib oʻtadi. Bu holat leksik birliklardan foydalanishda nutq egalarining, ayniqsa, soʻz sanʼatkorlarining yondashuvi turlicha ekanligini koʻrsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada tavsiflash, semantik-sintaktik, kontekstual-matniy tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Maʼlumki, oʻzbek tilida konnotatsiyani ifodalovchi leksik birliklar xilma-xil. Ular badiiy matnda, ayniqsa, takror qoʻllanganda taʼsirchanlik yanada kuchli ifodalanadi, matnning estetik qimmatini oshadi. Badiiy matnda, ayniqsa, boʻyoqdor leksik birliklarning qoʻllanish chastotasi yuqori. Shu sababli adiblar badiiy matnda konnotativ maʼnoni hosil qilishda boʻyoqdor soʻzlarga koʻp murojaat qilishadi. Bunday leksik birliklarning badiiy matnda takror qoʻllanishi tasviriylikni kuchaytirish, soʻz anglatgan maʼnoni boʻrttirish, uni ajratib koʻrsatish, aktualashtirish, ifodalilikni yuzaga keltirish kabi konnotativ vazifalar uchun xizmat qiladi.

Eshqobil Shukur sheʼrlarida takrorlarga, xususan, leksik takrorga alohida oʻrin berilgan. Shoir oʻz sheʼrlarida koʻpmaʼnoli soʻzlar, sinonimlar, antonimlar, boʻyoqdor soʻzlarni takror qoʻllab, ularga konnotativ maʼno yuklagan. Shoir, ayniqsa, bir soʻzning sinonimini takrorlash orqali oʻziga xos leksik takroni hosil qilgan. Masalan, quyidagi sheʼriy parchada shoir goʻzal va parivash sinonimlarini yonma-yon qoʻllash orqali ular ifodalagan maʼnoni boʻrttirgan:

..lahzani ushlab qol, yashab oʻt lahzani...

Toʻrt unsur goʻzali parivash olov... (“Hayotga qasida”)

Yoki:

Koʻzimni muzlatdi jahannam oʻti,

Koʻnglimni xor qildi bu “gulzor, chaman”

Men ikki dunyoni bir hatlab oʻtib,

Koʻz ochib koʻrganim bor-yoʻgʻi tuman... (“Tilimni kuydirdi”)

Berilgan sheʼriy parchada gulzor, chaman sinonimlari yonma-yon qoʻllanib, leksik takroni hosil qilgan. Shoir gulzor soʻzining chaman sinonimini keltirish orqali bu soʻz anglatgan maʼnoni aktualashtirgan, unga taʼkid maʼnosini qoʻshgan.

Eshqobil Shukur sheʼrlarida koʻpmaʼnoli soʻzlar takrori orqali ham konnotatsiyaning ifodalanishi kuzatiladi. Masalan:

Togʻdan toshlar qulaydi,

Koʻzdan yoshlar qulaydi.

Qalbingdan bir chuqurga

Oy, quyoshlar qulaydi... (“Mengim momoning yoʻqlovi”)

Ushbu sheʼriy parchada koʻpmaʼnoli bulamaq leksemasi 3 oʻrinda takrorlangan. Birinchi misrada qoʻllamaq oʻz maʼnosida, ikkinchi misrada “koʻzdan sizib chiqmoq” koʻchma maʼnosida, soʻnggi misrada “soʻnmoq, botmoq” maʼnosida qoʻllangan. Shoir ushbu leksemani turli maʼnolarda qoʻllash orqali oʻziga xos soʻz oʻyiniga asoslangan tajnis sanʼatini hosil qilgan.

Eshqobil Shukur oʻz sheʼrlarining konnotativligini oshirishda takroriy soʻzlar bilan hosil qilingan leksik takrorga ham alohida eʼtibor qaratgan. Maʼlumki, takroriy soʻzlar bir soʻzning takrorlanishidan hosil boʻlgan, takror natijasida belgining ortiqqligi (katta-katta, baland-baland), belgining kuchsizligi (nim-nim, kichkina-kichkina), harakatning takroriyliigi (yura-yura, gapira-gapira) va kuchsizligi (asta-asta, sekin-sekin), miqdorning ortiqqligi (koʻp-koʻp, savat-savat, dasta-dasta, laxta-laxta) kabi turli grammatik maʼnolarni ifodalovchi birliklardir.

Badiiy adabiyotda adiblar bunday soʻzlardan takrir sanʼatini hosil qilishda samarali foydalanishadi. Eshqobil Shukur ham sheʼrlarida takrir sanʼatining oʻziga xos turlarini hosil qilgan. Bu haqida N.Erkinova quyidagilarni yozadi: “Eshqobil Shukur sheʼrlarida takrir badiiy sanʼatiga ham keng oʻrin berilgan. Uning sheʼrlarida bu sanʼatning xilma-xil

ko'rinishlari, xususan, leksik takror ko'p kuzatiladi. Shoir ko'p hollarda takroriy so'zni she'rning har bir misrasida takror qo'llash usulidan foydalangan. Bu holat ta'kidni yanada oshirishga, she'rning ta'sirchan bo'lishiga xizmat qilgan"[8].

Eshqobil Shukur takrir san'atini hosil qilishda taroriy so'zlardan foydalanar ekan, she'rlarining ta'sir kuchini oshirishga, unda musiqiy ohang hosil qilishga erishgan:

Oy so'nar asta-asta,

Asta-asta yulduzlar.

Asta-asta tebranib,

Kirib kelar kunduzlar.

Yengil-yengil xayollar.

Yengil-yengil sochingga

Sho'ng'iydilar shamollar. ("Sevgining bir kuni")

Ushbu she'riy parchada uch marta takrorlangan asta-asta takroriy so'zi orqali "so'nish, tebranish harakatining kuchsizligi" grammatik ma'nosi ifodalangan. Shu bilan birga ushbu takroriy so'zning she'rda 3 martaba takrorlanishi natijasida ushbu harakatlar alohida ta'kidga ega bo'lgan, ular anglatgan ma'no bo'rttirib ko'rsatilgan.

She'riy parchada xayol va sochga nisbatan qo'llangan yengil-yengil takroriy so'zi belgining kuchsizligi ma'nosini hosil qilgan. Ushbu so'zning takroriy ishlatilishi matnni o'qiganda o'ziga xos musiqiy ohangni hosil qilishi bilan birga, o'quvchi tasavvurida go'zal manzarani jonlantirishga xizmat qilgan.

Eshqobil Shukur she'rlarida leksik takror orqali konnotatsiyaning ifodalanishida quyidagi holatlar kuzatildi:

1. Leksik takror konnotativ ma'no ifodalovchi vosita vazifasini bajargan.

Shoir she'rlarida leksik birliklar takrori orqali ijobiy va salbiy konnotatsiya ifodalangan o'rinlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Eshqobil Shukur ijobiy munosabat ifodalovchi konnotativ ma'noli leksik birlikni she'riga olib kirib, unda tasvirlangan voqea-hodisa, narsa-predmet, shaxslarga nisbatan baho munosabatini bildirgan, bu birliklarni takror qo'llash orqali she'rlarining ta'sirchanligini yanada oshirgan. Masalan:

Himmatli begoyim, sulton begoyim,

Sulaymon taxtida hayron begoyim. ("Bir ko'ngilni...")

Ushbu she'riy parchada shoir ijobiy bo'yoqqa ega begoyim so'zini qo'llash orqali matnda ijobiy konnotatsiyani hosil qilgan. Ushbu so'zning takror qo'llanishi natijasida subyektiv munosabat yanada kuchaygan, so'z ta'kid kuchiga ega bo'lgan.

Misolalar tahlilidan ma'lum bo'ladiki, badiiy matnning estetik qimmatini oshirishda leksik birliklar konnotatsiyasi muhim o'rin tutadi. Ayrim leksik birliklar mohiyatan konnotativ ma'noga ega bo'lmasa-da, adiblar ularga bu vazifani yuklab, asarining ta'sirchanligini oshirishadi. Ijodkor leksik birliklardan konnotatsiyani hosil qilishda foydalanar ekan, ular orqali tasvir obyekti – voqea-hodisa, lirik qahramon, uning holati, hatti-harakati kabilarga salbiy yoki

ijobiy munosabatini bildiradi. Natijada bunday leksik birliklar nominativ vazifa bajaribgina qolmay, ijodkor munosabatini ifodalovchi birlikka ham aylanadi.

2. Leksik takror konnotativ ma'noni kuchaytiruvchi vosita vazifasini bajargan. Eshqobil Shukurning quyidagi she'rda shoshmoq fe'l leksemasi har turli shaklda takror qo'llanib, harakatning intensivligi ma'nosini bo'rttirishga xizmat qilgan:

Yonimdan shoshilib o'tadi shamol,

Sharqirab qayoqqa chopadi suvlar?

Shoshilib qay sori uchib borar Yer?

Shoshilib tark etar meni tuyg'ular.

Tunu kun qaygadir shoshadi hayot,

Hayr ham demasdan mangu ketding sen.

Buyuk zalvor bilan shoshar koinot,

Qaygadir shoshilib borayapman men.

Qayoqqa, bilmayman, evoh, qayoqqa?...

Bobur aytganiday, yuz oh, qayoqqa? ("Xuan Ramon Ximenes kitobiga yozuv")

Ushbu she'rda shoshmoq fe'l leksemasi shoshilib, shoshar, shoshadi shakllarida 6 o'rinda takrorlangan. Shoir bu so'zni she'rda takrorlash orqali u orqali ifodalagan harakatning intensivligi ma'nosini kuchaytirgan, harakatning ko'lami, uni bajaruvchi sub'yektlar safini kengaytirgan. Natijada ushbu so'zning tezlikda, jadallikda kabi semalari aktuallashgan.

3. Leksik takror konnotativ ma'noni hosil qiluvchi hamda birvaqtda baho munosabatini ifodalovchi vosita vazifasini bajargan. Masalan:

Nurlarda yarqirab yongan qo'tonlar

Ichra oy yonbovshlar – uy tikkan humoy.

Tuynukdan yuragin otdi cho'ponlar:

"Xayriyat, Xayriyat, qo'tonladi oy". ("Yomg'irdan oldin")

Shoirning ushbu she'rda xayriyat undov leksemasi takror qo'llangan. Mazkur so'z lirik qahramon (cho'ponlar)ning xursandchilik kayfiyatini aks ettirgan. Ijobiy hissiy munosabatni ifodalashga xizmat qilgan ushbu so'zning misra tarkibida takrorlanishi natijasida xursandchilik hissi alohida ta'kidga ega bo'lgan. Shuningdek, xayriyat undov leksemasining takrori lirik qahramonning sodir bo'lgan voqea-hodisadan shukronalik tuyg'usini namoyon qilishga xizmat qilgan.

Xulosa va takliflar. Eshqobil Shukur she'rlarida takror yordamida leksik birliklarga turli konnotativ ma'nolarni yuklagan. Natijada bunday birliklar nominativ vazifasidan tashqari ta'sirchanlikni ta'minlashga, ma'noni kuchli ifodalashga, bo'rttirishga, ta'kidni hosil qilishga hamda baho munosabatini ifodalashga xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR

1. Никитина О.А. О становлении понятия «коннотация» в лингвистике // Вестник Волжского университета имени В.Н. Татищева. № 2, том 1, 2017 // <https://cyberleninka.ru/article/n/o-stanovlenii-popyatiya-konnotatsiya-v-lingvistike>
2. Ходжаян. Т. Коннотативные особенности цветообозначений в современном немецком языке. // <https://books.google.co.uz>
3. Erdmann K.O. Die Bedeutung des Wortes. Aufsätze aus dem Grenzgebiet der Sprachpsychologie und Logik. – Leipzig, 1925. – P. 103.
4. Erkinova N. Eshqobil Shukur she'rlarining lingvopoetik tadqiqi: Filol. fan. bo'yicha falsafa d-ri (PhD)... diss. avtoref. – Toshkent, 2024. – B. 74.
5. Максумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 21 б.
6. Қурбонова М. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: Филол. фан. док. (DSc) ... дисс. – Тошкент, 2018. – Б. 189.
7. Эшқобил.Шукур. Хамал айвони. -Тошкент, Шарк, 2002. -Б. 5-16.
8. Эшқобил.Шукур. Сочлари сумбул-сумбул. – Тошкент, Фафур Фулом, 1988. – Б. 38- 49.



UDK: 8125(075)

Madina RO'ZIYEVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

E-mail: radjabovna_dina@mail.ru

Noira YAKUBOVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti v.v.b., PhD

E-mail: noira.yakubova@mail.ru

O'zJOKU dotsenti, PhD S.Ikramova taqrizi asosida

INGLIZ BADIY ASARLARINING O'ZBEK TILIGA TARJIMA TARIXI VA MUAMMOLARI

Аннотация

Ushbu maqola ingliz adabiyotining o'zbek tiliga qilingan adabiy tarjimalarining tarixi o'rganilgan. Ushbu madaniy almashinuv rivoji 1920-1930-yillardan, ya'ni ingliz adabiy klassikasining dastlabki o'zbek tarjimalari amalga oshirilgan davrdan to bugungi kungacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Shuningdek, o'zbek-ingliz adabiy tarjimalarining evolyusiyasidagi bir necha farqli bosqichlar ko'rib chiqilgan. Maskur maqolada XX asr 21-asrida O'zbekistonda ingliz tili va ingliz adabiyotining ommaviy mashhurligi, ingliz tili ta'limining rivojlanishi natijasida tendensiyalar yanada tezlashdi. Tahlil shuningdek, o'zbek yozuvchilarining ingliz adabiy an'alaridan ilhomlanishi va ularni o'z asarlariga singdirish holatlari ham o'rganilgan. Ushbu ikki tomonlama madaniy almashinuv o'zbek-ingliz adabiy tarjimalarining o'zaro tushunish va badiiy o'zaro ta'sirni shakllantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Tarjima tarixi, tarjima muammolari, bilvosita, bevosita, badiiy asarlar, tarjima evolutsiyasi.

ИСТОРИЯ И ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА АНГЛИЙСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК

Аннотация

В этой статье изучается история литературных переводов английской литературы на узбекский язык. Этот культурный обмен охватывает период с 1920-1930-х годов, когда были сделаны первые узбекские переводы английской литературной классики, до наших дней. Также рассматриваются несколько различных этапов в эволюции узбекско-английских литературных переводов. В этой статье показано, что в 21 веке широкая популярность английского языка и английской литературы, а также развитие обучения английскому языку в Узбекистане, еще больше ускорили эти тенденции. Анализ также рассматривает случаи, когда узбекские писатели вдохновлялись английскими литературными традициями и включали их в свои собственные произведения. Этот двусторонний культурный обмен подчеркивает важность узбекско-английских литературных переводов в формировании взаимопонимания и художественного взаимодействия.

Ключевые слова: История перевода, проблемы перевода, косвенный, прямой, художественные произведения, эволюция перевода.

HISTORY AND PROBLEMS OF TRANSLATION OF ENGLISH LITERARY WORKS INTO THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

This article examines the history of literary translations of English literature into the Uzbek language. This cultural exchange covers the period from the 1920-1930s, when the first Uzbek translations of English literary classics were made, to the present day. Several distinct stages in the evolution of Uzbek-English literary translations are also reviewed. This article shows that in the 21st century, the widespread popularity of the English language and English literature, as well as the development of English language education in Uzbekistan, have further accelerated these trends. The analysis also examines cases where Uzbek writers have been inspired by English literary traditions and incorporated them into their own works. This two-way cultural exchange emphasizes the importance of Uzbek-English literary translations in forming mutual understanding and artistic interaction.

Key words: Translation history, translation problems, indirect, direct, literary works, translation evolution.

Kirish. Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo'lib qoldi. Ya'ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo'lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o'zaro aloqasi, o'zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. "Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmaslik, g'ofillik, milliy mahdudlikka olib keladi" [1]. Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog'lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikga asos soluvchi ko'pri deb qaraladi.

XX asrning oxiridan boshlab O'zbekistonda ingliz adabiyotining badiiy asarlari tarjima qilina boshlagan. Tarjima faoliyati o'qituvchi kadrlar, talabalar, shaxsiy tarjimachilar va nashriyotlar orqali amalga oshirilgan.

Tarjima faoliyati O'zbekistonda ingliz adabiyotining tanlang asarlarini o'zbek tiliga muhokama qilish, o'qitish va tarqatish maqsadida olib borilgan. Tarjima bilan ingliz adabiyotining o'zbek adabiyotiga kirish imkoniyati yaratilgan. Bu tarzda tarjima faoliyati O'zbekistonda adabiyotning yanada rivojlanishiga olib kelishga yordam berdi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda tarjima nazariyasi va amaliyotini rivojlanishiga kata hissa qo'shgan olimlardan biri bo'lgan G'. Salomov tarjimaga quyidagicha tarif beradi:

“tarjimaning bosh xossasi uning boshqa til vositalari bilan qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayon, soʻz sanʼati ekanligidadir” [1]. Tarjima orqali bir millat vakillarining ijodiy namunalari oʻzga xalk vakillariga tanishtiriladi. Bu jarayonda tarjimon, G. Salomov takidlagandek, ijodkor vazifasini ham bajaradi.

“Tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishiga xizmat qiladi” [2]. Tarjima tufayli milliy adabiyotlar oʻrtasidagi aloqalarning maxsuli sifatida yangi gʻoyaviy yoʻnalishlar, yangicha konsept, janr shakllanadi.

XIX-XX asrda tarjima asarlarni yaratish borasida ilk qadamlarni oʻzbek yozuvchilaridan Choʻlpon, Gʻafur Gʻulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Askad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali kabi adib va shoirlarimiz boshlab berdi desak mubolagʻa boʻlmaydi. Ular nafaqat badiiy tarjima balki oʻzlarining badiiy asarlarini ham samarali ijod qilganlar. Shuningdek badiiy tarjima sohasida M.Osim, N.Alimuhamedov, SH.Shomuhamedov, K.Qaxxorova, O.Sharopov, SH.Tolipov, V.Roʻzimatov, Q.Mirmuhamedov, A.Rashidov, M.Hakimov, I.Gʻafurov, M.Mirzoidov, G.Toʻrabekov va boshqa professional tarjimon sifatida tanilganlar. Oʻzbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimachiligida ham katta yutuqlarga erishilgan. Bunda R.Abduraxmonov, V.Rahimov, SH. Shomahmudov, Z.Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta [3].

Tarjima va ayni badiiy tarjima haqida gapirilganda avvalo uning kelib chiqishi va bu soʻzga berilgan taʼriflarni keltirib oʻtish lozim deb bildik. “Tarjima haqida ilk nazariy fikrlar dastlab qadim Rimda yuzaga kelgan edi” deydi filologiya fanlari doktori, professor M. Xolbekov oʻzining “Jahon adabiyoti” jurnaliga chop etgan maqolasida. Yunon va lotin tillarini mukammal bilgan Aristotel, Sitseron va Goratsiy tarjima jarayonida soʻz ketidan quvish yaramaydi, ularning maʼno ifodalarni avval tarozida oʻlchab, keyin tarjima qilish maʼqul, degan fikrni bildirganlar. Keyinchalik Italiyada Bartolomeo va Manetti, Fransiyada dyu Belle va Malerb, Angliyada Bekon va Drayden, Germaniyada Gyote va Gumboldt, Rossiyada Lomonosov va Sumarokov tarjima xususida oʻz nazariy tushunchalarini bildirib oʻtganlar [3].

Badiiy tarjimaning asosiy xususiyati tilning badiiy vazifasidan kelib chiqadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, sanʼat faktiga aylanadi. Adabiy asar tili — alohida «badiiy voqelik» unsuridir. Obraz va portretni qayta yaratadi. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jaraenini yangidan idrok etish bu tarjimonning mahorati hisoblanadi.

Oʻzbekistonda ingliz adabiyotidan badiiy tarjima faoliyati 20-asrning boshlarida boshlanib, mashhur Amerika yozuvchilarining asarlari tarjima qilingan. Bu doirada Edgar Allan Po, Mark Tven, Uilyam Faulner kabi yozuvchilar oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Tarjima asarlari oʻzbek oʻqituvchi kadrlari va talabalar uchun muhim manba sifatida qabul qilingan.

20-asrning oʻrtalaridan boshlab Oʻzbek adabiyotida ingliz adabiyotining yana bir qator yetakchi yozuvchilarining asarlari tarjima qilingan. Ernest Hemingvay, F.S. Fitzgerald, J.D. Salinger, Toni Morrison kabi yozuvchilarining asarlari ham oʻzbek tiliga tarjima qilingan.

Tarjima faoliyati adabiyotga qoʻshimcha kuch berdi va Oʻzbek adabiyotida ingliz adabiyotining oʻziga xos uslubiy xususiyatlari oʻrganildi. Tarjimachilar ingliz adabiyotining maʼnoli muhitini oʻzgartirish, oʻzbek adabiyotiga qadriyatli qoʻshilish va oʻzbek adabiyotining yanada rivojlanishiga imkoniyat yaratishga intilish berdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ingliz adabiyotlari asarlarining oʻzbek tiliga tarjima tarixini oʻrganishda qoʻllaniladigan asosiy metodlar foydalanildi. Ular quyidagilar:

1. Tarixiy-adabiy tahlil metodi: ingliz adabiyoti tarjimalarining Oʻzbekistonda paydo boʻlishi va rivojlanish davrlari, tendensiyalarini oʻrganish; tarjima qilingan asarlar va mualliflarning Oʻzbekistonda tanilish darajasini tahlil qilish; tarjima jarayoni, tarjimonlar faoliyatini tarixiy kontekstda oʻrganish.

2. Qiyosiy-tipologik tahlil metodi: Oʻzbek tiliga tarjima qilingan ingliz adabiyoti namunalari boshqa milliy adabiyotlar tarjimalari bilan solishtirish; tarjimadagi uslubiy, mazmuniy xususiyatlarni oʻrganish va milliy anʼanalar bilan bogʻlash; Ingliz va Oʻzbekiston adabiyotlari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir va aloqalarni aniqlash.

3. Kulturologik metod: ingliz adabiyoti tarjimalarining Oʻzbekiston madaniy muhitiga koʻrsatgan taʼsirini oʻrganish; tarjimalar orqali milliy va xorijiy madaniyatlar oʻrtasidagi muloqotni tadqiq qilish; tarjima jarayonida aks etgan madaniy va ijtimoiy-siyosiy kontekstlarni tahlil qilish.

4. Biografik metod: ingliz adabiyoti tarjimonlari hayoti va ijodiy faoliyatini oʻrganish; tarjima jarayonini, uslubini tarflashda tarjimonlarning yozuvchi shaxsiyatiga murojaat qilish.

Ushbu metodlar qoʻllanilib, ingliz adabiyoti tarjimalari tarixini har tomonlama tadqiq etish, uning Oʻzbekiston adabiy muhitidagi oʻrnini aniqlab olishga yordam berdi.

Tahlil va natijalar. Tarjima faoliyati Oʻzbekistonda rivojlanishini davom ettirayotgan va yangilanayotgan yoʻnalishdir. Yangilangan maʼlumotlarga qaraganda [7], tarjima faoliyati Oʻzbekistonning adabiyot sohasidagi hamkorliklarni yanada kuchaytirayotgan va adabiyotning yanada rivojlanishiga olib kelishga yordam berayotgan yoʻnalishdir.

Oʻzbek adabiyotida tarjima faoliyati ingliz adabiyotining bir necha mashhur yozuvchilari asarlari bilan davom etmoqda. Bu yozuvchilar oʻzbek adabiyotida keng oʻqilgan va anglangan asarlari bilan tanishdir.

Quyidagi yozuvchilar tarjima asarlari bilan Oʻzbek adabiyotida keng tarqalgan:

1. Edgar Allan Po: ingliz romantik dostonlari va gotika janrlaridagi mashhur yozuvchidir. Oʻzbek adabiyotida uning “The Raven” (Qargʻa), “The Fall of the House of Usher” (Asher qasri qulaganida) va boshqalar kabi asarlari tarjima qilingan.

2. Mark Tven (Samuel Langhorne Clemens): ingliz adabiyotining katta yozuvchilaridan biridir. Uning “The Adventures of Tom Sawyer” (Tom Soyerning sayohatlari) va “Adventures of Huckleberry Finn” (Haklberi Finning sayohatlari) asarlari oʻzbek tiliga tarjima qilingan.

3. Uilyam Folkner: ingliz adabiyotining klasik asarlari bilan mashhur boʻlgan yozuvchi. Uning “The Sound and the Fury” (Ovoz va gʻazab) va “As I Lay Dying” (Men oʻlib yotganimda) kabi asarlari Oʻzbek adabiyotida tarjima qilingan.

4. Ernest Hemingvay: ingliz adabiyotining tanlang asarlari bilan tanilgan yozuvchi. Uning “The Old Man and the Sea” (chol va dengiz) va “A Farewell to Arms” (Alvido qirol) asarlari ham Oʻzbek tiliga tarjima qilingan.

5. F. Skott Fitsjerald: ingliz adabiyotining “The Great Gatsby” (Buyuk Gatsbi) asari bilan mashhur yozuvchi.

6. J.D. Selindjer: ingliz adabiyotining “The Catcher in the Re” (Javdarzordagi xalokkor) asarining yozuvchi. Uning asari ham oʻzbek tiliga tarjima qilingan.

7. Toni Morrison: Afrika-Amerikalik yozuvchi Toni Morrisonning asarlari ham Oʻzbek adabiyotida tarjima qilingan. Uning “Beloved” (Sevilgan) va “The Bluest Eye” (Koʻk koʻz) asarlari mashhur.

Bu yozuvchilarning asarlari Oʻzbek adabiyotida tarjima qilinishi bilan muhim manba sifatida xizmat qilgan. Tarjima faoliyati Oʻzbek adabiyotining ingliz adabiyoti bilan bogʻliq tajribasini oʻstirgan va adabiyotning yanada rivojlanishiga olib kelgan.

Ingliz adabiyotidan badiiy tarjima tarixini quyidagi katta bosqichlarga ajratish mumkin:

1. Kolonial davr: ingliz adabiyotidan badiiy tarjima tarixi, kolonial davrda boshlanadi. Bu davrda Britaniya koloniyalari Amerika qit'asida va Avropali kolonistlar tomonidan yaratilgan tarjima faoliyati ko'rsatiladi. Tarjima asosan diniy matnlardan, maqolalardan va buyuk Britaniya yozuvchilarining asarlaridan iborat edi.

2. Romantik davr: 19-asrning boshlaridan boshlab tarjima faoliyati ingliz adabiyotida rivojlanish boshladi. Bu davrda Britaniya romantik yozuvchilarining asarlari, masalan, William Shakespeare, John Milton, William Wordsworth, Samuel Taylor Coleridge kabi yozuvchilar, Amerika adabiyotiga tarjima orqali kirib kelgan. Bu tarjimalar romantik uslub va g'oyaviy mavzularni o'z ichiga olgan.

3. Realistik davr: 19-asrning o'rtalaridan boshlab ingliz adabiyotida tarjima faoliyati o'rnatilgan, shuningdek, adabiyotning o'ziga xos asarlari ham tarjima qilingan. Bu davrda Amerika adabiyotining klasik asarlari, masalan, Edgar Allan Poe, Mark Twain, Herman Melville, Nathaniel Hawthorne, Walt Whitman kabi yozuvchilarning asarlari tarjima qilingan.

4. Modernizm davri: 20-asrning boshlaridan boshlab ingliz adabiyotida tarjima faoliyati yanada rivojlandi. Bu davrda Avropa va Amerika modernist yozuvchilarining asarlari tarjima qilingan. Bu tarjimalar ingliz adabiyotida yangiliklarni keltirib chiqardi va o'zbek adabiyotining rivojlanishiga ham katta ta'sir etdi.

5. Postmodernizm davri: 20-asrning o'rtalaridan boshlab postmodernizmga oid asarlar ham tarjima qilingan. Bu tarjimalar ingliz adabiyotida o'ziga xos uslubiy xususiyatlarni o'rgandi va adabiyotning yangiliklarga qarshi bo'lishini ko'rsatdi.

Tarjima faoliyati ingliz adabiyotidan badiiy tarjima tarixida davom etmoqda. Yangi yillar bilan birga yangi asarlar tarjima qilinmoqda va bu tarqalish o'zbek adabiyotining ingliz adabiyotiga kirish imkoniyatini kengaytirib, adabiyotning yanada rivojlanishiga yordam beradi.

Ingliz adabiyotida tarjima faoliyati, erkinlik va kolonial davrlarda yaratilgan bir nechta asarlar bilan boshlandi. Bu asarlar orqali ingliz adabiyoti, tarjima faoliyati orqali o'zbek adabiyotiga kiritildi. Quyidagi asarlar ingliz adabiyotida tarjima faoliyatining boshlanishida ahamiyatga ega bo'lganlariga misol bo'lishi mumkin:

1. "The Bible" (Muqaddas Kitob): ingliz adabiyotining boshlang'ich davrlarida tarjima faoliyati diniy matnlarni asos olib borardi va "The Bible" bu matnlardan biri edi. Britaniya koloniyalari Amerika qit'asiga kelganida, "Muqaddas Kitob"ni o'zlarining tiliga tarjima qilishadi. Bu tarjimada Amerika adabiyotining badiiy tarjima faoliyati boshlanadi.

2. "The Complete Works of William Shakespeare" (Uilyam Shekspir asarlari): Uilyam Shekspir Britaniya yozuvchisi, asarlarining tarjimasini Amerika adabiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shekspiring asarlari Amerika adabiyoti ustozlari va o'qituvchilari tomonidan tarjima qilindi va adabiyotning rivojlanishida katta o'rin egalladi.

3. "The Scarlet Letter" (Qizil Xat): Nataniel Gotom tomonidan yaratilgan bu romanda Amerika tarixining kolonial davri, diniylik va jamiyatning qoidalariga oid mavzular keltirilgan. "The Scarlet Letter"ning tarjimasini Amerika adabiyotida katta e'tibor qozondi va tarjima faoliyati uchun muhim bir asar sifatida hisoblandi.

4. "Adventures of Huckleberry Finn" (Geklberri Finning sayohatlari): Mark Tvenning mashhur asari bo'lgan "Adventures of Huckleberry Finn" Amerika adabiyotida tarjima qilingan asarlar orasida ahamiyatli o'ringa ega. Bu asarda Amerika jamiyatidagi rasmdorlik, badiiy isyon va tabiatning muhimligi mavzulari ko'rsatilgan.

5. "The Great Gatsby" (Buyuk Getsbi): F. Skott Fitsjeraldning "The Great Gatsby" nomli romani Amerika adabiyoti tarjimasida o'ziga xos o'rni egalladi. Bu asar Amerika jamiyatining 1920-yillar bo'ylab o'tkazgan qo'shimcha davri, mo'judiyatning yo'qolishi va Amerika ruy-i zaminining yo'qolishini o'z ichiga olgan [5]. Bu asarlar ingliz adabiyotidagi tarjima faoliyati boshlanishida katta ahamiyatga ega bo'lganlaridan faqat bir nechta misoldir. Tarjima faoliyati ingliz adabiyotidagi asarlar soni va turli yozuvchilar tomonidan yaratilgan asarlar bilan davom etdi.

Badiiy tarjima kelsak, bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi hisoblanadi [8]. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishi sifatida bilinadi. Tarjima turlari asiyat va qayta tiklangan matn xususiyatiga qarab badiiy tarjima, ilmiy tarjima va boshqa turlarga ajratiladi [9]. Badiiy tarjima, adabiyot asarlarini o'zbek tiliga asosan ma'naviy, estetik va shakliy xususiyatlarini saqlab qolish bilan o'tkazilgan tarjima turidir. Badiiy tarjima adabiyotni yangi tilga o'tkazish bilan birgalikda badiiy asarni ma'naviy, shakliy, estetik xususiyatlarini ham saqlab qolishga urinadi.

Badiiy tarjima faoliyati asarni nashr etish, chop etish, batafsil ma'lumotlar bilan ta'minlash, va kitoblar yoki elektron nusxalar sifatida egalarga o'tish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin.

Badiiy tarjimada tilning badiiy vazifasi ahamiyat kasb etadi. Til badiiy asarda estetik hodisa, san'at faktiga aylanadi. Tarjimada ana shu obrazli ifodaviy tildagi badiiy ma'noni boshqa tilning obrazli ifodaviy zaminiga o'tkazish, obrazni obraz bilan qayta ifodalash jarayoni yuz beradi [10]. Shuning uchun tarjimon asardagi voqealarning badiiy tafakkur jarayonini yangidan idrok etadi.

Tarjima tarixi adabiyot tarixi bilan tengdoshdir. O'zbek adabiyotida ham tarjimachilik qadimdan rivojlangan. Mahmud Koshg'ariy, Rabg'uziy, Qutb, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa ijodida tarjima katta o'rni egallaydi.

Badiiy tarjima tarixi, adabiyot asarlarining bir tilidan boshqa tilga o'tkazilishining tarixiy jarayonlarini ifodalaydi. Tarixiy ravishda adabiyot tarjimalari, turli davrlarda va turli mamlakatlarda rivojlanib kelgan.

Tarjima faoliyati asr-ash'or asosida bilinadi. Eski asarlarda tarjimalar, ilmiy, diniy va so'zlov asarlarni asos olib borardi [6]. Misol uchun, eski Yunon adabiyotidan Arab adabiyotiga ko'chirilgan tarjimalar, tarixiy adabiyot tarjimasining eng erkin namunalarini hisoblanadi.

Tarjima faoliyati, o'rtacha asrlarda turli mamlakat madaniyatlari va adabiyotlarning o'zaro ta'sirchanligi bilan yanada rivojlandi. Tarjimalar orqali adabiyotning o'ziga xos uslubiy xususiyatlari va ma'nosi boshqa tilga o'tkazilardi. Bu davrda tarjima faoliyati, o'zbek adabiyotining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu o'rinda dunyoning ba'zi tarjimashunos, tilshunos olimlarining aynan "tarjima" so'ziga bergan ta'riflarini keltirib o'tsak. "Tarjima – mazmun va uslub birligini saqlagan holda asl nusxani boshqa til yordamida aniq takrorlashdir. Bunda tarjima qayta hikoya qilishdan farq qiladi, unda xorijlik asl nusxaning mazmunini yetkazish, mayda detallarni o'tkazib yuborish va uslubni takrorlash haqida qayg'urmaslik mumkin. Tarjimada mazmun va uslubning birligi boshqa til asosida qayta yaratiladi va shuning uchun tarjima tiliga xos bo'lgan yangi birlik bo'ladi" [10] Shuningdek, ma'nosini saqlaydigan va tarjima qilgan matning asl nuqtai nazariyaga to'g'ridan-to'g'ri vaqtinchalik tushunilishini ifodalaydigan tarjima turi hisoblanadi.

Xulosa. O'zbekistonda ingliz adabiyotidan badiiy tarjima tarixi oldindan beri muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Amerika adabiyotining o'zbek tiliga tarjimasini o'zining o'rta asrlardagi boyitishlari va rivojlanishlari bilan bir qator o'zgarishlar, ko'p hollarda tarixiy, siyosiy va ijtimoiy sohalar

bilan bog'liq bo'lgan. Sovet davrida, O'zbekistonda ingliz adabiyotidan tarjimalar amalga oshirilgan, ammo tarjimalar odatda yangi ideologiyalarning ramzlarini o'z ichiga olgan bo'lib nazoratlari ostida amalga oshirilgan. Bu davrda ham ingliz adabiyotining asl manosi, tahliliy jihatlaridan uzoqda turishgan.

O'zbekistonning mustaqil davrida ingliz adabiyotining tarjimasi va o'zbek adabiyotida ingliz adabiyotining ta'siri kengayib boradi. Ingliz adabiyoti asarlarining tarjimasi hamda ularning adabiyotshunoslik, akademik sohalar, o'quv yurtlari va universitetlarida o'qitish, tadqiqot, tezislarni tuzish hamda maqolalar yozish sohalarida yanada rivojlanib boradi. Ingliz adabiyotidan badiiy tarjimalar amalga oshirilganda, ko'plab

katta asarlar o'zbek tiliga muvaffaqiyatli tarjima qilingan. Ingliz adabiyotining klasik asarlari, masalan, Mark Tvenning "Tom Soyer va Geklberri Finning sarguzashtlariga" asoslangan asarlari, Ernest Hemingueyning "Chol va dengiz" asari, F. Skott Fitdgeraldning "Buyuk Getsbi" asari va boshqalar tarjima qilingan.

Bundan tashqari, ingliz adabiyoti uchun maqbul bo'lgan badiiy qo'llanmalar, antologiyalar va tanqidlarning tarjimalari ham amalga oshirilgan. O'zbek adabiyotida ingliz adabiyotining tarjimalari, o'zbek adabiyotining yanada rivojlanishi, turli janrlarda yaratilgan yangi asarlar va adabiyotshunoslikning taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: "O'qituvchi", 1978. – 18b.
2. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. –T.: 2016. –23 b.
4. Badiiy tarjimaning aktual masalalari, T.: "Fan", 1977.
5. Odilova G, Mahmudova U., O'zbek tarjimonlari va badiiy tarjimalar. – T., 2012
6. G'afurov I., Muminov O., Qambarov N., Tarjima nazariyasi. –T.:2010. –18 b.
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/AQSH_adabiyoti
8. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/4049>
9. <https://yoshlikjurnali.uz/tarjima/tarjima-ikki-madaniyat-koprigi/>
10. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>



O'g'iltor RUZIYEVA,
Guliston davlat universiteti tayanch doktorant
E-mail: u.ruzieva2909@gmail.com

Pedagogika fanlari doktori, professor Q.Yo'ldoshev taqrizi asosida

LUQMON BO'RIXON ASARLARIDA EKSPOZITSIYANING O'RNI

Annatotsiya

Maqolada yozuvchi Luqmon Bo'rixonning interyer tanlashdagi o'ziga xosliklari ochib berilgan bo'lib, xronotop tushunchasiga ham atroflicha to'xtalinib, ilmiy izohlar berilgan. Adibning turli janrdagi asarlari uchun interyer sifatida Kengsoy qishlog'ini tanlaganligi, bu makondagi badiiy obrazlar xatti-harakati orqali ijodkorning yetakchi konsepsiyasi va estetik ideali ilgari surilganligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Interyer, ekspozitsiya, makromakon, ko'chuvchi obrazlar, estetik ideal, Luqmon Bo'rixon.

THE ROLE OF EXPOSURE IN LUKMON BORIKHAN'S WORKS

Annotation

In the article, the peculiarities of the writer Lukman Borikhan in the choice of interior are revealed. It is analyzed that the author chose the village of Kengsoy as an interior for his works of various genres, and that the leading concept and aesthetic ideal of the creator were put forward through the behavior of artistic images in this space.

Key words: Interior, exposition, macrospace, moving images, aesthetic ideal, Lukmon Borikhan.

РОЛЬ ОБЪЯВЛЕНИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ ЛУКМОНА БОРИХАНА

Аннотация

В статье раскрываются особенности писателя Лукмана Борихана в выборе интерьера. Анализируется, что автор выбрал село Кенгсой в качестве интерьера для своих произведений различных жанров, а ведущая концепция и эстетический идеал творца выдвигались через поведение художественных образов в этом пространстве.

Ключевые слова: Интерьер, экспозиция, макропространство, движущиеся изображения, эстетический идеал, Лукмон Борихон.

Kirish. Hayotiy voqelik, ma'lumki, badiiy asarning muhim resursi hisoblanadi, voqelikning nafaqat suyet sifatida ketma-ketligi, balki juda kichik bir voqelik ham qandaydir zamonda, qandaydir aniq makonda sodir bo'ladi. Badiiy asar ekspozitsiyasi o'qirman tasavvurida hayotiy model paydo qilib, anglanish darajasining yuqorilashuviga yordam beradi. Chunki asarda tasvirlanayotgan detalning ko'lami, joylashish tartibi, voqea hodisalarning ketma-ketligi muayyan makonda va zamonda sodir bo'ladi. Ijod jarayonida obrazlar va voqealar bog'lanishi, makon va zamonning harakat birligi ta'minlanishi muhim shartlardan biridir. Luqmon Bo'rixon voqealarni o'qirman ko'z o'ngida tasvirlar ekan, badiiy makon va zamon konsepsiyasida tasvirlash, anglash, idrok etish borasida individual uslub qo'llaganiga guvoh bo'lamiz. Bu ijodkor o'zining aksariyat asarlari uchun interyer sifatida Kengsoy qishlog'ini, ya'ni 41-savxozni makromakon sifatida tanlaydi va tasvirlaydi. Bu makromakondagi badiiy obrazlar xatti-harakati orqali esa ijodkor o'zining yetakchi konsepsiyasini, estetik idealini ilgari suradi – ruhiy murakkabliklarni, obrazlararo ziddiyatlarni, voqeiy jumboqlarni aniq o'lchamlarga ega bo'lgan interyer chegarasida tasvirlaydi. Ma'lumki, ekspozitsiya asar voqealari ro'y beradigan joy, unda qahramonlarning dastlabki qiyofasi va holatini namoyon etadigan vaziyat, shart-sharoit tasvirlanadi. Ekspozitsiya obrazlar dinamikasini aniqlamaydi, aksincha, harakat – dinamika uchun fon vazifasini o'taydi. Adabiyotshunoslik ilmida makon ma'nosini ma'lum ma'noda xronotop terminini bilan ham ifodalash mumkin bo'ladi, bu atama asl ma'nosiga ko'ra suyet voqealari ro'y berayotgan zamonni – vaqtni ifodalasa-da, voqealar rivojlanayotgan makon ma'nosini ham bera oladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xronotop nazariyasini XX asrning 30-yillarida Mixail Baxtin (1895-1975) adabiyotshunoslikka olib kirdi. Bu atama aniq fanlar doirasida hamda psixologiya fanida mavjud bo'lsa-da, olim xronotop poetikasi, xronotop shakllari istilohlarini adabiyotga joriy qildi. Adabiyotshunos U. Jo'raqulov "Lison ut-tayr", "Hayrat ul-abror", "Layli va Majnun", "O'tkan kunlar" asarlari misolida xronotop tushunchasini o'rganar ekan, bu atamaga shunday ta'rif beradi: "Bu istiloh lug'aviy jihatdan zamon-makon degan qo'shma ma'noni ifodalaydi. Xronotop badiiy asarning botiniy funksiyasini ta'min etadigan, muayyan makon o'zani bo'ylab harakatlanuvchi zamon oqimi demakdir. Badiiy asardagi har qanday zamon yoki makon o'z-o'zicha hech narsani anglatmaydi, harakatlanmaydi. Qachonki, inson hayoti, insonga xos so'z - harakatlar u bilan uyg'unlashsa, badiiy xronotop jonlanadi, asar botini bo'ylab oqa boshlaydi"[1]. U.Jo'raqulov tadqiqot ishlarida yo'l xronotopi, shahar xronotopi, mehmonxona xronotopi, sahro xronotopi, ko'cha xronotopi, uy, ostona xronotopi kabi tushunchalarga to'xtalgan.

Bugungi kun adabiyotida qator hikoya, qissa va romanlari bilan o'z kitobxonlarini topa olgan Luqmon Bo'rixon asarlarida xronotop masalasi biroz boshqacharoq namoyon bo'ladi. Adib qator asarlarida Kengsoy, xususan, 41-savxoz va shu makonda yashovchilarning xarakter va tiplarini yaratadiki, bu holni boshqa ijodkorlarda uchratish mahol. Badiiy asarda tasvirlanayotgan obrazlar biror bir davrning, muhitning va joyning aniq vakili hisoblanadi. Bu kategoriya badiiy poetikaning muhim aspekti, chunki zamon va makonning mavhumligi, noaniqligi tabiiylikka, hayotiylikka

putur yetkazib, o'qirmanning ishonchiga sazovor bo'lolmasligi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Xronotop – makon va zamon uyg'unligi masalasi lirik asarlarda unchalik ahamiyatga ega bo'lmasa-da, epik va dramatik asarlarda muhim element sanaladi. Luqmon Bo'rixon badiiy asarlaridagi obrazlar aksariyat hollarda Kengsoy qishlog'ida, ya'ni 41-sovxoza harakat qiladi, yoki aynan shu makonga – interyerga mansub bo'ladi. Bu holatni Luqmon Bo'rixon asarlari misolida ko'rib chiqamiz:

“Cho'ldan kelgan tashvish” hikoyasidan: “Janob Do'lanov deganlari o'sha ma'lum-u mashhur cho'l qo'ynidagi 41-posyolkada tug'ilib o'sgan o'zimizning Samad – Do'lanov Samad, Samad Ergash o'g'li” [2].

“Tokchadagi tumor” hikoyasidan: “Ko'p o'tmay Kengsoy dala-dashti, baland-past qir-tepaliklar ko'zga tashlanib qoldi... To'lqinning tan-u joniga totli titroq kirdi. Yuragi gurs-gurs ura ketdi” [3].a

“Jaziramadagi odamlar” romanidan: “Qishlog'imiz, to'g'rirog'i, 41-sovxoza qarashli posyolka, uzoqdan qaraganda, paxta paykallari o'rtasiga to'kib tashlangan tosh-shag'al, temir-tersak uyumiga o'xshab ko'rinadi. Ilgari bu yerlar yovshonzor cho'l-u biyobon bo'lgan. Zamonlar o'tib hukumat “oq oltin” dardida olis-yaqindagi daryolarni jilovlab, katta ariqlar qazdirib bu yerlarga suv keltirgan. Posyolka deganlari andakkina shahar mahallalarining nuqsi urgan qator-qator beton uy-joylar, tosh-shag'al to'shalgan ariqlar-u beton yo'l-yo'laklardan iborat bir qishloq” [4].

Romanda ijodkorning niyati, asarning g'oyasi badiiy tadqiq qilingan makon, ya'ni interyer mana shu 41-sovxoza. Asar sarlavhasidanoq kitobxonda cho'lni o'zlashtirgan azamatlar haqida gap borar ekan-da degan xayol paydo bo'lsa-da, muallif mutloqo o'ziga xos yo'ldan borib cho'lni o'zlashtirgan zamona qahramonlarini emas, tog'dagi bog'rog'larini tashlab cho'lga ko'chib kelganlarning tobora “sho'rlab” borayotganlari xususida so'z yuritadi. Bu jarayonni kinoyaviy usulda tasvirlab, qahramonlarining ko'ngil olamini, botinini akslantirishga keng o'rin beradi.

“Quyosh hali botmagan” qissasidan: hikoyachi qahramon Norsoat tilidan voqealar tizimi ro'y beradigan makon-xronotop quyidagicha tasvirlanadi: “Chor atrof bepoyon dala-dasht. Ekin paykallari uzoq-uzoqlarga yastanib ketgan. Nari-beri kovlangan zovur ichlarida, suv ko'llagan soyliklarda quyuq o'siq qamishzorlar, yulg'unzorlar daydi dasht shamolida vahimali shitirlab chayqalib turadi. Tog' etagidagi bog'rog'lar ko'zimga singib ketganidanmi, har nechuk, unda-munda hurpaygan yakkam-dukkan qandaydir dov-daraxtlarni hisoblamaganda bu yerlar anchayin yupunyalang'och tuyilardi. Ellik-oltmish xo'jalikka mo'ljallab qurilgan, barchasi bir-biriga o'xshash beton kottejlardan iborat posyolka rasmiy hujjatlarda “41-sovxoza” deb yuritilsa-da, bir chekkasi mashhur Kengsoy kengliklariga tutashib ketgani uchun ham ko'pchilik uni Kengsoy qishlog'i deb atardi” [5]. Qissada otasi vafotidan keyin bolaligida Kengsoyga ko'chib kelgan Norsoat, uning eng yaqin do'sti Davron va jingalaksoch Tanzila o'rtasidagi munosabatlar, or-nomus masalasi yoritib berilgan.

“Sirli muallim” qissasidan: “Ha, ha kaminaga u taraflar tuzukkina tanish. Roppa-rosa ikki yil avval ovloq cho'l qo'ynidagi o'sha xarobgina 41-posyolkada bo'lganman... Posyolkaning sertuproq, qing'ir-qiyshiq ko'chalarida odam siyrak. U yer-bu yerda o'zini chuvoqda toblab o'tirgan qariqartanglar, qiy-chuv bilan o'ynashayotgan bolakaylar ko'zga tashlanadi. Hoynahoy, hamma ko'klam tashvishlari bilan andarmon, dala-dashtga sochilib ketgan” [6].

“Xizr ko'rgan yigit” qissasidan: “Xayol sursam xayollarim Kengsoyning qir-adirlaridan nariga o'tolmaydi, qo'y-qo'zilar suruviga aralashib yalangliklarda o'tlab qoladi...”

Kengsoyning qoq beliga yetganimizda qorong'ulik xiyla quyuqlashib qolgan edi” [7].

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi misollardan ko'rinadiki, muallif Kengsoy xronotopida 41-posyolkada ulkan insoniy tuyg'ularni, turli xil fojia va sevinchlarni, xilma-xil taqdirlar ansamblini yaratadi. Bu makonda tasvirlangan obrazlar o'qirman tomonidan jonli odamlar, insoniy tuyg'ularga, kechinma va taqdirarga ega bo'lgan tirik kishilar tarzida qabul qilinadi. Bunday qabul qilinishiga obrazlarning no'anaviy migratsion xarakterda ekanligi ham katta sabab bo'la oladi. O'zbek adabiyotida bir muallifning bir qator asarlarida muayyan bir joyni – territoriyani, makonni qalamga olish, suyet chizig'ini ayni bir joyda rivojlantirish deyarli uchramaydi. Ammo ayrim ijodkorlar o'zlari mansub bo'lgan hududni tez-tez asarlarida tilga olishlari uchrab turadi, masalan, Turob To'la Turbat qishlog'ini, Nazar Eshonqul Tersotani, Abduqayum Yo'ldosh O'zbekovulni turli asarlarida xronotop sifatida tasvirlanganlariga guvoh bo'lamiz. Bu muallifning biografiyasi bilan bog'liq holatdir.

Qator asarlarda tasvir olami bitta bo'lsa ham, obrazlar migratsion xarakterda bo'lsa ham, ijodkorning asarlarida takroriylik yoki siyqalik mutloqo sezilmaydi. Chunki har bir obrazga yondashuv har qaysi asarda o'z individual qiyofasiga egadir. Kengsoy, ya'ni 41-sovxoza Luqmon Bo'rixon yaratgan obraz va personajlar uchun umumiy universal makon. O'qirman ayni shu jihatdan ham muallifning asarlari mutolaasi davomida tasvirlanayotgan joyni o'zi avval tashrif buyurgan joy deb tasavvur qila oladi, obrazlarni esa xuddi eski tanishini uchratganday qabul qiladi. Luqmon Bo'rixon asarlarining katta qismi, janridan qat'i nazar umumiy xronotop – zamon va makon uyg'unligiga ega. Asarlarni makon umumiyliigi kesimida ko'rib chiqiladigan bo'lsa, zamonning ham obrazlarga ta'sirini kuzatamiz, ya'ni biror obraz boshqa asarga ko'chgan bo'lsa, uning yoshi, mavqei, hatto jamiyatda tutgan o'rnining ham o'zgarганиni ko'ramiz. Aslida, obrazlarning ko'chib yurishi ham Luqmon Bo'rixon asarlarida original tarzda namoyon bo'ladi. Chunki unda shunday uslub kuzatiladiki, bir asardagi obraz epizodik planda tasvirlansa, keyingi asarda spetsifik xususiyatlarga ega, individuallashtirilgan umumlashma sifatida bosh obraz darajasida bo'ladi. Luqmon Bo'rixon o'z asarlarida, janridan qat'iy nazar, obrazlarni “sayr qildiradi” va shu jarayonda obrazlar sistemasini yaratadi. Masalan, “Jaziramadagi odamlar” romanida Samadning beshinchi sinfda o'qib yurgan bolalik davri, so'ngra o'smirlik davri, qisman talabalik davri tasvirlangan bo'lsa (bu asarda Samad hikoyachi qahramon edi), “Cho'ldan kelgan tashvish” hikoyasida oilali, ikki bolaning otasi, butun respublikada, hatto Yevropada taniqli ruhshunos olim sifatida tasvirlanadi. Bu kabi migratsion obrazlar Luqmon Bo'rixon asarlarida ko'plab uchraydi. Bu o'rinda individuallik shuki, bu obrazlarning aniq bir makonga – Kengsoy qishlog'idagi 41-posyolkaga oid ekanligidir.

Xulosa va takliflar. Luqmon Bo'rixon asarlaridagi migratsion obrazlar asardan asarga o'sib boradi. Bu holat ham jismonan, ham ma'nadan ro'y beradi. Umuman olganda, Luqmon Bo'rixon sayyor obrazlarining kasb-korini, xarakterini asardan asarga o'zgartirmaydi, ya'ni Ulash hamma asarlarda agranom, Shunqor Hobil hamma asarlarda yozuvchi, Safarmurod hamma asarlarda chavandoz... Bunday ko'chib yuruvchi obrazlarga nisbatan sayyor obraz, migratsion obraz, ko'chuvchi obraz kabi ma'nodosh atamalarni ishlatish, bizningcha, o'rinli.

Luqmon Bo'rixon asarlaridagi obrazlar (asar janridan qat'i nazar) aniq bir makonga – interyerga tegishli. Yozuvchi o'zi yaratgan obrazlarni bitta xronotop atrofida birlashtiradi, ularni shu makonda shakllantiradi. Bosh yoki epizodik bo'lishidan qat'i nazar qahramonlar harakatlanuvchi joy, ya'ni ekspozitsiya Luqmon Bo'rixon asarlarida – hikoyasida, qissasida, romanida ayni bitta joy hisoblanadi. Bizningcha,

yuqoridagi ikki holatni Luqmon Bo'rixonning yozuvchi bo'lmaydi.
sifatidagi o'ziga xosliklari deb qabul qilsak, noo'rin

ADABIYOTLAR

1. Jo'raqulov U. Nazariy poetika masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. – B.352.
2. Bo'rixon L. Titrayotgan tog'. –T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 271.
3. Bo'rixon L. Quyosh hali botmagan. – T.: O'zbekiston, 2015. – B. 365.
4. Bo'rixon L. Jaziramadagi odamlar. – T.: G' G'ulom nomidagi nashriyot,
5. 2012. – B. 306.
6. Bo'rixon L. Sirli muallim. –T.: G'. G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – B. 271.
7. “Sharq Yulduzi” jurnali 2020. №3. 8-bet.



Nosirjon ULUQOV,
NamDU professori, filologiya fanlari doktori
Muhtaram IKRAMOVA,
NamDU tayanch doktoranti
E-mail: muhtaramikramova@gmail.com

ADU professori, doktori Sh.Shahobiddinova taqrizi asosida

ONOMASTIC AND LINGUOPOETIC ANALYSIS OF THE IMAGE OF JALALUDDIN MANGUBERDI

Annotation

In the article, the onomastic analysis of the name and nickname of the main character of the tragedy “Jalaluddin Manguberdi” created by Maqsud Sheikhzadeh, historical courage and the poet's skill in covering and describing it in the work are covered both linguistically and poetically.

Key words: Tragedy, main character (image), name, nickname, linguopoetic, linguoculture, tone, rhyme, rhyming word, inversion, gradation, rhetoric, rhetorical appeal, rhetorical question, analogy (allegory), contrast (antithesis).

ОНОМАСТИЧЕСКИЙ И ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ХАРАКТЕРА ДЖАЛОЛИДИНА МАНГУБЕРДИ

Аннотация

В статье ономастический анализ имени и прозвища главного героя трагедии “Джалалуддин Мангуберди”, созданной Мақсудом Шейхзаде, историческое мужество и мастерство поэта в его освещении и описании в произведении освещаются как лингвистически, так и поэтически.

Ключевые слова: Трагедия, главный герой (образ), имя, прозвище, лингвопоэтика, лингвокультура, тон, рифма, рифмующееся слово, инверсия, градация, риторика, риторическое обращение, риторический вопрос, аналогия (аллегория), контраст (антитеза).

JALOLIDDIN MANGUBERDI TIMSOLINING ONOMASTIK VA LINGVOPOETIK TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada Maqsud Shayxzoda yaratgan “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasi bosh timsoli ismi va laqabining onomastik tahlili, tarixiy jasorati va buni asarda yoritish, tasvirlash borasidagi shoirning mahorati ham lisoniy (lingvistik), ham poetik jihatdan yoritilgan.

Kalit soʻzlar: Tragediya, bosh timsol (obraz), ism, laqab, lingvopoetik, lingvomadaniyat, ohang, qofiya, qofiyadosh soʻz, inversiya, gradatsiya, ritorika, ritorik murojaat, ritorik soʻroq, oʻxshatish (tashbeh), taʼzod (antiteza).

Kirish. Moʻgʻul istilosi davrida Movarounnahrda katta jasorat koʻrsatgan Jaloliddin haqida Maqsud Shayxzodaga qadar birorta badiiy asar yaratilmagan, shoʻro tarixchilarining ilmiy asarlarida esa uning nomi ham, jangovar jasorati ham tilga olinmagan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Maqsud Shayxzoda bu qahramon haqidagi Shahobuddin Muhammad Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni” va Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoyi Juvayniy” kabi tarixiy asarlar asosida “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasini yaratgan. Mazkur drama oʻzbek adabiyotidagi sara asarlardan hisoblanadi. Quyidagi ayrim fikrlar ham buni tasdiqlaydi.

Temur Ubaydullo adib dramaturgiyasi xususida fikr yurititar ekan:

“Shayxzoda dramaturgiyasi... Shu soʻzlar tilga olinishi bilan ikki tarixiy nom, oʻzbek xalqi tarixidagi ikki yulduz koʻz oldimizda namoyon boʻladi: Jaloliddin Manguberdi va Mirzo Ulugʻbek. Ikkala tarixiy shaxs Shayxzoda domlaniq muborak qalami bilan abadiyat topdi.

Mirzo Ulugʻbekni Shekspirning tengsiz “Ottello”si bilan bir qatorga qoʻyadilar. Men bunga sirayam ajablanmayman. “Jaloliddin Manguberdi”ni esa, adabiyotchi ustozlarimiz maʼzur tutsinlar, “Gamlet” bilan tenglashtiraman. Ikkala qahramonning ham qismatida maʼlum darajada oʻxshashliklar, uygʻunliklar bor.

Shayxzoda dramaturgiyasi deganda manaman degan fojjanavislarning qalami bunyod etgan beaded zoʻr shoh asarlar – alp togʻlariga husn boʻla oladigan bir juft azamat qoyani tasavvur qilaman. Zero, bu qoyalar boʻlimganda edi, togʻlar ham gʻarib boʻlib qolgan boʻlur edi”, [1] – deb yozadi.

Tragediyaga bosh timsol sifatida tanlangan tarixiy qahramonning toʻliq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad boʻlib, 33 yil umr koʻrgani va shundan 11 yili turli janglarda oʻtganligi maʼlum. Manbalarda keltirilishicha Jaloliddin tugʻilganda bobosi Tekesh Xorazmshoh Najmiddin Kubrodan nabirasiga munosib ism topib berishni iltimos qiladi. Alloma bolaning kelajagi xususida bashorat qilib, qilich bobida mashhur va jahongashta boʻlishini aytib Jaloliddin ismini bergan.

Jaloliddin 13 yoshiga qadar ustoz, piri Najmiddin Kubrodan tasavvuf, harb ilmini mufassal oʻrganadi va shu zaylda “yo Vatan, yo sharofatli oʻlim” mazmunidagi kubroviya tariqati bilan kamol topadi, shuningdek dushman bilan ilk dafʼa 13 yoshida jangga kiradi [2].

Jaloliddin antroponimining lugʻaviy asosi arabcha boʻlib, dinning ulugʻvorligi, shavkati, shukuhi; dinning buyukligi, mukammalligi yoki dinning ulugʻ, shavkatli farzandi maʼnolarini anglatadi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Jaloliddinning laqabi manbalarda turlicha berilgan va izohlangan. Ensiklopedik lugʻatda izohlanishicha, Jaloliddinning burnida xoli (mank) boʻlgani uchun Mankburni laqabi bilan atalgan. Keyinchalik

bu nom talaffuzi o'zgarib "Manguberdi" nomi bilan mashhur bo'lib ketgan [2]. Bizningcha, Mankburni laqabining Manguberdi variantiga o'zgarishi ancha ishonarsiz. Quyidagi dalillar va manbalar ham bu mulohazamizni tasdiqlaydi.

Tahlil va natijalar. XVI asrda yashagan G'oz Ahmad G'afforiy "Jahonoro" asarida o'zidan oldin o'tgan tarixchilarning fikrlarini jamlab, bunday izoh beradi: "Sulton Jaloliddin ibn Sulton Alouddin Muhammad burnida xoli bo'lgan, Mankburni nomi bilan tanilgan mashhur odam edi" [4].

Shahobuddin Muhammad Nasaviyning asarida mashhur sarkarda Jaloliddin Mangburni deb atalgan. Demak, "Mangburni" sarkardaning laqabi. "Mangburni" laqabini ayrim tarixchilar "burnida xoli bor", "xoldor" deb talqin qiladilar. N.Karimov fikricha, Maqsud Shayxzoda o'z asarida Jaloliddinni tarixiy manbalardan farqli o'laroq, "Manguberdi" deb atagan va Nasaviy kitobidagi "Mangburni" so'zini shunday tarjima qilgan va mashhur sarkarda o'zbek xalqi o'rtasida hanuzgacha shu nom bilan yashab keladi [5]. Albatta, Nasaviyning kitobidagi "Mangburni" laqabini "Manguberdi" tarzida tarjima qilinishi ham ishonarsiz, chunki laqab yuqorida qayd etilganidek, burnida xoli bor, xoldor, rolli ma'nolarini anglatadi.

Manguberdi antroponimining lug'aviy asosi tarixiy-etimologik jihatdan o'zbekcha bo'lib, umri uzoq qilib berilgan bola yoki manguga berilgan ma'nolarini anglatadi [3].

Oybek va G'afur G'ulom "Jaloliddin" dramasi haqida: "Shoir Shayxzoda o'z dramasi qahramonlik taronasini kuyadi. Bu qahramonlikning jonli ruhi – Jaloliddin", – deb yozishgan [6]. Chindan, vatanparvarlik, mardlik ruhi Jaloliddin timsolining yorqin, mardona va ulug'vorlik yog'ilib turuvchi insoniy qiyofasida jamuljam. Bu timsolning realistlik ruhi unga ta'sirchanlik va joziba bag'ishlagan, kurashchanlik, nekinlik, ma'naviy jihatdan Manguberdi ismiga mos tushgan va uni mangu tirik timsolga aylantirgan [7].

Maqsud Shayxzodaning shogirdi Muhsin Zokirovning aytishicha, dramaning nomlanishi xususida muallif quyidagicha fikr bildirgan: "As-Nasaviy "Mengburni – burnida xoli bor, xoldor debdi, men esa uning xalqimizning qahramonona kurashi tarixida abadiy qolishini umid qilib "Jaloliddin Manguberdi" deb nom qo'ydim. Menimcha, tomoshabinlarga ma'qul kelsa kerak". Demak, Maqsud Shayxzoda Mengburni laqabini tarjima qilmagan, balki yaratilajak asarning g'oyaviy mazmuni, o'z maqsadi, bosh timsolning xarakteriga mutanosib tarzda ezgu maqsadlar bilan uni Manguberdi deb atagan va ta'kidlash joiz, bu maqsadga erishgan. Tarixiy qahramon asrlar davomida Manguberdi nomi bilan yashab kelmoqda va yashaydi.

Samarqandda Xorazmshohning muhtasham saroyida uning qizi Sultonbegim bilan amir Badriddinning to'y-nikoh bazmlari avjiga chiqqan bir nash'ali onda mash'um xabar keladi. Chingiz elchilari farmon olib kelib, taslim bo'lishni, boj to'lash lozimligini talab qiladi. Ammo Jaloliddin yovga qarshi jangga chiqish lozimligini, o'zi shu ish yo'lida shay ekanini otasiga quyidagicha izhor qiladi:

Bizning xonadonga bu nomus, bu or,
Taxtishin bo'lgandan sulhu rohatda,
O'lkaga bo'laylik sarvari ofatda.
Emas vatanimiz Xorazm faqat,
Kunchiqar tomonda Sirdaryo sarhad,
Buyuring sipohga bo'lay sarkarda,
Safarda tug'ildim, o'sdim egarda.
Qilichim hassadir, tulporim o'rtoq,
Menga koshonadan chodir yaxshiroq,
Qo'shinni bering menga, boshlay jangu jahd,
Shahanshoh noyibi, menman valiahd! [8]

Shoir Jaloliddinning bu ruhiy holatini lingvopoetik jihatdan olmosh va sinonim so'zlardan tarkib topgan birikmalar (Bizning xonadonga bu nomus, bu or) takrori

vositasida ta'kid, orginal o'xshatishlar (Qilichim hassadir, tulporim o'rtoq), inversiya bilan, ohangdosh sulhu rohatda – sarvari ofatda; faqat – sarhad; sarkarda – egarda; o'rtoq – yaxshiroq, jangu jahd – valiahd kabi subhat mavzusida aloqador juft, mustaqil va yordamchi so'zlar, so'z va so'z shakllari qofiyadoshligi asosida ritorik murojaat, gradatsiya (istak va maqsadni bir-ketin kuchaytirib borish) usulida ifoda etgan.

Maqsud Shayxzoda Jaloliddinni zukko, aqlli, fidoyi farzand sifatida gavdalanitiradi va buni shayxona mahorat bilan aynan timsolning nutqida hikmatlar vositasida ifoda etadi:

Kishi tug'ilmaydi boshda toj bilan,
Tug'ilar erklikka ehtiyoj bilan,
Boshimning tojdir onamga qasam! [8]

Ko'rinadiki, shoir bosh timsolning ezgu maqsadini o'zbek lingvomadaniyatiga xos tarzda hikmatli va yana onaga qasam bilan ifoda etadi. Bu, albatta, ta'sirchan va betakror chiqqan.

Banddan-bandga, misradan misraga o'tgan sari bosh timsol Jaloliddinning vatanparvarligi, mardligi tasviri, ifodasi orttib, uning hikmatli so'zlari sirasi va mazmuni boyib, to'lishib boradi:

El-o'lka sog' bo'lsa, toj kelib ketar! [8]

Yoki:

Viloyatning kim saqlasa udir hukmron,
Ko'kragimga oshnodir selob-u bo'ron.
Bu qasming sohibi siz, mayli, bemalol
O'tiringiz devon ichra va lekin Jalol –
Shu og'ayin sipohlar-la jangga tayyordir,
Kim eliga g'amxo'r bo'lsa, el unga yordir!
Sizga izzat va ehtiro, to'smagiz yo'lim,
Sipohlarning xil'atidir men uchun so'lim
Va bilingki, sipohlarning bir odati bor,
Jang chog'ida sustkash yorni biz deymiz ag'yor [8].

Maqsud Shayxzoda tragediyaning har bir bandiga qofiya san'ati bilan sayqal bergan. U qofiya yaratish bobida alohida iqtidor va mahoratga ega. Adib tomonidan o'rinli topqirlik bilan shakl va ma'no uyg'unligida qo'llangan qofiyadosh so'zlar nutqning ohangdorligi, musiqiyliigi hamda ta'sirchanligini ta'minlagan. Qofiya uchun so'zlar zo'rma-zo'raki tanlanmagan, har bir qofiyadosh so'z mavzu, g'oya va mazmunning yorqin ifodasi, to'kisligi uchun xizmat qilgan.

Ona Vatan kabi ulug', muqaddas! Onaning vasiyati, duosi ham ulug'. Maqsud Shayxzoda ham hayotdagi kabi yo'l tutadi. Jang oldidan Jaloliddinni onasi bilan uchrashtiradi:

Jaloliddin

Ona,so'yla, kim haqli, otam yoki men?

Qaroringa ishonay, so'yla, toki sen!

Ona

(tumor beradi)

O'g'lim, javob tumorni armug'on qilish,

Otang bo'lsam berardim dudama qilich!

Tiz cho'kmaysan do'zaxdan kelsa fotih ham,

Oq sutimni oqlagin, senga fotiham!

Jaloliddin

Xorazmshoh yo'q desa, ha der xotini,

Jaloliddin onasi derlar otini.

Bu dunyoda onasiz tug'ilgan kim bor?

Jon berganga jon bermoq mardlarga darkor!

Onamizning onasi shu bo'lsa shu Vatan –

Ko'rlik afzal bu yurtni asir ko'rmoqdan [8].

Shoir Jaloliddin nutqini ritorika va gradatsiya vositasida ta'sirchanligi hamda betakrorligini ta'minlagan.

Banddagi Jaloliddinning nutqiga xos "Bu dunyoda onasiz tug'ilgan kim bor?" ritorik so'roq gapi, "Jon berganga jon bermoq mardlarga darkor!", "Onamizning onasi shu bo'lsa shu Vatan – Ko'rlik afzal bu yurtni asir ko'rmoqdan" kabi ta'sirchanlikni ta'minlagan gradasion jumlar fikrimizning yorqin dalilidir. Bugina emas, Jaloliddinning "Ko'rlik afzal bu

yurti asir ko'rmoqdan" jumlasini butun asar mohiyat-mazmunini ifodalaydi.

Jaloliddinning bu hikmatli so'zlari faqat mazkur asarning emas, balki Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodining ham mohiyatini ifodalagan so'zlardir, desak xato bo'lmaydi [5].

Adib Jaloliddinning xalqqa suyanib, o'zining erk yo'lidagi kurashida yovga, zo'rlikka zig'ircha yon bermasligini milliy ruhda obrazli ifodalaydi:

Nifoqlarga oshyon qasringiz, ey shoh,
Qinga qaytmas qilichim, shohiddir olloh,
Birlashmasa bu ellar, beklar, o'lkalar
Xorazmshoh taxtiga pes mo'g'ul kelar...
Javobim shu... Keraksa eshiting yana!
Tepib tursa yurak rost, cho'kmaydi siyna.
Ulug' davlat tiz cho'kmas, botir yorbormas,
Chinor sinar, egilmas, bedov ot hormas.
Chingizxonadan qo'rqmoqlik – kurashsiz o'lim,
Sizga hamroh emasman, o'zga dir yo'lim [8].

Muallif Jaloliddinning dushmanga nafratini aynan uning nutqida sarkazm, ya'ni achchiq zaharxanda, ta'na, piching bilan beradi va o'zini ham ta'rifu tavsif etadi:

Afsus, badbaxt bo'lsa, bir o'lka agar,
Uning o'g'illari ko'r bo'lur yo kar.
Shunday buzuqlarni fitnakor Chingiz
Makr ila tuzoqqa oldi u xunrez.
Ammo menga botmas nayzayu xanjar,
Meni o'ldirolmas qilich yo zahar,
Suvlarga cho'kmayman, jordan yiqilmam,
Nomard qo'lidagi xanjardan ne g'am? [8]

Band boshdan oxir qofiyani ta'minlash, fikrni ta'kidli ifodalash maqsadida inversiya bilan sayqal topgan. Birinchi to'rt misrada shayxona mahorat, topqirlik bilan agar – kar, Chingiz – xunrez so'zlari qofiya qilib olingan. Bu, albatta, e'tiborga molik bo'lib, bandning nafaqat ohangdorligini, mazmuniy to'kisligini ham ta'minlagan.

Keyingi misralarda bosh timsol o'zi tomonidan mubolag'aning tablig' turi bilan nayzayu xanjar botmas, qilich

yo zahar o'ldirolmas, suvga cho'kmas, jordan yiqilmas qahramon ekanligi ifodalangan.

Dramatik asarlarda ko'pincha bosh timsolning xarakter xususiyatlarini nafaqat uning o'z nutqi, boshqalar bilan suhbat yoki o'zga timsollarning nutqi – ta'rifu tavsifi orqali ham ochib beriladi. Maqsud Shayxzoda ham shunday yo'l tutadi. Tarixiy voqealarni yozib borayotgan Nasaviy tilidan Jaloliddinning jasoratini quyidagicha bayon etadi:

Xorazmshoh voz kechdi jangdan, janggohdan,
Laqqa baliq qochganday yutqich timsoldan.
Xarob bo'ldi Buxoro, mahv o'ldi Urganch,
Pok tuproqni toptadi majusiy jirkanch.
Ammo sher Jaloliddin tortdi na'rasin,
Tig' sug'irib o'pirdi mo'g'ul marrasin.
Beshta urug' janglarda qochdi yov – vahshiy,
Rost debdilar: mo'g'ulni qochirgan kishi!. [8]

Jaloliddin xiyonatkor, sotqin, xoin Badriddinning qo'rqoqlarcha uzri, tavbasiga javoban quyidagilarni aytadi:

Qo'rqoq o'lar, har lahza, mard faqat bir gal.
Soya yang'lig' yuradi biz bilan ajal.
Undan qochsang quvadi, quvsang qochadi,
Yalinmoqni, ajabo, bormi hojati? [8]

Mazkur xalq maqollariga monand ta'zod san'ati-la sayqal topgan misralar mard Jaloliddinning ahdi misoli yangraydi.

Shoir Jaloliddin timsolini betakror o'xshatishlar (Men Amudaryoman), sifatlashlar (o'jar, qasoskor) bilan ifoda etadi:

Men ham Amudaryoman, o'jar, qasoskor,
Yo'llarimda har to'g'on bo'lur tor-tor [8].

Xulosa. G'afur G'ulomning ta'biri bilan aytganda, "... Jaloliddin xalq, vatan, erk bayroqdori kabi qasos qilichini ko'tardi" [9]. Bizningcha, bu e'tirofda mubolag'a yo'q.

Buyuk tarixiy haqiqat, voqelik, jasorat va uning sohibi – xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi timsoli Maqsud Shayxzodaning mahorati bilan nafaqat badiiy adabiyotda, sahnada va turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotida mangulikka, abadiyatga doxil bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Shayxzoda M. Dunyo boqiy. – Toshkent: G'.G'ulom Ubaydullo, Temur. Sarg'aymas sahifalar: (Suhbatlar, esselar). – Toshkent: O'zbekiston, 1990. – B. 70.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 3-j. – B.436.
3. Begmatov E.A. O'zbek ismlari izohi. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2016. – B.132.
4. Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231). – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. – B.22.
5. Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifiy-biografik roman. – Toshkent: Sharq, 2010. – B.113-114.
6. Oybek, G'.G'ulom. "Jaloliddin" dramasi haqida // Qizil O'zbekiston, 1945, 18 fevral.
7. Imomov B., Jo'rayev Q., Hakimova H. O'zbek dramaturgiyasi tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – B. 172.
8. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988. – 424 b.
9. G'afur G'ulom. Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Fan, 1971. – B.315.



UDK:811.1

Umida USMONOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi
Email: umida90@gmail.com

Renessans ta’lim universiteti professori, f.f.d. M.Turdibekov taqrizi asosida

UNITS OF AN OUTDATED LAYER OF THE VOCABULARY OF THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

In this article, the lexical units that make up the obsolete layer in the lexical system, their semantic and lexicographic features are analyzed. Also, the classification of lexical units with the status of archaism and historical words was carried out based on the status of use, levels of signs of obsolescence. From the point of view of the current lexicon of the Uzbek language, obsolete words are classified universally and terminologically, and their lexicographical interpretations are reflected.

Key words: obsolete layer, archaism, historical word, obsolete words belonging to the general lexicon, obsolete terms belonging to the special lexicon, archaic word, archaic term.

ЕДИНИЦЫ УСТАРЕВШЕГО ПЛАСТА ЛЕКСИКИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье анализируются лексические единицы, составляющие устаревший пласт в лексической системе, их семантические и лексикографические особенности. Также проведена классификация лексических единиц, имеющих статус архаизма и исторических слов, исходя из статуса употребления, уровней признаков устаревания. С точки зрения современной лексики узбекского языка устаревшие слова классифицированы общелексически и терминологически, отражены их лексикографические интерпретации.

Ключевые слова: устаревший пласт, архаизм, историческое слово, устаревшие слова, относящиеся к общей лексике, устаревшие термины, относящиеся к специальной лексике, архаическое слово, архаический термин.

O‘ZBEK TILI LEKSIKASINING ESKIRGAN QATLAM BIRLIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada leksik tizimdagi eskirgan qatlamni tashkil qiluvchi leksik birliklar, ularning ma’noviy, leksikografik xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, arxaizm va tarixiy so‘z maqomidagi lug‘aviy birliklarning qo‘llanish holati, eskirganlik belgisi darajalari asosidagi tasnifi amalga oshirilgan. Hozirgi o‘zbek tili leksikasi nuqtayi nazaridan eskirgan so‘zlar umumleksik va terminologik jihatdan tasniflanib, leksikografik talqinlariga munosabat aks etgan.

Kalit so‘zlar: eskirgan qatlam, arxaizm, tarixiy so‘z, umumleksikaga mansub eskirgan so‘zlar, maxsus leksikaga mansub eskirgan terminlar, arxaik so‘z, arxaik termin.

Kirish. Jamiyat hayotining o‘zgarishi ta’sirida tilning lug‘at tarkibida ham turli o‘zgarish va jarayonlar sodir bo‘ladi. Yangi paydo bo‘lgan tushuncha va narsa-hodisalarni ifodalovchi yangi so‘zlar va ma’nolar yuzaga keladi, muloqot jarayonida faollashadi, ayrimlari turli omillar ta’sirida nafaol qatlama o‘tadi, qo‘llanishdan chiqib ketadi, muayyan davr oralig‘ida eskirgan qatlam tarkibida bo‘ladi, ularning ayrimlari nutq jarayonida yana faollashadi, “qayta tiriladi”. Kishilik jamiyatida sodir bo‘layotgan o‘zgarish va islohotlar, fan-texnika va ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklar juda ko‘plab yangi tushunchalarni vujudga keltirish barobarida tilning lug‘at tarkibidagi ayrim til birliklarining iste’moldan chiqib, lug‘at kitoblarda arxaik hamda istorizm degan maqomni olishiga ham sabab bo‘lib, eskirgan qatlam tarkibini boyitishga ham xizmat qiladi. Bu holat esa grammatik o‘zgarishlar, xususan, leksik o‘zgarishlarning muntazam tadqiq qilib borilishini, til leksikasidagi eskirgan so‘z va iboralarni, eskirgan qatlam tarkibini obyektiv baholashni taqozo qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bundan yarim asr ilgari yaratilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligida ham ta’kidlanganidek, “O‘zbek tili leksikasidagi ayrim so‘zlar eskirib, arxaizm, istorizmga aylandi: firqa, sho‘ro, ishtirokiyun, mingboshi, mirshab, janob, tanob, kashshof, chaqirim, omoch, charx, handasa, tibbiyot, riyoziyot, sarf, nahv va boshqalar”(8). O‘sha davr o‘zbek tiliga rus tili yoki u

orqali boshqa tillardan o‘zlashgan avangard, kolxoz, kommunizm, kosmodrom, sovet, komsomol, progress kabi so‘z va atamalar XX asrning 80-yillari o‘zbek tili leksikasi nuqtayi nazaridan yangi qatlamni tashkil qilgan bo‘lsa, bugungi davr tilimiz uchun ular eskirgan so‘zlar sifatida tavsiflanmoqda. Darhaqiqat, “O‘zlashgan so‘zlarning ma’lum qismi davrlarning o‘tishi bilan o‘z o‘rnini boshqa kirib kelgan yangi so‘zlarga beradi va qabul qilgan til lug‘atidan arxaik yoki tarixiy so‘z sifatida chiqib ketadi.”(3)

Tadqiqot metodologiyasi. Har bir davr tilining lug‘at tarkibida ham lug‘aviy birliklarning tarixiylik jihatdan eski va yangi qatlamlari farqlanadi (1). O‘zbek tilining lug‘at tarkibi ham jamiyat hayotidagi turli o‘zgarishlarni o‘zida muntazam aks ettirib keladi, ayni holat va jarayonlarni izohli lug‘atlarimiz orqali yanada yorqinroq kuzatishimiz mumkin. O‘tgan asrning 80-yillaridan buyon 4 marta nashr qilingan ko‘p jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”(5,6) o‘zbek tilining lug‘at tarkibidagi ana shunday o‘zgarish va yangilanishlarni, xususan, zamonaviy davr tili va nutqiga nisbatan eskirgan va yangi paydo bo‘lgan lug‘aviy birliklarni ham o‘zida aks ettirib kelmoqda. Tilning lug‘at boyligidagi leksik, semantik o‘zgarishlarni kuzatish, baholash borasida ushbu lug‘at muhim ahamiyat kasb etadi (2,4). Izohli lug‘at tarkibidagi esk. (eskirgan so‘z) uslubiy belgisi qo‘yilib tavsiflangan leksemalar miqdori ham ancha bo‘lib, ularning eskirgan so‘z degan belgini olishi va zamoniylilik nuqtayi nazaridan eski

qatlamni tashkil qilishi turli ijtimoiy, siyosiy, madaniy kabi qator sabab va omillar bilan bog'liq. Leksemalarning eskirishi, nafaol leksika tarkibidan joy olishining sabab va omillari masalasi tadqiqi ham o'ziga xos ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu o'rinda biz o'zbek tili leksikasining eskirgan qatlamiga mansublik kasb etuvchi leksemalarni, ularning o'ziga xos belgi-xususiyatlarini izohli lug'atimizdagi leksikografik talqinlari orqali tavsiflashga harakat qilamiz.

Mazkur leksik hodisalar tilshunoslik terminlari lug'atida quyidagicha tavsiflanadi: "ARXAIZM (yun. *agshaios* – qadimgi). Ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqib boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.). Mas., surur (sevinch), hayon (foйда) va b."(7); "TARIXIY SO'Z. O'tmishga oid voqea-hodisalarni ifodalaydigan, bu voqea-hodisalarni nomlash maqsadida hozirgi tilda ishlatiladigan so'z: quloq (quloq qilmoq), bo'nak va b."(7)

Leksikografik izohlardan ko'rinadiki, tilning bu ikki hodisasi leksikaning bitta qatlamiga oidlik kasb etsa-da, ular alohida-alohida hodisalardir. Arxaizm zamonaviy o'z ma'nodoshiga nisbatan belgilanib, nomlash va uslubiy vazifani bajarishga xizmat qilsa, istorizm, ya'ni tarixiy so'z esa o'tmish voqeligiga oid narsa-hodisa ifodalovchisi sifatida alohidalik kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Eskirganlik belgisiga ega bo'lgan leksemalarning leksikografik talqini asosan izohli lug'atlarda to'laroq namoyon bo'ladi. Shuning uchun eskirgan leksemalarning ma'nosi, eskilik belgisi, boshqa leksik birliklar bilan munosabatini baholash uchun izohli lug'atlarga murojaat qilish maqsadga muvofiq. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da o'zbek tilining turli taraqqiyot bosqichlariga tegishli bo'lib, bugungi kunda faol nutqda uchramaydigan, muayyan tarixiy sharoit va vaziyatlarni ifodalash, tarixiy davrni jonlantirish hamda uslubiy kabi maqsadlaridagina qo'llanilishi kuzatiladigan leksemalar ham o'zining leksikografik izohlariga ega bo'lgan. Eskirgan so'z (esk.) belgisi bilan qayd qilingan leksik birliklar jamiyat hayotining turli davrlaridagi voqelik, soha va jarayonlari bilan bog'liq tushunchalarning ifodalovchilaridir. Shu nuqtayi nazardan eski qatlam va unga mansub leksemalar tasnifi, tavsifi ham muhim. Eskirgan leksik qatlam birliklarini o'z davri leksikasidagi qo'llanish imkoniyat va holatiga ko'ra dastlab ikki guruhga ajratish lozim:

umumleksikaga mansub eskirgan so'zlar;

maxsus leksikaga mansub eskirgan terminlar.

Birinchi guruh shartli ravishda o'z ma'nodoshiga ega yoki ega emasligi jihatidan ikki guruhga bo'linadi: a) umumleksik arxaizmlar va b) umumleksik istorizmlar.

Umumleksik arxaizmlar guruhiga mansublik kasb etuvchi arxaik birliklar tilning umumleksik qatlamida o'z davrida faol qo'llanilgan va davr o'tishi, jamiyat o'zgarishlari ta'sirida "eskirgan" belgisiga ega bo'lib, o'rmini o'z ma'nodoshiga bo'shatgan birliklar hisoblanadi. Jumladan, abadiya (mangu), abas (begona), abdolvash (qalandarsifat), barimta (garov), bachki (bolalar poyabzali), baqqol (mayda savdogar), bozingar (raqqosa), vagonchi (vagonlab savdo qiluvchi), girya (yig'i), gupsar (meshga o'xshash moslama), davotxona (xon devonxonasi), munshiy va mirzalar xonasi), darbor (xon saroyi), daftardor (kotiba), dejur (navbatchi), ijtinob (o'zni tiyish), izo (ozor), ilik (qo'l), internatsional (xalqaro birlashma), islovotxona (fohishaxona), yildirim (chaqmoq), kavkab (yulduz), kutoh (kalta), ko'h (tog'), lak (yuz ming), mardumxo'r (tekinxo'r), abro' (qosh), ajoyibxona (hayvonot bog'i, muzey), arznoma (ariza) kabilar. Ko'rinadiki, mazkur birliklar hozirgi til nuqtayi nazardan o'z dubletlariga ega, ularning ma'nolari zamonaviy til leksikasida boshqa leksemalarda "yashab kelmoqda". "O'zbek tilining izohli lug'ati"da esk. uslubiy belgisi bilan qayd qilingan arxaik birliklar til taraqqiyotining oldingi davr bosqichida umumleksikaga oid bo'lib, o'z o'rmini bugungi kunda ma'nodoshlariga bo'shatib bergan leksemalardir. Ularning

ayrimlarida eskilik belgisi darajasi ortiq, ba'zilarida kuchsiz, shu bois ularning hozirgi davr uchun tushunilish va qo'llanish darajasi ham har xillik kasb etadi. Masalan, barimta, bozingar, gupsar, davotxona, izo, mardumxo'r kabi arxaizmlarning eskilik belgisi darajasi yuqori, shuning uchun ular ifodalagan tushuncha yoki ma'noning hozirgi jamiyat tomonidan anglanish darajasi past, qo'llanish imkoniyati ham shunga monand, faol emas. Eskilik belgisi darajasi kuchsiz bo'lgan baqqol, dejur, abro', arznoma kabi arxaizmlarda bu holat boshqacharoq, ya'ni ular orqali ifodalanayotgan tushuncha yoki ma'no hozirgi jamiyat uchun unchalik "begona" emas. Arxaizmlardagi eskilik belgisi darajasining ortiq-kamlik holati ularning jamiyat a'zolari nutqida qo'llanib turish darajasi bilan bog'liq. Eskilik belgisi darajasi past bo'lgan arxaik birliklar eskilik belgisi darajasi yuqori bo'lgan arxaizmlarga nisbatan so'zlashuv tilida, badiiy asarlar matnida ko'proq qo'llanishda bo'lib keladi, eskilik belgisi darajasi yuqori bo'lgan birliklarda esa aksincha bo'ladi.

Eski belgisiga ega ayrim so'zlarning so'zlashuv nutqida, badiiy, xususan, zamonaviy she'riy asarlar matnida ham, faol bo'lmasa-da, qo'llanishi kuzatishiladi. Bundan anglashiladiki, arxaizmlar tizimiga mansub ba'zi leksemalar umumleksik qo'llanish nuqtayi nazaridan eskirgan qatlam birligi mavqaida bo'lsa, ayrimlari uchun eskilik belgisi, yuqorida ta'kidlanganidek, kuchsiz darajada, shuning uchun ham ular zamonaviy poetik nutqda badiiy obraz tasvirida faol va unumli vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu holat esa arxaik leksemalarning eskirganlik belgisi til uslublariga nisbatan farqlilik kasb etishidan dalolat beradi. Xususan, abas (kt.), abdolvash, abadiya, girya so'zlari asosan mumtoz asarlarimiz matnida faol qo'llangan, ularning eskirish holati turli davrlar bilan belgilanishi mumkin, abadiya so'zi abas va abdolvash so'zlariga nisbatan tilimiz taraqqiyotining keyingi davrida eskirgan belgisini olgan, chunki XX asr o'zbek adiblarining ijodida ham ushbu so'z ishtiroki kuzatiladi, bu holatni "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ushbu so'z uchun tanlangan illyustrativ misol orqali ham dalillash mumkin. Arxaizmlarning eskirganlik belgisi darajasi va davrini belgilash ham alohida kuzatish, yondashuvni taqozo qiladi.

Umumleksikaga mansub eskirgan so'zlarning umumleksik istorizmlar guruhi tarkibida esa quyidagi birliklarni qayd qilishimiz mumkin: aeroplan, bilik, bint II, bodiya, va'zxon, vofurush, gapxona, go'shtgirlik, joriya, juzgir, zayomfurushlik, isqarlot, kolyaska, ko'pas, lavvoh, lavh, lo'kidon, mafosil, bo'zaxona, mug', madang, malik kabilar. Kuzatiladiki, qayd qilingan so'zlar va ularning ma'nolari hozirgi jamiyat a'zolari uchun notanish, ularning ma'nolari bilan maxsus kuzatish va lug'atlar orqaligina tanishish mumkin. Mazkur birliklar o'tmish narsa-hodisa, kasb-hunar, lavozimlarining atamasi sifatida lug'at kitoblardan joy olgan, chunki ular anglatgan narsa va tushunchalar tarixiy voqelikda qolgan. Shu bois bu kabi istorizmlar tarixga oid narsa-hodisa va jarayonlarni ifodalash talabi, maqsadi asosida zamonaviy nutqda qo'llanishi mumkin. Umumleksik istorizmlar guruhiga mansub bo'lgan bu kabi birliklar bugungi til leksikasida o'zi anglatgan tushuncha bilan birga eskirgan so'zlardir.

Eskirgan so'z belgisiga ega arxaizm va istorizmlar so'zlashuv tiliga oidligi, kitobiy so'zligi, badiiy nutqqa xosligi yoki muayyan soha tushunchasi ifodalovchisi jihatidan ham o'ziga xos farqli xususiyatlarini namoyon qiladi. Eskirgan so'zlarning bu kabi farqlilik xususiyati ham alohida ilmiy yondashuv va tahlillarni taqozo qiladi.

Eskirgan so'zlarning dastlabki tasnifidagi ikkinchi guruh – terminologiyaga mansub eskirgan terminlar ham birinchi guruh singari ichki ikki guruhga ajraladi: a) arxaik terminlar va b) istorizm terminlar.

Arxaik terminlar guruhi tarkibini quyidagi kabilar tashkil qiladi: dorilfunun (universitet), yozg'ich (qalam), jabr

(algebra), jarida (jurnal), zakazchi (buyurtmachi), zamlama (ustama haq), ibratxona (teatr), istiholot (terminologiya), kapitalizatsiya (foydani kapitalga aylantirish), kitobat (yozuv), kitobdor (kutubxonachi), kitobfurush (kitob sotuvchi), komissar (vakolatli rahbar), lashkar (armiya), mador II (tropik), moliyat (soliq), muallaqchi (akrobat), muboshir (nazoratchi), muvoziy (parallel), muhoraba (jang), naqliyot (transport shirkati), nahv (sintaksis), ministr (vazir), obkom (viloyat hokimi), vedomost (qaydnoma), falakiyot (astronomiya) kabilar. Ushbu terminlarning o'ziga xos belgisi shuki, ular anglatgan tushunchalar hozirgi zamonda ham mavjud, lekin terminning o'zi bugun uchun eskirgan, zamonaviy muloqot jarayoni va nutq tarkibida qo'llanilmaydi, o'z o'rnini dubletlariga bo'shatib bergan terminlardir. Shunga asoslangan holda, ularni arxaik termin deb baholashimiz mumkin.

Istorizm terminlar guruhi esa vojatiy, dzot, dobil, dovot, disput, jironq'or, jamiyatshunoslik, juzlamoq, zveno, ishtirokiyun, yigitboshi, kafshdo'z, kashshof, kvadrant, kejim, kenas, kissado'z, kolxoz, komsomol, konka, lineyka (saf), menshevik, miroxur, nimcha (o'lchov birligi), baynalmilalchilik, bakovul, barshchina, vazifador, tanob, falaq, chag'davul, shabgard, sharbatdor kabi birliklardan tarkib topadi. Mazkur istorizm terminlar hozirgi leksikamizga nisbatan eskirgan sanaladi. Chunki ular anglatgan tushuncha bugungi kun nuqtayi nazaridan tarix voqeligiga aylanib

bo'lgan, shuning uchun ular eskirgan, ya'ni istorizm termin maqomida qayd qilinishi to'g'ri.

Xulosa va takliflar. Yuqorida qayd qilingan arxaik va istorizm terminlar o'zi mansub davr tilida qo'llanish jihatdan chegaralangan, ular nafaol leksika tarkibidan o'rin egallagan. Bu holatni "O'zbek tilining izohli lug'at"i orqali ham kuzatishimiz mumkin, umumleksik eskirgan so'zlarga nisbatan tar. uslubiy belgisi bilan ajratilgan so'zlar miqdori uch barobar kam. Demak, muayyan soha, fan, kasb kabilar bilan bog'liq eskirgan termin va atamalar ham leksikaning eski qatlamida o'ziga xos ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari bilan ajralib turadi, ularning eskirganlik belgisiga ega bo'lishida ham o'ziga xos sabab va omillar mavjudligi alohida tavsif va tahlillarni talab qiladi.

O'zbek tilining leksik tizimidagi eski qatlam va unga oid birliklar yuzasidan amalga oshirilgan kuzatish va tahlillarimiz eskirgan so'z maqomidagi lug'aviy birliklar o'ziga xos leksik-semantik, uslubiy xususiyatlarga, o'zaro umumiy va farqli belgilarga, ushbu qatlam tarkibida o'ziga xos o'ringa egaligi, leksemalardagi eskirish holatining, qo'llanish ehtiyoj va talablarining turli xil sabab hamda omillar bilan bog'liqligi, eskirgan so'zlarning hozirgi til leksikasi va nutqiga munosabati, ularning leksikografik talqini va tavsifidagi muammolar yuzasidan alohida ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Бегматов Э. Ҳозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламлари. – Тошкент: ФАН, 1985. – Б. 85.
2. Муҳаммаджонов Г. Ўзбек тили лексикаси тараққиётининг баъзи масалалари. – Тошкент, 1981. – Б. 25, 36.
3. Турсунов У. ва бошқ. Ўзбек адабий тили тарихи. – Тошкент: Фафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – 260 б. – Б. 36.
4. Усмонов С. Ўзбек тилининг луғат составидаги тожикча-форсча ва арабча сўзлар. Навоийга армуғон. – Тошкент, 1968. – Б. 118, 124.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва: Русский язык, 1981.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-5- жилдлар. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020.
7. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – 164 б. – Б. 17, 103.
8. Шоабдурахманов Ш. ва бошқ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Дарслик. I қисм. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 450 б. – Б. 17.



UDK: 8144

Feruza XAZRATQULOVA,
O'zMU tayanch doktranti
E-mail:feruza_khazratkulovaa@mail.ru

O'zDJTU katta o'qituvchisi, U.Abdullayeva taqrizi asosida

INGLIZ TILIDA FLORISTIK KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLAR

Annotatsiya

Floristik komponentli ingliz frazeologizmlarini o'rganish madaniy va kognitiv jihatlarni aks ettiruvchi botanik elementlarning tilga qanday singib ketganligini ochib beradi. Frazeologiya sohasida keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, floristik frazeologizmlar yetarlicha o'rganilmagan. Ushbu tadqiqot o'simlik tasvirlari idiomatik tilni qanday shakllantirishini ko'rsatishga qaratilgan bo'lib, ingliz tilidagi semantik boylik va madaniy o'ziga xoslik haqidagi tushunchamizni kuchaytiradi. Ushbu maqola ingliz frazeologiyasidagi floristik elementlarning ahamiyatini ta'kidlaydi va keyingi fanlararo tadqiqotlarga undaydi.

Kalit so'zlar: floristik frazeologizmlar, ingliz tilidagi idiomatik iboralar, madaniy tilshunoslik, kognitiv lingvistika, qiyosiy frazeologiya, botanika tasviri, til evolyutsiyasi, sotsiolingvistika.

ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ С ФЛОРИСТИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

Изучение английских фразеологизмов с флористическими компонентами показывает, как ботанические элементы встроены в язык, отражая культурные и когнитивные аспекты. Несмотря на обширные исследования в области фразеологии, флористические фразеологизмы недостаточно изучены. Цель этого исследования — показать, как цветочные образы формируют идиоматический язык, улучшая наше понимание семантического богатства и культурной специфики английского языка. Эта статья подчеркивает важность флористических элементов в английской фразеологии и призывает к дальнейшим междисциплинарным исследованиям.

Ключевые слова: флористические фразеологизмы, английские идиоматические выражения, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, сравнительная фразеология, ботаническая образность, эволюция языка, социолингвистика.

PHRASEOLOGISMS WITH FLORISTIC COMPONENT IN ENGLISH LANGUAGE

Annotation

The study of English phraseologisms with floristic components reveals how botanical elements are embedded in language, reflecting cultural and cognitive aspects. Despite extensive research in phraseology, floristic phraseologisms are underexplored. This research aims to show how floral imagery shapes idiomatic language, enhancing our understanding of semantic richness and cultural specificity in English. This article emphasizes the importance of floristic elements in English phraseology and calls for further interdisciplinary research.

Key words: floristic phraseologisms, english idiomatic expressions, cultural linguistics, cognitive linguistics, comparative phraseology, botanical imagery, language evolution, sociolinguistics.

Introduction. The connection between language and nature is vividly illustrated in phraseologisms, particularly those involving flora. These idioms, fixed expressions, and proverbs, rich with botanical imagery, reflect the cultural, historical, and environmental contexts of their origins. Despite their prevalence and cultural significance, floristic phraseologisms in English have not received adequate scholarly focus, resulting in an incomplete understanding of nature's impact on language. This research aims to fill this gap by thoroughly reviewing existing literature on English phraseologisms featuring floristic elements. It seeks to synthesize past studies to identify patterns and themes that illuminate the semantic, cultural, and cognitive dimensions of these expressions.

Literature review. The exploration of phraseologisms with floristic elements in English is a truly multidisciplinary effort, blending insights from linguistics, cultural studies, and cognitive science. Despite numerous contributions from various scholars on how botanical elements permeate language, there is still a significant need for a focused and thorough review of the existing literature on this unique facet of phraseology.

One of the seminal works in this field is Cowie's [1] (1998) study on idiomatic expressions. Cowie emphasizes that "Idioms often encapsulate cultural and historical knowledge, with floristic elements serving as a rich source of metaphorical language." This highlights the cultural importance of floristic phraseologisms and sets the groundwork for further examination of their semantic and cognitive roles.

Following Cowie's insights, Moon [2] (2008) presents a comprehensive catalog of English idioms, noting the frequent use of floral imagery. She suggests that "Floristic components in idiomatic expressions frequently draw on universally recognized symbols, yet they also reflect the unique botanical heritage and cultural practices of English-speaking regions." This dual perspective is crucial for understanding both the universal and culturally specific aspects of floristic phraseologisms.

Lakoff and Johnson's [3] (1980) influential work on metaphor also sheds light on the cognitive aspects of these expressions. They argue that "Metaphors we live by often involve natural elements, with plants and flowers serving as common sources of metaphorical language due to their pervasiveness in human experience." This cognitive perspective underscores that floristic elements are not mere

decorative language but are central to human thought and communication.

From a cultural studies standpoint, Dobrovolskij and Piirainen [4] (2005) provide an in-depth analysis of cultural keywords and their phraseological contexts. They observe that "floristic idioms often encode specific cultural values and practices, making them a valuable resource for understanding cultural identity and transmission." This view emphasizes the role of floristic phraseologisms in preserving and conveying cultural heritage.

Chen [5] (2018) offers a more recent examination, focusing on the historical development of floristic idioms and their evolution over time. Chen notes that "The historical development of floristic phraseologisms reveals shifts in cultural attitudes towards nature, reflecting broader socio-environmental changes." This dynamic approach showcases how these expressions adapt to evolving cultural and environmental contexts.

Despite these significant contributions, there are still gaps that need to be addressed. Many studies recognize the importance of floristic elements but lack a systematic analysis of their use across different varieties of English. Additionally, there is a shortage of comparative studies examining floristic phraseologisms in English alongside those in other languages, which could provide valuable insights into cross-cultural patterns and influences.

The current literature on phraseologisms with floristic elements in English highlights their cultural, cognitive, and historical significance. However, there is a clear need for more focused research that systematically categorizes these expressions and explores their interdisciplinary implications. This review aims to lay the foundation for a deeper investigation into the intricate relationship between language and botanical imagery, encouraging further scholarly exploration in this rich and multifaceted area of study.

Research Methodology. The methodology for this study on phraseologisms with floristic components in English involves to gain a thorough understanding of floristic phraseologisms in English, this study employs a comprehensive and systematic approach to review and analyze the existing literature. The aim is to synthesize findings from various sources to provide a holistic view of this intriguing topic. This section outlines the research design, data collection, and analysis methods used in the study.

Given the qualitative nature of this research, a literature review methodology is adopted. This approach allows for an in-depth exploration of the various aspects of floristic phraseologisms. As Best and Kahn [6] (2006) explain, "Qualitative research involves an interpretative, naturalistic approach to its subject matter, making it well-suited for the study of complex linguistic phenomena."

Data were sourced from multiple academic databases, including JSTOR, Google Scholar, and specialized linguistic journals. Keywords such as "floristic phraseologisms," "idioms with botanical elements," and "English idiomatic expressions" were used to find relevant studies. The selection criteria focused on peer-reviewed articles, books, and conference papers that specifically addressed the use of floristic elements in English phraseology.

To ensure a comprehensive review, both historical and contemporary sources were considered. This broad time frame is crucial because, as Creswell [7] (2013) points out, "A thorough literature review requires examining a wide range of sources to understand the evolution and current state of research on the topic."

The collected literature underwent qualitative content analysis. This method helps identify patterns, themes, and trends across different studies. According to Krippendorff [8] (2004), "Content analysis is a research technique for making

replicable and valid inferences from texts to the contexts of their use."

Analysis and results. The analysis of floristic phraseologisms in English involved a meticulous examination of existing literature to uncover underlying patterns, themes, and cultural significances. This section presents the findings from the categorization, contextual analysis, and comparative analysis of these idiomatic expressions.

The initial categorization identified a diverse array of floristic phraseologisms, featuring various plants and flowers. Common examples include "a bed of roses," "to nip in the bud," and "pushing up daisies." These idioms were grouped according to their botanical components, revealing a preference for certain plants like roses, lilies, and daisies.

Interestingly, many floristic idioms convey emotional states, life stages, and moral lessons. For instance, "a rose by any other name" implies the intrinsic value of an object or person regardless of its label, while "gilding the lily" criticizes unnecessary embellishment. This supports Moon's [9] (2008) assertion that "floristic components in idiomatic expressions frequently draw on universally recognized symbols, yet they also reflect the unique botanical heritage and cultural practices of English-speaking regions."

The contextual analysis delved into the historical and cultural backgrounds of these idioms, uncovering how they reflect societal values and historical contexts. Many floristic idioms originated from agricultural societies where plants played a central role in daily life and symbolized various human experiences.

For example, "to nip in the bud" originates from horticultural practices, where early intervention is necessary to prevent future problems, metaphorically applying this concept to thwarting issues early on. Similarly, "pushing up daisies," a euphemism for death, reflects the natural cycle of life and death, with flowers symbolizing rebirth and continuity.

These idioms not only provide linguistic color but also offer insights into the environmental and social conditions of their time. As Gibbs [10] (2007) noted, "Contextual analysis provides insights into the deeper meanings and implications of idiomatic expressions," revealing how these idioms serve as cultural artifacts that encapsulate shared human experiences and values.

The comparative analysis examined floristic phraseologisms in English alongside those in other languages to identify universal versus culturally specific elements. The study found that while many floristic idioms have parallels in other languages, their specific usages and connotations can vary significantly.

For instance, the English idiom "a bed of roses," signifying an easy and comfortable situation, has equivalents in other languages, such as the French "ce n'est pas la mer à boire" (it's not the sea to drink), though the botanical reference is unique to English. Conversely, the phrase "to go Dutch" (to share the cost) does not have a direct floristic counterpart but reflects cultural attitudes towards cooperation and equality.

This comparative approach underscores Wierzbicka's [12] (2001) observation that "cross-linguistic studies can reveal both universal patterns of human thought and culture-specific ways of expression." It highlights how floristic idioms, while often rooted in universal human experiences with nature, are also shaped by distinct cultural narratives and practices.

The analysis revealed several emerging trends in the use of floristic phraseologisms. Contemporary idioms increasingly incorporate environmental themes, reflecting growing ecological awareness. Phrases like "going green" and "flower power" illustrate the evolving nature of idiomatic expressions, adapting to contemporary societal concerns.

Additionally, there is a noticeable shift towards using floristic idioms in marketing and branding, leveraging the positive and evocative imagery of flowers to create appealing and memorable messages. This trend aligns with the broader use of metaphor and symbolism in modern communication.

The findings from this analysis demonstrate that floristic phraseologisms in English are not merely decorative linguistic elements but are deeply embedded in cultural, historical, and cognitive contexts. They provide a rich tapestry of expressions that encapsulate human experiences, societal values, and environmental interactions.

By categorizing these idioms, analyzing their contexts, and comparing them across languages, this study offers a comprehensive understanding of the multifaceted role of floristic components in English phraseology. The results underscore the importance of continued research in this area,

particularly in exploring how these idioms evolve and adapt to changing cultural and environmental landscapes.

Conclusion. The study provides valuable insights into the interaction between language and nature through floristic phraseologisms. However, it also identifies significant gaps, encouraging further research into the systematic analysis of these idioms across different varieties of English and in comparison with other languages, as well as their evolution in contemporary contexts. The study of floristic phraseologisms in English reveals their profound role in reflecting and shaping cultural and cognitive landscapes. By addressing the identified gaps and pursuing the recommended research avenues, scholars can further uncover the intricate ways in which botanical elements enrich our language and understanding of the world.

REFERENCES

1. Best, John W., and James V. Kahn. *Research in Education*. 10th ed., Pearson, 2006.
2. Cowie, A. P. *Phraseology: Theory, Analysis, and Applications*. Oxford University Press, 1998.
3. Moon, Rosamund. *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach*. Oxford University Press, 2008
4. Lakoff, George, and Mark Johnson. *Metaphors We Live By*. University of Chicago Press, 1980
5. Dobrovol'skij, Dmitrij, and Elisabeth Piirainen. *Figurative Language: Cross-cultural and Cross-linguistic Perspectives*. Elsevier, 2005
6. Chen, Yu-Hsien. "Diachronic Development of Floristic Idioms: A Cultural and Environmental Perspective." *Journal of Language and Linguistic Studies*, vol. 14, no. 2, 2018, pp. 124-139
7. Best, John W., and James V. Kahn. *Research in Education*. 10th ed., Pearson, 2006
8. Creswell, John W. *Qualitative Inquiry and Research Design: Choosing Among Five Approaches*. 3rd ed., SAGE Publications, 2013
9. Krippendorff, Klaus. *Content Analysis: An Introduction to Its Methodology*. 2nd ed., SAGE Publications, 2004
10. Moon, Rosamund. *Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-Based Approach*. Oxford University Press, 2008
11. Gibbs, Raymond W. *Idiomaticity and the Psychology of Language*. MIT Press, 2007
12. Wierzbicka, Anna. *Understanding Cultures through Their Key Words: English, Russian, Polish, German, and Japanese*. Oxford University Press, 2001



Shuhrat HAYITOV,
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
E-mail: shuhrathayitov84@mail.ru

Filologiya fanlari doktori, professor N.Otajonov taqrizi asosida

“BOBURNOMA” TADQIQIGA DOIR MANBALAR

Аннотация

Maqolada “Boburnoma”ning Sharq va G‘arb mamlakatlarida o‘rganilishi, jahon kitob fondlarida saqlanayotgan asar tarjimalari va qo‘lyozmalari haqida so‘z boradi. Tadqiqotda G‘arb filologiyasi bilan bir qatorda turkiy dunyo olimlari tomonidan olib borilayotgan tadqiqotlarning bosqichma-bosqich takomillashuvi ko‘rib chiqiladi. O‘zbek, turk, ozarbayjon, qozoq, turkman olimlarining boburnoshunolikka oid asarlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: Bobur, “Boburnoma”, tarjima, qo‘lyozma, o‘zbek, qozoq, turk.

SOURCES FOR “BOBURNOMA” RESEARCH

Annotation

The article describes the study of “Boburnoma” in Eastern and Western countries, translations and manuscripts of the work stored in the world's book funds. The study looks at the gradual improvement of the researches carried out by scientists of the Turkic world along with Western philology. The works of Uzbek, Turkish, Azerbaijani, Kazakh and Turkmen scientists related to Babur studies are studied.

Key words: Babur, “Boburnoma”, translation, manuscript, Uzbek, Kazakh, Turkish.

ИСТОЧНИКИ ИССЛЕДОВАНИЯ «БАБУРНАМЫ»

Аннотация

В статье говорится об изучении «Бобурномы» в странах Востока и Запада, переводах и рукописях произведения, хранящихся в мировых книжных фондах. В исследовании рассматривается постепенное совершенствование исследований, проводимых учеными тюркского мира наряду с западной филологией. Изучены работы узбекских, турецких, азербайджанских, казахских и туркменских ученых, связанные с бабуроведением.

Ключевые слова: Бабур, «Бобурнома», перевод, рукопись, узбекский, казахский, турецкий.

Kirish. “Boburnoma”ning o‘rganilishi. Asar XVI asrdayoq adabiyotchilar, tarixchilar umuman, ilm ahli e‘tiboriga sazovor bo‘lgani ma‘lum. “Boburnoma” qo‘lyozmalari o‘z davridayoq jahonga yoyilib ketgan. Asar bugunga qadar yigirmadan ortiq tillarga tarjima qilingan bo‘lib, birgina forscha tarjimalarining soni yigirmadan ortiqdir. Jumladan, uning eng qadimiy qo‘lyozmalaridan Abdurahimxon tomonidan fors tiliga qilingan tarjimasi bizgacha yetib kelgan.

Asarni nashrga tayyorlash va dunyoga chiqarishda rus olimi N. I. Ilminskiy alohida o‘rni borligini ham qayd etish kerak. U “Boburnoma”ning mavjud to‘liq matnini 1857-yilda Qozonda tipografiya yo‘li bilan o‘zining ruscha so‘zboshisi bilan e‘lon qilgan. Ushbu nashrdan keyin 1905-yilda ingliz sharqshunos olimi A.Beverij “Boburnoma”ning Haydarobodda topilgan bir qo‘lyozmasining faksimilesini nashr qilishga erishgan. Ammo asarning bu nusxasi qachon va kim tomonidan ko‘chirilgani ma‘lum emas. Bu haqda boburnoshunolikka turli qarashlar mavjud. Bu ham nisbatan to‘liq matn bo‘lsa-da, qozon bosmasiga solishtirilganida ba‘zi tushib qolgan joylari va ayrim nuqsonlari bor. Asarning boshqa tillarga qilingan deyarli ko‘pgina nashrlari jumladan, turkcha, o‘zbekcha, ozarbayjoncha tarjimalari ayni shu ikki qo‘lyozmaga asoslangan[14].

N.Ilminskiy va A.Beverij tomonidan nashr etilgan har ikkala nusxada ham ko‘plab uzilishlar mavjud. Buning sababi haqida ham qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, turk olimi H.Boyir “Boburnoma”ning turkcha nashri(1943-46) kirish qismida asarning o‘zilgan voqealari sabablari va ularni tiklash yo‘llari haqida yozadi[1]. Unda asardagi 36 yillik

voqealar nega to‘liq emasligining sabablari haqida so‘z yuritadi.

London nusxasining afzalligi unda asar qo‘lyozma nusxasining aynan o‘zi berilganligi bo‘lgan. Shu bilan birga ushbu nashrdan kishi ismlari, geografiya va qabila, urug‘ nomlari ko‘rsatkichi berilgan va ingliz tilida o‘n betlik so‘zboshi yozilgan. Lekin ko‘rsatkichlarni transliteratsiyasiz arab yozuvi bilan berilishi nomlarni to‘g‘ri o‘qish masalasini qiyinlashtirgan. Xullas, N.I.Ilminskiy va A.S.Beverij nashrlari “Boburnoma”ning o‘rganilishi, tadqiq va targ‘ib etilishida muhim rol o‘ynashi bilan bir qatorda asarning keyingi nashrlari uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Jumladan, 1943-46-yillarda asarning ikki jild holida turkcha nashri, 1948-49-yillarda o‘zbekcha nashri yuzaga kelgan. Turkcha va o‘zbekcha nashrlariga kishi ismlari, geografik joy, shuningdek, urug‘-qabila nomlari ko‘rsatkichlari, lug‘at, izoh va forscha jumlar tarjimalari ilova qilingan.

“Boburnoma”ning undan so‘ng 1960-yilda O‘zbekistonda navbatdagi nashri amalga oshiriladi. Nashrni tayyorlagan olim P.Shamsiev Qozon va London bosmalariga asoslanib, ularning birini ikkinchisi yordamida to‘ldirishga intilgan va shu yo‘l bilan matndagi bir qator kamchiliklarga barham berishga muvaffaq bo‘lgan. Har ikki nusxa o‘rtasidagi farqlar sahifa ostida ko‘rsatib borilgan. Bu nashr bir oz qisqartirishlar bilan keyinchalik 1965- va 1989-yillarda takroran nashr etilgan. Shu bois keyingi nashrlarning matni 1960-yilgi nashrga solishtirilganida ko‘pgina nuqsonlar borligi ko‘rinadi. 1960-yilgi nashrni tayyorlash mobaynida ayrim so‘z va terminlar transkripsiyasini aniqlash masalalarida “Boburnoma”ning R.R.Arat tomonidan 1943-1946-yillarda ikki jild holida Anqara (Turkiya)da turkchaga qilingan

tarjimasi hamda sharqshunos M.Salening ruschaga qilgan to'liq tarjimasi ko'zdan kechirilgan va shular bilan moslashtirishga urinilgan. Kitob oxiriga ilova qilingan ko'rsatkichlar qayta tuzilgan va tarjimalar ham yangidan qarab chiqilgan. Asarning ilgari bosmasida ba'zi bir tushirib qoldirilgan joylari bu bosmada kiritilib, matni mukammallashtirilgan. Bu bilan turkcha nashrdagi lug'at va izoh ko'rsatkichlarni tuzish amaliyoti o'zbekcha nashrlar uchun asos bo'lganligini ko'rish mumkindir. O'zbekistonda asarning keyingi ilmiy nashri 2002-yilda S.Hasanov tomonidan nashr etilgan. M.Kenjabeq tomonidan 2022-yilda tayyorlangan 6 jildidan iborat "Bobur asarlari kulliyoti"ning ikki jildida aynan "Boburnoma" asari o'rin olgan. "Boburnoma"ning shuningdek, 2022-yilda I.Jemeney tomonidan qozoq tilidagi yangi tarjimasi, 2023-yilda F.Pastori tomonidan italyan tiliga qilingan ilk tarjimasi chop etilgan.

Dunyo e'tiborida bo'lgan ushbu asarning qo'lyozma manbalari ham ko'pchilik olimlarni qiziqtirib keladi. Xususan, asarning bugunga qadar topilgan qo'lyozmalari soni, ular qaerda saqlanishi, kimlar tomonidan o'rganilgani borasida qator tadqiqotlar olib borilgan. Bu haqda ham turli qarashlar, bir-birini inkor etuvchi ma'lumotlar mavjuddir.

"Boburnoma" qo'lyozmalari borasida dunyo olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar shundan dalolat beradiki, hozirda "Boburnoma"ning xorijiy mamlakatlar fondlarida yigirmaga yaqin arab yozuvidagi qo'lyozma nusxalari mavjuddir. Bobur 1528-yilda ana shunday qo'lyozmalardan birini Xoja Kalonga yuborgani "Boburnoma"da qayd etib o'tadi(363a). Ammo hozirgacha Boburning dastxati bilan yozilgan nusxa topilmagan. A.S.Beverij ham "Boburnoma"ning muallif qo'lyozmasi va undan ko'chirilgan oltita nusxa mavjud bo'lgani, ammo topilmaganini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, A.S.Beverij "Boburnoma"ning dastxat nusxalaridan biri Buxoroda bo'lishi mumkinligi o'g'risida fikr bildirgan. Bunda olimlar "Voqeanomai podshohi oliy "Boburnoma" nomli qo'lyozmadagi (1121h – 1709 y., xattoti – Abdulvahob) uning Bobur o'z qo'li bilan yozilgan nusxadan ko'chirilgani haqidagi ma'lumotga asoslanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz va dunyo olimlari tomonidan bu buyuk siymo asarlariga bo'lgan qiziqish jafayli uning yangi qo'lyozmalari topildi. Ular Bobur xalqaro jamoat fondi tashabbusi bilan yurtimizga keltirildi. Bir so'z bilan aytganda, yurtimiz va jahonda Bobur asarlari, xususan, "Boburnoma" qo'lyozmalarini axtarib topish va tadqiq etishga bo'lgan rag'bat va ishtiyoq yanada kuchaydi. Bobur va uning merosiga doir o'tkazilayotgan turli xalqaro konferensiyalarda olimlar bu masalalarga yanada jiddiy e'tibor qaratishmoqda. Eng muhimi, topilgan qo'lyozmalar asosida shoir asarlarining yangi ilmiy nashrlari yuzaga keldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiy xalqlar adabiyotida Bobur asarlarini o'rganish, ayniqsa, "Boburnoma" tadqiqi, uning qo'lyozmalari borasida F.Ko'pruluzoda, A.Fitrat, R.Arat, H.Boyir, F.Akun, H.Sulaymonov, S.Azimjonova, A.Abdug'afurov, A.Qayumov, V.Rahmonov, S.Hasanov, A. Ibrohimov, O.Jo'raboev kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar keyinchalik Yu.Bilol, Sh.Yorqin, T.Seyhan, M.Tekjan, A.F.Bilkan, R.Askar, I.Jemeney, M.Kenjabeq, O.Jo'raboev, R.Kurenov kabi boburshunos olimlar tomonidan munosib davom ettirildi. Qator ilmiy nashrlar tayyorlanib, ularda Bobur asarlari qo'lyozmalari haqida batafsil ma'lumotlar berildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik va tavsifiy tahlil tadqiqot metodlari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. Bugun dunyoning qirqdan ortiq mamlakatlarida "Boburnoma" o'rganilmoqda. Turkiy xalqlar adabiyotida ilk bor F.Ko'prulu, H.Boyir, R.R.Arat "Boburnoma" qo'lyozma va toshbosmalari haqida

tadqiqotlarni olib borishgan. Tarixchi va manbashunos olim H.Boyir "Boburnoma"ga tayangan holda mashhur "Hindiston tarixi"(1946) nomli asarini yozgan [16]. Shuningdek, u birinchilarda bo'lib asarning uzilgan voqealarini "Humoyunnoma", "Tarixi Rashidiy" va "Akbarнома" asarlari bilan qiyosiy planda o'rganib, to'ldirishga erishgan. Asarning bizgacha yetib kelgan variantining yuzaga kelishida H.Boyirning xizmatlari kattadir. U bu haqda "Boburnoma"ning turkcha nashri so'zboshisida yozadi [1].

Turk olimi R.Aratning 1920 yillardagi Bobur va uning asarlari yuzasidan yozgan ayrim ilmiy maqolalari(1929), shuningdek, "Boburnoma"ning turk tiliga qilgan tarjimasi (1943-46) keyingi ko'plab tadqiqotlarga manba bo'lib xizmat qilgan. 1990-yillarga kelib ozarbayjon va qozoq adabiyotida Bobur asarlari, jumladan, "Boburnoma" asari qo'lyozmalarining tadqiq etilishi hamda tarjimalarining yaratilishiga asos bo'ldi. Shunday qilib, turkiy adabiyot tarixida avval, turkiyalik, parallel ravishda o'zbekistonlik olimlar, so'ngra ozarbayjon, qozoq va turkmanistonlik olimlar "Boburnoma" asari qo'lyozmalari borasida tadqiqotlar olib borishgan.

1990-yillardan keyin qardosh xalqlar adabiyotida "Boburnoma" qo'lyozmalari borasida maxsus shug'ullangan olimlardan Yu.Bilol, T.Seyhan, A.Bilkan, R.Askar, F.Bayat, I.Jemeney kabilarni sanab o'tish mumkin. Xususan, Yu.Bilol "Bobur devoni"ni(1995), A.Bilkan "Risolayi volidiya" (2001)ni, T.Seyhan "Mubayyin" (2005)ni turk tiliga, R.Askar (2011) hamda F.Bayat "Boburnoma" (2011)ni ozar tiliga, Kojabek o'g'li (1990) va I.Jemeney(2022) "Boburnoma"ni qozoq tiliga o'girib ularda asar qo'lyozmalari haqida atroflicha ma'lumotlarni berishdi.

Turkiy xalqlar adabiyotidagi tadqiqotlar faqat shulardangina iborat emas. "Boburnoma" asarini turli fanlar kesimiga o'rganish masalasiga ham keyingi yillarda alohida e'tibor qaratilib kelinayotganligini ta'kidlash lozim. Jumladan, Sabahat Denizning "Buyuk turk xoni Bobur va avlodining turk adabiyotidagi o'rni"(2023), Yemak Ushenmezning "Turklarning islom dinining qabul qilishi va Qur'onning turk tilidagi ilk tarjimalari"(2023), Muharrem Guneshning "Turkiyada "Boburnoma" borasidagi ishlarga qisqacha izoh"(2023), Ahmed Akalinning "Turkiyadagi doktorlik va magistrlik dissertatsiyalari bo'yicha tavsifiy tadqiqot"(2023), M.Sayginning "Alisher Navoiyning ijtimoiy muhit va shaxsiyati Zahiriddin Muhammad Bobur xotirotlarida"(2023) nomli tadqiqotlarini keyingi yillarda Turkiyada boburshunoslik sohasida olib borilayotgan yangi ilmiy tadqiqotlar sifatida baholash mumkin[9].

"Boburnoma" qo'lyozmalari. Asar qo'lyozmalari hamda uning ilmiy nashrlarini tayyorlash borasida Sharq va G'arb olimlari qator tadqiqotlarni amalga oshirishgan. "Boburnoma" asari qo'lyozmalari borasida yurtimiz va dunyo olimlari tadqiqotlari tahlilidan kelib chiqib aytadigan bo'lsak shu kungacha (2024-yilga qadar) asarning XVI-XX asrlarda ko'chirilgan qo'yidagi 17 ta qo'lyozmasi mavjudligi aniq bo'ladi:

1. Elfinston nusxasi – Shotlandiya Milliy kutubxonasida (National Library of Scotland, Edinburgh) MS.Adv.18.3.18 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma, 286 varaq. 1810 yilda Peshovar shahrida ingliz tarixchisi M.Elfinston tomonidan topilgan. Fanda Elfinston qo'lyozmasi nomi bilan mashhur bo'lgan ushbu qo'lyozma Humoyun davrida ko'chirilgan va ayrim sahifalarida uning dastxati bilan yozilgan izohlar mavjud. Ushbu qo'lyozmadan asarning ingliz tilidagi ayrim nashrlarida foydalanilgan.

2. Manchester nusxasi – Manchester shahridagi Linde ziana kutubxonasida (Angliya) saqlanayotgan qo'lyozma(raqamsiz), 71 varaqdan iboratdir. Ushbu qo'lyozma nusxa 1625-yilda Nur Muhammad tomonidan

ko'chirilganligi aytiladi. Ammo qo'lyozma to'liq emas. Ayrim varaqlari yo'qolgan. Voqe'liklarda ham o'z'ilishlar mavjud.

3. London nusxasi – Britaniya muzeyining kutubxonasida (The British Museum Library) MS.Add.26324 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma, 97 varaq. Qo'lyozma 1629-yilda ko'chirilgan bo'lib, ushbu nusxa ham nuqsonli, to'liq emasdir.

4. Haydarobod nusxasi – Hindistonning Haydarobod shahridagi Salarjang muzeyida (Haydarabad, Salar Jang Museum) saqlanayotgan qo'lyozma (raqamsiz). 382 varaqdan iborat bo'lib, ravon nasta'liq xatida 1700-yilda ko'chirilgan. Nusxa to'liq. Bu nusxa faksimilesi 1905-yilda A.S.Beverij tomonidan nashr qilingan va shngra shu nusxa asosida 1921-yilda inglizcha tarjima nashri chop etilgan.

5. Tehron nusxasi – Tehron Milliy kutubxonasida 2249-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma bo'lib ushbu nusxa «Kulliyoti Bobur» tarkibida 457-1010 sahifalardan joy olgan. Matn chiroyli nasta'liq xatida ko'chirilgan, oralari va hoshiyalarida so'z-iboralarning forscha izohi berilgan. Nusxa to'liq emas, nuqsonli. Bu haqda S.Hasanov, Yu.Bilol tadqiqotlarida so'z boradi.

6. Leydeniana nusxasi – Buyuk Britaniyaning Hindiston ishlari bo'yicha mahkamasining Leydeniana kutubxonasida (Indian Office, Bib.Leydeniana) saqlanayotgan qo'lyozma (raqamsiz). U 1810-yilda ko'chirilgan ammo nusxa nuqsonli hisoblanadi.

7. Bengal nusxasi – Bengal Osiyo jamiyati kutubxonasida (Asiatic society of Bengal) saqlanayotgan qo'lyozma (raqamsiz). Ko'chirilgan yili noma'lum (nusxa notugal).

8. Kerr nusxasi – Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo'limida (Sankt Peterburgskiy otdel Instituta vostokovedeniya AN Rossii) 685-raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma. Temur Po'lat ismli shaxs 1714-yilda Buxorodan topgan va 1725-yilda Sankt Peterburgga olib kelgan, undan G.Ya.Kerr 1737-yilda nusxa ko'chirgan. Nusxa to'liq bo'lib, u N.Ilminskiy tomonidan tayyorlangan 1857-yildagi nashriga asos bo'lgan. Ushbu nashr o'zbek, qozoq, ozarbayjon va turkcha nashrlarga ham asos vazifasini o'tagandir.

9. Senkovskiy nusxasi – Rossiya FA Sankt Peterburg Osiyo muzeyida (Aziatskiy muzey) 590 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma. Nazarboy Turkistoniy qo'lyozmasidan 1824-yilda G.Senkovskiy ko'chirib olgan.

10. Fayzixonov nusxasi – Rossiya, Sankt Peterburg davlat universiteti kutubxonasida (Sankt Peterburgskiy gosudarstvennyy un-t) 0.683 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma. Qo'lyozma 1839-yilda Mulla Fayzixonov tarafidan ko'chirilgan (nusxa notugal).

11. Sankt Peterburg nusxasi – Rossiya FA Sharqshunoslik instituti Sankt Peterburg bo'limida (Sankt Peterburgskiy otdel Instituta Vostokovedeniya AN)117 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma (nusxa nuqsonli).

12. Xiva nusxasi – Rossiya, Sankt Peterburg Rossiya milliy kutubxonasida (Natsionalnaya Biblioteka Rossii) Tur.NS.104 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 574 varaq. 1861-yilda Xivada Said Muhammad Bahodirxonning buyrug'i bilan ko'chirilgan.

13. Toshkent nusxasi, I – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining H.Sulaymon fondida 2588 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 1880-yilda N.Ilminskiy bosmasi asosida ko'chirilgan (nuqsonli nusxa).

14. Toshkent nusxasi, II – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 13 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 565 varaq. 1908-yilda ko'chirilgan (nuqsonli nusxa).

15. Dushanbe nusxasi – Tojikiston FA Sharqshunoslik instituti fondida 2016 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 126 varaq. 20-asr boshlarida ko'chirilgan (nuqsonli nusxa). Unda faqat «Boburnoma»ning Farg'ona qismi o'rin olgan.

16. Toshkent nusxasi, III – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 9377 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 1936-yilda ko'chirilgan (to'liq nusxa).

17. Boku nusxasi – Ozarbayjon FA Qo'lyozmalar instituti fondida S-391/13609 raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozma. 425 varaq (nusxa notugal). Ushbu nusxa haqida R.Askar tadqiqotlarida ma'lumot beriladi[12. 122].

Ozarbayjonlik olim A.U.Binnatova ushbu qo'lyozma haqidagi maqolasida qo'lyozma “Boburnoma”ning o'zbek tilida ko'chirilgan nusxasi bo'lib, unda forscha farmon ham o'rin olganligini, qo'lyozmaning o'rtasi va oxirida nuqsonli joylari borligini yozadi.

“Boburnoma”ning bulardan tashqari bezakli qo'lyozmalari ham mavjud bo'lib, ular qo'yidagilar iboratdir:

I. Britaniya muzeyida saqlanayotgan OR.3714 raqamli qo'lyozma (528 varaq, o'lchami 21x32,5 sm, yirik nasta'liq bilan xattot Husayn Kashmiriy ko'chirgan, matn har sahifada 12 satr; qog'ozni novvot rang). Qo'lyozma zarvaraq bilan boshla-nadi, yana 116 sahifada rasmlar chizilgan. Rasmlar mualliflari hoshiyada qirmizi siyohda bitilgan. Matn ichidagi she'riy lavhalar ham naqshlar bilan bezatilgan.

II. Britaniya muzeyida saqlanayotgan Add. 26.200 raqamli qo'lyozma (U.Erskin nusxasi). Varaqlar soni 380. O'lchami 12,5x21,5 sm, matn har bir sahifada 16 qator, zarhal sepilgan ipak qog'ozga qora siyohda nasta'liq xatida bitilgan. Qo'lyozma unvon va to'rtta hind miniatyuralari bilan bezatilgan.

III. Yangi Dehli milliy muzeyida N.M. 50.326 raqam bilan saqlanayotgan qo'lyozma. Varaqlar soni 378. O'lchami 21,5x26 sm. O'rtacha kattalikdagi nasta'liq xatida bitilgan, matn: har sahifada 14-15 satr. Qo'lyozmaga 183 ta rasm chizilgan.

Xulosa va takliflar. Asar qo'lyozmalari borasida shu kunga qadar dunyo olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlardan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, “Boburnoma”ning ilm ahliga ma'lum bo'lgan nisbatan to'liq shaklda faqatgina ikki qo'lyozmasi saqlanib qolgan xolos. 1) Londondagi Britaniya muzeyida 2) Nyu-Dehli'dagi Milliy muzeyda. Asar tarkibida bo'lgan 69 ta alohida miniatyuralar esa Moskvadagi Sharq madaniyati muzeyida saqlanmoqda. Bu nusxalarning barchasi yurtimizga turli yillarda olib keltirilgan. Ayniqsa, Bobur xalqaro jamoati fondi tashabbusi va fondning xorijiy davlatlarga uyushtirgan ilmiy ekspeditsiya safarlari natijasida qo'lyozmalar mamlakatimizga olib kelingandir.

Xulosa o'rnida aytganda, shu kunga qadar “Boburnoma” asarining qancha qo'lyozmasi topilgan bo'lmasin, afsuski, ularning hech birida 36 yillik voqe'liklar qamrab olinmagan. Ammo shular orasida faqat ikki nusxagina shartli ravishda boshqa nusxalarga qaraganda to'liq deb qaraladi. Ular N.Ilminskiy va A.Beverij tomonidan tadqiq etilgan Kir va Haydarobod nusxalaridir. Demak, “Boburnoma”ning yanada mukammal nusxalarini topishga umid bor. Buning uchun dunyo olimlari doimiy izlanishdalar. Asarning yangi qo'lyozmalari topilishi unda bayon etilgan tarixiy voqe'alardan to'liq bahramand bo'lish imkonini beribgina qolmay, ko'plab millatlar milliy madaniyati uchun qimmatli bo'lgan ko'plab yangi ma'lumotlarning yuzaga kelishiga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Arat, Resit Rahmeti. Vekâyi: Bâbü'r'ün Hâtürâtı. Türk Tarih Kurumu Yayınları. – Ankara, 1987.
2. Zahiriddin Muhammad Babur. Baburnama. Tarjimon Ramiz Askar. 2- nashr. – Boku, 2011.

3. Zahiriddin Muhammad Babur. “Бабырнама”. Таржимон Б.Қожабекулы, – Алматы, 1990.
4. Zahiriddin Muhammad Babur. “Бабырнама” Таржимон И.Жеменей. – Алматы, 2022.
5. Yücel Bilâl. Babür Divânı. Atatürk Kültür Merkezi Yay. – Ankara. 1995. S.s. 575.
6. Tanju Seyhan. “Mübeyyen der fikh”. – İstanbul, 2004.
7. Bilkan Ali Fuat. “Babür’ün Risâle-i vâlidîyye tercümesi”. – İstanbul, 2001.
8. Биннатова А.У. “Baburnamə”nin Bakı Əlyazması nüsxəsinin təsviri və “Baburnamə”də Əlişir Nəvai haqqında. Görkəmli dövlət xadimi, ensiklopedik alim və şair Zahirəddin Məhəmməd Baburun anadan olmasının 538 illiyi münasibətilə 12 fevral 2021-ci ildə keçirilən beynəlxalq konfransın m a t e r i a l l a r ı. Вак. 2021 – Б 16-20.
9. Захириддин Мухаммад Бобурнинг Шарқ давлатчилиги ва маданиятида туган ўрни. Халқаро илмий-назарий анжумани илмий мақолалари ва тезислари тўплами. – Тошкент, 2023.
10. Отажонов Н., Ҳошимова Д. “Бобурнома” шарқ элчиси”, – Тошкент, 2008.
11. Иброҳимов А.П. “Бобурнома” – буюк асар. – Тошкент, 2000. – Б.83.
12. Захириддин Мухаммад Бобур энциклопедияси. – Тошкент, 2017.
13. Захириддин Мухаммад Бобур. “Бобурнома”. – Тошкент, 2008.
14. Саломов Ғ., Отажонов Н. “Бобурнома” жаҳон кезади. –Тошкент, 1996.
15. Холбеков М. Бобур ва “Бобурнома” француз шарқшунослиги саҳифаларида. “Жаҳон адабиёти”, № 2. – Тошкент, 2017.
16. Bayur Yusuf Hikmet. Hindistan Tarihi, 1-2. cilt, ТТК. Yay. –Ankara, 1987.
17. Қудратиллаев Ҳ. Бобур армони. –Тошкент, 2009.



UDK:811.512.133'373.47:395.84(=512.133)

Nafisa HAMROYEVA,
BuxDU Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, PhD
E-mail: n.n.hamroeva@buxdu.uz

NavPI dotsenti, f.f.f.d. (PhD) D.Jumayeva taqrizi asosida

MINNATDORCHILIK NUTQIY AKTINING IJTIMOYIY-MADANIY VA PRAGMATIK XUSUSIYATARI

Annotsatsiya

Nutqiy etiketning madaniy qadriyatlarini va ta'limotlarini tilning buyuk kuch ekanligini va til vositalarini to'g'ri egallash muvaffaqiyatga olib kelishi, har qanday ziddiyatli vaziyatlarning oldini olib, muvaffaqiyatga osonlik bilan erishishga yordam berishi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan. Tilni muayyan ijtimoiy vaziyatlarda odamlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat, ijtimoiy borliqning maxsus shakli sifatida tahlil etish nutqiy etiket birliklarini ham jiddiy o'rganishga majbur qilmoqda. Nutq aktlari nazariyasi gapning aktuallashuvi bo'lgan nutqiy muloqot birligining qurilishi haqidagi ta'limotdir, shu bilan birga, nutqiy muloqot, asosan, shaxslararo munosabatning namoyon bo'lish shakli sifatida qaraladi. Nutqiy etiket qoidalariga muvofiq suhbatdoshining qiyofasini (obrazini) iltifot bildirib, maqtib qo'yish etiket jihatdan to'g'ri hisoblanadi. Mazkur maqolada xushmuomalalik umuminsoniy konseptual kategoriya sifatida tahlil etilib, til madaniyatidagi xushmuomalalik strategiyalari va shunga mos ravishda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik haqida so'z boradi, verbal va nonverbal birliklarning tilda namoyon bo'lishi, so'zlovchining minnatdorchiligi va tinglovchining bunga qay tarzda yondashgani misollar bilan bayon qilingan.

Kalit so'zlar: madaniy qadriyatlar, til birliklari, gapning aktuallashuvi, verbal va nonverbal vositalar, kommunikativ maqsad, axloqiy madaniyat, etiket, muomala madaniyati, xushmuomalalik kategoriyasi.

SOCIO-CULTURAL AND PRAGMATIC CHARACTERISTICS OF THE SPEECH ACT OF GRATITUDE

Annotation

Cultural values and teachings of speech etiquette have been proven in scientific studies that language is a great power and that proper mastery of language tools leads to success, prevents any conflict situations and helps to achieve success easily. Analysis of language as an activity performed by people in certain social situations, as a special form of social existence, forces a serious study of speech etiquette units. The theory of speech acts is the doctrine of the construction of a unit of speech communication, which is the actualization of a sentence, at the same time, speech communication is considered mainly as a form of manifestation of interpersonal relations. According to the rules of speech etiquette, complimenting and praising the appearance of the interlocutor is considered correct in terms of etiquette. This article analyzes politeness as a universal conceptual category, talks about politeness strategies in language culture and, accordingly, the relationship between language and culture, the manifestation of verbal and non-verbal units in language, the speaker's gratitude and the listener's response to it. how it is approached is described with examples.

Key words: cultural values, language units, actualization of the sentence, verbal and non-verbal tools, communicative purpose, moral culture, etiquette, behavior culture, politeness category.

СОЦИОКУЛЬТУРНО-ПРАГМАТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА РЕЧЕВОГО АКТА БЛАГОДАРНОСТИ

Аннотация

Культурные ценности и учения о речевом этикете в научных исследованиях доказывают, что язык является великой силой и что правильное владение языковыми средствами приводит к успеху, предотвращает любые конфликтные ситуации и помогает легко добиться успеха. Анализ языка как деятельности, осуществляемой людьми в определенных социальных ситуациях, как особой формы социального существования, заставляет серьезно изучить речевые этикетные единицы. Теория речевых актов – это учение о построении единицы речевого общения, представляющей собой реализацию предложения, при этом речевое общение рассматривается преимущественно как форма проявления межличностных отношений. По правилам речевого этикета, делать комплименты и хвалить внешний вид собеседника считается правильным с точки зрения этикета. В данной статье анализируется вежливость как универсальная концептуальная категория, говорится о стратегиях вежливости в языковой культуре и, соответственно, о соотношении языка и культуры, проявлении вербальных и невербальных единиц в языке, благодарности говорящего и реакции на нее слушателя. как к этому подойти, описано на примерах.

Ключевые слова: культурные ценности, языковые единицы, актуализация предложения, вербальные и невербальные средства, коммуникативная цель, моральная культура, этикет, культура поведения, категория вежливости.

Kirish. Nutqiy etiket birliklari tilning madaniy holatini aks ettiruvchi lingvopragmatik tadqiqning muhim masalalardan biridir. Bunday birliklar umumiy bir qolip asosida paydo bo'lmaydi, aksincha ular individual qonun-qoidalarga bo'ysunadi. Bunday birliklar umumiy bir qolip asosida paydo bo'lmaydi, aksincha, ular individual qonun-qoidalarga bo'ysunadi. Inson, boshqa tirik mavjudotlardan fikrlash va gapirish qobiliyati bilan ajralib turadi.. Muloqot

kognitiv va mehnat faoliyati bilan bir qatorda inson faoliyatining alohida turi bo'lib, u murakkab hodisadir. Ya'ni, muloqot ma'lum bir vaqt va makon o'lchovidagi shaxslararo o'zaro ta'sir jarayoni.

Tildan foydalanadigan odamlar o'rtasidagi har qanday munosabatlar juda ko'p umumiy xususiyatlarga ega, bu esa turli nonverbal belgilar yordamida aloqa tizimlarini o'rganishni taqozo etadi

Odob – har qanday shaxsning hati – harakatlarini ifodalaydi. Bu faqatgina dasturxon atrofida yoki ziyofatlarda emas, balki muomalada, suhbatda o'z aksini namoyon qiladi. “Etiket” atamasi dastlab Fransiyada Lyudovik XIV davrida paydo bo'lib, O'rta asrlarda Yevropada nafaqat madaniyat belgisi, balki kiborlar (aristokrat) va oqsuyaklarni oddiy xalqdan ajratib turuvchi odob qoidalari sifatida xizmat qilgan. Etiket – axloqiy madaniyatda yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabat ko'rinishlaridan biridir. U ko'proq insonning tashqi madaniyati, o'zaro munosabatlaridagi o'zini tutish qonun – qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun qoidalashtirib qo'yilgan hatti – harakatni taqozo etadi. Etiket qoidalari – odobga, odob xushxulqqa, xushxulq – axloqiylikka olib boradi. Binobarin, axloq-jamiat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy hatti – harakatlar yig'indisi, insoniyat kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa sifatida nafaqat shaxsni, balki butun bir jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, etiketni bugungi kunga kelib, texnika asri kishisining zamon talablariga javob beradigan madaniy – maishiy turmush tarzini go'zallashtirishga, o'zaro munosabatlar tizimini madaniylashtirishga xizmat qiluvchi fanning yangi tarmog'i deyish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida L.A.Kozlovskaya, Y.V.Mudrova, N.I.Formanovskaya kabilar etiket shakllarini tadqiq qilgan edi. Karasik, Grant Gino, Saberi kabi olimlar minnatdorchilik, xushmuomalalik kabi hayotimizning barcha jabhalarida mavjud bo'lgan omillar haqida tadqiqotlar olib borgan. Nemis tilshunosi va yozuvchisi Florian Kulmas esa minnatdorchilik obyektlarini tasniflash uchun to'rtta asosiy mezonlardan foydalanadi. Biz keyingi o'rinlarda yana bu haqida fikr yuritamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiyotlarni o'rganish jarayonida ushbu maqolada tavsiflash, tasniflash, komponent tahlil, taqqoslash, diskursiv tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Nutqiy etiket salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik va uning boshqa ko'rinishlarida namoyon bo'ladigan nutq odobiga asoslanadi. Chunonchi:

O'rtanib turgan yurakka suv sepa biladigan mana shu hamdard qalbingiz uchun rahmat [1].

Mayli, ishonching uchun tashakkur, do'stim! Adolatsizlik gardlarini kishi qalbidan yuvib tashlamoq ulug' baxt [2].

Nutqiy etiket birliklari bevosita xalqning madaniyati, mentaliteti, diniy qadriyatlarini, insonlarning ichki kechinmalari bilan bog'liqligi tufayli ularni lingvopragmatik jihatdan har tomonlama o'rganishni talab etadi. Minnatdorchilik nutqiy akti, birinchi navbatda, minnatdorchilik bildirish orqali namoyon bo'ladi, uning kommunikativ maqsadi suhbatdoshning o'zi uchun qilgan yaxshiligini qadrlashini ko'rsatishidir. Shu bilan birga minnatdorchilik, muallifning hissiy holatining namoyon bo'lishi va qabul qiluvchining his-tuyg'ulariga ta'sir qilishdir.

Rahmat! - Sherzod samimiy ohangda tashakkur bildirdi. – Hozir kechki ovqatga boramiz [3].

Barakalla, rahmat – dedi Binoiy qulluq qilib, - zavq bilan eshitdim, pishiq narsalar aytdingiz [4].

Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo'lsa ham suyakni tebratadi. Muomala odobi xususan, minnatdorchilik, kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyigaya qo'yishni, an'anaviy axloqiy – me'yoriy talablarini bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarini namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq

vositasida ro'y beradi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon bo'ladi. Minnatdorchilik so'zlovchi tomonidan aytilsa, tinglovchi tomonidan unga ta'sir etgani lisoniy birlik yoki noverbal birliklar orqali namoyon bo'ladi.

Ayol sekin –sekin nari ketayotgan edi, oqsoqol qulluq qildi. – Ispasiba, marja ! Go'st paydo'm. Ayol mungli kulimsirab qo'ydi [5].

“Qora amman” ayvonda o'tirib tugunini yig'ishtirdi. Mahsisini kiydi. Robi opamning peshonasidan o'pdi. Rahmat, qizim yuzimni yorug' qilding, - dedi ovozi titrab [6].

Demak, bir ovozdan! – shapkali kishi o'rmidan turib, Orif oqsoqolning qo'lini qisdi. - Rahmat, oqsoqol! Siz – barbir kolxozning otasi bo'lib qolasiz. Partiya sizga ishonadi [7].

Rahmat, ukam – Zakunchi uning yelkasiga qoqdi.- Dushmanga omonlik berma! – oxirgi gapini ayniqsa jarangdor ovozda aytdi. – Fashist bosqinchilariga o'lim! Yashasin o'rtoq Stalin [8].

Hayotimiz davomida bizga kattalar tomonidan atrofimizdagilarga minnatdorchilik bildirishimiz kerakligi aytiladi. Minnatdorchilikni bildirish o'zimiz va atrofimizdagilar uchun qila olishimiz mumkin bo'lgan eng yaxshi narsalardan biridir. Minnatdorchilik - bu doimiy ijobiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaradigan biror narsa yoki kimdir uchun shukronalik hissi. Bu bizga hayotimizdagi yaxshiliklarni tan olish va ularni ko'rish imkonini beradi. Psixologiyaga ko'ra, minnatdorchilik fidokorona harakatdir. Psixologlarning ta'kidlashicha, “minnatdorchilik odamlarga ular qadrlanishini ko'rsatish uchun so'zsiz amalga oshiriladi”[5;232]. Odamlarga ularni va qilgan ishlarini qadrlashimizni ko'rsatib, biz yangi va kuchliroq ijtimoiy aloqalarni shakllantirishimiz mumkin. Biz ular bilan muvaffaqiyatli bog'lanib, bir-birimizni tushunishimizni oshirib, biz bilan muloqot qilishlariga imkon berishimiz mumkin. Ushbu aloqalarni shakllantirish orqali biz ijtimoiy farovonlik darajamizni kengaytirishimiz va rivojlantirishimiz, hissiy, jismoniy va ruhiy salomatligimizni yaxshilashimiz mumkin. Minnatdorchilikni amalda qo'llash nafaqat bizning hissiy farovonligimiz, balki jismoniy va ruhiy farovonligimiz uchun ham foydalidir. 2019 yilda ko'krak bezi saratoni bilan kasallangan ayollarga minnatdorchilik bildirishning ta'sirini o'rganuvchi tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, minnatdorchilik ayollarning kognitiv qobiliyatlarini, o'zini o'zi qadrlashi va nekinlik tuyg'ularini yaxshilagan. Ayollarga har kuni o'z hayotidagi yaxshi narsalar haqida eslatilganligi sababli, ularning ruhiy salomatligi yaxshilandi.

Nemis tilshunosi va yozuvchisi, Florian Kulmas (9, 72) minnatdorchilik obyektlarini tasniflash uchun to'rtta asosiy mezonlardan foydalanadi: haqiqiy/potensial, moddiy/nomoddiy, so'ralgan/so'ralmagan va qarzdorlik/qarzsizlik mezonlari. U minnatdorchilik obyektlarini sakkizta guruhga ajratadi:

potensial minnatdorchilik: voqea oldidan minnatdorchilik bildirish (masalan, va'da, taklif, chaqirish uchun);

haqiqiy minnatdorchilik: tadbiridan keyin minnatdorchilik bildirish (masalan, taklif uchun (tadbir oxirida));

moddiy minnatdorchilik: biz olgan moddiy ne'matlar (masalan, sovg'alar, xizmatlar) uchun minnatdorchilik bildirish;

nomoddiy minnatdorchilik: biz olgan nomoddiy ne'matlar uchun minnatdorchilik bildirish (masalan, iltifotlar); so'ralgan minnatdorchilik: manfaat olishga intiluvchi shaxsning so'rovi natijasida yuzaga kelgan ba'zi harakatlar uchun minnatdorchilik;

so'ralmagan minnatdorchilik: xayr-ehson qiluvchi tomonidan boshlangan harakat uchun minnatdorchilik;

qarzdorlik minnatdorchiligi: qarzdorlik nazarda tutilgan minnatdorchilik;

qarzsiz minnatdorchilik: qarzdorlik nazarda tutilmagan minnatdorchilik. Kulmasning ta'kidlashicha, minnatdorchilik obyektining tabiati minnatdorchilik formulasini tanlashning yagona omili emas. Minnatdorchilik bir xil munosabatga ega bo'lgan suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabatlarda, ya'ni yaqin do'stlar, oila a'zolari, begonalar yoki ish beruvchi va xodim va boshqalar o'rtasida sodir bo'lishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Minnatdorchilik so'zlari nutq odobida muhim rol o'ynaydi, chunki ular ijtimoiy

muvozanatni tinglovchi o'rtasidagi munosabatlarni saqlashga xizmat qiladi. Minnatdorchilik aslida chin dildan bildiriladi. Shuning uchun u doim har qanday holatda ham samarali bo'ladi. Nutqiy muloqot jarayonida minnatdorchilik bir nechta pragmatik ma'no ifodalab keladi: suhbatni yakunlash, samimiy munosabat, shukronalik, rozilik. Shuningdek, etiketning o'ziga xos xususiyatlari, muloqot jarayonidagi o'rni alohida ta'kidlangan. So'zlovchining minnatdorchiligi va bunga tinglovchining munosabati ko'rsatib berilgan.

ADABIYOTLAR

1. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari.-B.7
2. Shuhrat . Jannat qidirganlar. –B.220
3. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi.-B.286.
4. O'tkir Hoshimov. Nur borki, soya bor. –B.14.
5. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi.-B.112
6. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi.-B.126
7. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi.-B.67
8. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi.-B.105
9. Бердникова А.Г. Концепт благодарность в русской языковой картине мира // Проблемы интерпретационной лингвистики. Новосибирск, 2000. - С. 34-41.
10. Дементьев В.В. Непрямая коммуникация и этикетные смыслы // Проблемы речевой коммуникации: Межвуз. сб. науч. тр. / Под ред. М.А. Кормилицыной, О.Б. Сиротининой. Саратов, 2005. - Вып. 5. - С.
11. Фролкина Л.В. Категория вежливости и национальная культура // От слова к делу. Сб. докл. М., 2003. - С. 376-381.
12. Hakimov M. O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari. – Toshkent, “Akademnashr”, 2013.
13. Hoshimov O'. Nur borki, soy bor. – Toshkent, 2016. – B. 14.
14. Iskandarova Sh. O'zbek nutqi odatining muloqot shakllari: Filol.fan.nomz. dis.avtoref. Samarqand, 1993. 87-b.
15. Coulmas, F. Poison to your soul: Thanks and apologies contrastively viewed. In F. Coulmas (Ed.). Conversational routine: Exploration in standardised communication situations and prepatterned speech / F. Coulmas // The Hague: Mouton de Gruyter, 1981. – P. 69-91.
16. Nizomiddinova, K. N., Shodiyeva, N. S., Alimova, K. G., Shonazarova, E. D., & Turakulovich, J. U. (2022). PRAGMALINGUISTIC FEATURES OF THE TYPES OF FATIK COMMUNICATION AND ABOUT COMPLIMENTS. International Journal of Early Childhood Special Education, 14(3).
17. Oybek. Navoiy. – T.: “Sharq” nashriyoti, 2004. – B. 277.
18. Toirova G., Orlova P. Minnatdorchilik nutqiy aktining ijtimoiy -madaniy xususiyatlari. Научные исследования и общественные проблемы. Volume3, Issue1,2024. –B. 96-100
19. Toirova G. Establishment of a national corpus the uzbek language is a requirement of a new era. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). Vol 10, Issue9, September, 2021
20. Тоирова Г. Лингвистик базани тузишда модуллаштиришнинг аҳамияти // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. –Наманган, 2021. – №3. -Б.377-386.
21. Toirova, G., & Namroeva, N. (2020). The importance of linguistic models in the development of language bases. Sciences of Europe, (59-2 (59)), 57-63.
22. Земская Е.А. Категория вежливости: общие вопросы. Национально-культурная специфика русского языка // Zeitschrift fuer slawische Philologie. Bd. 56. Berlin, 1997. - С. 271-302.



Tursunoy ERGASHEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: tursunoyergasheva83@gmail.com

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti xorijiy tillar kafedrasida dotsent Siyayeva G

SOLIQ XUJJATLARINI XALQARO ALMASHINUVINI PRAGMALINGVISTIK TAVSIFI

Аннотация

Ushbu maqolada soliq xujjatlarini xalqaro almashinuvini pragmalingsvistik tavsifiga bag'ishlangan. Globallashuv sharoitida soliq xujjatlarini xalqaro almashinuvini ahamiyati ortib bormoqda. Maqolada soliq xujjatlarini xalqaro almashuvini shakllanish va ularning pragmalingsvistik tavsifiga haqida ilmiy asoslar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Soliq xujjatlari, xalqaro almashinuvi, xalqaro soliq xujjatlari, globallashuv, jahon iqtisodiyoti, milliy iqtisodiyot, pragmalingsvistika.

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОБМЕНА НАЛОГОВЫМИ ДОКУМЕНТАМИ

Аннотация

Данная статья посвящена прагмалинговистическому описанию международного обмена налоговыми документами. В условиях глобализации возрастает значение международного обмена налоговыми документами. В статье представлены научные основы формирования международного обмена налоговыми документами и их прагмалинговистическое описание.

Ключевые слова: Налоговые документы, международный обмен, международные налоговые документы, глобализация, мировая экономика, национальная экономика, прагмалинговистика.

PRAGMALINGUISTIC DESCRIPTION OF THE INTERNATIONAL EXCHANGE OF TAX DOCUMENTS

Annotation

This article is devoted to the pragmalingsvistic description of the international exchange of tax documents. In the context of globalization, increasing the importance of international exchange of tax documents. The article presents the scientific basis for the formation of the international exchange of tax documents and their pragmalingsvistic description.

Key words: Tax documents, international exchange, international tax documents, globalization, world economy, national economy, pragmalingsvistics.

Kirish. Ma'lumki, bugungi kunda jadallik bilan rivojlanayotgan dunyo tilshunoslik sohalari rivojlanishni yangi bosqichiga chiqmoqda. Globallashuv sharoitida tadqiqotchilar tomonidan tilshunoslik sohasida nutq aloqasi muammolariga qiziqish juda yuqori bo'lmoqda. So'nggi yillarda tilshunoslik sohasida yangi bo'lgan fenomenologiya empirizm, pragmalingsvistika, konstruktivizm kabi falsafiy g'oyalarni o'zida jamlagan tahlil yo'nalishlari paydo bo'ldi. Yangi paydo bo'lgan yo'nalishlardan biri bu-pragmalingsvistika hisoblanadi. Pragmalingsvistika tilshunoslikda til, xulq-atvor, psixologiya va falsafa fanlari chorrahasida joylashgan yosh bilim sohalaridan biri hisoblanadi. Turli tillarda so'zlashuvchi insonlar konkret til orqali o'zaro munosabatlar haqida muloqot qilish, mavjud muammolar va kelishmovchiliklarni muhokama qilishi, bir biriga bo'lgan his-tuyg'ularini ifodalashi yoki birovning harakatiga baho berish uchun foydalanganligi sababli til insonlar muloqot uchun eng muhim vositadir.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlanishi natijasida soliq organlari, tadbirkorlar, soliq to'lovchilar mutaxassislar va jamiyatdagilarning soliq sohasiga bo'lgan katta qiziqishi natijasida ko'plab soliq atama va terminologiyasini o'rganish zarurati tug'ildi.

Soliq ma'lumotlarining xalqaro almashinuvini o'rganishga murojaat qilish soliq qonunchiligi normalarini qasddan bilmaslik, soliqlarning yetarli darajada to'liq va tezkor almashinuvi fonida turli soliq rejimlarini birlashtirish orqali soliqlarni agressiv optimallashtirish bilan bog'liq.

davlatlar o'rtasidagi ma'lumotlar jahon iqtisodiyotiga tahdid solmoqda.

Davlatlar o'rtasida soliq ma'lumotlarining tezkor almashinuvining yo'qligi davlatlarning o'zlari uchun ham, xalqaro iqtisodiy hamkorlik uchun ham juda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin, bu esa zararli soliq raqobatining muhim belgilaridan biridir. Bunday faoliyatni soliq rezidentsiyasi hududidan tashqarida amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlarga kirish, bir tomondan, soliq to'lashdan qisman yoki to'liq bo'yin tovlash maqsadida foydalaniladigan sxemalar aylanishiga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarning davlat organlari tomonidan amaliy amalga oshirilishini belgilashi mumkin bo'lsa, boshqa tomondan, soliq faoliyati ishtirokchilarini milliy va xalqaro qonunchilik talablariga rioya qilish uchun rag'batlantirish tizimini yaratish talab etiladi. Yuqorida keltirilganlarni inobatga olgan holda soliqqa oid xalqaro xujjatlarning pragmalingsvistik xususiyatlarini o'rganish katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Soliqqa oid xalqaro xujjatlarning pragmalingsvistik xususiyatlarini o'rganishdan avval xalqaro soliq xujjatlari, xalqaro shartnomalar turlarini ko'rib chiqamiz.

Soliqqa oid xalqaro shartnomalarni bitimlar, paktlar, konventsiyalar, deklaratsiyalar va boshqalar deb atash mumkin.

Ko'p tomonlama va ikki tomonlama xalqaro shartnomalar mavjud. Ikki tomonlama shartnomalar ikki davlat o'rtasida tuziladi, ko'p tomonlama shartnomalar esa 3 yoki undan ortiq davlat bilan tuzilishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar turlarini 4 guruhga bo'lish mumkin:[7]

1. Umumiy kelishuvlar. Mamlakatlarni soliqqa tortishning umumiy yondashuvlarini aniqlash.

2. Soliq shartnomalari. Ular ko'p tomonlama va ikki tomonlama bo'linadi, ular o'z navbatida uchta bo'linmaga ega: konvensiyalar – to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita soliqlar masalalari bo'yicha tavsiviyaviy xarakterdagi bitimlar; cheklangan shartnomalar - soliqning bir turiga nisbatan qo'llaniladi; soliq yordami bo'yicha shartnomalar.

3. Soliq masalalari bo'yicha kelishuvlar, masalan, imtiyozlar berish.

4. Maxsus shartnomalar. Muayyan xalqaro tashkilot uchun.

Xalqaro shartnomalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- soliq sohasida hamkorlik qilish, ayrim soliq imtiyozlarini berish to'g'risidagi bitimlar.

- Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi bitim.

- bilvosita soliqlar sohasidagi kelishuvlar, masalan, egri soliqlarni undirish tamoyillari.

Xalqaro ikki tomonlama soliqqa tortish - bu ikki davlatda birdaniga bitta soliq to'lovchidan bir ob'ekt va bir muddat uchun soliqlarni undirishdir. Bunday soliqqa tortish ortiqcha deb ham ataladi. Soliq to'lovlari, ob'ektlari va to'lash shartlari bir xil hisoblanadi

Ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish to'g'risidagi xalqaro konvensiyalarda tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan foyda, maxsus soliq rejimlarini o'rnatish zarur bo'lganda daromadning alohida turlari ajratiladi. Faoliyatning ayrim turlari uchun maxsus rejimlar qo'llaniladi. Bu turlarga quyidagilar kiradi:

- xalqaro miqyosda yo'lovchilar va yuklarni tashish;
- xalqaro kredit munosabatlari;
- investitsiya faoliyati;
- mualliflik huquqini moddiylashtirish;
- xorijda amalga oshirilgan tadbirkorlik faoliyati.

Tadbirkorlar uchun bunday rejim nafaqat narxlarni to'g'rilash uchun, balki soliq organlari uchun boshqa mamlakatda ushbu tadbirkorlarning daromadini aniqlash juda qiyin bo'lgani uchun ham joriy etiladi.

Soliq xujjatlarini xalqaro almashinuvini pragmalinqvistik tavsifi xalqaro soliq hujjatlari kontseptsiyasini belgilovchi pragmalinqvistik terminologik iboralarni o'rganishdan iboratdir. Bu kontseptsiyani tanlash bir necha asosiy sabablarga ko'ra bo'lgan. Birinchidan, muhim xususiyat uning ham huquqiy, ham iqtisodiy soliq tavsifida ishlashidir. Ikkinchidan, ushbu tushunchani tavsiflash uchun turli xil yangi lingvistik usullar qo'llaniladi, bu uning ahamiyatini ko'rsatadi. Uchinchidan, yetarlicha keng sinonimik qatorning mavjudligi, bir tomondan, ushbu kontseptsiyani ko'rsatadigan birliklarning ham integral, ham differentsial xususiyatlarini aniqlash va ular vakili bo'lgan aqliy shaxslarni, xususan, rus va o'zbek soliq terminologiyasini ingliz tilida chuqurroq tushunish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi[8].

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida Soliq deganda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi[9].

Rossiya Federatsiyasining Soliq kodeksida soliq deganda davlat va munitsipalitetlarning faoliyatini moliyaviy

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. www.lex.uz
2. Cambridge University <https://www.cam.ac.uk/>
3. Налоговый кодекс Российской Федерации <https://www.nalog.gov.ru>.
4. Terms of Reference to Monitor and Review Progress towards Transparency and Exchange of Information on Request for Tax Purposes (2016) [Text]. – Paris: OECD Publishing, 2016.
5. Маслова А.Ю. Введение в прагмалinqвистику / А.Ю. Маслова. // – М.: изд. «Флинта», изд. «Наука», 2008.

ta'minlash maqsadida mulkchilik, xo'jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqida ularga tegishli bo'lgan mablag'larni begonalashtirish shaklida tashkilotlar va jismoniy shaxslardan undiriladigan majburiy, yakka tartibda tekin to'lov. [10].

Kembrij universitetining ta'riflari lug'atida soliqning quyidagi tavsifini beradi: sizning daromadingiz yoki siz sotib olgan tovarlar yoki xizmatlar narxiga asoslangan hukumatga to'lanadigan pul miqdori [11].

Xulosa. Soliqlar va soliqqa oid atamalarini o'zbek, rus va ingliz tillaridagi ma'nosi turlicha ekan. Bu esa o'z navbatida Soliq xujjatlarini xalqaro almashinuvini pragmalinqvistik tavsifini aniqlashda qiyinchilik keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham Soliq xujjatlarini xalqaro almashinuvini pragmalinqvistik hususiyatlarini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Tarjimaviylikka erishish uchun asos soliqning universal funksiyasida yotadi, u tegishli atama tizimlarini shakllantirishda asosiy tushuncha bo'lib xizmat qiladi va farqlar quyidagilar bilan belgilanadi:

- huquq manbalari;

- soliqlarni yig'ish va to'lashning kommunikativ holati kontseptsiyasini institutsionalizatsiya qilish; ishtirokchilarning maqomi, soliq majburiyatlari va soliq nazorati to'g'risida tushunchalar, maqsadlar, maqsadlar va foydalaniladigan vositalar;

- huquq haqidagi qoidalar va huquq va huquqbuzarlik tushunchalarini farqlash;

- har bir alohida davlatda soliqlarning har xil tabaqalanishi;

- soliq rejimini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari:

- til egalari qonunchiligida soliq qonuni mavjud bo'lsa, Buyuk Britaniyada u huquqning maxsus tarmog'i sifatida ajratilmagan. Shuning uchun rus va o'zbek tillarida tegishli terminologiya soliq huquqi terminologiyasi, ingliz tilida esa soliqqa tortish terminologiyasi deb yuritiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillarida nominatsiyaning tarkibiy turlarini qiyosiy va tipologik tahlil qilish quyidagi tillararo bog'liqliklarni aniqlash imkonini berdi:

- Sodda so'z-terminlar - ekvivalentlar yoki to'liq tarjima yozishmalar:

- Hosil va qo'shma so'zlar – tengdoshlar yoki to'liq tarjima muvofiqliklari:

- Termin birikmalari - ekvivalentlar, yoki to'liq tarjima yozishmalar:

Demakki, tahlil qilinayotgan tillarda xorijiy soliq terminologiyasini olish sof lingvistik va ekstralingvistik omillarga bog'liq bo'lib, asosiy rolni ikkinchisi o'ynaydi. Ingliz tilidagi soliq terminologiyasining alohida birliklarini rus va o'zbek tillariga o'zlashtirish jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy tildan tashqari omil so'nggi iqtisodiy va huquqiy o'zgarishlar hisoblanadi. Uning xalqaro iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sohaga kirishi bilan bog'liq jarayonlar ham muhim rol o'ynaydi, bunda ingliz tili xalqaro aloqa vositasidir.

O'zbek, rus va ingliz tillarida soliq atamalar, tillararo o'xshashligi har bir til uchun atama yasashning eng takroriy usullaridan foydalanishda namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi ko'p miqdordagi soliqqa oid atamalarini boshqa tillarga joriy etilganligi avvalombor ushbu tilning so'z boyligining o'ziga xosligi bilan izohlanadi, ularning shakllanishiga uzoq vaqt davomida bir nechta xorijiy manbalar ta'sir ko'rsatgan.

6. Terms of Reference to Monitor and Review Progress towards Transparency and Exchange of Information on Request for Tax Purposes (2016) [Text]. – Paris: OECD Publishing, 2016.
7. Terms of Reference to Monitor and Review Progress towards Transparency and Exchange of Information on Request for Tax Purposes (2016) [Text]. – Paris: OECD Publishing, 2016.
8. Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику / А.Ю. Маслова. // – М.: изд. «Флинта», изд. «Наука», 2008.
9. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. www.lex.uz
10. <https://www.nalog.gov.ru/html/nk.htm> Налоговый кодекс Российской Федерации
11. <https://www.cam.ac.uk/> University of Cambridge



UO‘K: 811.133.1’25:659.1

Sohiba YUNUSOVA,
O‘zbekiston Davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
E-mail: sohibayunusova007@gmail.com

O‘zDJTU dotsenti (DSc) A.Mo‘minova taqrizi asosida

DISTINCTIVE CHARACTERISTICS OF ADVERTISING TEXTS DIRECTED TO MEN IN FRENCH AND UZBEK LANGUAGES

Annotation

This article aims to determine the attitude of foreign and domestic scientists to advertising in world linguistics and to analyze the theoretical views of linguists about advertisements. The tasks of our research are to determine the methods of presenting advertisements aimed at men in French and Uzbek to the addressee and the methods of researching the language tools that represent them.

Key words: advertising, information, communication, character, addressee, addressee, effect, standard, expressiveness, image, analysis.

ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ, НАПРАВЛЕННЫХ МУЖЧИНАМ НА ФРАНЦУЗСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Цель данной статьи – определить отношение зарубежных и отечественных ученых к рекламе в мировой лингвистике и проанализировать теоретические взгляды лингвистов на рекламу. Задачи нашего исследования заключаются в определении способов представления адресату рекламных объявлений, ориентированных на мужчин, на французском и узбекском языках и методов исследования репрезентирующих их языковых средств.

Ключевые слова: реклама, информация, коммуникация, характер, адресат, адресант, эффект, стандарт, выразительность, образ, анализ.

FRANSUZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI ERKAKLARGA QARATILGAN REKLAMA MATNLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola dunyo tilshunosligida xorijiy va mahalliy olimlarning reklamaga munosabatini aniqlash va tilshunos olimlarning reklamalar haqidagi nazariy qarashlarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotimizning vazifalari fransuz va o‘zbek tillarida erkaklarga qaratilgan reklamalarni adresatga taqdim qilish usullari va ularni ifodalovchi til vositalarini tadqiq qilish usullarini aniqlashdan iborat.

Kalit so‘zlari: reklama, axborot, kommunikatsiya, xarakter, adresat, adresant, ta‘sir, standartlik, ekspressivlik, tasvir, tahlil.

Kirish. Reklama dunyoning aksariyat mamlakatlarida keng qo‘llaniladigan adresant va adresat o‘rtasidagi aloqa vositasidir. XXI asrni reklama sanoatisiz tasavvur qilish qiyin. So‘nggi yillarda reklama jamiyatda shunchalik ommalashib ravnaq topdiki, u kundalik hayotimizdan mustahkam o‘rin egalladi. Uning shu darajada rivojlanib, ommalashishida rangli bosma nashrlarning rivojlanishi, kompyuter texnologiyalari va Internetning paydo bo‘lishi va shiddat bilan ommalashuvi, sun‘iy yo‘ldosh aloqasining yanada rivoj topishi kabi omillar ta‘siri muxim ro‘l o‘ynadi.

Biroq bir necha o‘n yillar oldin, reklama hozirgidek dolzarb aloqa vositasi hisoblanmagan va shu bois uni o‘rganish uzoq vaqt davomida olimlar e‘tiboridan chetda qoldi. Vaqt o‘tishi bilan reklama o‘rganildi, ammo an‘anaviy ravishda tadqiqotchilar uni iqtisod va marketing doirasida o‘rgandilar. Keyinchalik reklama tilshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, jurnalistika, pragmatika va boshqa fan yo‘nalishlari kabi gumanitar fanlarning tadqiqot obyektiga aylandi. Hozirgi vaqtda “reklama” atamasining ta‘rifiga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, bu bir tomondan, hodisaning murakkabligini, ikkinchi tomondan esa, uning asosiy belgilari bo‘yicha turli nuqtai nazarlarning mavjudligini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ko‘plab olimlar reklamani o‘z ilmiy qarashlari nuqtai nazaridan kelib chiqqan

holda turlicha tushuntirishga uringanlar. Kimdir reklama tushunchasiga lingvistik nuqtai nazaridan kelib chiqib yondashgan bo‘lsa, boshqa bir olim marketing nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda yondashgan. Va shu sabab reklama tushunchasiga ta‘rifalar turli xil ko‘rinishlarda paydo bo‘lgan.

Fransuz tilshunosligida reklama tadqiqotlari asosan klassik ritorika nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotchilar Jan Mishel Adam va Mark Bonhom reklama nutqida ishlatiladigan ritorik janrlarni aniqlagan [Adam J., Bonhomme M., 2007; 238]. Asosan reklama matni an‘anaviy tarzda adresant va adresat o‘rtasidagi aloqa vositasi nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Keyinchalik esa, faqatgina 2000-yillarning boshlariga kelib fransuz tilshunosligida reklamaga gender nuqtai nazaridan qiziqishlar uyg‘ongan va uni ko‘plab tilshunos olimlar tamonidan chuqur o‘rganib tadqiq qilishlar boshlangan.

O‘zbek tilshunosligida esa reklama bilan bog‘liq tadqiqotlar asosan, ijtimoiy-falsafiy va psixologiya fanlari sohasida olib borilmoqda. Misol uchun N.J. Chinniqulov monografiyasida va B.X. Abdullayev “O‘zbek reklama lingvistikasi: nazariya va amaliyot” nomli ilmiy tadqiqotida reklamaning turli shakllari haqida so‘z yuritilgan [Chinniqulov N., 2019; 12-13; Abdullayev B., 2020; 11-12].

Tadqiqot metodologiyasi. Erkaklar va ayollar o'rtasida nafaqat fiziologik, balki ruhiy va ijtimoiy farqlarning mavjudligi jins va gender tushunchalarini farqlashning boshlanishini belgilab berdi. Erkaklar va ayollar nutqiy maqomining farqlanishi sotsial-lingvistik adabiyotlarda uzoq vaqtdan beri qayd etilgan, erkaklar va ayollarning nutq xatti-harakatlaridagi muayyan farqlar isbotlangan. Gender tadqiqotchilari, jumladan R. Lakof ayollarning suhbatdoshga duch kelganda tez-tez savol berishlarini, suhbatni davom ettirishga, birdamlikni ifoda etishga va suhbatdosh bilan o'zaro ijobiy kayfiyat hosil qilishga intilishlarini, so'z birikmalari va olmoshlar shaklida minimal javoblar bilan suhbatdoshga taqlid qilishlarini va "jim norozilik" strategiyasini qabul qilishlarini aniqladi. Erkaklar esa ko'pincha suhbatdoshlarning so'zlarini to'xtatadilar, kamdankam hollarda hamsuhbatlarining so'zlariga rozi bo'ladilar, suhbatning boshqa ishtirokchilarining mulohazalarini e'tiborsiz qoldiradilar yoki ishtiyoqsiz munosabatda bo'lishadi, suhbat mavzusini, shu jumladan, mavzuning rivojlanishi va o'zgarishini to'g'ridan-to'g'ri fikr bildirishi va fakt haqida xabar berish orqali qattiqroq nazorat qiladilar [Lakoff R., 1973; 49-55]. Quyidagi tendensiya ham qayd etilgan: erkaklar nostandart tildan foydalanishga ko'proq moyil, ayollar esa standartni saqlashga intilishadi.

Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, so'zlovchining identifikatsiya qilinadigan belgilari majmui muayyan dialekt va sotsiolektga mansublik belgilari bilan bir qatorda aniqlangan seksiolekt xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi [Потанова P., 2000; 137-150] degan fikr tarafdori bo'lamiz.

Tahlil va natijalar. Erkaklar uchun mo'ljallangan reklama haqida gapirganda, shuni ta'kidlash joizki, ko'plab mezonlar va ko'rsatkichlarga ko'ra, u gender neytralligiga yaqin deya izohlanadi. Bu erkaklarga xos xususiyatlarni ko'pincha aniq belgilanmaganday talaffuz qilinishiga va natijada ushbu reklamalarni erkaklarga ham, ayollarga ham qaratilgan reklamada ko'rinishiga sabab bo'ladi. Biroq shunga qaramay, erkaklar uchun mo'ljallangan reklama bir qator muhim jihatlarga ega: ushbu turdagi reklama erkaklarga tegishli degan zaruriy urg'u (aksent)ni o'zida ifodalay oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, birinchi navbatda, erkaklar uchun mo'ljallangan reklama ayollarnikidan reklama matnlarining lug'atlarini tanlashda farqlanadi. Erkaklar uchun mo'ljallangan reklama matnlarida asosiy urg'u adresatning psixologik xususiyatlariga e'tibor beriladi. Erkaklarga qaratilgan reklamadagi erkak tasvirlari, bir tomondan, ko'p sonli psixologik turlar bilan ifodalanadi, boshqa tomondan, bu xususiyatlarning barchasi faqat turli erkak stereotiplarini ta'kidlash bilan ifodalanadi.

Erkaklar uchun mo'ljallangan reklamalar, xuddi ayollar uchun mo'ljallangan reklamalar kabi muayyan xususiyatlarga ega. Shuning uchun erkaklar auditoriyasi uchun mo'ljallangan reklamalarda, odatda, televizor, kompyuter, maysazorlarda odatiy mehnat faoliyatlari bilan shug'ullanayotgan erkakni namoyish qilish texnikasi ustunlik qiladi. Erkaklar uchun eng keng tarqalgan reklama – mukammal do'st yoki tinchlantirish kerak bo'lgan yirtqich sifatida tasvirlangan avtomobil reklamasidir. Bu yerda ustunlik va obro' (prestij) g'oyasi ta'kidlangan. Ushbu turdagi reklamalar kuch, iroda va boshqa ko'plab erkak fazilatlarini ifodalaydigan so'zlardan foydalanish bilan tavsiflanadi. Misol uchun:

De l'audace nait l'excellence. (Yangi DS 7 Crossback avtomobili reklamasi);

N'en faites qu'à votre style. (Yangi Taigo avtomobili reklamasi).

Ba'zi reklama yaratuvchilari erkaklar auditoriyasiga mo'ljallangan reklama uchun mahsulot ishlab chiqaruvchilarda yosh ko'rsatkichlari va ko'p yillik tajribaga

qiziqish unchalik muhim ahamiyatga ega emas, deb hisoblaydilar. Biz esa aksincha, psixologik jihatdan, erkaklar auditoriyasiga mo'ljallangan reklama uchun mahsulot ishlab chiqaruvchilar yosh ko'rsatkichlari va ko'p yillik tajribaga ahamiyat qaratishi lozim, deb hisoblaymiz.

Shunday qilib, erkaklar uchun mo'ljallangan reklamalar gender jihatdan neytralligiga qaramay, bir qator xususiyatlar va o'ziga xosliklarga ega degan xulosaga keldik. Shuni ta'kidlash joizki, "erkak" reklama sloganlari ixchamligi va muayyan chaqiruvni bildiruvchi undov ellipsning mavjudligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmat qaysi auditoriyaga qaratilganligi reklama matnning to'g'ridan-to'g'ri murojaatida yoki ma'lum bir qo'llanilgan lug'at birliklarini o'z ichiga olgan matnning lingvistik xususiyatlari majmuasida namoyon bo'lishi mumkin. Ya'ni, bu o'rinda reklamaning gender yo'nalishi ko'rsatkichi muhim rol o'ynaydi, bu esa o'z navbatida erkak nutqining xususiyatlaridan, shuningdek, aloqa taktikasidan foydalanishga yordam beradi. Bu, shuningdek, erkak auditoriyaga xos bo'lgan ma'lum lug'atdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi esa albatta erkak xarakterlaridan kelib chiqqan holda o'z yo'nalishlarida tanlanadi.

Fransuz tilidagi erkaklarga qaratilgan reklamalar ishtirokchilardan ko'ra ko'proq o'ziga jalb qilishga intiladi. Va bu o'rinda biz fransuz reklamalarida millat san'ati va madaniyatining barcha soxalaridan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Fransiyada ular "chiroyli reklama" keltiradigan katta zavq odamlarni reklama qilinayotgan mahsulotni sotib olishga undashi mumkin, deb hisoblaydilar. Fransiyada birinchi navbatda reklama g'oyasini topishga intiladilar va shundan keyingina uning mavjud mahsulot strategiyasiga hissa qo'shayotganini tekshiradilar.

O'zbek tilidagi erkaklarga qaratilgan reklamalar esa imkon qadar xizmat yoki mahsulot to'g'risida ko'proq ma'lumot berishga xarakat qiladilar. Milliylikni saqlashga, mentalitetga xos so'zlardan foydalangan xolda adresatni ishtirokchilarga bor kuchlari bilan intiladilar. Tadqiqotlarimiz mobaynida hamda jamlangan reklamalarni tahlil qilish jarayonida har ikki davlat reklama yaratuvchilari ham erkak auditoriyasi uchun maxsus reklamalar tayyorlash uchun millat mentaliteti hamda erkak xarakteridan foydalanganiga guvoh bo'ldik.

Reklama matnlarini yaratuvchilar mahsulot yoki xizmat sotuvining maksimal bosqichiga ko'tarilish uchun xaridorlarning ongiga ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar. Reklama texnologiyasi odamni nozik manipulyatsiya qilishi va xatti-harakati hamda qadriyatlarini o'zgartirishi mumkin. Xaridorda tovar haqida to'g'ri taassurot qoldirish uchun to'g'ri usullar tanlansa va albatta bu jarayonda erkak xakteri inobatga olinsa reklama iste'molchiga yanada samarali ta'sir ko'rsatadi. Xaridorning jinsi ma'lum bir mahsulot reklamasida bo'lgan afzalliklarga ta'sir qiladi va bu bilan birga unga mos reklama matnlari manbasini tanlash, erkakda reklama qilingan mahsulotga bo'lgan ishonchni uyg'otadi. Ko'plab mahsulotlar uchun jins muhim mezonidir. Bunday mahsulotlar qatoriga kosmetika, maishiy buyumlar, zargarlik buyumlari, xo'jalik mahsulotlari va shunga o'xshash boshqa mahsulotlarni kiritish mumkin.

Shuni e'tiborga olish kerakki, reklama matnining gender yo'nalishini aniqlashning muhim ko'rsatkichi ushbu reklama xabarini qabul qiluvchining dunyosini aks ettiruvchi leksik birliklar va stereotipik gender xususiyatlari hisoblanadi. Erkaklar uchun mo'ljallangan reklamaning ayollarnikidan asosiy farqi reklama xabari manzilining ruhiyati va ijtimoiy pozitsiyasining xususiyatlarini hisobga olgan holda ustunlik-birdamlik, ratsionallik-emosionallik mezonlari bo'yicha kuzatish mumkin. Erkaklar uchun mo'ljallangan reklamaning

lingvistik xususiyatlariga aniq jumlar tuzilishi, dalillarga asoslangan isbotlarni taqdim etish kiradi. Misol tariqasida quyidagi reklamalardan na'munalarni keltirib o'tamiz:

Renouez avec plaisir! (Volkswagen-avtomobil reklamasi);

Une bonne journée demande un bon peau! (Biotherme Homme-kosmetika maxsuloti reklamasi);

Total perfector. Hydratant optimisateur de peau. (Biotherme Homme-kosmetika maxsuloti reklamasi);

New life-muammoingiz yechimi! (Yangi turar joylar reklamasi);

Eco dry-tanangiz terlashga qarshi yetti kun himoyada! (parfumeriya maxsuloti reklamasi);

Yuqorida keltirilgan fransuz tilidagi reklamalarda ham, o'zbek tilidagi reklamalarda ham reklama matnini yaratishda ortiqcha bo'yoqdor so'zlar aniq va tushunarli jumalardan foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari yana ushbu reklamalar erkak auditoriyasi uchun mo'ljallanganligini inobatga olib erkakka hos leksik birliklardan (perfector, hydratant, optimisateur, yechim kabi) foydalanilganini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga adresatga dalillarga asoslangan isbotlar (demande un bon peau, optimisateur de peau, muammoingiz yechimi, yetti kun himoyada) ham taqdim etilgan.

Erkaklar uchun taqdim etilgan reklama ma'lum leksik birliklarni, reklama matnini tuzishda mantiqni o'z ichiga oladi. Bu xususiyatlar erkak reklama matnlarining xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Erkaklar nominatsiyasi reklama xabarini oluvchi obrazning stereotipik xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Erkaklar uchun mo'ljallangan reklamanning axborot vositasi – bu haqiqat, siyosat, biznes, madaniyat – ya'ni real hayotdagi narsalardir.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, erkaklarga qaratilgan reklamalarda odatda maishiy texnika maxsulotlari, mashinalar, parfumeriya maxsulotlari, shuningdek, boshqa mahsulot va xizmatlar reklamalari ustunlik qilsa, ularni

yaratishda esa inobatga olingan erkak xarakterining-jiddiylik, professionallik, sarguzashtnamolik, shaxvoniylik kabi fazilatlar ustunlik qiladi. Avtomobil va u bilan bog'liq xizmatlar reklamalariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, ushbu reklama matnlarida erkak xarakterining barchadan ustuvor bo'lishlik va shuxratparastlik hamda obro'talablik jihati inobatga olingan holda mahsulot reklamasi yoritiladi. Ushbu turdagi reklama matni pragmatik xususiyatlarni ta'kidlaydigan nominal jumalardan foydalanish bilan tavsiflanadi:

Hybride Toyota. La révolution silencieuse. (avtomobil reklamasi);

BYD HAN. Orzularingizni yarating! (avtomobil reklamasi);

Xulosa va takliflar. Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasiga ko'ra, erkaklarga qaratilgan reklama matnlarida erkak xarakteridan kelib chiqqan holda ko'proq oilaparvarlik, do'stlik, sarguzashtnamolik, shahvoniylik kabi fazilatlarini o'zida ifodalovchi nominatsiyalar ustunlik qiladi. Bunday nominatsiyalar erkaklar uchun mo'ljallangan reklama matnlarida asosiy gender stereotiplarini o'zida aks ettiradi. Erkaklar uchun taqdim etilgan reklama ma'lum leksik birliklarni, reklama matnini tuzishda mantiqni o'z ichiga oladi. Bu xususiyatlar erkak reklama matnlarining xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Erkaklar nominatsiyasi reklama xabarini oluvchi obrazning stereotipik xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Erkaklar uchun mo'ljallangan reklamanning axborot vositasi – bu haqiqat, siyosat, biznes, madaniyat – ya'ni real hayotdagi narsalardir. Reklamalarda yuqori darajadagi gender yo'nalishining asosiy xususiyati qabul qiluvchining dunyosini aks ettiradigan erkak nutqi leksikasiga xos lug'at hamda stereotipik gender xususiyatlarini o'z ichiga oladi deb hisobladik. Va albatta erkaklarga qaratilgan reklamalarni yaratishda erkak xarakterining roli muxim degan xulosaga keldik.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev B. O'zbek reklama lingvistikasi: nazariya va amaliyot. filol. fan. bo'yicha falsafa doktori dis. avtoref. – Andijon. 2020.
2. Adam J. M., Bonhomme M. L'argumentation publicitaire. Rhétorique de l'éloge et de la persuasion. – Paris: Armand colin, 2007.
3. Lakoff, R. Language and Woman's Place. – New York: Harper & Row, 1975.
4. Потапова, Р. Секслект как составляющая экспертной фоноскопии в криминалистике. Гендер: язык, культура, коммуникация. Первой Междунар. Конф. – Москва, 2000.